

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK**

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

**COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES**

2023 Vol. 3 (3)

**www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir kengashi

Islomjon Yoqubov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatoeva, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Gulnoraxon Niyazova, Ra'noxon Xudjayeva, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Shahnoza Asqarova, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – filologiyaning ayni sohalarini qamrab olgan "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlctscls@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy editor-in chief:

Uzok Djurakulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboeva

Executive secretary:

Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Islomjon Yoqubov, Bahodir Holiqov, Komiljon Hamroev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidakhon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Gulnoraxon Niyazova, Ra'noxon Khudjayeva, Yulduz Ziyaeva, Zulfiya To'xtakhadjaeva, Shahnoza Asqarova, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillaev.

About the Journal

Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literature Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be Uzbek, English and Russian. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

TAQRIZ

Uzoq Jo'raqulov

Matn nazariyasi istiqbollari (Professor Shuhrat Sirojiddinovning "Amir Alisher" kitobi haqida).....8

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Иманғазы Нұрахметұлы, Uzoq Jo'raqulov

Қазіргі заманғы Қазақ романдары хақында.....16

Olmos Xurramov

Tarixiy hikoya imkoniyatlari.....23

Komiljon Hamroyev, Shahnoza Siddiqova

Hikoya syujetining nazariy talqinlari.....29

Yulduz Ziyayeva

"Sarob" romanida "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi.....40

Nilufar Jumayeva

"Askar mukofoti" asarida avtobiografik romanga xos xususiyatlar.....46

Osiyo Siddiqova

Satira va yumorga oid ayrim mulohazalar.....54

Gulhayo Isabayeva

"Ona" obrazi tasvirlangan zamonaviy qissalarda syujet tiplari.....61

Sanobar Saydazimova

Zamonaviy qissalarda paranormal epizod tasviri.....72

Munira Niyazova

Rus adabiyotshunosligida sentimentalizm.....79

Nigora Samandarova

Tarixiy shaxs va tarix haqiqati ifodasida an'anaviy motivlar talqini.....85

JAHON DRAMATURGIYASI: TARJIMA VA ILMIY TALQIN

Dilafruz Ochilova

Ingliz klassitsizm dramasi intertekstuallikning sharqona motivi.....96

Nafisa Tursunova

Shekspir dramaturgiyasida telba obrazining badiiy talqini.....104

SHARQ VA G'ARB LIRIKASI MUAMMOLARI

Sevinchoy Yoqubova

Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin.....111

E'zoza Bozorova

Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatida ayol ruhiyatining metaforik talqini124

Shalola Davletova

Muhammad Yusufning "Uyqudagi qiz" she'ri tahlili.....132

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Ulug'bek Yo'ldoshev

Badiiy tarjimada emotivlik kategoriyasining frazeologik birliklar yordamida namoyon bo'lishi.....138

Muxtasar Abdullayeva

O'zbek mehmondo'stligiga oid so'zlarni badiiy tarjimada qayta yaratish148

Dilnoza Umirzaqova

Animatsion filmlar tarjimasining ayrim muammolari.....158

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Gulnoraxon Niyazova

Sherlok Xolmsning nutqida pragmatik diskurs tahlili.....166

Sayyora Shodmonova

O'lchov birliklarining pragmatik xususiyatlari.....177

Nargiza Yusupova

Zamonaviy ta'limning samarali usullari va komponentlari.....186

Zebiniso Bekturodova

Xizmatning rasmiy darajalari va vazifaviy turlari.....193

Diyora Bobonazarova

Mediadiskurs – interpretatsiyaning yangicha usuli sifatida.....204

Shaxzoda Xamroyeva

Muallif mushohadasi terminining mohiyatini aniqlash.....211

Shahnoza Nazarova

Nutq etiketi va muloqot uslubining ilmiy-nazariy asoslari.....219

CONTENTS

REVIEW

Uzok Djurakulov

Perspectives of text theory (about the book «Amir Alisher» by Professor Shuhrat Sirojiddinov).....8

TYPOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

Imangazi Nurakhetuli, Uzok Djurakulov

About modern Kazakh novels.....16

Olmos Khurramov

Potential for narratives about history.....23

Komiljon Hamroev, Shahnoza Siddiqova

Theoretical interpretations of the plot of the story.....29

Yulduz Ziyayeva

The image of a “lady-love, suitor, rival” in the novel “Mirage”40

Nilufar Djumaeva

Characteristics of an autobiographical novel in the “Soldiers’ pay”46

Osiyo Siddikova

Some comments on satire and humor.....54

Gulhayo Isabaeva

Types of plot in modern stories describing the image of the mother.....61

Sanobar Saydazimova

Description of the paranormal episode in modern short stories.....72

Munira Niyazova

Sentimentalism in Russian literary studies.....79

Nigora Samandarova

Interpretation of traditional motifs in the statements of historical figures and historical facts.....85

WORLD DRAMATURGY: COMPARATIVE ANALYSES AND TRANSLATION

Dilafruz Ochilova

The oriental motif of intertextuality in the drama of English classicism..96

Nafisa Tursunova

Interpretations of the character of the madman in Shakespeare’s dramaturgy104

THE ISSUES OF POETRY OF WESTERN AND EASTERN COUNTRIES

Sevinchoy Yoqubova

Symbols in Jadid poetry: semiotic and hermeneutic interpretation.....111

E'zoza Bozorova

Metaphorical interpretation of the female psyche in Qutlibeka Rahimboyeva's poetry.....124

Shalola Davletova

Analysis of the translation a poem "Sleeping girl" by Mukhammad Yusuf132

TRANSLATION AND TRANSLATION STUDIES

Ulugbek Yuldoshev

Representation of the category of emotion expressed in phraseological units in literary translation.....138

Mukhtasar Abdullaeva

The problem of re-creating peculiarities of Uzbek hospitality in literary translation148

Dilnoza Umirzakova

Some issues in translation of animated films.....158

CONTRASTIVE LINGUISTICS

Gulnorakhon Niyazova

A Pragmatic Discourse Analysis of Sherlock Holmes' Speech.....166

Sayyora Shodmonova

Pragmatic features of units of measurement.....177

Nargiza Yusupova

Effective methods and components of modern education.....186

Zebiniso Bekmurodova

Formal levels and functional types of chiasm.....193

Diyora Bobonazarova

Media discourse as a modern way of interpretation of social texts.....204

Khamroeva Shakhzoda

Determination of the essence of author's mediation.....211

Shahnoza Nazarova

Scientific and theoretical foundations of speech etiquette and communication style.....219

TAQRIZ

Matn nazariyasi istiqbollari
*(Professor Shuhrat Sirojiddinovning “Amir Alisher”
kitobi haqida)*

Uzoq Jo'raqulov¹

Hazrat Navoiy hayoti va ijod yo'li tashqaridan qaraganda ko'p-u xo'b o'rganilgandek tuyulsa-da, navoiyshunoslikning chala, ayni paytda, e'tiborsiz qoldirilgan muammolari hamon yetarlicha. Agar biz navoiyshunoslik tarixini, yondashuv usullari va xarakterga ko'ra, taqriban XV asrdan XIX asr oxirlarigacha bo'lgan milliy-sharqona navoiyshunoslik, jadid navoiyshunosligi, sovet navoiyshunosligi, mustaqillik davri o'zbek navoiyshunosligi, xorij navoiyshunosligi tarzida davrlashtiradigan, umumiy ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mutafakkir ijodini tadqiq etish ko'lami risoladagidek ekaniga ishongandek bo'lamiz. Biroq talqin darajasi, usullari, manba va matnlar ishonchliligi, metodologik o'ziga xoslik, retseptiv funksiya nuqtayi nazaridan yondashilganda bu ishonchimizga darz ketadi. Negaki, bugunga kelib, klassik navoiyshunoslikning faqat manbaviy-tekstologik omilga aylangani, jadid navoiyshunosligi Navoiyga o'z davri va ijtimoiy-siyosiy oqim talablari e'tibori bilan qaragani, sovet navoiyshunosligi esa “sosmaterialistik metod” qoliplaridan chiqqan bo'lgani, 90-yillar boshidan bugungacha bo'lgan o'zbek navoiyshunosligi metodologiyasizlik sindromini boshdan kechirgani ma'lum bo'ladi. Xorij navoiyshunosligining asosiy kamchiligi Navoiy tili va estetikasini mohiyatan anglamaslik bo'lishi bilan birga, uni ham yuqoridagi to'rt davr navoiyshunosligi qusurlaridan holi deb bo'lmaydi.

Qayd etilgan ushbu muammolar yangi adabiyotshunoslik oldiga bir savolni ko'ndalang qo'yadi: bugungi o'zbek navoiyshunosligi qaysi yo'ldan borishi kerak?

¹ Jo'raqulov Uzoq Haydarovich – filologiya fanlari doktori, professor. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0003-4835-0694

Iqtibos uchun: Jo'raqulov, U. 2023. “Matn nazariyasi istiqbollari (Professor Shuhrat Sirojiddinovning “Amir Alisher” kitobi haqida)” *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 8-15.

Javob esa oddiy: tarixiy poetikaning fundamental nazariy xulosalariga tayanuvchi yoki Navoiy ijodi asosida metodologik bazasini qurgan yangi o'zbek navoiyshunosligi shakllanishi lozim. Bu jarayon, birinchi navbatda, matnshunoslik va Navoiy biografiyasini mukammal ishlashdan boshlanishi joizki, professor Shuhrat Sirojiddinovning "ADABIYOT" nashriyotida chop etilgan "Amir Alisher" (Toshkent, 2023. – 200 b.) asarini shu ulkan maqsad sari qo'yilgan xayrli qadamlardan deyish mumkin.

Shuhrat Sirojiddinov qariyb 30-35 yillardan beri navoiyshunoslikning fundamental muammosi – Navoiy biografiyasi va ijodiga doir birlamchi manbalar ustida ishlab keladi. Olimning o'n ikki yilcha oldin "Akademnashr"da chop etilgan "Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" (Toshkent, 2011. – 326 b.) monografiyasida esa saksondan ortiq arab yozuvidagi manbalardan foydalanilgan. Ayni manbalar amaliy va nazariy matnshunoslik kontekstida qiyosiy-tipologik tahlil etilgan. Kitobda istifoda qilingan manbalar noyob, ayni paytda, Navoiy biografiyasiga oid ma'lumotlarni qamrab olgan bilan muhimdir. "Amir Alisher" kitobi ushbu manbalarining muallif nuqtayi nazariga ko'ra yangilangan, chuqur tahlil va xulosalar, nazariy tezislarga to'yintirilgan yangicha talqinidir.

Kitob ikki qismdan tarkib topgan. Birinchi qism "Alisherning yoshligi", ikkinchi qism "Amir Alisher va saroy" deb nomlanadi. Boblarning ayni tarzda nomlanishidan muallif bu kitobida ham Navoiy shaxsiyati va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga urg'u bergan bo'lsa kerak, degan tasavvur uyg'onadi. Ammo kitob mazmuni bilan chuqur tanishgan o'quvchi muallifning manbalar sharhi va tasnifi yo'lidan emas, ilmiy-tekstologik tahlil, qiyosiy-tipologik talqin, umumlashtiruvchi mantiqiy xulosa yo'lidan borganiga amin bo'ladi.

Xo'sh, kitob muallifiga bu tahlit yondashuv nimaga kerak bo'ldi?

Bizningcha, buning birinchi sababi, navoiyshunoslikning yuqorida sanab o'tilgan muammolari, ya'ni kitob muallifini navoiyshunoslik, xususan, Navoiy biografiyasiga doir qator chalkashlik va xatoliklar shunday yo'l tutishga olib kelgan. Ikkinchi sababi haqida kitobning kirish qismida shunday deyiladi: "...bu kitobda muallifning oldin e'lon qilgan ishlariga *ayrim sabablarga ko'ra kiritishning iloji bo'lmagan*, shuningdek, aniqlashtirilish nuqtayi nazaridan qo'shimcha izlanishni talab qilgan yangi ma'lumotlar qo'shib, ixcham ko'rinishda taqdim etildi" (6-bet. Ta'kid bizniki, U.J.).

Kitobda Alisher Navoiy biografiyasiga tegishli qator xatoliklarga aniqlik kiritilgan, ularning sabablari o'rganilib, qiyos asosida xulosalar chiqarilgan. Xatolarga oydinlik kiritish kitob oldiga qo'yilgan asosiy muammo desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu jihat asarning ilk sahifalaridan boshlanib, so'nggi sahifasigacha izchil davom etgan. Bir narsani alohida ta'kidlash lozim, muallif Navoiy biografiyasi manbalari, ularni o'qish, ilmiy talqinlash jarayonlaridagi noaniqliklar haqida so'z yuritganda vallomatlik qilmaydi, yuqoridan turib gapirmaydi. Aksincha ilmiy etika, ziyoliga xos kamtarlikni mahkam tutadi. Adabiyotshunoslikning muhim etik talabi tarixiylik tamoyiliga amal qiladi. Yuqorida "kirish so'zi"dan iqtibos qilingan *"ayrim sabablar"*ni esa navoiyshunoslikda yo'l qo'yilgan qator xatoliklarni oldinroq aytishning iloji bo'lmagani, bu masalada muallifning sharqona odob qoidasiga rioya qilganidan, deb tushunsak to'g'ri bo'ladi.

Ibrat bo'ladigan jihati, muallif o'zga navoiyshunos olimlar xato-kamchiliklarinigina emas, o'ziga tegishli xatolarni ham ko'ra oladi. Ko'rish barobarida tan olishdan ham qo'rqmaydi. O'z xatosini tan olish qo'rquv uyg'otadigan darajada dahshatli qadam emas aslida. Buning qahramonlikka dahldor joyi ham yo'q. Voqean, kechirim so'ragan, xatosini tan olgan odam, buning aksini qilgan odamga nisbatan ko'proq yutuqqa erishadi. Ruhiyati yengillashadi, o'z-o'ziga hurmati oshadi, jamiyat ichida obro'yi yuksaladi. Ammo, negadir iqrorlik tomon odimlash ko'pchiligimiz uchun mashaqqat bo'lib tuyuladi. Aldamchi g'urur shu joyda bizni mag'lub etadi. Shuning uchun ham "Amir Alisher" kitobi muallifining iqror tomon qo'ygan bu qadamini kamida tabriklash lozim.

Muallif muqaddam yo'l qo'ygan bir xatosi haqida shunday yozadi: *"Fursatdan foydalanib, mendan o'tgan bir xatolik haqida eslatib o'tishim o'rinli.* 2019-yil "Ma'naviy hayot" jurnalida chop etilgan "Navoiy Hirotda tug'ilganmi?" nomli bir maqolamda "Navoiy Sovada tug'ilgan bo'lishi mumkin", degan bir ilmiy farazni o'rtaga tashlagan edim. Gap shundaki, Xondamir qalamiga mansub "Ravzat us-safo" yettinchi jildiva "Xulosatul-axbor" Navoiyga baxshida etilgan. Uning uchinchi asari – "Habib us-siyar" ancha yil o'tib tugallangan bo'lib, bu asarga safaviylardan bo'lgan Habibulloh Savajiy homiylik qilgan. Bu asarlarning xotima qismlari juda o'xshash. Xondamir oldingi ikki asarida Navoiy nomini tilga olish odobdan sanalmagani uchun turli epitelar qatorida "sohibdavlat" atamasini ishlatgan. Shu atama "Habib us-siyar"da sovalik Habibulloh Savajiyga nisbatan ham qo'llangan. Unda "Sohibdavlatning tug'ilgan yeri Sovadir"

degan jumla mavjud. *Navoiyga big'ishlangan konferensiya uchun maqola tayyorlash jarayonida qo'limdagi xotimalarning fotonusxa varaqlari aralashib ketib, shoshilinchda uning Sovada tug'ilgani haqidagi qayd Navoiyga aloqador deb tushunganman*" (7-bet. Ta'kid bizniki, U.J.). Albatta, bu Navoiy biografiyasiga oid jiddiy muammo edi. Shunday bo'lgach, xatoni o'nglamaslikning oqibatlari o'z-o'zidan ma'lum. Ayni paytda, iqtibosda keltirilgan muallif iqroring kelajak navoiyshunoslari uchun ibratli tomoni ham bor: qo'lyozmalar bilan ishlayotgan mutaxassis yetti o'lchab, bir kesishi lozim.

"Amir Alisher" asarining faktik xatoliklarga oydinlik kiritish missiyasini, bizningcha, quyidagi asoslarga ko'ra e'tirof etish lozim. Avvalo, kitob muallifi davr, muallif, yozuv shakliga ko'ra xilma-xil matnlarni bexato o'qish tajribasini mukammal egallagan. Tadqiqotga XV asrdan XIX asr oxirlarigacha mavjud Navoiy shaxsiyati va ijodiga tegishli qo'lyozma manbalarining imkon doirasida jalb etilgani, ularda aks etgan kichik qaydlargacha e'tiborga olingani, to'g'ri o'qib, ilmiy muomalaga olib kirilgani, qiyosiy tahlil etilgani shundan dalolat beradi. Ikkinchidan, o'rganilgan qo'lyozmalarning aksariyati fors tilida yozilgan. Kitob muallifi grammatik qurilishi, ifoda tarzi, fonetik xossalari o'z ona tilidan keskin farqlanuvchi qadimiy matnlarni bexato o'qish barobarida, ularning tarjimasini ham o'zi amalga oshirgan. Asarda biror forscha iqtibos yo'qki, muallif boshqa mutaxassis tarjimasidan foydalangan bo'lsin. Uchinchidan, o'zigacha Navoiy shaxsiyatiga doir matnlar bilan shug'ullangan mutaxassislar ishlarini sinchiklab o'rgangan. Ular murojaat etgan manbalar, bildirgan fikrlar, chiqargan xulosalarni qiyosiy-tekstologik tahlil qilgan. To'rtinchidan, muammo yechimida maksimal aniqlikka erishish uchun to'rt muhim faktorga tayangan: a) Navoiy hayoti va ijodiga doir noyob manbalar; b) asl manbalar ta'siri, ularning tadrijiy jarayonlariga oid qo'lyozmalar; v) Navoiyning o'z asarlaridagi faktik ma'lumotlar; g) XX asrdan keyingi navoiyshunoslik materiallari.

Navoiyshunoslik tarixida buyuk mutafakkir haqida aytib ketilgan xato fikr va qaydlar kam emas. Bu jarayonda sovet davri navoiyshunosligi dominant maqomda turishi, buning ostida g'arazli maqsadlar yotgani esa kundek ravshan. Qizig'i shundaki, nainki o'tgan asr, hatto XX asrgacha bo'lgan navoiyshunoslik manbalarini ham bunday noaniqlik va xatoliklardan holi deb bo'lmas ekan. Muallif qalamiga mansub "Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili", "Amir Alisher" va boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan tanishgan o'quvchi bunday dalillarning ko'piga duch keladi.

Bir misol. Mashhur Mirzo Haydar Do'g'lotning Navoiy

vafotidan uch-to'rt yil o'tib yozilgan "Tarixi Rashidiy" asarida "Navoiy asli uyg'ur baxshilaridan edi", degan qayd ketgan ("Amir Alisher", 10-bet.). "Amir Alisher" kitobi muallifi ushbu ma'lumotning xatoligini aytish bilan cheklanmaydi, balki uning qanday sabablarga ko'ra paydo bo'lgani, ildizlari qayoqqa borib taqalishigacha asoslaydi. Bunda "Tarixi Rashidiy" muallifi biografiyasidan tortib, Ali Yazdiy "Zafarnoma" sigacha, Xondamirning Mirzo Haydarga doir qaydlaridan XVI – XX asrlar oralig'ida yozilgan "Bahr ul-asror", "Tom ut-tavorix", "Tazkirat ush-shuaro" va yigirmanchi asrda (Buxoro) maydonga kelgan Ziyo Sadr tazkirasigacha murojaat qiladi. Mirzo Haydar ma'lumotining millatga emas, kasbga doirligini, Navoiy ajdodlarining saroy kotibliги bilan shug'ullanganlari shunday xato talqinga olib kelgani haqida xulosa chiqaradi. Xulosasida mantiqan inkor etib bo'lmaydigan bir dalilga – Navoiyning o'z so'zlariga tayanadi: "Navoiyning o'zi ota-bobolarini temuriylar saltanatida "Ulug' marotibg'a sazavor va biyik manosibg'a komgor bo'lg'on eidilar" degan ekan, birinchi navbatda, uning o'ziga ishonmoq kerak" (12-bet), deb yozadi bu haqda olim.

Kitobda Navoiyning bolaligi, yoshlik va yigitlik yillari xususida ham tahliliy kuzatishlar olib borilgan. Ota va ona tomon ajdodlari o'tmishidan so'zlovchi manbaviy dalillar muqoyasa etilgan. Yangi xulosalar chiqarilgan. Bunday qiziqarli tafsilotlar bilan tanishish, ular haqida mushohada yuritishni o'quvchining o'ziga qoldirib, Navoiyning yigitlik davri bilan bog'liq bir tarixiy dalil ustida muxtasar to'xtalsak. Biz, ya'ni Navoiy avlodlari hali-hamon ulug' allomaning xijolatsiz taqdim etish mumkin bo'lgan real, barcha fazilatlarini uyg'unlashgan universal portretini bashariyatga taqdim eta olganimiz yo'q. Shu sababdan Navoiy portreti Gomer, Dante, Rumi, Firdavsiy, Shekspir, Servantes, Gyote, Pushkin, Dostoyevskiy portretlari oldida qimtinibroq turadi. Albatta, "portret" deganda biz Navoiyning rassomlarimiz kimlargadir soqol bog'lab "ijod etgan" suratlari-yu, film va spektakllarda taqdim etilgan obrazlarni nazarda tutmayotganimizni zukko o'quvchi yaxshi tushunayotgan bo'lsa kerak. Zotan, bu shunday portretki, uni hatto Navoiy zamondoshi Kamoliddin Behzod ham chiza olmagan bo'lardi. Bu shunday bir portretki, uni chizishda ijtimoiy-siyosiy tarix, falsafa tarixi, madaniyat va din tarixi, san'atning har olti turi, xususan, millatning barcha vakillari ishtiroki lozim. Bugun biz avlodlarga taqdim etayotgan Navoiy portretida esa qisman rus mustamlaka olimlari, xorij sharqshunoslari, o'zbek sovet navoiyshunosligi, adabiyotshunosligi va adabiyotining chizgilarigina bor, xolos. Shularning oqibati o'laroq

Navoiy portreti zamonaviy dunyo o'quvchisi qarshisiga xijolatsiz, ochiq yuz bilan chiqa olmayapti. Chunki mutafakkirning jahon ahliga biz taqdim etgan portreti o'ta rasmiy, qoliplarga solingan, bir planli portretdan boshqa narsa emas. Shuning uchun bu portret na avliyo, na so'fiy, na shoir, na mutafakkir, na davlat arbobi, na ko'ksida buyuk, jo'shqin yurak urib turgan tirik odam portretiga o'xshaydi... Sabablarning sababi esa biz Navoiyga ruscha aytganda – gramatniy yondashmasligimiz, uning shaxsiyati, hayot yo'liga doir manbalarni o'rganmaganimizda. Holbuki, Navoiy biz yashab turgan, hatto yaqin o'tmishdagi bobolarimiz turmush kechirgan sivilizatsiyalashgan, tinch, xotirjam bir muhitda yashamagan. Temuriylar tanazzuli yuz berayotgan, yashash uchun jada ko'p bilim-u hunarlarni bilish lozim bo'lgan muhitda shakllangan. Tom ma'noda o'z muhitining, o'zi mansub tarixiy vaziyatning odami bo'lgan. Mobodo, bugun bizning tarix ilmimiz, adabiyotshunosligimiz, roman-u qissalarimiz, kino va teatrlarimiz, rassomlik san'atimiz chizgan Navoiy portretini XV asr muhitiga eltib qo'yadigan bo'lsak, bu Navoiy o'z muhitida bir lahza ham yashay olmas edi.

Bataxqiqi, Navoiy o'z muhiti va tarixiy vaziyatining odami edi. U shariat buyurganidek yashagan, so'fiy o'laroq bir dona bodom, bir ko'za suv bilan chilla o'tirgan ("Qut bir bodom edi..." Navoiy g'azalidan), saroy muhiti ichra "ajdaho komida" hayot kechirgan, harbiy-siyosiy majlislarida qatnashgan, mushoiralar o'tkazgan, ilmiy bahslar olib borgan, otda, tuyada, aravada yurgan, chanqoq, ochlik, qum bo'ronlari, sel va sovuqlarni boshidan o'tkazgan (Bularni boryo'g'i XXI asr fabrikalashgan odamining mayda tasavvuri, Navoiy muhitining yuzdan bir ulushi deb tushuning.).

Endi o'ylab ko'raylik, shunday muhitda yashagan Navoiy dunyoga biz taqdim etib kelayotgan portret singari mujmal bo'lishi mumkinmi (Bu gap faqat Navoiyga emas, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur Ko'ragon, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi o'nlab ajdodlarimizga ham tegishli!)?!

"Amir Alisher" ktobidagi faktga qaytamiz. Kitob muallifi Navoiy shaxsiyati va muhiti haqida keltirilgan qator manbaviy dalillar orasida quyidagi tarixiy epizodni ham keltirib o'tadi: "Makorim ul-axloq"da "Husayn Boyqaroning Balx atroflariga bostirib kirish voqealari bayoni"da Alisher Navoiy nomi ikki joyda eslatiladi. Birinchisida Sulton Ahmad Husayn Boyqaro hujumini daf etish uchun Ahmad Hojibek qo'mondonligi ostida qo'shin yuborganda

qo'mondon qarorgohida Alisher Navoiy ham borligini ko'ramiz. Ikkinchisida o'sha paytlarda *Alisher lashkarboshi Sulton Husayn Arhangiy navkari bo'lib turgani* aytiladi" (Ta'kid bizniki, U.J. 42-43-bet.). "Navkar" bugungi til bilan "oddiy askar" degani bo'ladi. Askar esa jang qilishi, buning uchun jang san'atini mukammal egallagan bo'lishi kerak. Zero, jang maydonida urush qoidalari rioyasi bilangina jon saqlash mumkin. Senga tomon ot solib, qilich o'ynatib kelayotgan raqibga qarata so'zni emas, qilichni yalang'ochlashga to'g'ri keladi. Tasavvur qilish mumkinki, Alisher Navoiy bunday real vaziyatlarga bir marta tushmagan...

Shu o'rinda kitob muallifining navoiyshunoslar va oddiy o'quvchi o'rtasida zarbulmasal bo'lib yuradigan Navoiy va Binoiy munosabati haqidagi xulosasini ham keltirib o'tish joiz ko'rinadi. Ma'lumki, Binoiy o'zini Navoiy qarshisidagi chechan raqib deb bilgan. Bunday chechanlik, til botirligi orqasida qanday kuch turgani haqida, mayda gaplarni uncha xushlamagan, tarix kitoblari sukut saqlaydi. Binoiy bu ishi bilan mutafakkir ko'nglini ranjitgan o'rinlari ham ko'p bo'lgan. "Amir Alisher" kitobida o'rganilishicha, shuncha qilmishlariga qaramasdan Navoiy Binoiyga nisbatan kek saqlamagan. Undan har qachon yordami va iltifotini ayamagan. O'ziga nisbatan nonko'rlik qilgan o'rinlarda ham uni kechirgan. Tazkirasiga kiritgan. Binoiy ta'rifini berganida birorta salbiy sifatlash qo'llamagan. Kitob muallifi ayni dalillarni keltirar ekan, bu haqda quyidagi xulosani ilgari suradi: "Binoiy iqtidorli forsiyzabon shoir bo'lgan. Ehtimol turkiy she'riyatning ravnaqi uning yuksalishini chegaralab qo'yishidan xavotirlanish Binoiyda Navoiyga nisbatan adovat paydo qilgandir" (55-bet.). Xulosa ko'p jihatdan Oybek xulosasiga yaqin. Faqatgina bu xulosada, odob yuzasidan bo'lsa kerak, "hasad" so'zi ishlatilmagan, xolos.

Shuningdek, kitobda Navoiyning bolaligi, uning Taft, Mashhad, Samarqand, Sabzavor safarlari bilan bog'liq haqiqatlar, Navoiy va saroy muhiti, Navoiy va Sulton Husayn munosabatlari, uning do'stlari, raqiblari, turmush tarzi, fe'l-atvori, mol-mulki, siyosiy faoliyati kabi o'nlab masalalar ushbu asarda qayta o'rganilgan. Manbalar haqiqatiga ko'ra talqin etilgan.

Umuman, "Amir Alisher" kitobi haqida hali ko'p gapirish mumkin. Uning bugungi navoiyshunoslik ravnaqiga muhim hissa qo'shishi, shoir biografiyasini yangi va salmoqli dalillar bilan boyitgani, asl manbalarga asoslanishi, asarda tarixiy matnlarni talqin etishga oid yangi ilmiy prinsiplar ishlab chiqilganligi, nazariy jihatdan qiyosiy-tekstologik tahlil metodini mukammallashtirishga

oid yutuqlar, muallifning milliy pozitsiyasi; kitob uslubi, talqin yo'liga doir ayrim kamchiliklar va hokazo... Biroq eng yaxshi xulosa – o'quvchining shaxsiy xulosasi degan aqidaga amal qilib, kitob muallifiga ijodiy, o'quvchiga esa ma'naviy ravnaq tilasakda, so'zimizni shu joyda yakunlasak.

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

**Қазіргі заманғы Қазақ романдары
хақында**Иманғазы Нұрахметұлы¹Uzoq Jo'raqulov²**Abstrakt**

Mazkur tadqiqotda roman janrining maydonga kelish tarixi, uning turkiy nasr, xususan, romanchiligidagi transformatsion jarayonlari haqida fikr yuritiladi. Ayni nazariy kuzatuv, xulosa va konsepsiyalar zamonaviy qozoq romanlari tahliliga ko'ra amaliy adabiyotshunoslik sathida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: *Roman, janr, konsepsiya, romanga xos so'z, roman tafakkuri, roman qahramoni, syujet, kompozitsiya, epik konsepsiya, arxitektonika, roman turlari va shakllari, psixologik roman, tarixiy roman, maishiy roman, milliy roman, modernistik roman, postmodernistik roman.*

Роман XX ғасырда пайда болған жас жанр болса да, қазір Қазақ әдебиетінің басты жарнына айналды. Сондықтан, Қазақ романдарын түрге, дәуірге бөліп зерттеу қажеттілігі туып отыр. Қазақтың осы заманғы романдары әлі толық зерттеліп болған жоқ. Осы заманғы роман деп қандай романдарды айтамыз, ол қай кезеңнен басталады? Нені өлшем етеміз? Бұл сұрақтарға жауап табу қиын.

Кейбір зерттеушілер Тәуелсіздіктен кейін жазылған романдарды қазіргі заман романдары деп атайды. Уақыт тұрғысынан қарағанда орынды пікір. Алайда мынадай мәселеге де көңіл бөлген жөн. Тәуелсіздіктен кейін жазылған романдардың өзін екіге бөлуге болады. Бірінші Тәуелсіздіктен

¹ Иманғазы Нұрахметұлы – Л.Н. Гумилев атындағы Еуразия ұлттық униерситетінің ғылыми кітапханасы ғылыми қызметкер, филология ғылымдарының кандидаты. Қазақстан. Астана

E-pochta: library@enu.kz

ORCID ID: 0000-0002-0703-3142

² Jo'raqulov Uzoq Haydarovich – filologiya fanlari doktori, professor. AlisherNavoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0003-4835-0694

Iqtibos uchun: Нұрахметұлы, И., Jo'raqulov, U. 2023. “Қазіргі заманғы Қазақ романдары хақында” *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 16-22.

кейін жазылған, өткен заман авторларының романдары. Екінші, тәуелсіздіктен кейін әдебиетке келген авторлардың романдары. Біз оның қайсысын осы заман романы дейміз? Айталық, Ж. Сәмитұлының «Қаһарлы Алтай», «Тәкман батыр», Қ. Жұмәділовтің «Дарабоза», «Қыл көпір», «Таңғажайып дүние» М. Мағауиннің «Жармақ», «Мен», «Шыңғысхан», Қ. Мырзалиевтің «Иірім», Тұрысбек Сәукетаевтің «Мен-жындымын», Асқар Алтайдың «былғары табыт» т.б. романдарын айтар болсақ, бұл авторлардың бәрі де совет одағы кезінде әдебиетке келген жазушылар.

Әдебиеттегі өзгеріс өте ұзақ уақытты қажет ететін және қоғамдық өзгеріспен бір уақытта жүзеге аспайтын күрделі үрдіс. 40 немесе 50 жыл әдебиетке өзгеріс әкелмеуі де мүмкін. Сондықтан, әдебиеттегі жаңалықты бір жылдан немесе белгілі бір оқиғадан бастау әділдік емес.

Егер Қазақ романдарын шартты түрде бірнеше кезеңге бөлсек, алғаш жазылған романдар ХХ ғасырдың 20 жылдарынан бұрынғы М. Дулатовтың «Бақытсыз жамал», С. Көбеевтің «Қалың мал», С. Торайғыровты «Қамар сұлу» т.б. Бұлардың көбі жанрлық табиғаты толық жетілмеген, көркемдік деңгейі аса жоғары емес, фолклорлық үлгіде жазылған шығармалар.

Екінші кезең ХХ ғасырдың 20-60 жылдар арасын қамтиды. Ж. Аймауытовтің «Ақбілек», М. Әуезовтің «Қилы заман», «Қараш-Қараш», «Абайжолы», Ғ. Мүсіреповтің «Оянған өлке», «Қазақ солдаты», С. Мұқановтың: «Ботакөз», «Мөлдір махаббат» т.б. романдар.

Қазіргі қазақ романдары арнайы зерттеген М. Қамзин Қазақ романдарының стилдік ерешеліктері мен типологиялық байланыстарын талдай келе, 60 жылдардан кейін жазылған романдарды осы заманғы романдар деген тұжырым жасаған. Бұл кезеңде романшылық біршама дамыды. Қазақ прозасына Еуропралық әдебиетіндегі психологизм келді. Әрине, психологиялық романның басы 20 жылдардағы Ж. Аймауытовтың «Ақ білек» М. Әуезовтің «Қилы заман», «Қараш-қараш», романдарынан басталғаны шындық. Сондықтан «Мұқтар Әуезов шығармаларының қазақ әдебиетіне әкелген жаңалығы психологиялық талдау тереңдегі» [1, 85 б].- деп бағалаған. Дейтұрғанмен кейіпкер психологиясын ауш 60 жылдардан кейін жалпылық сипат алып, қазақ романдарының басты ерекшелігін айқындайтын белгіге айналды, психологиялық романдар көбейді. Соның арқасында «Төл әдебиетіміз

бұрынғы фолклорлық қалыптан шықты, көп салалы, көп жанрлы профессионал әдебиетке айнала бастады»[2, 10 б]. Бұған Қ. Жұмділовтің «Соңғы көш», Ғ. Мүсіреповтің «Ұлпан», М. Мағауиннің «Сары қазақ», «Шахан шері», Ә Нұрпейісовтің «Қан мен тер», А. Алтайдың «Былғары табыт» т.б романдар дәлел.

60 жылдардан бастап тарихи тақырыпқа жазылған романдардың саны да, сапасы да арта түсті, көркем әдебиетте тарихтың тұтас картинасы жасалды. 20 жылдарда да тарихи тақырыпта жазылған «Қилы заман», «Қараш-қарашы» сияқты романдар болғанмен санаулы ғана еді. Ал, 60 жылдардан кейін тарихи романдардың тақырып ауқымы кеңіп, мазмұны тереңдей түскенін көреміз. Арғы ескі замандардағы батырлар мен хандардың, таяу замандардағы ұлт көшбасшыларының образдары жасалды. М. Қамзиннің: «Тарихи тұлғалар өмір шындығы, заман шындығы, тарихи роман І. Есенберлин есімімен байланысты» [2, 13 б]. - деуі орта ғасыр тарихына арналған романдар туралы өте орынды пікір. «Қазақ совет әдебиетінде қазіргі кезде байқалатын ұнамды тенденциялардың бірі көне дәуір оқиғалары мен тарихи адамдар өмірінің көркемдік ақиқатын айтуға ұмтылу» [1, 138 б].

І. Есенберлиннің «Көшпенділер» (Алмас қылыш, Жанталас, Қаһар) роман трилогиясы Алтын орда, қазақ хандығы кезеңіне арналса, М. Мағауиннің «Аласапыран» романында 17 ғасыр оқиғалары суреттелген. Әбіш Кекілбаевтің: «Үркер», «Елең алаң» романдары мен Қабдеш Жұмәділов «Дара боз» романы Абылай дәуірінен сыр шертеді. Ал Қ. Жұмәділовтің «Тағдыр», Ғ. Мүсіреповтің «Жат қолында» романдарына ХІХ сағыр соңындағы қазақ өмірі арқау болған.

Тәуелсіздіктен кейін жазылған Ж. Сәмиұлының «Қаһарлы алтай» романының мазмұны ХХ ғасырдың 30-40 жылдары Шығыс Түркістанда болған қазақтың ұлт азаттық соғысы. Тұрсынхан Қайыркеннің «Көк бөрілердің көз жасы» Шығыс хан заманының, «Мәңгі тас» көне түркілердің, «Аттила» романы бесінші ғасыр оқиғаларын сөз етеді. Иманғазы Нұрахметұлы «От пен су» роман-эпопеясында Ғұндар тарихын сөз етіп, Мөде хағанның өмірі мен саяси күрестерін суреттеген. Б. Тамашевский әлем әдебиетіндегі роман түрлерін мазмұнына қарай: «абантюрлік, тарихи, психологиялық, сатиралық, фантастикалық, публицистикалық, сюжетсіз романдар» - деп жіктесе, Л.И. Тимопев: мазмұнынан және тақырыбына қарай Философиялық, тұрмыстық, семьялық, өндірістік, әлеуметтік,

психологиялық, авантюрлік, детективтік, қызық оқиғалы романадар»,- деп жіктейді. Қазіргі Қазақ әдебиетінен сюжетсіз романнан басқа түрлерінің бәрін табуға болады.

Қазақ әдебиетінде тарихи роман жазудың жақсы дәстүрі қалыптасқан. Ол әліге дейін үзілген жоқ. М. Әуезов, І.Есенберлин, Ж.Сәмитұлы, Қ. Жұмаділов, М. Мағауин, Ә. Кекілбаев т.б. жазушылар бастаған романшылық И. Нұрахмет. Т. Қайыркен сияқты осы заман жазушыларына жалғасып отыр.

Жалпы Қазақ романдарының басты табысы тарихи романдар. Тарихи тақырыпты меңгеру жағында әрине әр автордың өз жолы, өз ұстанымы бар. Мысалы «Есенберлин өмір шындығы мен көркем шындықтың арасы алшақ болмауына көп көңіл бөлді»[2, 14, б]. Бірақ бұл барлық жазушыға ортақ қағида емес. Бір жазушы тарихи деректерге көбірек көңіл бөлуі мүмкін. Бір жазушы тарихи деректерді көркемдік тұрғыдан игеруге шебер болуы ықтимал. Қалай дегенмен дерек тақырыпты ашуда қолданылатын құрал ғана, басты мәселе сол деректерді қалай қолдануда. Сондықтан кейбір тарихи романдар тарихи оқиғаларды баяндау мақсатында жазылса, кейбір жазушылар тарихи тақырыпты болашақ үшін, бүгінгі күн үшін жазады. Өйткені біз тарих үшін өмір сүрмейміз, болашақ үшін өмір сүреміз. Профессор М. Мырзахметұлының: «От пен су» тарихи тақырыпқа жазылған бүгінгі заманның және келешектің романы» [3] дегені бұл роман туралы асыра мақтауда шығар, бірақ, тарихи романдарға қойылатын басты талап болуға тиіс.

Қысқасы 60 жылдардан бастап қазақ жазушылары роман жазудың батыс әдебиетіндегі әдістер терең меңгерді. Қазіргі қазақ романдарына тән артықшылықтар осылар.

Тәуелсіздік жылдарда жазылған романдардың артықшылығы тақырып жаңашылдығы. Бұрынғы тыйым салынған тақырыптарда романдар жазылды. Сондықтан жаңа романдардың мазмұны жаңарып байый түсті. Ж. Сәмитұлының «Қаһарлы Алтай» романы қазақ әдебиетіне қосылған үлкен олжа деуге болады. Роман тақырбы ХХ ғасырдың 30-40 жылдарындағы Шығыс түркістандағы ұлт азаттық қозғалыс, бас кейіпкері Оспан батыр, тілі бай, сюжеті шымыр. Мо Ян айтқандай: «оқиғасы, кейіпкері және идеясы тығыз [4, 116] шығарма. Кейіпкер образының шынайылығы мен даралығы сонша, әр кейіпкер өмірде бар адамдай, өз жаныңда жүргендей таныс және өз болмысымен оқырманды баурап алады. Тарихи романның да, психологиялық романның да тамаша үлгісі

болатын, әлемдегі озық романдардың деңгейіне көтерілген көп қатпарлы шығарма.

Осы заман тақырыбына жазылған романдардың көркемдік деңгейі совет одағы кезіндегі романдардан жоғарлай қойған жоқ. Оның нақты себептері бар.

Бірінші жазушылар романның талабын сақтамайтын болды. 10 беттік, 15 беттік 20-30 беттік романдар жазылып жүр. Роман қысқа болса жақсы, алайда, оның да шегі бар. Романның табиғаты, талаптары сақталу керек. Қытай жазушысы Мо Ян: қалыпсыз қысқа романдардың пайда болуы «мода қуушылықтың үстем орынға шығуымен, баспа жұмысымен мүддемен, жеңілтек мінездермен сол сияқты басылымдарды дыбыс-кескін, кино табақшаларына ұрлап басумен байланысты»[4, 10-б],-дейді. Роман ұзын болса оқылмайды деушілер де бар. Бұл әрине шартты пікір. «Оқитын адам роман қанша ұзақ болса да оқиды, оқымайтын адам жарты беттік дүниеңе де көз салмайды»[4, 10-б]. Романның ұзын болуы оның табиғаты. «Ұзындық нақты нәрсе, тырнаның сирағы сияқты ұзындық, ол – қашанда ұзын болады, ол – ұзын болмаса болмайтын, міндетті ұзындық»[4, 11 б].

Екінші, кейіпкер образын жасауға көңіл бөлінбейді. Соның салдарынан көркемдік әлсіреп барады. «Көркем шығарма композициясының айрықша көрінетіні эпикалық жанр»[5, 89-б],-дейді, ал образдың даралығын көрсеттетін жанр роман.

Үшінші, прозада жанрсыздану процесі жүріп жатыр. Қазақ әдебиетіндегі мемуарлық романдарды айналы зерттеген Нұрдаулет Ақыш: «Таза мемуарлық шығармалар мен мемуарға жақын болып келетін естелік туындыдылар арнайы зерттеуді жігін айыра отырып сараптауды қажет етеді» [6, 14 б], - дейді. Меніңше әдбеи жанрға байланысты да осылай айтуға болады. Жанрсыздану әдбеиеттің әлемдік қасіретіне айналуға. Көркем шығарма екені, деректі әдебиет екені, естелік екені белгісіз дүниелер көбейіп кетті. Олар роман немесе әңгіме деп аталуда. Ұзақ сұқпатты роман деп ұсынып жүргенер де бар. Өмірі әңгіме жазып көрмеген біреу бір мүшайраға арнап роман жазып, бас бәйге алуы мүмкін.

Төртінші, жазушылардың роман жазуға кәсіби, моралдық дайыныдғы және эканомикалық жағдайы жоқ. Тақырыпты терең зерттеп жазуға мүмкіндік аз. Бұл романның да, жазушының да қадірін кетіріп барады.

Тарихи романдарда өмір шындығы мен тарихи шындықтың қатынасы дұрыс сақталуға тиіс. Егер роман тарихи деректерге толып кетсе, нашар жазылған тарихи оқулыққа айналады. Менің ойымша романдағы тарихи деректер 50 проценттен асып кетсе ол көркем шығарма бола алмайды. 25-30 пайыз тіпті 15-25 пайыз деректер шығармашылықпен өңделсе жақсы роман жазуға болады деп ойлаймын.

Қазіргі роман жазатын жазушыларда кең етек алған бір үрдіс еліктеу. Жас жазушылар ғана емес, үлкен жазушылар да бой ұрып жүр. Модернистік, постмодернистік әдіспен жазуға құштар жазушылар көп. Жанрсыз шығармалар мен мөлшерден тыс қысқа романсымақтардың пайда болуының бір себебі осында болса керек. Шығарманың жақсы немесе жаман болуы қандай әдіспен дазылуына байланысты емес, қалай жазылуына байланысты. Кез келген әдіспен жақсы шығарма жазуға болады.

Әдебиеттер

Рахманқұл Бердібеу. Қазақ тарихи романы. – Алматы: Қаз ССР інің «Ғылым» баспасы, 1979 ж. - 239 б.

Мәуен Қамзин. Қазіргі қазақ романдары. - Қарағанды. 2001ж. -205 бет
Егемен қазақстан 2023 жыл21 қыр күйірек

Мо Ян «Он үш адым» - Күйтүн: «Іле хаалық баспасы». 2013 ж. - 575 б

Мекерия Атымөв. Идея және композиция. – Алматы: Қазақ ССР інің «Ғылым» баспасы, 1970ж - 229 бет.

Нұрдаәулет Ақыш. Қазақ Мемуарлық романдары. – Алматы: .2010 ж. - 414 бет.

About modern Kazakh novels

Imangazi Nurakhetuli¹

Uzok Djurakulov²

Abstract

This study examines the history of the emergence of the novel genre, as well as its transformation processes in Turkish prose, especially in novels. These theoretical observations, conclusions and concepts are interpreted at the level of practical literary criticism based on the analysis of modern Kazakh novels.

Key words: *Novel, genre, concept, novelistic word, novelistic thought, novelistic hero, plot, composition, epic concept, architecture, types and forms of the novel, psychological novel, historical novel, everyday novel, national novel, modernist novel, postmodernist novel.*

References

- Raxmanqul Berdibev. Qazaq tarixi romanı. – Almatı: Qaz SSR iniñ «Gılım» baspası, 1979 j. - 239 b.
- Mäwen Qamzın. Qazirgi qazaq romandarı. - Qarağandı. 2001j. -205 bet
- Egemen qazaqstan 2023 jıl 21 qır küyyrek
- Mo Yan «On üş adım» - Küytün: «Ile xalıq baspası». 2013 j. - 575 b
- Mekeriya Atımov. İdeya jäne kompoziciya. – Almatı: Qazaq SSR iniñ «Gılım» baspası, 1970j - 229 bet.
- Nurdaawlet Aqış. Qazaq Memwarlıq romandarı. – Almatı: .2010 j. - 414 bet.

¹ Imangazi Nurakhetuli – Candidate of philological sciences, Researcher of the scientific library of Eurasian National University named after L.N. Gumilev Kazakhstan. Astana

E-mail: library@enu.kz

ORCID ID: 0000-0002-0703-3142

² Uzok H. Djurakulov – Doctor of Sciences (DSc), Professor. Alisher Nava'i Tashkent State university of Uzbek language and literature.

E-mail: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0003-4835-0694

For citation: Nurakhetuli, I., Djurakulov, U. 2023. "About modern Kazakh novels" *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 16-22.

Tarixiy hikoya imkoniyatlari

Olmos Xurramov¹

Abstrakt

Maqolada tarixiy hikoya imkoniyatlari va unda hikoya muallifi asosan tarixiy manbalarga, tarixiy dalillarga asoslanganligi ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek nasrida Boburning realistik hikoyalash an'analari ma'lum ma'noda davom ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihat A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi romanlarida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek G.G'ulom, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov, X.Sultonlar nasrida ham boburona hikoyalash usullari ko'zga tashlanganligi haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *tarixiy hikoya, hikoya janri, Bobur va boburiylar obrazi, tarixiy manba.*

Kirish

Barcha nazariy adabiyotlarda qayd etilishicha, hikoya janrida qahramon hayotining bir lavhasi badiiy aks ettiriladi. Tarixiy hikoyalarda ham xuddi shu tamoyilga amal qilinadi. Farq shundaki, zamonaviy hikoya muallifi ko'proq bironing og'zidan eshitib ta'sirlangan yoki o'z ko'zi bilan ko'rib guvoh bo'lgan favqulodda voqealarni qalamga olsa, tarixiy hikoya muallifi asosan tarixiy manbalarga, tarixiy dalillarga asoslanadi. "Hikoyada tasvirlangan voqea o'z mohiyati va ahamiyati jihatidan epik turning roman, povest kabi janrlaridan farqlanmasa ham, biroq tasvirning ko'lami, syujet va kompozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayonning asosan bir shaxs tomonidan olib borilishi jihatidan farqlanib turadi" [Хотамов, Саримсоқов 250].

"Hikoya odatda qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi H.ning hajman kichik, syujeti sodd, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo'lishini taqozo etadi... Hikoya ostida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo'lishi talab etiladi, buning uchun u o'zining

¹ Xurramov Olmos Uralovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: khuramov.o@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0001-4388-4526

Iqtibos uchun: Xurramov, O.U. 2023. "Tarixiy hikoya imkoniyatlari" *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 23-28.

boshlanishi va yakuniga ega bo'lishi (masal, latifadagi kabi) lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi" [Куронов 2010, 395.].

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti o'ta qiziqarli, sarguzashtli, dramatism va tragik vaziyatlarga boy bo'lgan murakkab hayot yo'lidir. "Boburnoma" va boshqa tarixiy asarlarda tasvirlangan u haqdagi barcha voqea-hodisalar kichik lavha sifatida yaxshi hikoya uchun asos bo'lishi mumkin. Masalan, Boburning Samarqandni tashlab chiqishi, Xoja Ahror Valiyni tush ko'rishi bilan bog'liq voqea, Afg'oniston yo'lidagi dovonda qor kechishi, malika Bayda tomonidan zaharlanishi, o'limi kabi qator lavhalar mukammal, jahonshumul hikoyalarga mavzu bo'lishi mumkin. Ayni paytda, Boburning o'zi ham o'ta mohir hikoyanavis. Uning o'zi va o'zgalar haqidagi voqealarni hikoyalash yo'li, uslubi, kompozitsiya va syujetni qurish mahorati, obraz va portretni tasvirlashdagi badiiyati har qanday hikoyanavis uchun maktab bo'ladigan darajada mukammaldir.

Bobur hikoyanavisligi bir nechta bosqich va darajalarga ega. U birinchidan, o'zigacha yashab o'tgan tarixiy shaxslar haqida mahorat bilan hikoya qiladi. Ularning hayotlarida kechgan muhim va qiziqarli voqealarni tanlay biladi. Portretlari va xarakterlariga doir muhim chizgilarni mukammal darajada beradi. Ikkinchidan, Bobur o'z davri ijtimoiy hayotini, jonli muloqotlar jarayonini juda yaxshi his qiladi. Zamondoshlarini bir ruhshunos sifatida kuzatadi. Ularning tabiatlari, maxsus fe'l va odatlari, yashash tarzlari, hatto kiyadigan kiyimlarigacha e'tibor qaratadi. O'z hikoyalarida bularning barchasini mukammal darajada badiiy tasvirleydi. Uchinchidan, Bobur o'z karomatli tushlari vositasida kelajak voqealarini ham tasvirlagan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, sahobalar, avliyo zotlarga doir tushlarning ham "Boburnoma"da mukammal tasviri keladi. Bularda ham muallifning hikoyalash mahorati sabab tush voqealari o'quvchi ko'z o'ngida real hayotdagidek yorqin gavdalanadi. Chunki Boburning o'zi ilohiy-karomatli tushlarga real qaraydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida Boburning realistik hikoyalash an'analari ma'lum ma'noda davom ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihat A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi romanlarida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek G'G'ulom, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov, X.Sultonlar nasrida ham boburona hikoyalash usullari ko'zga tashlanadi. Ammo afsuski, bunday o'ziga xos an'ana o'zbek nasrida izchil tarzda kuzatilmaydi. Shu bilan

birgalikda, zamonaviy o'zbek nasrida Bobur va boburiylar haqidagi hikoyalarning nihoyatda kamligini ham alohida ta'kidlash joiz.

X.Sultonning "Oy botgan pallada", "Nuqta", B.Omonning "Boburning bolaligi", M.Uzoqovning "Bobur sog'inchi" hikoyalarinigina janr talablariga to'la javob beradigan asarlar sifatida qayd etish mumkin.

X.Sulton Bobur haqida ikkita hikoya yozgan. Bizningcha, yozuvchining har ikki hikoyasi ham Bobur hayotining muhim pallalarini yoritishi jihatidan muhimdir. Ushbu maqolada yozuvchining "Nuqta" hikoyasi haqida so'z yuritamiz.

Dastlab hikoya sarlavhasi haqida mushohada qiladigan bo'lsak, uning "Nuqta" deb nomlanishining o'zi bir badiiy jumboqdir. Ma'lumki, ma'noni yashirin ifodalash so'z, ibora, jumla va detallar vositasida amalga oshiriladi. Shunda ushbu badiiy unsurlarning barchasi bir emas, biryo'la bir nechta ma'no qatlamlariga ega bo'ladi.

Sarlavha badiiy asar kompozitsiyasining muhim birligi bo'lib, yozuvchining badiiy niyatiga monand holda turlicha vazifa bajarishi mumkin. Ba'zi sarlavhalar o'zida asar mazmunini jamlab namoyon etishi bilan sof mantiqiy mohiyat kasb etadi ("Uloqda", "Oromkursi" kabi). Ba'zi sarlavhalar, ayniqsa hikoya sarlavhalari, badiiy aks ettirilayotgan voqea mohiyatini o'zida ifodalaydi (masalan, "Ko'chki", "Zilzila" kabi). Boshqalari voqea sodir bo'lgan joy nomlari bilan bog'liq bo'ladi ("Qichqiriq", "Oq bino oqshomlari" kabi). Ba'zilarida hikoya qilinayotgan voqea zamiridagi tuyg'u yuzaga qalqib chiqadi va hikoya sarlavhasiga aylanadi ("Bodom qishda gulladi" kabi). Yana bir xil hikoyalarda voqea qahramonining ismi asar sarlavhasiga chiqariladi va h.k.

X.Sultonning ushbu hikoyasida esa "nuqta" so'zi bir nechta ma'nolarda kelganini e'tirof etish mumkin. Birinchidan, hikoya ma'lum ma'noda epistolyar mohiyat kasb etadi. U Boburning o'g'li Humoyunga maktubi asosiga qurilgan. Ma'lumki har qanday xatning oxirgi belgisi – bu nuqta hisoblanadi. X.Sulton hikoyasi ham Bobur maktubidagi so'nggi nuqta bilan nihoyalanadi.

Ikkinchidan, Bobur xatining mazmun-mohiyatida o'g'lidan har narsaga e'tiborli bo'lish, inshoda zeru zabar, hatto nuqtani ham diqqatdan qochirmaslik haqida so'z boradi. Yozuvchi asarning xulosasida bunga shunday izoh beradi: "Biz ham shu o'rinda hikoyaga nuqta qo'ysak bo'lar. Ammo hikoyaga sig'may qolgan ikki og'iz mulohaza borki, muhtaram kitobxon buning uchun bizni aybsitmas.

Boburdek muhtaram zotning bir nuqta tufayli bu qadar iztirob chekkani bejiz emas edi – hayot buni isbotladi: taqdirning

g'alati o'yinini qarangki, Bobur vafotidan keyin ham zeru zabar jabrini tortadi - uzoq yillar mobaynida nomi "Bobir" deya yozib kelinadi. Faqat uning besh yuz yillik to'yi arafasida nuqtadon bir olim "Bobir emas, Bobur!" deya na'ra tortib chiqadi-yu bu boradagi "g'alati mashhur" bartaraf etiladi.

Bir nuqtaning tarixi, qadri va mavqeyi ana shunday.

Tamom. Nuqta" [Султон 1993, 228].

Uchinchidan, sarlavhada bu maktub Bobur o'limi arafasida, uning hayotiga taqdirning so'nggi nuqtasi qo'yilishidan bir bahiya oldin yozilganga ishora bor.

Hikoyaning birinchi jumlasini ham so'nggi punktdagi xulosamizni tasdiqlaydi: "Boburning hasratidek uzun yomg'ir..."[-Султон 1993, 217]. Albatta, bu hasrat o'limdan qo'rquv hasrati emas. Bu hasrat qatlarida Boburning ulkan jahongirlik yo'li, Vatan hajri, yutuqlari va xatolari mujassam. Yomg'ir detali ham ma'lum ma'noda g'am-anduh va hasrat ifodasini kuchaytiradi. Odatda yomg'ir inson qalbida umr yo'llari va intiho haqidagi o'y-mushohadalarni uyg'otadi. Hasratli xotiralarni qo'zg'aydi.

Hikoyaning keyingi qismlari ham sarlavha va birinchi jumlagi monand holda falsafiy mazmun kasb etadi. Bobur navqiron o'g'liga nasihatimiz maktub bitar ekan, o'zining umri nihoya topayotganiga yana bir bor amin bo'ladi: "Alisherbekning hikmat to'la, dard to'la bayti iqrar tig'i bilan yuragini tilib o'tadi:

Soqol oqi o'limg'a peshravdur,

Tiriklik sabzasi ichra qirovdur." [Султон 1993, 217].

Bobur o'z o'g'lining navqiron yigitga aylangani, yurt boshqaruvida kamolat hosil qilayotganidan xursand. Farzand ko'rganidan esa boshi osmonga yetadi. Ammo Humoyun maktubidagi hashamdorlik, dabdaba Boburga o'tirishmaydi. Bobur maktublarda ham o'z hayoti kabi soddalik, to'g'rilik va aniqlik bo'lishini istaydi. Humoyun o'z o'g'liga qo'ygan Al'mon ismida ham sun'iy dabdaba, xalq tilini va dilini anglamaslik yotganidan ranjiydi: "Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro'zi qilg'ay, omin yo Robbal olamin, deya davom etdi u.-Otini Al'amon qo'ymishsan. Tengri muborak qilg'ay. Vale bovu'dkim, o'zung bitibsen, mundin g'ofil bo'lubsenkim, kasrati iste'mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o'zga mundoq alif-lom otta kam bo'lur..."[Султон 1993,220].

Inshodagi kichik bir xato mutafakkir otani chuqur o'yga toldiradi. Xayolan tarixga safar qildiradi. O'z otasini qatl etgan

Abdullatif, mast holatda nabirasi Mo'min Mirzo o'limi haqidagi farmonga imzo chekkan Sulton Husayn qilmishlarini eslaydi. Ushbu xotiralar uni Vatan haqidagi iztirobli armonlarga yetaklaydi. Vatanni tark etish sahnalari, temuriy shahzodalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, Shayboniy ta'qibi ostida yurganida uni hech kim qo'llamagani kino lentasidek ko'z oldidan bir-bir o'tadi.

Hikoyaning mana shunday o'rinlarida hikoyanavis epistolyar janr chegaralaridan chiqib ketadi. Boshqacha aytganda, bu janr imkoniyatini kengaytiradi. Maktub mazmuniga hikoya qahramoni xotiralarini bog'lash orqali muallif assotsiativ tasvir usuliga murojaat qiladi. Natijada asar badiiyatini oshirishi bilan birga hikoyaning badiiy zamon va makon ko'lamini kuchaytiradi.

Keksaygan shoh va otaning hasrati, arkoni davlat, hashamat va shon-shuhrat ichidagi yolg'izligi maktubdagi shu parcha orqali yaxshi asoslangan. Shu gapni yozgan Boburning chap qulog'i orqasida og'riq turadi, qalam tutgan qo'li titraydi. Bu sof fizik va psixologik holat. Voqelikda ham yomon xotiralar inson ruhiyatida g'ayrioddiy qo'zg'alish uyg'otadi. Quloq orqasining sanchishi ruhiy iztirobning tana a'zosiga bergan salbiy signalidan dalolat beradi. Yozuvchi faqat shu bilan cheklanmaydi. Quloq og'rig'ining tabiiy asoslarini ham beradi. Bu orqali Bobur dardining nihoyatda teran ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma'naviy ildizlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Ko'tali Zarrinda misli ko'rilmagan bo'ronga duchor bo'lgani, oddiy askarlar qatori qalin qorni o'yib yerto'la yasagani, shu joyda tunni g'aribona o'tkazgani haqidagi "Boburnoma"dagi dalilni keltiradi. Beklari Boburni nisbatan qulayroq g'orda dam olishga chorlaydilar: "Axir qaysi yuz bilan borsin? Barcha navkarlari bunda – bo'ron changalida titrab-qaqshab o'tirsa-yu, u issiq g'orda, farog'at og'ushida mudrasa!..." [Султон 1993, 222.]. Bu bilan muallif Bobur tabiatidagi botiniy demokratiya, mardlik, jasorat va irodani ta'kidlaydi. Maktub yozayotgan ota, shonli o'tmish sohibi bo'lgan shoh, umri yaqinlab qolgan yolg'iz odam tarixini bir nuqtaga jamlab, mukammal badiiy palotnoga muhrlashga erishadi.

Xullas, X.Sulton "Nuqta" asari misolida hikoya janri imkoniyatlarini kengaytirgan. Epistolyar usul bilan assotsiatsiya usulini badiiy mushtarak holatga keltirishga erishgan. Shu bilan birgalikda, Bobur hayotidagi eng muhim voqealarni, Boburga yaqin bo'lgan tarixiy dalillarni, uning ruhiy-ma'naviy holatlarini bir nuqtada jamlashga erishgan. Sof badiiy-psixologik talqin orqali Bobur obrazi mohiyatini muvofiq darajada yoritgan.

Adabiyotlar

- Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи. – Б. 250.
- Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 395.].
- Султон Х. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Т.: Ғ.Ғулум, 1993. – Б. 228.

Possibilities of historical narratives

Olmos Khurramov¹

Abstract

The paper highlights the historical story potentials as well as the fact that its author mostly relies on historical sources and historical data. Simultaneously, we see a certain continuation of Babur's realistic storytelling traditions in contemporary Uzbek language. The novels "O'tkan kunlar" ("The days bygone") and "Mehrobdan chayon" ("Scorpion from the Altar") by A. Qadiri eloquently demonstrate this feature.. And, it is also noted that the methods of bobur narration are highlighted in the prose of G. Gulam, Oybek, O. Yagubov, P. Kadyrov, H. Sultans too.

Key words: *historical story, story genre, image of Babur and Baburites, historical sources.*

Referances

- Hotamov, N., Sarimsokov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-ўзбекча izohli lugati. – Т.: Ўқитувчи.
- Kuronov, D. va boshkalar. Adabiyotshunoslik lugati. – Т.: Akademnashr, 2010.
- Sulton, Kh. Nukta /Boburning tushlari. – Т.: Ғ.Ғулум, 1993.

¹ Olmos U. Khurramov – Teacher. Alisher Nava'i Tashkent State university of Uzbek language and literature.

E-mail: khuramov.o@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0001-4388-4526

For citation: Khurramov, O.U. 2023. "Potential for narratives about history" *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 23-28.

Hikoya syujetining nazariy talqinlari

Komiljon Hamroyev¹

Shahnoza Siddiqova²

Abstakt

Maqolada hikoya janrining syujet xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Hikoyaga xos syujet qurilishi, uning tarixiy-nazariy tadriji atroflicha o'rganilgan. Hikoyada tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim singari badiiy syujet unsurlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, hikoya kompozitsiyasi sathida syujet va poetik obraz munosabati, uning tiplari tasnifiy planda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *hikoya syujeti, syujet unsurlari, hikoya syujeti tiplari, fabula, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim.*

Kirish

Hikoya syujeti kundalik hayot voqeligi asosiga quriladi. Ya'ni hayot materiali muallif konsepsiyasini yuzaga chiqaruvchi muhim poetikvositasifatidanamoyonbo'ladi. Hikoya syujetikatta epikasarlar fabulasiga qaraganda o'zining ixchamligi va siqqligi, shiddat bilan rivojlanib yagona tugun, voqealar rivoji va kulminatsiya kabilarga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Agar o'zbek hikoyachiligi tarixiga nazar tashlansa, dastlab hikoyanavislar xronologik va retrospektiv, keyinchalik bosqichma-bosqich konsentrik hamda assotsiativ syujet tiplari istefoda etilganini ko'ramiz. Mazkur muammo o'zbek adabiyotshunosligida ko'p va xo'p o'rganilgan bo'lsa-da, bir-biriga zid fikrlar keragicha topiladi. Izzat Sultonov, Matyoqub Qo'shjonov, To'xta Boboyev, Hotam Umirov, Abdulla Ulug'ov, Dilmurod Quronov kabi olimlarning badiiy asar syujetiga doir ilmiy-nazariy qarashlari

¹ *Hamroyev Komiljon O'lmasovich* – filolgiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: k.hamrayev@gmail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8600-1554

² *Siddiqova Shahnoza* – tayanch doktorant. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: shahnozasiddiqova340@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-2963-5122

Iqtibos uchun: Hamroyev, K., Siddiqova Sh. 2023. "Hikoyada badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 29-39.

qiyoslab, umumlashtirib tadqiq etilsa, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Zotan badiiy syujet haqidagi turli-tuman talqinlar haqida bir to'xtamga kelmay turib mazkur muammoning hikoyaga xos kompozitsiyasi xususida fikr aytishning imkoni yo'q.

O'zbek adabiyotshunoslidagi mavjud nazariy talqinlarga e'tibor qaratilsa, badiiy syujet tushunchasining unsurlari va tiplari shuningdek, fabula va syujet muammosini turlicha tasniflash tamoyillari yetakchi ekanligiga guvoh bo'lamiz. I.Sulton fikricha: "Asarda hikoya qilinayotgan voqea "syujet" deb ataladi. (Syujet fransuzcha "predmet", ya'ni tasvirlanayotgan yoki bayon etilayotgan narsa demakdir.) Adabiyotning kichik janrlari (masalan, hikoya) da ko'pincha bir kichik voqea va uning tafsiloti tasvirlanadi" [Sulton 2005, 108]. Haqiqatan ham syujet istilohi fransuz tilidan o'zlashgan bo'lib, uni adabiyotshunoslar turlicha izohlaydilar. Masalan, D.Quronov: "Syujet (frans. predmet, "asosga qo'yilgan narsa") badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi" [Quronov 2018, 163]. T.Boboyev esa: "Syujet (frans. sujet – predmet, mazmun) – adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar majmui, kengroq ma'noda, konkret voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan xarakterlar tarixi, poetik fikr-tuyg'ular oqimi" [Boboev 2002, 108]. Yana bir adabiyotshunos A.Ulug'ov quyidagicha yozadi: "Syujet fransuzcha syujet, "narsa, mazmun, mavzu" degan ma'noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi syujetdir" [Ulug'ov 2018, 76]. Ko'rinadiki, olimlar tomonidan syujet – voqea, predmet, mazmun, asosga qo'yilgan narsa tarzida tushuntiriladi. Agar adabiyotshunoslikda fabula va syujet tushunchasi farqlanishi hisobga olinsa, asosga qo'yilgan narsa degan ta'rif universal izoh sifatida o'zini har jihatdan oqlaydi.

Umuman olganda, badiiy syujetning turlari, tip va unsurlarini belgilashda ham yuqoridagi kabi har xillik ko'zga tashlanadi. I.Sulton syujet unsurlari sifatida ekspozitsiya, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, yechim, portret, tabiat tasviri; T.Boboev esa ekspozitsiya, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, yechim, epilog, prolog; D.Quronov ekspozitsiya, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, yechim kabilarni qayd etadilar. Gap quruq bo'lmasin uchun yuqoridagi olimlarning kitoblaridan olingan ko'chirmaga e'tibor qarataylik. I.Sulton: "Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj (manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik

quvvatini oshiradi” [Sulton 2005, 116]– deb yozsa; T.Boboyev: “Yirik hajmli mumtoz asarlarda syujetning ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya va yechim deb nomlangan asosiy unsurlari bo’ladi. Ba’zi asarlarda esa syujetning qo’shimcha unsurlari – prolog va epiloglar uchraydi. Syujetning bunday elementlari asar to’qimasida o’ziga xos funksiya o’taydi” [Бобоев 2002, 117] deb biladilar. Anglashiladiki, ikkala olim ham kompozitsiya elementlarini badiiy syujet sifatida keltiradi. Bu esa badiiy syujet tegrasida turfa xil qarashlar mavjudligini anglatadi. Badiiy syujet turlari va tiplarini belgilashda ham chalkashliklar ko’zga tashlanadi. Ko’p adabiyotshunoslar syujet voqealarining munosabatiga ko’ra xronologik va konsentrik turlari farqlanadi. Ayrim adabiyotshunoslar esa xronologik, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ kabilarni syujet tiplari sifatida talqin etadi. Bu borada hikoya haqida gap ketganda yuqoridagilarni syujet tiplari sifatida o’rganish, masala mohiyatini atroflicha yoritishga zamin hozirlaydi. Negaki, hikoya syujeti sqiq voqealar tizmasi asosiga qurulishi yagona tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi unsurlardan tashkil topishi bilan xarakterlanadi. Xuddi shunday fabula va badiiy syujet munosati, ularning mushtarak va o’ziga xos xususiyatlarini farqlashni muallif konsepsiyasi hamda hikoya voqeasidagi uyg’unlikni shuningdek, syujet komponentlaridagi tipologik qonuniyatlarni tizimli tadbqiq etishga asos bo’ladi. Agar fabula haqidagi adabiyotshunoslarning fikrlarini muxtasar jumlada keltiradigan bo’lsak, D.Quronov fabula haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Adabiyotshunoslikda “syujet” bilan bir qatorda “fabula” istilohi ham borki, ularni qo’llashda turlichalik bartaraf etilmagan. Avvalo, o’z vaqtida Arestotel “fabula” (yunoncha “mif” so’zining lotincha tarjimasi “fablio”dan”) istilohini “syujet” ma’nosida qo’llagan. ... fabula voqealarning tabiiy oqimi bo’lsa, syujet ularning muayyan maqsadga muvofiq qayta tartiblangan, ya’ni badiiy qayta ishlangan shaklidir” [Quronov 2018, 169].

Hikoyaning hozirjavobligi va bugunbopligi ko’p hollarda real voqelikka asoslanishi, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabilarni qat’iy tarzda kelishi hamda ularni syujet sathida o’rin almashishib turishini nazariy muammo sifatida qayd qilish ehtiyoji borligini bildiradi. Mazkur tushuncha haqida bir-birini to’ldiruvchi va rad etuvchi fikrlarning mavjudligi adabiyotshunoslikda hali-hanuz ushbu masala yuzasidan muayyan to’xtamlarga kelinmaganini anglatadi. Masalan, I.Sulton yozadi: “Yozuvchi tasvirlayotgan voqea hayotning o’zida qanday tartibda ro’y berganini aks ettiruvchi “syujet”dan farqli o’laroq, shu voqealarning badiiy asardagi tasviri tartibi

fabula deb ataladi. ("Fabula" lotincha "bayon", "hikoya" demakdir)" [Sulton 2005, 113]. E'tibor berib qaralsa, adabiyotshunos I.Sulton, D.Quronovlarning fabula haqidagi ta'riflari zid ma'noga egaligi bilan diqqatni tortadi. Agar ushbu muammo hikoya doirasida tadqiq etilsa, hech shubhasiz fabula hikoya voqeasining hayotda ro'y berish tartibi hisoblanadi. Negaki, hikoya voqeasi, avvalo, o'tmishda ro'y berganligi, yozuvchi badiiy syujet unsurlarini o'z uslubi va ijodiy niyatiga muvofiq joylashtirishi yuqoridagi qarashlarga to'g'ri keladi. A.Ulug'ovga ko'ra, "Fabula lotincha masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo'lgan hayotiy material nazarda tutiladi. "Fabula – asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog'liqlikdagi yaxlit silsilasi" ham deyiladi. Arestotel ham fabulani "voqealar yig'indisi" [Ulug'ov 2018, 78] – deb ataydi.

Umuman olganda, fabula haqida bildirilgan ilmiy-nazariy talqinlarga tayanib quyidagilarni aytish mumkin:

1. Adabiyotshunoslikda fabula va syujet tushunchasini sinonim, ya'ni ma'nodosh atama sifatida qo'llash, bunga adabiyot tarixida uzoq yillar davomida syujet fabula istilohi bilan nomlanib kelingani asos qilib olinadi.

2. Fabulaga doir bir-biriga zid ilmiy-nazariy qarashlarni qayd qilish yo'lidan borish;

3. Voqealar tizmasini asarlarda bayon qilish, tasvirlash va tavsiflashga nisbatan fabula istilohini qo'llash. Bunda ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi badiiy syujet komponentlari fabula unsurlari sifatida talqin qilinishiga to'g'ri keladi. Chunki muallifning badiiy uslubi va konsepsiyasiga muvofiq tartibga solinadigan hayot voqeligi badiiy asar syujeti sifatida o'rganib kelingan;

4. Yana bir toifa adabiyotshunoslar asar voqeasining real hayotda ro'y berish tartibiga fabula, uning asarda yuz berish vaqtini syujet istilohi bilan ifodalash kerak deydilar. Agar voqeaning badiiy asarda joylashtirilishi, namoyon bo'lishi va tasvirlanishi syujet hisoblansa, unda "sayyor voqealar" "sayyor syujet" emas "sayyor fabula" atamasini qo'llash kerak bo'ladi. Bundan tashqari badiiy asar voqeasining skleti fabula, uning muallif ijodiy niyati, badiiy g'oyasi bilan to'yintirilgan bayoni tasviriga nisbatan syujet termini ishlatilishi ta'kidlanadi. Ko'rinadiki, fabula umumiy, syujet individual hodisa. Syujet muallifning uslubi, badiiy mahorati maxsuli bo'lsa, fabula real hayot voqeasi bilan analogik xarakterga ega. Muayyan voqealar tizmasining davrlar osha ijodkordan ijodkorga, asardan asarga ko'chib yuruvchi variantiga fabula, yozuvchi tomonidan qayta ish-

lanib ma'lum bir sxemaga solingan tasvirlanmish voqeaning personajlar hatti-xarakteri bilan chambarchas bog'langan poetik komponent badiiy syujet demakdir.

Xullas, yuqoridagilarga tayanib aytish mumkinki, syujet badiiy asarda hayot ziddiyatlarini voqelantirish, fabula ana shu voqeaning real hayot mantig'iga muvofiq yuz berish tartibi deyish mumkin. Ayni poetik munosabatni hikoya misolida o'rganilsa, hech shubhasiz nazariy muammo mohiyatiga yanada chuqurroq kirishga imkon tug'uladi.

Aslida hikoya mohiyatan siniq voqea, unda hayotning turli-tuman parchalari badiiy aks ettiriladi. Shu ma'noda nafaqat hikoya, balki har qanday janr adabiy-tarixiy jarayon maxsuli ekanligi hisobga olinsa, hikoya voqeasi fabula va badiiy syujetning "changlanishidan" kamol topganligi oydinlashadi. Qolaversa badiiy adabiyotda aksariyat sayyor voqealar karvoni olis o'tmishdan bugunga qadar yetib kelishida hikoyaning o'rni beqiyos. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Dadaqo'rqo't", "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Dekameron", "To'tinoma" singari epik asarlar tarkibidagi o'xshash hikoyatlarning mavjudligi yuqoridagi qarashlarga asos bo'ladi. "Sayyor syujetlar faqat bir necha xalqlar, regionlarga mansub adabiyotlarnigina emas, balki ayni vaqtda, turli davrlarga mansub badiiy ijod mahsulini o'zaro bog'lash bilan, ijtimoiy tuzumlar bir-biridan uzoq zamonlarni ham yaqinlashtirib aloqaga kiritadi. Chunki adabiyot bashariyat umrining xotiro-t-hujjatidir. Har bir badiiy obida yaratilgan zamon kishilari tafakkurining oynasi, uning o'zgargan shakli esa, boshqa zamon boshqa ijtimoiy muhitdagi odamlar tushunchasi mahsuli" [Komilov 1999, 146]. Masalan, Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasidagi bir syujet lavhasiga e'tibor qarataylik. "Mulla Norqo'zi safarga ketadigan bo'lib qoldi; ketishidan bir kun ilgari xotiniga aytib, o'sha farishtani oldirdi va o'rta eshik oldiga borib qiyomatlik singlisidan iltimos qildi:

– Singlim, men o'n kunda qaytib kelaman, kelgunimcha o'rtog'ingiz bilan

birga bo'ling. Mana, o'zingiz ko'rgan joy, bemalol ayshlaringni qilinglar. Xo'pmi, singlim?

– Xo'p, deyaptilar, – dedi mulla Norqo'zining xotini, – bu kishining ham menga o'xshab boshqa gapirishadigan o'rtoqlari yo'q" [Qahhor].

Hikoyadagi bu syujet sayyor fabula sifatida uzoq o'tmish adabiyoti namunalarida ham uchraydi. Xususan, "Ming bir kecha", Apuleyning "Oltin eshak", Bakkochchoning "Dekameron" singari asarlar-

ida davrlar osha turlicha kiritma hikoya o'laroq talqin qilib kelinadi. Shu bois hikoya syujeti, uning poetik pryomlari, tarixiy va an'anviyligi bilan universaldir. Shunga muvofiq hikoyaga xos badiiy syujet kompozitsiyasi adabiyot tarixining o'ta olis namunalariga borib bog'lanadi. Hikoya syujetining tipologiyasi, uning spetsifik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo, hikoya syujetining strukturasi o'zgaruvchan tabiatga egaligini ta'kidlash kerak. Hikoyaning adabiy-tarixiy jarayon ruhini o'zida aks ettirishi bilan hozirjavob janr ekanligi, har bir yozuvchining ijodida yangilanib, o'ziga xos badiiy tajriba maydoni vazifasini bajarishi, yuqoridagi qarashlarga asos bo'ladi. "Hikoya ibtido, intiho, o'tmish, bugun va kelajak voqeligini o'zida mujassam qiluvchi yagona universal janr hisoblanadi. ... Zotan, hikoya tarixiylik, an'anaviylik qonuniyatlarini o'zida mujassam etishi uning hozirjavob, bugunbob janr ekanligi bilan ham belgilanadi. Hikoya diniy-ilohiy, mifologik, folklor va yozma manbalararo bugungi kunga qadar doimiy harakatdagi janr hisoblanadi" [Hamrayev 2023].

Ikkinchidan, hikoya kompozitsiyasi muayyan voqea asosiga qurilishi bilan belgilanadi. Bunda roman va qissadan farqli o'laroq hikoyaning markazida voqea turadi. Ya'ni hikoyadan maqsad voqea, qissada qahramon, romanda davr manzarasi kabilarni ifodalash nazarda tutiladi. Tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya singari poetik komponentlar hikoya voqeasida yagona badiiy syujet unsurlari sifatida muallifning ijodiy niyatini yuzaga chiqaradi. Hikoya markazida voqeaning turishi uning tipologik xususiyatlaridan biri sanaladi. Bu esa hikoyaning o'ta qadimiy janr ekanligiga dalolat qiladi.

Uchinchidan, hikoya kompozitsiyasi sathida badiiy syujet vaqtining yaxlit holda namoyon bo'lishi nazarda tutiladi. Hikoya deb atalmish istilohning o'zida qolaversa, roviy tomonidan bayon qilinayotgan vaqt bilan syujet voqeasi yuz beruvchi zamon orasida bilinar-bilinmas farqning mavjudligi yuqoridagi qarashlarga turtki beradi. Bu haqida Dilmurod Quronov quyidagicha yozadi: "Ma'lumki, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar makon va zamonda kechadi, shunga ko'ra adabiyotshunoslikda "badiiy vaqt" tushunchasi keng qo'llanadi. Avvalo, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti bilan ularni hikoya qilish vaqtini farqlash kerak. Biz shartli ravishda asardagi voqealarning yuz berish vaqtini "syujet vaqti", deb oladigan bo'lsak, u holda bu ikkisi har vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi ko'riladi" [Quronov 2018, 108].

O'zbek adabiyotida bunday hikoyalarni shartli ikkiga ajratish mumkin. Birinchisida, hikoyaning muqaddimasi va hotimasida so'zlovchi hamda tinglovchi obrazlarining ochiq dialogi ko'zga tash-

lanadi. Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasida O’sar va jinlar orasida ro’y bergan voqea bayonidan oldingi va keyingi lavhalar mazkur shaklga misol bo’ladi. “Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo’rquv o’rab olar edi-da, ichimdan: «Meni ham shunday jinlarga yo’liqtirma», deb tangriga yolborib qo’yar edim” [Qodiriy 2009, 15].

Ikkinchi tipdagi hikoyalarda esa, badiiy syujet voqeasi ikkinchi shaxs tilidan bayon qilinadi yoki roviy nuqtayi nazari o’rni-o’rni bilan voqea bayonida bo’rtib ko’rinishi sabab badiiy kompozitsiya va syujet vaqti farqlanadi. “Hayotda hech narsa o’zidan-o’zi sodir bo’lmaydi: beamr tikan ham kirmaydi, deganlari bejiz emas — ro’y bergan har qanday hodisaning sababi mavjud — biroq kech kuzning zamharir kunlaridan birida tasodifan uchrab, xayolingni alg’ovdalg’ov qilib yuborgan narsaning sababini sen hech qachon topa olmaysan: qolaversa, bunga hatto qiziqib ham ko’rmaysan...” [Otaxon]. Bu esa muallifga o’z hikoyasini ijodiy niyatiga muvofiq tugun, kulminatsiya yoki yechimdan boshlashiga imkon beradi.

To’rtinchidan, hikoyada badiiy syujet muayyan voqea asosiga quriladi. Bunda katta epik janr namunalarining syujeti voqealar tizmasini sxemalashtirib tasvirlasa, hikoyada ma’lum bir voqeaning rivoji, uning turli qirralari ifoda etiladi. Bunday tipdagi hikoyalarda badiiy detal syujet voqeasini tutib turuvchi poetik tayanch vazifasini bajaradi. Hikoyaning yagona syujet chizig’ida voqeaning o’sishi, rivojlanishi bir lavhadan ikkinchi lavhaga o’tish usullari, tugun, voqealar rivoji va kulminatsiya kabi uch poetik unsur doirasida yuz beradi. Bu esa hikoya syujetini yaxlit voqea asosiga qurishga asos bo’ladi.

Beshinchidan, hikoyada badiiy syujet va xarakter uyg’unligi katta janr namunalarida xarakter harakati badiiy syujet chizig’i bo’ylab o’zgarib, o’sib, rivojlanib boradi. Hikoyada esa xarakter syujetga uyg’un bo’lishi talab qilinadi. Chunki yagona voqea, kam fursat personajlarning xarakterini shakllanish jarayonlarini ko’rsatishga monelik qiladi. Shu bois hikoyada xarakter tayyor holda olib kiriladi. “Mavjud darslik va qo’llanmalarda ko’pincha syujetga Maksim Gorkiy tomonidan berilgan ta’rif keltiriladi, - deb yozadi Dilmurod Qurinov, - unga ko’ra, syujet “u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir”. Biroq, ma’lumki, barcha badiiy asarlarda ham xarakter rivojlanishida o’sish va shakllanishda ko’rsatilmaydi. Xususan, hikoya janrida xarakterlar tayyor holda, ular voqea davomida rivojlanmaydi, ya’ni syujet o’rnida voqeaning ichki rivojini namoyon etadi, xolos” [Qurinov 2018, 166]. Abdulla Qahhorning “O’g’ri”, “Bemor”, “Ming bir jon”, “Anor” singari hikoy-

alari mana shunday asarlar sirasiga kiradi. Aslida hikoya voqeasi yuqoridagi kabi personajlarni tasvirlanishini taqozo qiladi. Chunki hikoyada voqea orqali hayotning turli-tuman puchmoqlariga nazar tashlanadi.

Oltinchidan, badiiy syujet hikoya qahramonining badiiy tasavvurlari asosiga quriladi. Bunday tipdagi hikoyalarda qahramon ong-u-shuurida va qalbidagi o'y-xayollar, fikr-mushohadalar, voqealar oqimini hosil qiladi. Muallif va qahramon nuqtayi nazarlari uyg'unlashib, hikoya voqeasini yuzaga chiqaruvchi yetakchi omilga aylanadi. Ko'p hollarda bunday tipdagi hikoyalarning voqeasi ikkinchi shaxsh – sen tilidan bayon qilinadi. Bu esa hikoya voqeasini obyektlashtirishga zamin yaratadi. Bunday hikoyalardagi syujetning o'ziga xosligi lirik asar namunalarini eslatadi. Hikoya tuguni qahramon ruhiyatidagi ziddiyat mahsuli o'laroq psixologik konflikt fonida bayon qilinadi. Olim Otaxonov, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'st Muhammad singari yozuvchilar ijodida bu tipdagi hikoyalar uchraydi.

Yettinchidan, hikoya voqeasi xronologik va retrospektiv syujet sxemasi asosida bayon qilinishi ko'zda tutiladi. Bir qarashda bir-biriga tasavvur uyg'otadigan bu ikki shakl hikoyada ulkan voqelikni qamrovlab tasvirlashga asos bo'ladi. Personajlarning o'tmishi bilan bog'liq voqealar ularning xatti-harakatlari, o'zaro munosabatlari retrospektiv usul orqali xronologik voqealar tizmasiga bog'lanadi. Bu ikki syujet tipining kesishmasida muallifning g'oyaviy niyatiga muvofiq hikoya personajlarining xatti-harakatini o'tmish va buguni bor bo'yicha ko'rsatish maqsad qilinadi. Ushbu xil hikoyalar qissa janriga xos epik ko'lamni o'zida badiiy ifoda etishi bilan esda qoladi. Bunday hikoyalar tugun yoki yechimdan boshlanib, voqealar rivojidan kulminatsiyaga qarab rivojlanib boradi. Murod Muhammad Do'stning "Dasht-u dalalarda", Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyalari mazkur syujet tipiga misol bo'ladi. "Dasht-u dalalarda" hikoyasining ilk jumlasida quyidagicha boshlanadi: "Xadicha ketdi-yu ko'nglidan halovat ham ketdi. Uy bamisoli o'lik chiqqanday huvillaydi. Polvonning yuragi toriqdi — uyni tark etdi, boqqa olib tushadigan qiyalikdagi bobosidan qolgan yerto'lani o'ziga boshpana qildi" [Muhammaddo'st 2009, 283].

Ko'rinadiki, yozuvchi hikoya muqaddimasini tugun jumla bilan boshlagan. Bu esa tabiiy ravishda retrospektiv voqea bayonini talab qiladi. Xatchanining qayerga? Nega? ketgani va mojoro sabablari retrospektiv usul orqali oydinlashadi. "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasida ham Ramazon va do'stning o'tmishi hamda Shodi garang obrazi bilan bog'liq tasvirlar Chantrimore va Lakamakatore so'zla-

rining asl mansha'i retrovoqealarida ifoda etiladi. "Mana, hozir sen kirib kelasan. To'satdan. Tashvish bilan, to'polon bilan. Olma olib kelasan, jaydari olma. «Chantrimore-e!» deysan qulochingni keng yozib. «Kalamakatore!» deyman men. Bu nima degani, Ramazon? Qaysi tildan bu g'alati so'zlar, ma'nosi nima? Men bilmayman, sen ham bilmaysan. Shodi garangdan so'raylik desak, u endi yo'q — uzoq yili o'lgan. Miyasi aynib o'lgan. Quloqning zahmidan. Urushning kas-ri. Undan tirnoq — farzand qolmadi, mol-dunyo qolmadi — «Chantrimore» qoldi, «Kalamakatore» qoldi, bizga: senga, menga... Nima degani bu? O'ylashimcha, buni endi faqat ikki kishi — ikkalamizgina tushunadiganga o'xshaymiz: senu men" [A'zam]. Xullas, adabiyotshunoslikda hikoya syujetining nazariy talqinlari turfa xilligi bilan xarakterlanadi. Badiiy syujet turlari va tiplarini belgilashda hamda uning unsurlarini tasniflab tadqiq etishda adabiyotshunoslarning erkin fikr yuritgani ko'zga tashlanadi. Ko'p hollarda badiiy syujetga berilgan ta'rif va qoidalar hikoyaga xos syujetga tushmasligi mazkur janrning universal tabiati, muttasil harakatda ekanligi bilan belgilanadi. Hikoyada badiiy syujet voqeasining markazida turishi, badiiy kompozitsiya va syujet vaqtining farqlanishi, badiiy syujet va xarakter uyg'unligi, tugun, kulminatsiya va yechim kabilarni yozuvchining g'oyaviy niyatiga muvofiq janr muqaddimasida kelishi hikoya syujetining tipologik xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, hikoya syujetining shakllanishi, uning semantik-struktur xususiyatlari hamda poetik ildizlari o'tmish adabiyoti bilan bog'liqligi mazkur janrning uzoq yillar davomida katta epik asar tarkibida yashab kelganligi sabab boy tarixga ega.

Adabiyotlar

- Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
- Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2018.
- Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
- Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018.
- Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., Ўзбекистон нашриёти, 2002.
- Hamrayev K. O'zbek hikoyasi genizisi. Maqola// O'zMU, 2023-yil, may.
- Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent : Ma'naviyat, 1999.
- Muhammaddo'st M. Dasht-u dalalarda. Antalogiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
- Otaxon O. To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/olim-otaxon-tortinchi-qavatdagi-sargish-deraza.html>
- A'zam E. Anoyi jaydari olmasi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-anoyining-jaydari-olmasi-hikoya>

- Qahhor A. Mayiz yemagan xotin. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-mayiz-yemagan-xotin-hikoya>.
- Qodiriy A. Jinlar bazmi. Antalogiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.

Theoretical interpretations of the story plot

Komiljon Hamroyev¹

Shahnoza Siddiqova²

Abstract

The article discusses the plot features of the narrative genre. The construction of the story-specific plot, its historical-theoretical study has been thoroughly studied. In the story, elements of artistic plot such as knot, development of events, culmination and resolution are analyzed. Also, at the level of story composition, the relationship between the plot and the poetic image, its types are studied in a classification plan.

Key words: *story plot, plot elements, story plot types, fable, exposition, knot, development of events, climax, solution.*

References

- Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomi-dagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
- Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari– Toshkent: Akademnashr, 2018.
- Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
- Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018.
- Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., O'zbekiston nashriyoti, 2002.
- Hamraev K. O'zbek hikoyasi genizisi. Maqola// O'zMU, 2023-yil, may.
- Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent : Ma'naviyat, 1999.
- Muhammaddo'st M. Dasht-u dalalarda. Antalogiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
- Otaxon O. To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/olim-otaxon-tortinchi-qavatdagi-sargish-deraza.html>

¹ Komiljon U. Hamroyev – Doctor of philosophy (PhD), docent, Alisher Navoi's Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: k.hamroyev@gmail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8600-1554

² Shahnoza Siddiqova – Base doctoral student of Alisher Navoi's University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: shahnozasiddiqova340@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-2963-5122

For citation: Hamroyev, K., Siddiqova, Sh. 2023. "Theoretical interpretations of the plot of the story". *Uzbekistan: language and Culture*, 3 (3): 29-39.

- A'zam E. Anoyi jaydari olmasi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-anoyining-jaydari-olmasi-hikoya>
- Qahhor A. Mayiz yemagan xotin. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-mayiz-yemagan-xotin-hikoya>.
- Qodiriy A. Jinlar bazmi. Antalogiya. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.

“Sarob” romanida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi

Yulduz Ziyayeva¹

Abstrakt

Epik tafakkurdagi katta janrlarni birlashtirib turuvchi nazariy komponentlardan biri obrazlar tizimi hisoblanadi. Roman ana shunday katta janrlar qatorida badiiy adabiyotda harakat qiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib roman janrining obrazlar tizimini janr kontekstida o’rganish dolzarblik kasb etadi. Maqolada Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida tarixiy-an’anaviy “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazining an’anaviy hamda jahon romanchiligi ta’siri umumlashgan holda yaratilgani atroflicha o’rganilgan. Shuningdek, roman syujetida “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlari tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: *tarixiy-an’anaviy obraz, “oshiq-ma’shuqa-raqib”, “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlari, obraz yaratish mahorati, psixologik tasvir.*

Kirish

Abdulla Qahhorning “Sarob” romani sovet mafkurasi hukmronlik qilgan 30-yillarda yaratilib, bir qancha tanqidlarga uchragan asar hisoblanadi. Romandagi “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlar tizimining takomili bevosita an’anaviylikdan chekinib g’arb tamoyillari bo’yicha tasvirlangani ko’zga tashlanadi. 30-yillarda sinfiylik zo’r berib tiqishtirilayotgan va asar markaziga ishchilar sinfiga mansub “sovet kishisi”ni olib kirish majburiy mezoniga aylantirilgan edi. Bu talablardan chetga chiqqan asarlar qattiq tanqid ostiga olinib, keraksiz asarlar qatoridan joy olgan.

Abdulla Qahhorning obraz yaratish mahorati ham ko’p bora Saidiyatrofidatanqidga uchragan. Saidiyasar markaziga olib chiqilgan oshiq obrazi. Aytib o’tganimizdek, Saidiy sovet tuzumida yashagan sinfiylik qaror topgan davr odami. Unda ijtimoiy tuzumning izlari bo’lishi tabiiy. Saidiy obrazi ancha murakkab. Chunki Abdulla Qahhor Saidiyga muayyan vazifani yuklamaydi, u zamonga moslashishga,

¹ Ziyayeva Yulduz Temirxonovna – Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti katta o’qituvchisi.

E-pochta: ziyayevayulduz43@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5398-1728

Iqtibos uchun: Ziyayeva, Y. 2023. “Sarob” romanida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi. *O’zbekiston: til va madaniyat* 3 (3): 40-45.

o’zini topishga urinayotgan odam. Abdulla Qahhorning o’zi asar haqida suhbatlardan birida munosabat bildirgan: “Keyinroq, 1965-yili bir davrada adib “Sarob” romani munosabati bilan berilgan savolga: “Tanqid shu paytga qadar “Sarob”dan nuqul siyosat izladi. Romandagi odamlarning dardi-dunyosini, oh-u zorini eshitadigan bir azamat topilmadi” [2;13.09]. “Sarob” romanidagi uchlikni talqin qilishda ham adibning nuqtayi nazarini hisobga olishimiz kerak. Romanda oshiq va ma’shuqaning dardi dunyosi, ziddiyat, qarama-qarshilik, nomaqbul maqsadlarni ko’zlashi bevosita sinfiylik ta’siridan kelib chiqadi.

Avvalo, oshiq, ma’shuqa va raqibning pozitsiyasini belgilab olishimiz zarur. Oshiq – Saidiy, ma’shuqa – Munisxon, raqib – ijtimoiy-siyosiy tuzum. Ijtimoiy-siyosiy tuzumning ramziylashgan raqib sifatida oshiq va ma’shuqaga ta’siri turli qarashlarga ega bo’lgan qahramonlar orqali beriladi. Saidiy va Munisxonning bitta sinfdan emasligi, oshiqning ma’shuqa doirasiga kirishga intilishi, ma’shuqa nazarida eng yuqori pog’onadagi erkak sifatida qalbini zabt etishga urinishga olib keladi. Shu jihatdan Saidiy Munisxon mansub boy qatlamga yaqinlashish uchun noto’g’ri yo’l, odamlarni tanlaydi. Saidiy yo’lsizlikdan yo’lini topishga harakat qilayotgan, maqsadiga yetish uchun turli jamoa va muhitga o’zini urgan odam. Saidiy salbiy kuchlarga emas, avvalo, o’ziga qarshi kurashishi bilan boshqa oshiqlardan farqlanadi. “Sarob”dagi oshiqning xarakterli jihati, ijobiy fazilatlaridan ko’ra salbiy jihatlari ko’pligi salbiy fikrlashi, har imkoniyatdan o’zini topishga intilishida ko’rinadi. “Har holda yozuvchining maqsadi Saidiy obrazi orqali ijobiy qahramon – sovet kishisining obrazini yaratish emas, sovet kishisi bo’la olmagan shaxsning inqirozini ko’rsatish edi. Shuning uchun ham Saidiy yillar davomida turli talqinlarning obyektiga aylanib keldi” [3;12].. Saidiy obrazida jahon romanchiligi ta’siri seziladi. Birinchi navbatda, oshiqqa xos ruhoniyyatning yo’qligi bu obrazning g’arbdan ko’chganligiga ishora. Sharq adabiyotida mukammal oshiqlar atrofidagi yovuz kuchlarga qarshi kurashadi. Saidiyda esa ich-ichidan yemirilgan jamiyatga qarshi kurashishga ham, uning vakiliga aylanishga ham rag’bat yo’q. Saidiyning ichki psixologik holatini tasvirlash orqali ayni kamchilik ochiq-oydin ko’rsatilgan. Sho’raviy hukumat ta’sirida yashagan Saidiy ruhiyatida yolg’izlik, iste’dodini to’g’ri yo’naltira olmaslik, o’zi mansub jamiyatga sig’maslik holati kuzatiladi. Saidiyning muhitga moslasha olmasligi Sharif, Ehson bilan munosabatida ko’rinadi. Saidiydagi ruhiy evrilish Sharif va Ehson kabilardan uzoqlashib o’ziga mos muhit qidirishga olib keladi.

Saidiy fikrlashi, ijodiy faoliyatida Munisxon, ya'ni ma'shuqa muhim o'rin tutadi. Saidiy va Munisxonning bir-biriga ko'ngil qo'yishida ham xudbinlik, o'zini o'ylash, qahramonga aylanish orqali munosabatlarni asoslashga intilish bor.

Roman uchlik tizimida "ilk uchrashuv", "ayriliq", "visol" motivlari ham o'zgargan. Romanda oshiq va ma'shuqaning universitet eshigi oldidagi "ilk uchrashuv"ida Saidiyning ichki olami "Shu qizning boshiga bir falokat tushsa-da, qutqaradigan kishi yagona men bo'lsam" [1;5]., – degan o'y-fikri orqali beriladi. Saidiydagi xudbinlik Munisxonni ko'rgandayoq o'z niyatidan qaytishi, universitetda o'qimaslik fikri o'rnida o'qish niyati paydo bo'lib qolishida ko'rinadi. Munisxonning "Sayfiyni bilasizmi?" so'rovini ham "Buning husnigina emas, hatto kiygan kiyimi mo'jiza-ku, nega mening otimni biladi, nega yana o'zini past olgan tovush bilan so'raydi?" [1;3]. deb adashtirishi Saidiyning xarakterini ochib beradi. Saidiy shu jihatdan o'zini birinchi o'ringa qo'yadigan, voqealarni o'z istaklariga bo'ysundirishni, moslashtirishni xohlaydigan inson ekanligi bilan ajralib turadi. Ilk taassurot Saidiy obrazida keyinchalik jamiyat bilan bo'lgan munosabatda ochilib boradi. U o'zi mansub sovet jamiyatiga moslasholmaydi, atrofidagi odamlarni o'z istaklariga qarab tanlashga urinishi, do'stlari bilan aloqani uzishi, yangi odamlar bilan munosabat o'rnatishi ham unga xos xarakter xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

"Ayriliq" motivi romanda oshiq va ma'shuqaning o'z istaklari, mukammal baxtni qidirishi, mukammal baxtni esa pul bor joyda ko'rishidan kelib chiqadi. Munisxonning tanlovi Muxtorxon ko'rimsiz, lekin puldor odam, Saidiy esa Munisxonga yetishish yo'lini shon-shuhrat orqali topmoqchi, bunga esa Murodxo'ja domla xonadoniga yaqinlashish orqali erishmoqchi bo'ladi. Tashqi xunuklik ma'naviy xunuklik oldida hech narsa emasligi Soraxon obrazi orqali ochib berilgan. Soraxon tashqi ko'rinishda ham, ma'naviy bahsda ham Saidiyga yot edi. Saidiy va Munisxonning hamfikrligining jamiyatdagi sinfiylik qarashi orqali uzilishi ular mansub doiraning ijtimoiy-ruhiy ta'sirida sodir bo'ldi. U. Normatov shunday yozadi: "Romanda Saidiy bilan Munisxonni halokatga olib kelgan ruhiy ma'naviy omillar, jumladan, ular tabiatiga xos xudbinlik, shaxsiyatparastlik, shuhratparastlik haqida ko'p yozildi. Buning uchun muayyan asoslar bor, albatta. Yetakchi qahramonlar, birinchi galda, Saidiy xarakteri, ruhiyati, xatti-harakatlari, qismati sinchiklab kuzatilsa, tabiatiga xos eng xarakterli jihat unda qat'iyat, sabot, "shaxsi butunlik", mustaqil fikrlash va ish tutishning yetishmasligida ekaniga iqrar

bo’lasiz” [2;16].

Saidiy o’zi mansub doirani o’zgartirib boradi. Saidiyning dunyoqarashini o’zgartirib universitetga kirishga ruhlantirgan Ehson – eng yaqin do’stlaridan biri. Lekin Saidiy pochchasi Muhammadrajab ta’siridan chiqib ketgandek, Ehson doirasidan ham asta-sekin uzoqlashadi. Saidiy hamsuhbatlarining almashtirib turishi, o’zini topishi mumkin bo’lgan yangi doiraga intilishi ma’shuqa bilan bo’lgan munosabatida ham aks etadi. Saidiy yolg’izlikka o’chligi, odamoviligi, qo’rsligi bevosita muhit ta’siri bilan bog’liq. Saidiyning shaxsiy-oilaviy hayotida ham bir qancha og’riqli nuqtalar bor: otasining o’zini o’ldirishi, onasining erta vafot etishi, pochchasi xonadonidan haydalishi, opasining kasalmand bo’lib qolishi uning taqdirida, xarakterida iz qoldiradi, albatta. Oshiqning bunday xususiyatlari G’arb an’analariiga bo’ysunadi. Shafringa nisbatan munosabatida Saidiyning ruhiy holati ko’rinadi. “Shunday ham betamiz odam bo’ladimi, ko’rdingki, seni xushlamayotirman, chiq ket...” [1;12].. Saidiydagi yolg’izlik faqat Munisxon bilan suhbatlashishnigina inkor qilmaydi. Oshiq va ma’shuqa o’rtasidagi munosabat bir-biriga ma’naviy ehtiyoj o’laroq kerak edi, desak to’g’ri bo’ladi.

Saidiyning adabiyot sohasiga, ya’ni keyingi doiraga o’tishiga hammaktabi Ulfat sababchi bo’ladi. Saidiy endi she’r yozish, asar yaratish orqali yozuvchi bo’lishni ko’zlaydi. Umuman, Saidiydagi beqarorlik yuqori pog’onaga chiqishga yo’l qidirish bilan bog’liq. Ulfatning doirasida Abbosxon kabilarni topadi. Saidiyning she’r yozishiga yana bir sabab rashk. Munisxonning Ulfat bilan tanishligi Saidiyni ham uning yo’lidan yurishga yo’naltiradi. Saidiy Munisxon tufayli universitetda o’qishga qaror qildi, adabiyot olamiga ham Munisxonga oshno bo’lish uchun kirdi. Abbosxon, Salimxon, Murodxo’ja domlalar doirasiga kirib, qahramonlik ko’rsatishga urinish o’zini oqlamaydi. Oshiqning o’zligini topa olmasligi “visol” motivi g’arb an’analariiga mos ravishda asardan tushib qolishiga zamin bo’ldi.

Saidiy ish borasidagi katta-katta niyatlari amalga oshmagani va buning kamiga oilaviy baxtsizlik sabab o’zining hayotini sarobdek ko’rdi. Hayotda yashashdan maqsadini yo’qotgach, o’z-o’zini o’limga mahkum qiladi. “Hayot jomini ko’tarding, uning sharbatini ta’tib ko’rding, shunaqa, ichgan sayin tagidan taxiri chiqa beradi. Bas, endi, hayot bozoridan xarid qilib bo’lding, endi bemahalg qolmasdan qayt! Bemahalg qolsang quvg’in yeysan. Asaldan tortib maygacha hammasini tatib ko’rgansan, hammasidan to’ygansan. Shu tomog’ingdan bir qultum may o’tdi nima bo’ldi-yu, million shisha

may o'tdi nima bo'ldi! Seni uch kun ortiqroq umr ko'rishga majbur qiladigan nima qoldi! Shunday ekan nima qilib o'tiribsan, tur tezroq!" [1;255]..

Saidiyning psixologik holati o'zini yo'q qilishga undaydi. U butun umr o'zi ishongan, e'tiqod qo'ygan maslagi sarobdan iborat ekanligini anglab fojiali halok bo'ladi. "Lekin gulxan uning ko'z o'ngidan ketmas edi. Gulxan, haqiqiy gulxan lovullab, uchqunlar sochib yonmoqda. Ammo bu gulxan Munisxon, olamshumul adiblik, vodiya solinadigan qasr va qasrning ustida hilpirab turgan ko'k bayroq singari uzoqda bir sarob bo'lib qoldi. Saidiy o'zini qor ko'mayotganini, oyog'ida boshlangan karaxtlik asta-sekin boshigacha yetganini aniq bildi va hushidan ketdi"[1;257]..

Xulosa

Ko'rinib turibdiki, romanda inson fojiasi muhit ta'sirida shakllangan psixologik holat, ma'naviy yo'qotish natijasida yuzaga keladi. Bunda zamon va shu zamon odamlariga xos xususiyatlar bevosita asar qahramonlariga ta'sir qilib sekin-asta o'z domiga tortib ketgan.

Sovet davri adabiyotida "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi sinfiylik asosida talqin qilindi. Oshiq va ma'shuqa kambag'al tabaqadan ekanligi ularni birlashtirib, sinfiylikka qarshi faol kurashga chorladi. Raqibning boy tabaqadan chiqqanligi oshiq bilan qarama-qarshilikning asosi sifatida beriladi.

Umuman olganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiy-an'anaviy "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi bir qadar tarixiy bosqichlarni bosib o'tib, mustaqillik davri romanlariga an'anaviy obraz sifatida o'tishiga zamin bo'ldi. Ushbu uchlikning mustaqillik davri romanlarida ham an'anaviy ham jahon romanchiligi ta'sirida sentizlashib, badiiy asar kontekstida tizim sifatida o'z aksini topishida sovet davri romanlarining o'rne beqiyos.

Adabiyotlar

- Қаҳҳор, А. 2019. Сароб. – Т.: “Қалдирғоч нашриёти”.
 Бахтин, М. 2015. Романда замон ва хронотоп шакллари (Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси) –Тошкент: Akademnashr.
 Норматов, У. 2007. Мафкуравий-сиёсий тазйиқ ва истеъдод кудрати/ Устоз ибрати. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
 Ҳамроқулова, Х. 2014. Абдулла Қаҳҳорнинг “Сароб” романида шахс фожиаси талқини. Т.
 Жўрақулов, У. 2015. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги ММИУ.

The image of a “Lady-love, suitor, rival” in the novel “Mirage”

Yulduz Ziyaeva¹

Abstract

The theoretical component uniting the main genres of epic thought is the system of images. The novel works in the genre of fiction among such large genres. From this perspective, it is important to study the imaginary system of the novel genre in the context of the genre. In the article the historical-traditional image of “lady-love, suitor, rival” in the novel of Abdullah Kakhor “Mirage” (“Sarob”) is created by generalization of influence of traditional and world novels, as well as “meeting” (“dates”), “separation”, “visualization”. The novel’s plot explores the motives.

Key words: *historical and traditional image, “lover-lover-rival”, “meeting”, “separation”, “visual” motives, mastery of image creation, psychological image.*

References

- Qahhor, A. 2019. Sarob. – T.: «Qaldirgoch nashiriyoti».
- Bakhtin, M. 2015. Romanda zamon va khronotop shakllari (Rus tilidan U.Zhürakulov tarzhimasi) –Toshkent: Akademnashr.
- Normatov, U. 2007. Mafkuraviy-siyosiy tazyik, va iste’dod qudrati/Ustoz ibratlari. – T.: A.Navoiy nomidagi Ўzbekiston Milliy kutubkhonasi.
- Hamrokulova, Kh. 2014. Abdulla Qahhorning «Sarob» romanida shakhs fozhiasi talk’ini. T.
- Zhürakulov, U. 2015. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Zhanr. Khronotop. – Toshkent: Ğafur Ğulom nomidagi MMIU.

¹ Yulduz T. Ziyaeva – Doctor of Philosophy (PhD). Senior lecturer. Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: ziyayevayulduz43@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5398-1728

For citation: Ziyaeva, Y. 2023. “The image of a “lady-love, suitor, rival” in the novel “Mirage”. *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 40-45.

“Askar mukofoti” asarida avtobiografik romanga xos xususiyatlar

Nilufar Jumayeva¹

Abstrakt

Ushbu maqolada jahonga mashhur, amerikalik yozuvchi Uilyam Folknerning ilk asari “Askar mukofoti” romanining badiiy xususiyatlari hamda avtobiografik romanga xos xususiyatlari ochib berilgan. Muallif ushbu romanida o‘zining boshidan kechirganlari, hayotida sodir bo‘lgan ayrim voqea-hodisalarni asarda qisman aks etadi. Shu bois ushbu fragmentlar asar ichidan olingan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *avtobiografik, element, shaxsiyat, oqim, metafora, obyekt, obraz, hissiy idrok, reallik.*

Kirish

Jahon va Amerika adabiyotining o‘ziga xos betakror, eng keskin uslubli yozuvchilaridan biri Uilyam Folkner inson fojialarini eng yuksak gumanizm nuqtayi nazaridan yoritgan adib sanaladi. Folkner o‘z asarlarida XIX- XX asr Amerika hayoti, tarixi realliklarini, tang vaziyatlarni haqqoniy, qiziqarli tasvirlaydi shuningdek, o‘ziga xos individual uslubini yarata olgan yozuvchilardan. Uning barcha asarlari, ularning voqealari, qahramonlari o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketadi va yaxlit manzara kasb etadi [9:294].

Folknerning adabiy manbalari “yangilik yaratish” uchun modernizm sa’y-harakatlaridan-da, chuqurroq ildizga ega. Folkner odatda Qadim Ahd (Old Testament), Shekspir (William Shakespeare, 1564-1616), Dikens (Charles Dickens, 1812-1870) va Konrad (Joseph Conrad, 1857-1924) asarlariga qiziqishi borligini bildirgan.

Uilyam Folkner ilk romani “Askar mukofoti” (“Soldiers’ Pay”) ni 1929-yilda yozdi. Bu roman Buyuk urush deb nomlangan birinchi jahon urushida qatnashgan (1914-1918) va undan qaytib kelgan avlodning tushkun kayfiyatini, umidsizligini aks ettirgan. Ernest Xeminguey o‘zining “Quyosh ham chiqadi” (“The Sun also rises”, 1926) nomli romanining epigrafi sifatida Gertruda Shteynning

¹ Jumayeva Nilufar G‘ulomovna – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi.

E-pochta: kamilka77.nj@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7079-2363

Iqtibos uchun: Jumayeva, N.G. “Askar mukofoti” asarida avtobiografik romanga xos xususiyatlar”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 46-53.

“yo‘qotilgan avlod” degan izohidan foydalangan va o‘sha davrni tasvirlash uchun shunday shior paydo bo‘lgan. “Yo‘qotilgan” atamasi borliqning jismoniy holatini emas, balki metaforik holatni anglatadi. Urushdan omon qolganlar uchun jang tugaganidan keyin hayotda maqsad yoki ma‘no hissi yo‘qdek tuyuldi. Folkner, Xeminguey va F. Skott Fitsjerald kabi romanchilar o‘z avlodlari birgalikda azob chekayotgani haqida yozganlar. Ilk modernizmning mavzulari va uslublari Folkner va Xemingueydan emas, balki ulardan oldingi shoirlardan, birinchi navbatda, Ezra Paund (Ezra Pound, 1885-1972) va T.S. Eliotdan hamda irlandiyalik yozuvchi va nasr novatori Jeyms Joysdan kelib chiqqan.

XX asrda ruy bergan urushlar G‘arb dunyosining, odamlarining his-tuyg‘ularini butunlay o‘zgartirdi. Adiblar ushbu jarayonni, holatni ifodalash uchun roman janri imkoniyatlaridan unumli foydalandilar. Shu sababli bu davrda eng ko‘p tarqalgan janrlardan biri roman janri hisoblanadi. M. Baxtinning qat‘iy xulosasiga ko‘ra, adabiy janrlar ichida romanchalik beqaror, shakl va mazmunini doimiy o‘zgartirib turadigan, muayyan qolipga bo‘ysunmaydigan boshqa bir janrni topish qiyin. Roman shunchaki janrlar ichidagi janr emas. Bu allaqachon suyagi qotib ulgurgan va qisman halokatga yuz tutgan janrlar ichidagi yakkayu yagona shakllanayotgan janrdir [1:222]. Folkner o‘zining ilk romani “Askar mukofoti”ni katta zavq bilan qisqa muddatda, bir suhbatda asarni uch-to‘rt haftada, yana bir suhbatda esa uch oyda yozganini aytadi [2:62].

Romanda muallif hayotiga doir ayrim avtobiografik elementlar mavjudligi uchun avtobiografik roman janriga mansub deya olamiz. Avtobiografik roman janri, asosan, Benvenuto Cellini (1500-1571) ning “Benvenuto hayoti”, G. Kardano (1501-1576)ning “Mening hayotim haqida” va M. Montaign tufayli yangi bosqichga ko‘tarildi. 20-asrning boshlari bilan avtobiografik roman o‘z rivojlanishining to‘rtinchi davriga kiradi. 20-asrning eng yaxshi avtobiograflari orasida G. Adams, G. K. Chesterton, M. Gorkiy, Mark Tven, G. J. Uellsni borligini qayd etish lozim [3:1].

Ma‘lumki, har qanday ijodkorning yozish uslubi, qobiliyati, mushohada yuritishi, badiiy mahorati uning asarlarida o‘zgacha tarzda namoyon bo‘ladi. “Askar mukofoti” avtobiografik romanidagi har bir badiiy unsur yozuvchi uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, qahramon xarakteriga xos qirralarini ochib berishi, ijtimoiy munosabatlar talqini, siyosiy voqelikning xarakterlarga ta‘sirini tahlil qilishi ham sintezlashgan holda namoyon bo‘ladi. Folknerning qarashicha, inson har qanday qiyinchilik va mashaqqatlarni yenga

oladi, kurashuvchan odam bu olamda g'alabani qo'lga kiritadi. Adolatli inson har qanday zulm-zo'ravonlikka qarshi tura oladi.

"Askar mukofoti" asari o'zining sarlavhasidan kelib chiqqan holda mantiqqa mos kelmaydigan simmetrikal kelishmovchiliklarni namoyish etadi. Bu xuddi kutilgan va haqiqiy "mukofot" o'rtaidagi tafovutni istehzo bilan ko'rsatishga o'xshaydi, aslida haqiqiy "mukofot"ni asarni to'liq o'qigach tushunishimiz mumkin. Ushbu asar insonni hayotdan nima kutganligi, qalb kechinmalari, iztiroblari haqida hikoya qiladi. "Askar mukofoti" yozuvchining birinchi romani bo'lib, u zamonaviy davr romanini yaratishda bo'lgani kabi, boshqa yozuvchilar haqida ham bilgan va o'ylagan narsalarni namoyish etdi. Qisqacha aytganda, roman syujetida yuqori darajadagi bir guruh bir-biriga zid bo'lgan, paradoksal personajlar mos kelmasa-da, qarama-qarshi qo'shimcha epizodlar yordamida tasvirlangan [7:162].

Romanning bosh qahramoni urushda halok bo'lmay tirik qolish baxtiga musharraf bo'lgan askar - tirik qolgan-u, ammo "yashamayotgan" jasad sifatida tasvirlangan Donald Megon hisoblanadi. Har bir bob bir nechta bo'limlarga bo'linadi, ularda sahna yoki nuqtayi nazar o'zgartiriladi. Shu bilan birga, "Askar mukofoti"da juda go'zal, she'riy nasr parchalari va xarakter rivojlanishining hayratlanarli tasvirlari mavjud bo'lib, ular shunchaki o'qish uchun kitob emas, balki chinakam davrni tasvirlagan ajoyib asar hisoblanadi.

"Askar mukofoti" romanidagi qahramonlar urushda ishtirok etib chuqur iztiroblar, psixologik tanazzullar, jismoniy jarohatlar bilan o'z vatanlariga qaytadilar. Urush asoratlari nafaqat urush qatnashchilari hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, balki, o'z navbatida, ularning oilasiga, sevgan ayollari hayotiga, ruhiyatiga ham jiddiy ma'naviy zarar yetkazadi. Donald Megon urush tugashiga yaqin qolganda yaralangan va dahshatli qiyofaga kelib qolgan bo'lib, uning bunday holati, ko'rinishi uni kutayotgan yaqinlarining unga nisbatan turli munosabatlarini namoyon qiladi. Vatanini, birinchi muhabbatini sog'ingan Donald ona shahri Jorjiyadagi uyiga qaytadi. Donaldning ilk sevgisiga sazovor bo'lgan qiz Emmi ayriliqda azoblanadi. Emmi tabiatga oshno, qalbi ham, o'zi ham go'zal bir qiz bo'lib, 14 yoshida 19 yoshli Donald bilan tanishadi. Donaldning otasi ularning muhabbatiga qarshilik qiladi, shuning uchun u boshqa qizga ya'ni, Sesili Sondersga unashtiriladi. Ammo Emmi uni sevishdan, kutishdan to'xtamaydi. Adib Emmi shunday ta'riflaydi:

"And I went to him. And it was like old times because I forgot all about him marrying her, because he still liked me, to come for me

after so long. - Ma’nosi: Va men uning oldiga bordim. Bu xuddi avvalgi davrlarga o’xshardi, chunki Donald hali ham meni sevadi, shuning uchun u mening yonimga qaytdi deb o’yladim va uni Sesiliga uylanishi haqidagi fikrni xayolimdan chiqardim.

Keltirilgan parchada Emmi Donaldni hatto urushdan nogiron bo’lib qaytgan holatida, ya’ni ko’zi ko’r bo’lib, o’limi yaqinlashib qolganda ham unga turmushga chiqishga tayyor ekanligini aytadi. Emmi timsolida muhabbati uchun hamma narsaga tayyor fidoyi ayol obrazi gavdalantirilgan.

Marry him? Yes! Yes! Let him be sick: she would cure him; let him be a Donald that had forgotten her—she had not forgotten: she could remember enough for both of them.- Ma’nosi: Unga turmushga chiqish? Ha, ha, albatta! Mayli kasal bo’lsa ham, mayli u meni unutgan bo’lsa ham—men unutganim yo’q, men hammasini eslayman va bu xotiralar ikkimizga yetadi.

Shu yerda Folknerning hayotida ham shunga o’xshash holat yuz berganini ko’rishimiz mumkin. Uning hayotida 1918-yil va 1919-yilning boshlarida bolalikdagi sevgilisi (yagona sevgilisi, asarda xuddi Emmi singari), rafiqasi bo’lishini orzu qilgan qiz Estel Oldem 1918-yil 18-aprelda Janubdagi badavlat oilaning farzandi Kornel Franklinga turmushga chiqib u bilan Gonoluluga ko’chib ketadi. Romanda shu holat Donaldda aks etadi, ya’ni uning ham orzusidagi qiz Sesili Sonders ham Jorj Farr ismli boyvachcha yigitni tanlaydi.

Ushbu asarda dunyoda inson o’z qilmishlari uchun afsuslanishi yuqori darajadagi axloqiy sifat darajasiga ko’tarilgan. “Askar mukofoti” asari o’ta vazminlik bilan, umidsizlik tuyg’usi hamda tasavvuriy voqealar o’rtasidagi bog’liqlikni namoyish etib, Folknerning qaysidir holatda to’qima asar yaratganligini yaqqol ko’rsatib beradi. Ammo ba’zi elementlar Donald orqali Folknerning qisman o’zining hayotida sodir bo’lgan voqealarni tasvirlagan deyishimiz mumkin, ya’ni bu avtobiografik romanga xos belgilarni ta’kidlashimiz lozim.

Avtobiografik asar (yunoncha autos - o’zim, bios - hayot, grapho - yozaman) – muallifning o’z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Mutaxassislar avtobiografik asarni chegaradagi, ya’ni boshqa janrlar bilan kesishuvchi janr deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham, avtobiografik asarning memuarlar, kundaliklar, ayrim sayohatnomalar bilan o’xshash tomonlari bor. Ularning memuarlardan farqi shuki, memuar asarda muallifni voqelik (o’zi uchratgan kishilar, guvohi bo’lgan yoki qatnashgan voqealar) qiziqтира, avtobiografik asar muallifi diqqat markazida o’zining voqelik bilan uzviy aloqadagi shakllanish tarixi, qalb va

ongi tarixi turadi. Farq shuki, kundaliklar, tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti bilan ular haqida yozish vaqti orasida davriy masofa yo'q, bu esa o'z hayotini bir butunlikda ko'rishga halal beradi, ya'ni muallif bosib o'tgan hayot yo'li uning o'zi uchun estetik idrok obyektiga aylanmaydi [8:83].

Avtobiografik asar bilan avtobiografik xarakterdagi asarlarni farqlash kerak. Har bir yozuvchining asarida albatta, avtobiografik jihatlar aks etadi, busiz mumkin emas. Sababi, badiiy ijod namunasi ijodkorning shaxsiy turmush tajribalari asosida yaratiladi. Asar yaratilish jarayonida ijodkor bevosita guvoh bo'lgan holatlar, shular ta'sirida yuzaga kelgan o'y-kechinmalar matnga singib ketishi tabiiy. Avtobiografik xarakterdagi asarda biografik unsurlar salmoqli o'rin tutgani holda, badiiy to'qima hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytsak, xuddi real prototipiga ega asarlardagi kabi, avtobiografik xarakterdagi asar uchun muallif - prototip, xolos, uning asosida boshqa bir shaxs obrazi yaratiladi [4:6].

Yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra ushbu roman avtobiografik xarakterga ega roman janriga mansub bo'lib, Folkner o'zi haqida boshqa hech bir romanida "Askar mukofoti"dagi kabi ochiq-oydin bayon qilmadi. Romandagi personajlardan Qirollik havo kuchlari kursanti Julian Lou, ehtimol, hatto bema'ni Yanuarius Jons va qayg'uga botgan Jorj Farrda bo'lgan holatlar Folknerda ham sodir bo'lgan. Asosan, Folknerning yoshligidagi subyektiv portretini topishi mumkin bo'lgan yarador askar Donald Megonning xarakterini o'z ichiga olgan deb o'ylaymiz. Donald Megon personajining avtobiografik ahamiyati tufayli Folknerning hayotida "Askar mukofoti" yozilishidan oldingi yillarda sodir bo'lgan voqealarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shunda Folkner qanday qilib bu ramz orqali subyektiv ifodaga erishganini yaxshiroq tushunish mumkin.

Birinchi jahon urushi yakunlanishi bilan Folkner Qirollik Havo Kuchlaridan rasmiy demobilizatsiya hujjatlarini oladi. U Missisipi shtatining Oksford shahriga qaytib keladi, va u yerda o'zini yarador jangovar faxriy deb hisoblab, o'zining formasini kiyib, oqsoqlangancha, urushdan qaytib kelgan amerikalik askarlar bilan ko'rishadi, ular tabiiyki, Folknerni xorijda xizmat qilgan deb o'ylashar edi. Romanda Donald Megon ham Qirollik Havo Kuchlarida xizmat qilgani aytib o'tiladi:

"Look at his wings," Lowe answered. "British. Royal Air Force. – Ma'nosi: "Qanotlariga qarang"- dedi Lou, "Britaniya Qirolli Kuchlari"

Jaklin Linchning fikricha, Folknerning urushdan keyingi o'ziga xos chalkashligi haqidagi xayoliy tasviri Fasselning Birinchi jahon urushining madaniyatga ta'siri haqidagi tarixiy tadqiqotiga kiritilgan

urush voqealari bilan mos keladi. Uning ta’kidlashicha, harbiy xizmatga chaqirilgan askarlar ko’pincha o’zlarining “men” tuyg’usini boshdan kechirishadi, bunda ularning ruhiyati urushdagi askarning vaqtinchalik rolini go’yoki melodramadagi aktyor roli sifatida qabul qiladi, boshqa qismi esa voqealar tomoshabiniga aylanadi. Bu urushdan qaytgach uylaridagi “haqiqiy hayot” askarining bir qismi bo’lish uchun juda g’ayrioddiy tuyulardi [5:191][10:90].

Shu bilan birga, “Askar mukofoti”da Donaldning otasi doktor Megon birinchi bo’lib e’tiborini Donaldning fravnlaricha fazilatlariga qaratadi. Doktor Megon, Yepiskopiya rektori, mehmoni bo’lgan tasodifiy tanishi Yanuarius Jons bilan suhbat mobaynida, o’lgan deb hisoblagan o’g’lini eslab qayg’urgancha uning o’n sakkiz yoshga to’lganida olingan fotosuratini ko’rsatadi. (Folknerning tarjimaiy holini yozgan Blotnerning ta’kidlashicha, doktor Megon jismoniy jihatdan Uilyam Folknerning otasi Merri Folknerga o’xshaydi deb yozadi. Uilyam Folkner esa Donaldga o’xshardi, Blotner bizga Folknerning taxminan 1926-yildagi suratlardan biri “Uilyam Folkner juda o’xshash”ligini aytadi.)

Xulosa

Romanda makonlar o’zgaradi, muallif asar qahramonlarini goh u makonda, goh bu makonda ekanligini aks ettiradi, ammo makon o’zgarsa-da obrazlar tasviri, ularning his-tuyg’ulari o’zgarmasdan qoladi. Shuningdek, ushbu romanda zamon ham o’zgarganligini ko’rishimiz mumkin, ya’ni bu urushdan oldingi, va urush tugagandan keyin hayot aks etgan davr. Zamonlar o’tishi bilan insonlar ham o’zgaradilar. Misol uchun, asar qahramonlaridan biri Sesilining ham xarakteri o’zgara boradi: urushgacha bo’lgan davrda Sesili Donaldga unashtirilgan bo’lsa, urushdan keyin u Jorj Farr ismli yigitni qo’lini tutib ketadi, va shu yerda biz “askar mukofoti”ning aslida qanaqa “mukofot” ekanligini to’la anglab yetamiz. Shunday qilib, biz muallifning ushbu romanida tasvirlangan Donald Megon obrazini xayoliy qahramon emasligiga ishonch hosil qildik. Ushbu asarda tasvirlangan syujet va voqealarning aksariyati yozuvchi hayotidan olingan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu roman Folknerning ilk romani bo’lishiga qaramay, urush davri voqealari, undan keyingi ijtimoiy holat va inson qadrini mohirona yoritib bergan.

Adabiyotlar

Baxtin M. Epos va roman (Romanni talqin etish metodologiyasi haqida)
Rus tilidan M.Olimov tarjimasi//Filologiya masalalari. 2005.
№3-B. 222.

- James B. Meriwether and Michael Millgate, eds., *Lion in the Garden Lion in the Garden: Interviews with W. Faulkner, 1926-1962*. Random House, 1968. – P.62.
- <http://ru.wikipedia.org/wiki/Автобиография>. - Автобиография.
- Қуронов Д. *ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати*. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.-6.
- Fussel, Paul. *The Great War and Modern Memory*. - London, Oxford UP, 1975. – P. 191.
- Faulkner W. *Soldiers' Pay*. - New York: Boni & Liveright, 1926. - P. 231.
- Jumayeva N. Janublik adib ijodiga nazar. O'zMU xabarlar. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jumali. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. Toshkent, 2020. - № 1/6/1 — B.161-163
- Jumaeva N. Sign of symbolism in novel "The Sound and The Fury" by W. Faulkner // *Current research journal of Philological sciences*. – Volume 3, Issue 11. – USA, 2022. – P 64– 71. (Impact Factor SJIF- 6.041) DOI-10.37547/crjps. ISSN 2767-3758 <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-11-11>
- Jumayeva N. Amerika adabiyotida Folkner ijodining o'rn. NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan, 202 1.-5 - son - B. 294- 299
- Ochilova D.B. Symbolism in the aspect of intertextuality. *Current research journal of Philological sciences*, 3(11), 90-96. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-11-14>

Characteristics of an autobiographical novel in “Soldier’s Award”

Nilufar Djumaeva¹

Abstract

This article reveals the artistic features of the world-famous American writer William Faulkner's first work, "The Soldier's Award", as well as the characteristics of the autobiographical novel. In this article, the author partially reflects his experiences and some events that happened in his life. Therefore, in the process of investigation, these fragments were taken from the work and analyzed.

Key words: *autobiographical, element, personality, stream, metaphor, object, image, emotional perception, reality.*

¹ Nilufar G. Djumaeva – Doctor of Philosophy (PhD). Senior lecturer, Karshi state university.

E-mail: kamilka77.nj@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7079-2363

For citation: Djumaeva, N.G. "Characteristics of an autobiographical novel in the "Soldiers' pay". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 46-53.

References

- Baxtin M. Epos va roman (Romanni talqin etish metodologiyasi haqida) Rus tilidan M.Olimov tarjimai//Filologiya masalalari. 2005. №3-B. 222.
- James B. Meriwether and Michael Millgate, eds., *Lion in the Garden Lion in the Garden: Interviews with W. Faulkner, 1926-1962*. Random House, 1968. – P.62.
- <http://ru.wikipedia.org/wiki/Автобиография>. - Автобиография.
- Қуронов Д. *ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати*. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.-6.
- Fussel, Paul. *The Great War and Modern Memory*. - London, Oxford UP, 1975. – P. 191.
- Faulkner W. *Soldiers’ Pay*. - New York: Boni & Liveright, 1926. - P. 231.
- Jumayeva N. Janublik adib ijodiga nazar. O‘zMU xabarлари. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jumali. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi.Toshkent, 2020. - № 1/6/1 — B.161-163
- Jumaeva N. Sign of symbolism in novel “The Sound and The Fury” by W. Faulkner // Current research journal of Philological sciences. – Volume 3, Issue 11. – USA, 2022. – P 64– 71. (Impact Factor SJIF- 6.041) DOI-10.37547/crjps. ISSN 2767-3758 <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-11-11>.
- Jumayeva N. Amerika adabiyotida Folkner ijodining o‘rni. NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan, 202 1.-5 - son - B. 294- 299.
- Ochilova D.B. Symbolism in the aspect of intertextuality. Current research journal of Philological sciences, 3(11), 90-96. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-11-14>.

Satira va yumorga oid ayrim mulohazalar

Osiyo Siddiqova¹

Abstrakt

Asl hayotiy kulgili vaziyatlar ijodkor adiblar tomonidan komedik asarga joylanadi. Hayotdagi ijtimoiy hodisalardan tashqari insonlar obrazi va yana turli mavjudodlar, jumladan, hayvonlar obrazi orqali ham komediyalar yaratiladi. Har bir ijodiy uslub o'zining afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklariga ham egadir. Tasvirdagi asosiy xarakter xususiyatini aniqlashtirish orqali tipiklashtirish komik obrazni yaratish usullaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada yumor va satiraning nazariy asoslari, funksional vazifalari asoslab berilgan. Ular ayrim asarlar doirasida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *yumor, satira, komediya, ijod, ijodkor, obraz, qahramon, personaj, kulgi, uslub, asar.*

Kirish

Kulgi bu – Ezopning quvnoq va achiq masxaralari, Fransua Rablening yotib olib kuldirishlari, Jonatan Sviftning o'tkir istehzoli kuldirishlari, Volterning hazil – mutoyibaga boy dono tabassum qildirishi, Mark Tvenning quvnoq hazillari, Bernard Shouning istehzoli, yaramas hazillari, Gogolning g'azabli, ezuvchi, ko'z yoshlarni to'ktirib kuldirishi, Chexovning qayg'uli lirik yumorlari, V.Mayakovskiyning zafarli kulgisi, M.Gorkiyning optimistik satiralari [Бопев 1970, 79] shular jumlasidandir. Bundan tashqari jahon adabiyotining yana bir qancha o'lmas vakillari kulgining barcha turlaridan mahorat bilan foydalanganlar. Bular: Shekspir, Molyer, Lope de Vega, Krilov, Griboyedov, Ostrovskiy va Fredrolar. Haqiqiy kulgi turli xil his – tuyg'ular bilan bo'yalgan holda ifoda etiladi. Shuningdek, yumorda ham satirada ham voqelikka estetik munosabatning alohida shakllariga asoslanadi. Kulgining aniq bir o'lchovi bo'lmaydi. Masalan, Gogolning komediyalaridagi kulgi xususida to'xtaladigan bo'lsak, ular-da kulgining aniq, hayratlanarli, murosasiz, shafqatsiz ko'rinishlarini uchratishimiz mumkin. Chexov esa komediya turlarining yorqin

¹ Osiyo Siddiqova Normurod qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-pochta: osiyosiddiqova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-8277-1349

Iqtibos uchun: Siddiqova, O.N. 2023. "Satira va yumorga oid ayrim mulohazalar". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 54-60.

galereyasini yaratgan. Uning asarlaridan bir qancha satirik tasvirdagi figuralarni, dono va mayin yumorlarni ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Satira va yumor o'rtasidagi farq nimada ekanligini biz, albatta, yaxshi anglaymiz va yuqorida ham bu xususda to'xtalib o'tgan edik. Undagi farqlar to'g'risida baxs yuritgan kinoshunos olim L.Belova, "Satira me'yordan chiqqan tasvirdir" [Винокуров 1952, 10], biroq me'yordan chiqqan har bir chetlanish, eksklyuzivlik kulgi bo'lavermaydi. Me'yordan chiqish tushunchasini aynan satiraga kiritish to'g'ri emas. Bilaks bu tushuncha satira bilan bir qator-da badiiy adabiyot tarkibiga kiruvchi boshqa turlar misolida ham uchratishimiz mumkin. N.G.Chernishevskiy "tanqidiy" va "satirik" istilohlari ustida so'z yuritar ekan, ikki so'zni bir – biriga qiyoslagan holda "...tanqidiy tushunchasi satirik tushunchadan kengroq, satirik oqim tanqiddan farq qiladi" [Чернышевский 18], degan mulohazalarni keltirib o'tgan.

Yumor va satira so'zlari ikki ma'noli so'zlar bo'lib, ularning birinchi ma'nosi engm, avvalo, ma'lum bir asar turi, ya'ni drama janrlaridan biri bo'lgan asar bo'lsa, ikkinchi ma'nosi bu – kulgining o'ziga xos bir turi bo'lib, unda emotsionallik ufurib turadi. Satirada hikoya qilinayotgan voqea – hodisa keskinlashtiriladi, bo'rttiriladi va ba'zida buzib ham ko'rsatiladi. Ammo undagi voqealar rivojining asl maqsadi tanqidiylik orqali komiklikni keltirib chiqarish demakdir. "Satiradagi voqelik ma'lum bir estetik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, u hamma hodisalarning keskin va tanqidiy kulgi ostida bo'lishiga "loyiq" emas, shuningdek faqat kuch – qudratga, hurmatga, yuqori mavqega ega insonlarni ko'rsatish ham noto'g'ri" [Винокуров 1952, 63]. Binobarin yumorlarda satiralardan farqli o'laroq asosan o'rta hol aholi, kambag'al dehqonlar, xizmatkorlar qalamga olinadi. Vinokurov ta'kidlaganidek, satiralarda faqat yuqori martabali insonlar tasvirlansa, qahqamonlari jihatidan tragediyalarga o'xshab qoladi. "Satira jamiyat hayotini kinoya bilan umumlashtirib, odamlarning yuksak mavqeyi va ularning ichki meni o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rsatadi" [Поспелов 1940, 187]. Yana G.Pospelovning mulohazalarida kulgi sokin va mayin bo'lgandan ko'ra qanchalik o'tkir, istehzoli va keskin bo'lsa, boshqalaridan shunchalik balandda turadi.

Satira va yumorda mavjud hodisa butunlay inkor etilib, voqelikning yuksak estetik ideallarga to'liq mos kelmasligi ochib tashlanadi. Bu narsa yumorda istehzoviy to'g'ridan – to'g'ri kulgili holatda ochilsa, satirada nomutanosiblik kuchli qamchilashlar, qoralash va istehzolar orqali amalga oshiriladi. "Hech kim o'zini satirada tan olishni yoqtirmaydi" (Krilov), yumorda esa qabul qilish oson, u hech

kinga uyat, haqorat yokida o'lim keltirmaydi.

Yumorda ma'lum bir g'oya, hodisa yoki voqeani yo'q qilishga emas, balki uni yaxshilashga chaqiradi. Yumorga olingan obyekt bir oz tanqid ostiga olinsa-da, o'z jozibasini saqlab qolgan bo'ladi. Yumor - do'stona va xushmuomila kulgi bo'lib, inson undan faqat rohat oladi. Satirada esa do'stona munosabatlar uchun vaqt yoq. Unda oshkoralik, shartakilik, tiyiqsizlik, zaxarhandalik balqiydi. "Satira – qamchidir, u zarb bilan yonadi" (Goncharov) [Борев 1970, 84]. Yumorda individual kamchiliklar tuzatilib, yolg'on qoralanadi. Chernishevskiy komediyasida insoniyat va Vatanning haqiqiy dushmanlarini aytmaydi, jamoat fikrini mensimaydigan odamlarni qoralaydi. Satira bu – kulgining artileriyasi deb, yozadi Yuriy Borev. Satiradagi hazillar zaharli, g'azabli va shavqatsiz. "Satira tomoshabinni shunchaki kuldirmaydi, balki larzaga soladi" [Чернышевский 654-656]. Bunday kulgini biz Gogolning "Hukumat inspektori" asarida uchratishimiz mumkin. Jahon adabiyoti namunalaridan shuni bilamizki, satirada ko'pincha kulgi va g'azab birlashadi. "Men kulgan odamga, agar u menga yomonlik qilsa ham, endi jahl qila olmayman" [Кант 1940, 216].

Belinskiy komediya haqida yozar ekan u bunda haqli edi, "Komediya, jamoat axloqining asoslarini chuqur ko'rib chiqishni talab qiladi va bundan tashqari, undagi hazil – mutoyibani o'z tushunchasi bilan kuzatuvchilar ulardan ustun turishi kerak" [Белинский 1956, 68]. Bu fikr-mulohazalardan shu narsa anglashiladiki, komediyada tasvirga olinayotgan hazillar orqali ijodkor xalqqa nima demoqchi, ba'zan uning tag ma'nosiga hamma ham tushunavermaydi. Bu fikrlarni qayd etar ekanmiz yana shuni ham ta'kidlab o'tmog'im lozimki, yuqoridagi gaplarimiz hamma komediyalar uchun taalluqli emas, albatta. "O'z aqlingiz bilan tasvirlangan dunyodan ustun turish – bu satira qonunidir" [Щедрин 123]. "Satiraning o'z oldiga qo'ygan maqsadi adolatdir" [Борев 1970, 87].

Asl hayotiy kulgili vaziyatlar ijodkor adiblar tomonidan komedik asarga joylanadi. Hayotdagi ijtimoiy hodisalardan tashqari insonlar obrazi va yana turli mavjudodlar, jumladan hayvonlar obrazi orqali ham komediyalar yaratiladi. Bunda ijodkorlarning tub maqsadi komik asarlardagi hayvonlarning turli obrazlari orqali, ma'lum bir shaxslarga taqlid qiladilar. Ammo bunday obrazlarni tanlash ko'pincha komediyalarda emas, masallarga taalluqlidir. Nima bo'lgan taqdirda ham masallar ham xuddiki, komediyalar kabi biz kitobxonga kulgi bag'ishlaydi.

Yana bir bor Chexov ijodiga qaytadigan bo'lsak, u o'zining bir

qator komediyalarida hayot bilan bog'liq bo'lgan barcha murakkabliklarni, uning turli qirralarini va xususiyatlarini, kuchli ijodiy uslubi orqali yoqqol namoyon qila olgan. Shuningdek, u qahramonlari orqali hayotning ijobiy va salbiy tomonlarini mohirona ochib berishga harakat qilgan bo'lsa-da, asarlaridagi dominantlik ko'proq salbiy xususiyatlarga qaratilgan. Har bir ijodiy uslub o'zining afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklariga ham egadir. Tasvirdagi asosiy xarakter xususiyatini aniqlashtirish orqali tipiklashtirish, komediya obrazini yaratish usullaridan biri hisoblanadi. Milliy adabiyotimiz hamda jahon adabiyotida har bir ijodiy uslub o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Qahramonlarni komik jihatdan tipiklashtirish, ijodkorning tasvirlayotgan personajlariga munosabatini lo'nda va konkret qilib ifodalashidir. Tipiklashtirish ko'p qirrali va kata hajmli tasvirlarni yaratish imkoniyatini toraytiradi. Komediya tasviriga nisbatan aniq munosabatini ochib berish qobiliyatiga biroz to'sqinlik qiladi. Bunday holatda, estetik baholashning ma'lum bir nisbiyligi birinchi o'ringa chiqadi. Muallif bizni o'zi yaratgan personajlariga nisbatan aniq bir munosabat bildirishimizga olib kelmaydi. Komediya xarakteristikasidagi butun bir serqirralik, va undagi personajlarning barcha yaxshi va yomon xususiyatlari bilan tasvirlaydigan ijodkorlar orasida Shekspir alohida ajralib turadi. "Uning qahramonlaridan biri Falstaff bir vaqtning o'zida irodali, xushchaqchaq, xushmuomala, quvnoq, ba'zida ritserlik ham unga xos, shuningdek, qo'rqqoq, beparvo, ayyor, axmoq va ichkilikbozlik ham begona emas" [Bopev 1970, 201]. Uning xarakteriga yaxshilik bilan yomonlik, go'zallik bilan xunuklik chambarchas bog'langan. Shu sabablardan Falstaffning obrazida satirik ruh yo'q. Unda faqat xushmuomala va hazil – mutoyibaga xos kulgi aks ettirilgan. Shekspirning yovuz qahramonlaridan biri Sheylokni "bolalarni yaxshi ko'rishi", tasvirlangan. Uning qahramonlaridagi bunday xususiyatlar Shekspirning serqirra ijodkorligidan dalolat beradi. Gap nafaqat u yaratgan daholarning o'ziga xos xususiyatlari, balki u yashagan davr muhitida hamdir. Shekspir davri – feodalizmdan kapitalizmga o'tayotgan burilish davri, eski axloqiy va estetik qadriyatlar va mezonlarning qadrsizlanayotgan davri edi. Bunday murakkab davrda odamlarning nima yaxshi-yu, nima yomonligini ajratib olishlari ham amri mahol edi. Yaxshilik va go'zallikning o'zi ham ba'zan yomonlikning davomi, aksincha yomonlik esa, yaxshilikning nasli bo'lib chiqdi. Bularning barchasi mutloq axloqiy nisbiylik va mutloq estetik nisbiylik hukmronligini anglatmaydi. Ko'rib turganimizdek bu davr o'zining chalkashliklari bilan bir murakkab jarayonda bo'lgan. Shekspirn-

ing personajlarida esa, tasvirlangan obrazlar nisbatan aniq bo'lgan. Amma bu aniqliklarda ba'zan murakkabliklar ham yo'q emas edi. Shu sababdan qahramonlardagi ma'lum bir xususiyatni o'ta o'tkir bo'yoqlar va mubolag'alar bilan ko'rsatish yaxshi natija bermaydi. Unga butun hayot davomida inson to'qnashishi mumkin bo'lgan barcha holatlar va munosabatlar, satirik ruhda yozilgan ayblovlardan tortib, turli nuqsonlarga boy bo'lgan, insonda hamdardlik his-sini uyg'otuvchi vaziyatlar bilan boyitilsa, bu asar, albatta qiymatli bo'ladi. Shekspir ijodida aynan shunday bir xususiyatga bog'lanib qolgan personajlar bilan emas, ham axloqiy ham estetik ahamiyatga ega obrazlar, ezgulik va yovuzlik, go'zallik va xunuklik, yuksaklik va tubanlik kabi ziddiyatlar birgalikda keltirilgan. Hozirgi zamonda ham, o'rta asrda ham bu qarama-qarshi kuchlar bir-biridan tubdan farq qilgan. Yuqoridagi mulohazalardan shuni anglashimiz mumkin-ki, Shekspirning komediyalarida tipiklashtirish tamoyillari, tarixiy taraqqiyotning qarama-qarshi bir davri (feodal jamiyatdan burjua jamiyatga o'tayotgan davr) ostida shakillandi. Uning asarlari shu qadar katta hajmli, ko'p qirrali bo'lib, komediya san'atini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Demak, komediyalardagi qahramonlar bir vaqtning o'zida ham ijobiy ham salbiy jihatlarni o'zida namoyon eta olishi mumkin. Shekspir kabi o'z komediyalarida serqirra obraz yaratuvchilardan yana biri V. Mayakovskiydir. u o'zining "Qo'rqqoq" she'rida qo'rqqoqlikning turli qirralarini, uning o'zgarishlarini, namoyon bo'lish shakillarini, shuningdek, qo'rqqoqlik bilan hamroh bo'ladigan salbiy fazilatlarini yoritgan. Bundan tashqari, "...uning "O'rtoq Ivanov" nomli she'rida katta hajmli xarakter yoritilgan bo'lib, unda ijodkor tomonidan turli komik salbiy xususiyatlarning mozaikasi shakillantirilgan" [Бопев 1970, 203]. Koreys tadqiqotchisi Kim San Sekning ta'kidlashi bo'yicha, "kulgiga nafaqat kamchiliklar, balki ijobiy hodisalar va qarama-qarshiliklar sabab bo'ladi" [Пхеньян 1954, 80-81].

Xulosa. Komediya xarakteri aynan komik sharoitda to'liq namoyon bo'ladi. Komediya qahramoni har qanday vaziyatga, shu jumladan halokatli vaziyatga tushib qolishi mumkin. Ammo bu vaziyat jiddiy bo'lmay, shunchaki insonni kulgisini qo'zg'atadigan darajada soddagini bo'lishi kerak. Chunki komediya qahramoni uchun eng zarur narsa bu komiklikdir. Komediyalar aynan shunday holatlardagina o'zini to'liq va teranlik bilan keng qamrovda ochiladi. Shuningdek, undagi to'qnashuvlar bir qator xususiyatlar bilan namoyon qilinishi kerak. Komediya xususiyatlarining muhim tarkibiy qismi komediya intrigasidir. Komediya xususiyatlari haqidagi chuqur mu-

lohzalar Gegelning “Estetika”sining uchinchi jildi oxirgi bobida keltirilgan. “Intriga – asosan bir shaxsning boshqalarni aldab oʻz maqsadiga erishishiga harakat qilishi” [Гегель 1936, 82]. Komediyalarda aynan mana shu vaziyat kulgiga yoʻl ochadi. Yaʼni komik qahramon oʻzini ideal va bekamikoʻst koʻrsatish uchun boshqalarni aldaydi. Demak, bu vaziyat adabiyotimizda komediya intriga deb yuritiladi. Komediyalarga bunday intrigalarning kirib kelishi Rim komediyalarida qullar obrazi orqali amalga oshgan. Hozirgi komediyalarda esa oʻz hoʻjayinlarini chuv tushurib aldaydigan xizmatkorlar qalamga olindi. Ular oʻz manfaatlari uchun hoʻjayinlarini boplab aldaydilar. Insonlar oʻz maqsadiga erishish uchun turli tusga kirishi, albatta, kulgi hissini uygʻotadi.

Masalan, Hamzaning “Maysaraning ishi” komediyasida Maysaraning ikki erkakni boplab uyaltirish uchun qoʻllagan hiyla va aldovlari va ularning ogʻildagi holati. Buni biz komediyaning intrigasi deb ayta olamiz. Chunki bu vaziyatda har ikki tomon aldov orqali oʻz maqsadiga erishmoqchi. Bu esa biz kitobxon uchun kulgili bir vaziyatni keltirib chiqaradi. Shuningdek, biz tomoshabin sifatida komediyaga yashiringan sirni bilamiz. Koʻpincha undagi kulgi ostiga olingan shaxslar mamlakatimizdagi yokida boshqa yurtdagi hurmat – eʼtiborga sazavor shaxslarga nisbatan jiddiy ravishda qoʻllanilgan hiyla va fitnalardan qoʻrqmasdan ochiqchasiga kulamiz. Komediya intrigasi komik holatni yaratish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Komik holatda esa, personajlarning asl yuzi ochiladi. Boshqa tomondan olib qaraydigan boʻlsak, kulgili qahramonlarning namoyon boʻlish holati, aynan shunday vaziyatga muhtojdek.

Adabiyotlar

- Борев, Ю. 1970. Комической Издательство «Искусство» Москва.
«Вопрос искусства», 1954. Пхеньян.
Белинский, В.Г. 1956. Полное собрание сочинений Т VIII, М.
Винокуров, Ю. 1952. О некоторых вопросах кинокомедии – «Искусство кино»
Гегель. 1936. Принцип трагедии, комедии и драмы. – «Литературный критик».
Кант, И. 1940. Сочинения II. – Т.
Щедрин, Н. (М.Е.Салтыков) Полное собрание сочинений Т VI
Поспелов, Г.Н. 1940. Теория литературы М.
Чернышевский, Н.Г. Полное собрание сочинений Т III.

Comments on satire and humor

Osiyo Siddikova¹

Abstract

Real-life funny situations are put into a comedic work by creative writers. In addition to social events in life, comedies are created through the image of people and various creatures, including animals. Each creative style has its advantages and disadvantages. Typification by clarifying the main character trait in the image is one of the ways to create a comedic image. Our national literature and

Key words: *humor, satire, comedy, comic, creation, aesthetic, creator, image, hero, character, laughter, style, work.*

References

- Borev, Yu. 1970. Komicheskoye Izdatelstvo "Iskusstvo" Moskva.
"Vapros iskusstva", 1954. Pkhen'yan.
Belinskiy, V.G. 1956. Polnoye sobraniye sochineniy T VIII, M.
Vinokurov, YU. 1952. O nekotorykh fil'makh kinokomedii – «Iskusstvo kino»
Gegel. 1936. Printsip tragedii, komedii i dramy. – «Literaturnyy kritik».
Kant, I. 1940. Sochineniya II. – T.
Shchedrin, N. (M.Ye.Saltykov) Polnoye sobraniye sochineniy T VI
Pospelov, G.N. 1940. Teoriya literatury M.
Chernyshevskiy, N.G. Polnoye sobraniye sochineniy T III.

¹ Osiyo N. Siddiqova – Basic doctoral student of Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

E-mail: osiyosiddiqova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-8277-1349

For citation: Siddiqova, O.N. 2023. "Some comments on satire and humor". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 54-60.

“Ona” obrazi tasvirlangan zamonaviy qissalarda syujet tiplari

Gulhayo Isabayeva¹

Abstrakt

Syujet tipi, kompozitsiya, rivoya subyektlari va personajlar strukturasi badiiy asarning mukammalligi hamda yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biz ushbu maqolada ayni masalalardan biri, ya'ni syujet tiplarini O'Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, I.Sultonning “Onaizorim”, G.Mardonovaning “Quyoshim enam” qissalari misolida kuzatamiz.

Kalit so'zlar: *Syujet, syujet tiplari, qissa, xronologik, retrospektiv, konsentrik, assotsiativ, obraz, badiiy asar, portret.*

Kirish

Syujet – badiiy asarni tahlil etish, baholash va uning saviyasini ko'rsatuvchi asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi va badiiy asar poetikasida alohida o'rin egallaydi. Shu boisdan ham badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Badiiy ijodda syujet masalasi antik davr olimlari, klassitsist nazariyotchilar, tanqidiy realistlar, rus inqilobiy demokratlari va o'zbek zamonaviy nazariyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilishi uning muhim komponent ekanligidan dalolat beradi. Syujet haqida dastlab Aristotel, G.Lessing, N.Bualo, D.Didro, F.Stendal, O.Balzak, V.Belinskiy, V.Chernishevskiy, N.Dobrolyubovlar kabi olimlar turli xil fikrlarni bayon etganlar. Keyinchalik bu masala Shiller[1], Polti[2], T.Igleaton[3], L.Timofeyev, M.Baxtin, A.Veselovskiy[4], Y.Dobin[5], I.Sulton, M.Qo'shjonov, A.Rahimov, T.Boboyev, H.Umurov, D.To'rayev, D.Quronov va boshqa xorijiy, rus va o'zbek olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan.

Rus adabiyotshunosi G.L.Abramovich syujetni quyidagicha talqin etadi: “Ko'pincha syujet asardagi voqealar tizimi sifatida ish-

¹ Gulhayo Isabayeva Farhod qizi –tayanch doktorant. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: gulhayofarhodovna94@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6337-4358

Iqtibos uchun: Isabayeva, G.F. 2023. “Ona obrazi tasvirlangan zamonaviy qissalarda syujet tiplari”. O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (3): 61-71.

laydi. Buning sababi shundaki, syujetli asarlarning aksariyati muhim ijtimoiy ziddiyatlarni badiiy ravishda o'rganib chiqadi va ularni yozuvchi yaratgan hayotning yaxlit harakatlanuvchi tasvirida aks ettiradi"[Abramovich 1979,115]. Badiiy asarda hayotiy ziddiyatlarning badiiy aks etishi syujetning o'ziga xos xususiyatidan biri hisoblanadi. Lekin syujet voqealar tizmasidan iborat degan qarash, albatta, syujet masalasiga yuzaki qarash mahsulidir. Adabiyotshunos olim M.Qo'shjonov nazariyasiga ko'ra: "Syujet deganda, biz ko'pincha, ma'lum voqealar yoki ularning tizmalarini tasavvur qilamiz. U voqealarning mohiyati nimadan iborat, ular qayerdan kelib chiqqan va qanday qilib asarda tartibga tushadi – to'g'risida o'ylab o'tirmaymiz"[Qo'shjonov 1970, 3-5]. Har bir badiiy asar negizida ma'lum davr voqealari yotadi. Asarning chuqur tahlili muallif tasvirlagan voqealarning asl kelib chiqish sabablari va bu hayotiy materialni tasvirlashda muallifni undagan motivlar oydinlashadi. Bu ma'lumotlar kitobxoniga asar mazmunini, muallif maqsadi va g'oyasini butun yaxlitlikda tushinishga imkon yaratadi.

Syujetni tiplarga ajratish muammosi mavjud ilmiy adabiyotlarda, darslik va qo'llanmalarda turli-tuman, ba'zan bir-biriga zid ma'lumotlar berilgan. Xususan, rus olimi V.Xalizev "syujetdagi voqealarning o'zaro bog'lanishiga ko'ra ikki xil shakli mavjud. Birinchisi, syujet voqealari bog'lanishida vaqt munosabati ustunlik qiladigan xronikali syujetlar, ikkinchisi esa syujet voqealari bog'lanishida sabab-oqibat munosabati ustunlik qiladigan syujetlar esa konsentrik syujetlar deyiladi" [Xalizev 1979,88], – deb izohlaydi.

Rus adabiyotshunosi G.Pospelov esa "syujet asosini tashkil etadigan voqealar bir-biri bilan turli shaklda bog'lanadi. Ba'zi hollarda ular o'zaro vaqt munosabatiga ko'ra bog'lansa, boshqa holatlarda vaqt munosabatidan tashqari sabab-oqibat munosabatida bog'lanadi. Demak, syujetning ikki xil ko'rinishi mavjud. Ya'ni "vaqt munosabati"ga ko'ra o'zaro bog'lanadigan syujetlar (B voqea A voqeadan keyin keladi. Masalan, qirol o'ldi, malika ham o'ldi) – xronikali syujet, "Sabab-oqibat munosabati"ga ko'ra o'zaro bog'lanadigan syujetlar (B voqea A voqea natijasida sodir bo'ladi. Masalan, qirol o'ldi, qayg'uga chiday olmay malika ham o'ldi) esa konsentrik syujet deyiladi"[Pospelov 1983,120], – deb ta'kidlaydi.

Syujetning tiplarga ajratilishi masalasi o'zbek nazariyotchilari tomonidan ham chuqur tadqiq etilgan. Lekin adabiyotshunoslarimizning nazariy qarashlarida bir-biriga qarama-qarshiliklarni ham uchratishimiz mumkin. Xususan, adabiyotshunos X.Umurov syujetni uch turga: xronikali, konsentrik

va xronikal-konsentrik syujetga ajratadi. X.Umurov “xronikal-konsentrik syujetda bir nechta yo‘nalishdagi yirik voqealar bir-biriga mustahkam bog‘lanadi, hayot panoramasi keng va chuqur tahlil etiladi”[Umurov 2002,125-126], – deb ta’riflaydi. Lekin X.Umurovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” darsligida olimning syujet tiplari xususidagi o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqqanligiga va ularni to‘ldirganligiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni adabiyotshunosning so‘nggi darsligida syujetning to‘rt: “xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ tiplari mavjudligi qayd etilgan” [Umurov 2021, 99].

“D.Quronov o‘z qarashlarida syujet voqealarining o‘zaro munosabatiga ko‘ra ikki turga: xronikali va konsentrik syujetga ajratadi”[Quronov 2004,103-104].

Adabiyotshunos olim “A.Rahimov esa o‘zining “O‘zbek romani poetikasi” (syujet va konflikt) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bu masalaga atroflicha yondashgan holda tadqiqot olib borgan bo‘lib, syujetning to‘rt xil: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ shakllari mavjud ekanligini ko‘rsatib o‘tadi”[Rahimov 1993].

“Adabiyotshunos T.Boboyev syujetni to‘rt turga: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ syujetga ajratadi. Bunda adabiyotshunos A.Rahimov qarashlarini asos qilib oladi”[Boboyev 2002, 122-124].

“Syujetning bunday ko‘rinishlariga qo‘shimcha tarzda adabiyotshunos E.Xudoyberdiyev sintetik syujet – “qorishiq tarzli syujet xilma-xil tasvir usullariga suyanadi, tahlil realistik bo‘ladi, hayot turli yo‘llar bilan to‘la ko‘rsatiladi, voqea tasviri determiniv (sababli bog‘lanish tarzida) ko‘rinadi (Oybekning “Bolalik” asari)”[Xudoyberdiyev 2008, 60-65], – deb ta’kidlaydi.

Ko‘rib turganimizdek, syujetning tiplari xususidagi qarashlardagi bunday turlichalik qisman nazariy asosga ega. Bir narsani unutmasligimiz kerakki, badiiy asarlarda syujetning tiplari sof holda uchramaydi, uni badiiy asardan sof holda qidirish esa quyidagi nazariy qarashlar singari qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Demak, o‘zbek adabiyotshunosligida syujetni quyidagi to‘rt tipga ajratishimiz mumkin:

- Xronikali syujet;
- Konsentrik syujet
- Retrospektiv syujet
- Assotsiativ syujet

Syujetning barcha tiplari badiiy asar tarkibida sof holda uchramaydi, balki qorishiq holda bir-birini to‘ldirib, mustahkamlab keladi. Shu o‘rinda syujet tiplarining bunday sintetik shaklda

uchrash tabiiy holda syujetning alohida "sintetik tipi"ni ajratib ko'rsatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Lekin syujetning alohida sintetik tipini ajratishga zarurat yo'q. Sababi hozirgi adabiy asarlarda syujet qurilishi qanchalik qorishiq, sintetik bo'lmasin konkret asarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, baribir ham syujet qurishning u yoki bu tipi yetakchilik qiladi. Syujetni tiplarga ajratishda esa konkret badiiy asarda qaysi bir syujet tipining yetakchi holda kelishi inobatga olinishi kerak. Demak, u yoki bu asarda syujetning qaysi bir tipi yetakchilik qilmasin, unda boshqa syujet tiplari va ularning o'ziga xos xususiyatlarining kuzatilishi tabiiy holdir.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning nazariyalariga, tadqiqotlariga asoslangan holda biz O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Isajon Sultonning "Onaizorim". Guljahon Mardonovaning "Quyoshim-enam" qissalaridagi syujetlarni kuzatamiz, qaysi syujet tipi dominantlik qilishini aniqlaymiz.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida syujetning barcha tiplari mavjud biroq, qissada retrospektiv syujet tipi dominantlik qiladi. Retrospektiv syujet – "qahramonning o'tmish biografiyasi"ga qaytuvchi"[Koroban 1979,203] usul, unda voqealar teskari tartibda boshlanadi, yozuvchi voqealar rivojini to'xtatib qo'yib, masalaning tarixiga qaytadi, sodir bo'layotgan jarayonlar manbalarini ko'rsatish qahramon xarakterining shakllanish sabablarini ochishga imkon beradi, voqeani asosiy syujet ichiga joylashtiruvchi qoliplovchi kompozitsiyaga yaqin turadi[Rahimov 1993,12]. "Dunyoning ishlari" qissasida ham yozuvchi syujet davomida bolaligini, bolalikdagi xotiralarini, otasi, onasini, aka-ukalari bilan o'tkazgan kunlarini hikoya qiladi. Qissaning boshidan to so'ngiga qadar yozuvchi bolalik xotiralariga murojaat qiladi. Onasi va onasi atrofida bo'lgan voqea-hodisalarni qayta jonlantiradi va badiiylashtiradi. "Haqqush" novellasida yozuvchi do'stlarining qis-tovi bilan toqqa dam olishga borganini aytib hikoyani boshlaydi. Hikoya davomida muallif tabiatning go'zalligi, tog'larning mag'rurli-gi ta'riflab hayot haqidagi falsafasini bayon etadi. "Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Anchagacha uxlay olmadim. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdandir, yaqin joyda daryo shovillaydi. Bir mahal qulog'imga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalinadi: Haq-qu, haq-qu..." [Hoshimov 2019, 9] Qulog'iga chalingan mungli "Haq-qu, haq-qu..." tovushidan bolalik xotiralari yodiga tushadi. Shu yerda retrospektiv syujet kuzatiladi. Muallif qulog'iga chalingan tovush or-tidan onasini va onasi aytib bergan hikoyalarni xotirlaydi, qog'ozga tushiradi. "Bola edim, go'dak edim. Onam aka-ukalar haqida g'alati

bir cho'pchak aytib bergan edi. Emishki, bir zamonlar ikki aka-uka yashagan ekan. Birining oti Ilhaq, ikkinchisining Is'hoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, juda noahil ekan. Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'пти. Shunda qodir xudoning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi. Shundagina aka-uka bir-birini ko'rmasa tur-olmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunibdi. O'shandan beri ikkalasi kechalari bo'zlab bir-birini chaqirib chiqarmish-u topolmas emish...."[Hoshimov 2019, 9] Yozuvchi bir dam bolalik xotiralariga qaytib, onasi aytib bergan cho'pchakni yodiga oladi-yu, so'ng yana shu onda ortga qaytadi. Yana ona tabiat undagi sehr, terak barglarining shitirlashi, daryo suvlarining shovullashi va shu ohanglarga hamohang bo'lgan dilni titratadigan iztirobli nido "Ilhaq! Is'hoq..." haqida fikr-mulohaza yuritadi. Onaning bu hikoyani besh aka-ukaga bejizga aytmaganini anglagandek bo'ladi. "Onalar farzandlari hamisha birga bo'lishini istaydilar. Qismat esa, ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi" [Hoshimov 2019, 9]- deya xulosa qiladi yozuvchi. Qissadagi "Ikki afsona", "Sovchilar", Ermon buvaning tilagi", "Mening Acha xolam", "Oq, oydin kechalar", "Toy", "Imon", "O'ris bolaning oyisi", "Oy quyoshdan nur oladi" , "Pistachi", "Alla" kabi hikoyalari ham retrospektiv syujet asosiga qurilgan. Bunda yozuvchi hikoyani boshlaydi tabiat tasviri, qahramonlar portretini chizadi. Ortga qaytib qahramonlar hayoti, turmush tarzi va taqdirini kitobxonga bayon etadi. Qissada xronikali syujetda yozilgan novellalar ham anchagina. Xronikali syujetda voqealar orasida vaqt munosabati yetakchilik qiladi. Ya'ni A voqea yuz bergandan so'ng B voqea yuz beradi.[Quronov 2013,290] "Tasalli", "Tush", "Qarz", "Eng og'ir gunoh", "Bola yig'isi", "Surat", "Xiyonat", "Kitob", "Mahallaning shayxi" , "Qanoat", "Opamni topib oldim", "Bozor", "Po'stdumbali moshkichri", "Oltin baldoq", "Xo'ja", "Usta", "Havas", "Kaltakesakning dumi" kabi hikoyalarini kiritishimiz mumkin.Ushbu hikoyalarda ham yozuvchi retrospektiv tarzda voqealarni hikoya qiladi, lekin endi voqealar ketma-ketligi xronikali syujet tipida ketadi. Masalan "Bozor" hikoyasida muallif retrospektiv tarzda bolaligiga qaytadi lekin voqealar bir boshidan boshlanib, birin-ketin hikoya qilinadi. Hikoya bolaning aka-ukalari bilan munosabati, akalari bo'lishining yaxshi yoki yomon taraflari, ulardan qolgan kiyimlarni kiyishi-yu, maktabda qanday bahoga o'qishi bilan boshlanadi. Hikoya davomida esa, onasi bilan qoraquloq echkisini sotish uchun bozorga borganliklari insofsiz dallolga duch kelib chuv tushishganligi bayon

etiladi. Onasining tushkun va chorasiz holati tasvirlanadi.

Qissaning “Gilam paypoq” hikoyasi ham konsentrik syujetda. Konsentrik syujet- bunda voqealar orasida sabab-natija munosabati yetakchilik qiladi. Bu syujet voqealarning bitta asosiy voqea tegrasi-da aylanishi bilan xarakterlanadi. Syujetning bu turi voqealarning konflikt asosida shiddat bilan rivojlanib, yechimga tomon intilishini taqozo qiladi. Konsentrik syujet shakl – kompazitsion jihatdan mukammal, o’qishli va qiziqarli bo’lishiga imkon beradi. Ushbu hikoyada ham sabab va natija bor. Ona betob bo’lgan bolasini sarpoychang holda ko’tarib, Hoji buvining uyiga qor kechib keladi. Bolaning ahvoli yaxshilangach, Hoji buvi qarasa, onasi sarpoychang holda qor kechib kelgan, oyog’i esa qip-qizil go’sht bo’lib hech nimani sezmay qolgan. Otasi otib kelgan qarg’aning miyasini surtishgandan so’ng onaning oyog’i yaxshi bo’ladi-yu, butunlay sog’ayib ketmaydi. Har safar sovuq tushganda, oyog’i og’riydi. Shuning uchun farzand har yili dam olishga borganida onasiga paypoq olib keladi, ona xuddi noyob narsaga ega bo’lgandek sevinib, hammaga maqtanadi. Farzandning har yili dam olishga borganida onasiga gilam paypoq olib kelishi natija, sabab esa, onasining farzandi betob bo’lganligida qor kechib oyoq og’rig’ini orttirganligi.

Assotsiativ syujetda yozilgan novellalariga “Oq marmar, qora marmar” va “Iltijo” kabi hikoyalarini olishimiz mumkin. Assotsiativ syujet ilgarilari asosan lirik asarlar uchun xarakterli bo’lib, lirika tashqi hodisalariga shoirning munosabati yoki tashqi hodisalar ta’sirida shoir shaxsida tug’ilgan tuyg’u va kechinmalarga asoslanardi. Hozirda syujet qurilishining assotsiativ usuli yirik nasriy va dramatik asarlar uchun ham xos bo’lib qolmoqda. Bunday asarlarda hikoya qilinmaydi, balki qahramonning xotiralari, o’y-xayollari tasavvurlari oqimi beriladi. “Oq marmar, qora marmar” hikoyasida ham qahramonning o’y –kechinmalari tabiatning bag’ri qon lolaqizg’aldoqlarining birinchi bo’lib shu yerda ochilib marhumlarga qilgan iltifoti haqida, bu yerdagi har xil rangdagi marmarlar va shu marmarlarga yozilgan so’zlar, his-tuyg’ulari bayoni beriladi. “Iltijo” qissaning eng so’nggi hikoyasi, eng ta’sirli hikoyasi. Ushbu hikoyada ham assotsiativlik yetakchi ya’ni qahramon hech narsani hikoya qilmaydi, faqat onasini, u bilan o’tgan kunlarini, onasiga yoquvchi bahor yomg’irini aytadi bunda qahramonning his-tuyg’ulari aks etadi.

Guljahon Mardonovaning “Quyoshim-enam” qissasi syujetida retrospektiv tip yetakchilik qilasa-da, xronologik, assotsiativ, konsentrik kabi syujet tiplariga ham duch kelamiz. Qissadagi barcha

voqelik “ko‘ylaklaridan qalampirmunchoqning o‘tkir, muattar hidi kelib turgan” ona obrazi atrofida birlashadi. Qissa voqeiy qissa bo‘lib, muallif o‘zi yashagan muhit, bolaligi o‘tgan qishloq va shu qishloqning samimiy, sodda odamlari, oila a‘zolari haqida yozadi. Demak, qissadagi har bir obrazning protatipi mavjud. Qissada voqealar xronologik syujetda ya‘ni voqealar bir boshidan boshlanib, birin-ketin hikoya qilinsa-da retrospektiv tip asosiy syujet hisoblanadi. Chunki muallif bolaligiga va bolalik xotiralariga qaytgan holda qissani epik tarzda bayon etmoqda. Yozuvchi “Qorg‘onim otam” bobida onaning o‘ziga xos bir hislati bilan so‘z boshlaydi: “Enam... Enam uyda mol-hol so‘yilguday bo‘lsa, yuragini avaylab oldirib qo‘yadi: - Otang minan akalaring jeydi, juraklari tovday bo‘lsin, iloyim. Jigariyu buyragini olib qo‘yadi: - Kelin, chalaroq qilib qovur, bolalarimning buyrak, jigari sov bo‘lsin. Otang aytadi Ibn Sino yozgan ekan, odam qaysi a‘zosi sov bo‘lishini xohlasa mol, qo‘yning ana shu a‘zosini tez-tez jeb turishi keragekan, - deydi”[Mardonova 2021,28]. Farzandlar onasining mehrli so‘zlaridan sevinishadi, so‘ng otaning tashqi qiyofasi ta‘rifidan uning portreti chiziladi. Otaga xos fazilatlar, uning hayot yo‘li, oiladagi hamda qishloqdagi obro‘si, martabasi haqida so‘z yuritiladi. Voqealar ketma-ketligidan so‘ng retrospektiv syujet kuzatiladi, ya‘ni bosh qahramon ona hamisha faxr bilan aytib beradigan voqea yodga olinadi. Voqeaning mazmuni urush boshlanganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmagan paytda sodir bo‘lgan qotillik va shu qotilni topishdagi Omon muallimning ziyrakligi, jasorati haqida bo‘ladi. Qissada ortga qaytib eslanuvchi voqealarni ko‘p uchratamiz, shu boisdan ham qissada retrospektiv syujet dominantlik qiladi deb ayta olamiz.

“Alla sehri” bobida esa, muallif Ona aytgan allalar, bu allalarning sehri, alla eshitib beshikda ulg‘aygan farzandlar kamoli haqida onasi aytgan gaplarni qog‘ozga tushiradi. Muallif Ona aytgan allalardan namunalar keltirar ekan, beixtiyor xotiralari, o‘y-xayollari, tasavvurlari oqimi beriladi. Shu yerda assotsiativ syujet kuzatiladi. “Endi o‘ylasam, enamning allasi shunchaki emas ekan. Nazarimda, bu qo‘shiqda millatning yuragi, uning milliy xaritasi aks etib turadi. Xalqning o‘ziga xosligi yashaydi. Tarbiya tutumlari jamlanadi. Enam o‘z ohanglari orqali, nafaqat, bolalarining soyalarida soyalashni orzu qiladi, balki ularga juda katta vazifalar ham yuklaydi. Bu qo‘shiqlarda yaxshi odam bo‘lish, ezgu ishlar qilish, odamlarga kerakmand bo‘lish kabi vazifalar bor. Ehtimol, shundandir Enam alla aytayotib, nafaqat oddiy ona, balki juda katta shoirga, olimga aylanadi. Bu allalarni nafaqat biz farzandlar, keyinchalik nevara-yu chevaralar

ham eshitib ulg'aydi. Ular, nazarimda, enam orzulagan odamlar bo'lib ulg'ayishdi"[Mardonova 2021,29]. Alla har bir inson go'daklik chog'ida ilk marta eshitadigan, tinglab ulg'ayadigan boqiy qo'shiqdir. Ona haqida yozilgan asar borki har birida alla haqida so'z boradi. Ushbu bob muallifning o'y-xayollar oqimi bilan yakunlanadi. Qissada muallifning tasavvurlari, his-tuyg'ulari, iqrorlari berilgan holatlarni ham ko'p uchratamiz.

"Ko'pkari voqeasi yoki hayot sinovi" bobida esa, konsentrik syujet mavjud. Ya'ni qissa qahramonlarining hayotida sinovli kunlarning sabab va oqibatlari mavjud. Bunda ko'pkarida otaning otlar tuyog'i ostida qolishiga bir bahya qolgan qizlarni qutqarishi sabab, otaning bir yil davomida to'shakka mixlanib qolishi, oilaning moliyaviy tomondan tang ahvolga kelib qolishi, farzandlarining ochlik va qiyinchilik kunlarni boshidan o'tkazishi natija. Qissada shu kabi konsentrik syujetda yozilgan boblardan yana bir qanchasini misol keltirish mumkin.

Isajon Sultonning "Onaizorim" qissasi "Dunyoning ishlari hamda "Quyoshim-enam" qissalaridan syujet tipi jihatidan ham farqlidir. Qissada voqelalar xronologik syujetda beriladi. Qissa boshlanishida peyzaj unsurlaridan keng foydalangan adib tabiat jonlanishiga, yaralishiga shamol va suvning o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatib berish orqali bu hayotda insoniyat yaratuvchilar bo'lgan onalarning ham o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tmoqchidek go'yo. Qissadagi voqealar Ra'no ismli qizaloqning bolaligi, o'smirligi, kelinligi, onaligi, buviligi davrlarini qamrab oladi. Qissada xronologik tip dominantlik qilsa-da, Ra'no bolalik xotiralarini, ota-onasini yodiga olganda retrospektiv syujet tipi ham kuzatiladi. Ra'no turmush o'rtog'ini ilk marotaba ko'rganida uning qalbidan kechgan kechinmasi ya'ni "Bir tuzukkina yigit ekan-ku. Qiyshiq yo xunuk bo'lganida nima qilardim? Nimayam qilardim, ko'nardim-da. Ko'ngach, umrim bo'yi shu bilan yashar ham edim. Xudoyimga shukur"[Sultonov 2014,],- deya xayolidan o'tkazishi, farzandli bo'lishini bilganida, xayolan farzandi bilan suhbatlashishi, farzandi uning hayotiga yorug'lik olib kelishi haqidagi tasavvurlari, uning o'g'il yoki qiz bola ekanligi, eriga yoki o'ziga o'xshash ekanligi taxminlarida qahramonning his-tuyg'ulari, o'y-fikrlari oqimi beriladi, ya'ni assotsiativ syujet tipi kuzatiladi. Qolaversa, qissaning besh-inchi qismidagi o'g'lining kuyovlik to'yi, qizining kelinlik to'yidagi voqealar ham assotsiativ syujetda. Ona farzandining bo'y-bastini, nurli yuzini ko'rib, suqlanib qaraydi. Boshqalarning ko'zi bolamga tegib qolmasin deb irim ham qilib qo'yadi, baxtiyor kunini ko'rib ko'zlar-

iga sevinch yoshlarini oladi. Qizini uzatayotib beixtiyor bir vaqtlar otasi oyog'iga bosh urib, rozilik so'rab zorlangan Ra'no ko'z oldida gavdalanadi. Bir vaqtlar onaizori ko'nglidan o'tgan hissiyotlarni endi Ra'no ham tuyayotgan edi. Asardagi falsafiy fikrlar, inson iqrorlari asar g'oyasining asosini belgilaydi. Hayotning charxpalak ekanligini ko'rsatib beradi. Qizalog'ida o'zining bolaligini, kelin olganida o'zining kelinlik vaqtlarini, o'g'il uylantirib, qiz uzatganida Onasining qalbida o'tib, tiliga chiqqan "Voy, ha, sog'inaman-da, ichimdan uzilib tushgan parchamsan-ku"[Sultonov 2014], – deb aytgan so'zlarini tushunadi, ona qalbini his qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, badiiy asarning mukammalligi hamda yaxlitligini ta'minlashga syujet alohida ahamiyatga ega. Har bir davrda turli millat olimlari tomonidan ushbu masalaning o'rganilishi fikrimizning dalilidir. Yuqorida qilingan tahlillarni umumlashtiradigan bo'lsak, badiiy asarda hech bir syujet tipi sof holda uchramaydi, syujetning ma'lum bir tipi dominantlik qiladi, xolos. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" hamda Guljahon Mardonovanning "Quyoshim-enam" qissalarida retrospektiv syujet tipi dominantlik qilsa, Isajon Sultonning "Onaizorim" qissasida esa, xronologik syujet tipi yetakchilik qiladi.

Adabiyotlar

- Schiller, Friedrich. 1782. О современном немецком театре (Über gegenwärtige deutsche Theater)
- Polti, Gerges. 1894. Les 36 situations dramatiques. – Paris.
- Иглтон, Терри. 2010. Теория литературы. – Москва.
- Веселовский, А.Н. 1940. Историческая поэтика, часть 2, Поэтика сюжетов (1897- 1906). – Ленинград.
- Добин, Е. 1981. Сюжет и действительность – Л: Советский писатель.
- Абрамович, Г.Л. 1979. Введение в литературоведение, –М.:Просвещение.
- Қўшжонов, М. 1970. Ҳаёт ва нафосат. – Т.
- Хализев, В. 1979. Драма как явление искусства. – М.
- Поспелова, Г. 1983. Введение в литературоведение. – М.
- Умунов, Ҳ. 2002. Адабиёт назарияси. – Т.
- Умунов, Ҳ., Насилов, А. 2021. Адабиётшунослик назарияси. – Т.
- Қурунов, Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т., 2004. 103-104 б.
- Раҳимов, А. 1993. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Фил. фан. док...дисс. автореф. – Тошкент.
- Бобоев, Т. 2002. Адабиётшунослик асослари. – Т.
- Худойбердиев, Э. 2008. Адабиётшуносликка кириш.
- Коробан, В. 1979. Современный молдавский роман. – Москва.
- Раҳимов, А. 1993. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Фил. фан. док...дисс. автореф. – Тошкент.

Hoshimov, O'tkir. 2019. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
Quronov, D. Adabiyotshunoslik lug'ati. 2013. – Toshkent: "Akademnashr".
Mardonova, G. 2021. Quyoshim –enam. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
Sulton, I. 2014. Onaizorim. // "Sharq yulduzi" jurnali, 2-3-sonlar.

Types of plots in modern stories depicting the image of the "mother"

Gulhayo Isabayeva¹

Abstract

Plot type, composition, subplots, and character structure serve to ensure the perfection and integrity of fiction. In this article, we will observe one of the same issues, i.e. plot types, on the example of U.Hoshimov's "Dunyoning ishlari" ("World Affairs"), I. Sultan's "Onaizorim", and G. Mardonova's "Quyoshim enam".

Key words: *Plot, plot types, narrative, chronological, retrospective, concentric, associative, image, artistic work, portrait.*

Referances

- Shiller, Fridrikh. 1782. O sovremennom nemetskom teatre (Über gegenwärtige deutsche Theater)
Polti, Gerges. 1894. 36 dramaticheskikh situatsiy. – Parizh.
Iglton, Terri. 2010. Teoriya literatury. – Moskva.
Veselovskiy, A.N. 1940. Istoricheskaya poetika, chast' 2, Poetika syuzhetov (1897-1906). – Leningrad.
Dobin, Ye. 1981. Syuzhet i deystvitel'nost' – L: Sovetskiy pisatel'.
Abramovich, G.L. 1979. Vvedeniye v literaturovedeniye, –M.:Prosveshchaniye.
Qūshzhonov, M. 1970. Hayet va nafasat. – T.
Khalizev, V. 1979. Drama kak yavleniye iskusstva. – M.
Pospelova, G. 1983. Vvedeniye v literaturovedeniye. – M.
Umurov, H. 2002. Adabiyot Nazariyasi. – T.
Umurov, H., Nasirov, A. 2021. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.
Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 2004. 103-104 b.
Rahimov, A. 1993. Ūzbek romani poetikasi (syuzheta v konflikte): Fil. fan. dok...diss.avtoref. – Toshkent.
Boboyev, T. 2002. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.

¹ Gulhayo F. Isabayeva – Basic doctoral student of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: gulhayofarhodovna94@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6337-4358

For citation: Isabaeva, G.F. 2023. "Types of plot in modern stories describing the image of the mother". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 61-71.

- Khudoyberdiyev, E. 2008. Adabiyotshunoslikka kirish.
- Koroban, V. 1979. Sovremennyy moldavskiy roman. – Moskva.
- Rahimov, A. 1993. Ūzbek romani poetikasi (syuzhet v konflikte): Fil.fan. dok..diss.avtoref. – Toshkent.
- Hoshimov, Oʻtkir. 2019. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Quronov, D. Adabiyotshunoslik lugʻati. 2013. – Toshkent: “Akademnashr”.
- Mardonova, G. 2021. Quyoshim –enam. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
- Sulton, I. 2014. Onaizorim. // “Sharq yulduzi” jurnali, 2-3-sonlar.

Zamonaviy qissalarda paranormal epizod tasviri

Sanobar Saydazimova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada paranormal epizod tushunchasi va uning diniy, hayotiy asoslari, paranormal epizod-poetik tafakkurning muhim komponenti ekanligi va badiiy ijod bilan sintezlashuvi haqida gap boradi. Maqolada obyekt sifatida zamonaviy qissalar, xususan, Shoyim Bo'tayevning "Shamol o'yini" qissasi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *paranormal epizod, anormallik, uchlik, qamg'oq, quyun, yonar suv, jin-shaytonlar, ilon-qiz, jin.*

Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqida gap boshlar ekanmiz, avvalo, 80-90-yillar adabiyoti o'zining yangicha uslubi, yo'nalishi, modernistik talqini bilan ajralib turishini alohida ta'kidlash lozimdir. Ushbu davr adabiyotida nasr o'ziga xos yo'ldan borib, jahon adabiyoti bilan sintezlashdi. O'zbek adabiyoti nasrida qissa janri o'zining voqelikni keng ko'lamda tasvirlashi, obrazlarning xarakter xususiyati, ichki his-tuyg'ularini ochib bera olishi bilan alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo'raqulov ta'kidlaganlaridek: "...adabiyotning samoviy qoidalariga ko'ra ham, botiniy hayot tasviri qissa janriga tegishli. Shu bois ham bu vazifani hikoyaga yuklash yoki shunday ifoda tarziga ega asarlarni, hikoyaga nisbatlash g'alvirda suv tashish yo hushtakka tugma qadashga urinishga o'xshaydi" [Журакулов 2015, 232]. Botiniy olam, obrazlarning subyektiv talqini qissa janriga yuklanadigan muhim vazifalardandir.

Bizga ma'lumki, nafaqat qissa, balki barcha nasriy asarlarda bosh obrazlar, ikkinchi darajali obrazlar va epizod obrazlar tarzida bir-biridan farqlanadi. Shu jihatlardan uchinchi bo'linish epizod obrazlarga batafsil to'xtalib o'tamiz. Epizodik obrazlar asarda qisman qatnashadi va ularning asarda o'z vazifasi, amaliy ahamiyati, badiiy vazifasi bo'ladi. Olima Yulduz Ziyayeva o'zining "Mustaqillik

¹ Saydazimova Sanobar Samar qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-pochta: saidazimovdilshod2001@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-7013-3186

Iqtibos uchun: Saydazimov, S.S. 2023. "Zamonaviy qissalarda paranormal epizod tasviri". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 72-78.

davri o'zbek romanlarida "oshiq-ma'shuqa raqib" obrazlarining poetik takomili" nomli tadqiqot ishida "uchlik obrazlar" xususiyatiga to'xtalib, "anormallik" tushunchasini qo'llaydi. Anormallik holatining namoyon bo'lishiga Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" asaridan misollar keltiradi. Xo'sh, savol tug'iladi "anormallik" nima?

Anormallik – an'anaviy bo'lib kelgan obrazlarning buzilishi va boshqacha talqinda namoyon bo'lishidir. Tadqiqotchi anormallikka uchlik obrazlarning an'anaviylikdan yiroqlashishi, normadan chiqishi, oshiq va ma'shuqa obrazlarining badiiy, ma'rifiy, ma'naviy yangilanishini, oshiq va ma'shuqa o'rtasida nikohsiz farzandning tug'ilishini misol qilib keltiradi.

Fikrimizning asosiy qismiga to'xtaladigan bo'lsak, xo'sh paranormallik nima? "Paranormal" so'zining lug'aviy ma'nosi normal, ya'ni odatiy chegaradan tashqarida bo'lgan narsa, holat voqealar, karomatlardir. "Paranormal epizod" esa badiiy asarlarda qo'llangan uchinchi olam bilan bog'liq bo'lgan noodatiy obrazlar, an'anaviy voqelikning buzilishi, tutash olamda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlardir. "Paranormal epizodlar"ga jin, ajina dev, alvasti, qorabosti, qora soya, iblis, shayton, ilon-qiz, it-odam, Xizr va hokozolar kiradi.

"Jin" so'zining lug'aviy ma'nosi "to'silgan", ya'ni insonlar ko'zidan berkitilgan, yashirilgan ma'nosida keladi. Xalq orasida "ajina" deb ham yuritiladi. Jin-ajinalar insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan, aslida mavjud bo'lgan g'aybiy maxluqotlardir. Jinlarning mavjudligiga Qur'oni Karimdagi "Jin" surasi va bir necha oyatlar dalildir. Alloh taolo va uning payg'ambari xabar bergan, ammo bizga ko'rinmaydigan narsalar g'aybiy sanalib, ularga iymon keltirish islomiy aqidaning asosi sanaladi. Qur'oni Karim oyatlarida ko'p hollarda inson va jinga baravar murojaat qilingan. Hadisi sharifda Payg'ambar alayhissalomning jinlarga Qur'on o'qib berganlari xabari kelgan. Qur'on va hadis jinlarning olovdan, o'tdan ko'rinmas qilib yaratilganligiga qat'iy dalolat qiladi. Alloh taolo "Rahmon" surasida "Insonni sopolga o'xshash qurigan loydan yaratdi. Va jinlarni o't-alangadan yaratdi" [Шайх Мухаммад Юсуф Мухаммад Содиқ 6, 10-11], degan (14-15-oyatlar). Jinlarning insonlarga ozor berishi, dushmanlik qilishi inkor etilmaydi. Ular insonlar ko'ziga tuyay, sigir, qo'y, xachir, ot, it, ilon, chayon, qushlar sifatida, hatto odam qiyofasida ko'rinishi mumkin.

Zamonaviy adabiyotga nazar tashlar ekanmiz, diniy, mifologik, folklor manbalarida uchraydigan uchinchi olam bilan bog'liq bo'lgan noodatiy obrazlar-"paranormal epizodlar" ayrim yozuvchilarning

asarlarida uchraydi. Aynan shunday asarlardan biri Shoyim Bo'tayevning "Shamol o'yini" qissasida realistik tasvir va g'ayrioddiy hodisalarning sodir bo'lishi aks etadi. Qissa ikki qishloq: Tepa va Oybulloq ta'rifi bilan boshlanadi. Tepa qishloqliklar hamisha Oybulloqdagilarga ko'chib kelishlarini "...bug'doy nonimiz bo'lmasa, bug'doy so'zimiz bor, deya ta'kidlashardi. Oybulloqliklar esa: "Oybulloq – yurt. Yurtni tashlab ketib bo'lmaydi..." [Бытаев, 4] - deb javob berishardi.

Shunday kunlarning birida Oybulloqqa jin oralabdi degan mish-mishlar tarqala boshlaydi. Bu gap-so'zlarga qishloq ostida paydo bo'lgan allaqanday suyuqlik sabab bo'lsa, jin haqidagi taxminlarni qishloq kampirlari Momo Uloq marosimida Niso Achanikida fol ko'rib aytishgandi. Momo Uloq faqat kampirlarga atalgan ulloq bo'lib savob yo'lida podachi kampirlarga berib ketgan. Momo Uloqning ta'rifi qissaning keyingi qismlarida beriladi. Aytishlaricha, bir podachining onasi o'g'li kelishini yo'l qarab, termilib kutib o'tirarkan. Podachi harchand meni kutmang deya tayinlasa-da shu odatini qo'ymas ekan. Bir kuni podachi bir ulloqni so'yib onasiga beribdi va faqat kampirlarni chaqirib, birgalikda pishirib yeyishlarini tayinlabdi. Kampir shunday qilibdi va o'sha kuni boshqa kampirlar bilan suhbat kechgacha cho'zilib, o'g'lini hush kayfiyatda kutib olibdi. Shundan keyin bu podachining ulloq berishi odatga aylana boshlabdi. Odamlar ham savob yo'lida bir ulog'ini berishga hech ham og'rinmas ekanlar. Xullas, kampirlar fol ko'rib, jin keldi degan gapni aytishgandan so'ng qishloq hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.

Qissada jin qora ho'kiz tusiga kirib, Abdusamat lakotni quvgani, baqiray desa ovozi chiqmagani, qochay desa qo'l-oyog'i "akashak" bo'lib qolgani va duo bilan bas kelgani tasvirlanadi. Asarda keltirilishicha, jinlar turfa xil ko'rinishda inson ko'ziga ko'rinar ekan. "...bir qarashda es-hushini olib qo'yadigan ofatijonlari-yu, burunlari tanqaygan, ko'zlari chaqchaygan nusxalari ko'p ekan. Ofatijonlari yo'ldan oqqan biror kimsani o'zlariga asir etib, alal-oqibat uni adoyi tamom qilsalar; ikkinchi guruh jinlar odamga ko'rinishni umuman yoqtirishmas ekan". Ushbu qissada "paranormal epizodlar" – **quyun, yonar suv, jin-shaytonlar, ilon-qiz, it-odam** ko'rinishida namoyon bo'lgan.

Qishloqda barcha ko'ngilsiz voqealar Berkinboy ismli begona kishining qishloqqa kirib kelishi bilan boshlanadi. Asarda Berkinboy tasviri shunday beriladi: ***"siyrak soqoli-yu chuqur qovoqlari ostiga berkingan bit ko'zlaridan, peshonasiga nisbat berilganda engagining ozroq kengligidan, yonoqlarining ichiga botganligidan, qirra burnining uchi qush tumshug'iga o'xshab bir oz egilganidan"***

[Бытаев, 12] Insonning ko'zi qalb oynasi, ichki dunyosini aks ettiruvchi vosita sanaladi. Muallif Berkinboyga "bit ko'zlar" ta'rifini bejiz keltirmagan, albatta. Qahramonning shaxsiyati, xarakter xususiyatini ochib berishda ko'z muhim detal hisoblanadi. Insonning taqdiriga qaysidir ma'noda ism ham ta'sir ko'rsatadi. Asar qahramonlaridan Berkinboy, Yoshi Uzoq, Baraka ismlari ham o'ziga xos ramziylikka ega. Aslida bu obrazlar jin-shaytonlarning inson qiyofasidagi ko'rinishidir. Ularning Tepa qishloqqa kelib qolish sabablari ham bir-biriga zid qo'yilgan, ya'ni Berkinboy qishlog'ini suv bosganligi uchun kelgan bo'lsa, Yoshi Uzoq qishlog'ida qurg'oqchilik bo'lganligi va yashashga sharoit bo'lmaganligi uchun raisga yaltoqlanib, shu qishloqqa joylashib olishgandi.

Asar voqealarini kuzatar ekanmiz, obrazlarning axloqiy chegaradan chiqishi, bironing haqqidan qo'rqmasdan o'g'rilikka qo'l urishi, haromdan hazar qilmaslik holati, zinoning ayanchli oqibati, yuzsizlikni ko'rib Jaloliddin Rumiyning

Qulga balo kelmas,
Haq yozmaguncha!
Haq balo yozmas,
Qul (yo'ldan) ozmaguncha!
Haq quldan intiqom,
Qul ila olur!
Dinu irfon bilmagan,

Buni Quldan (deb) bilur... misralari beixtiyor yodimizga keladi.

Qissada qishloq ahlining xurofotga moyil bo'lgan va buni o'z qadriyati deb hisoblaydigan – Momo Uloq marosimi ham paranormallik holatining bir ko'rinishidir. Kampirlar odatdagidek Niso Achanikida yig'ilishgan va anchadan beri uloq bermagan podachini adabini berib kelishgandi. Shu payt butun qishloqni bir zum zulmat qopladu-yu "jinto'polon" boshlandi. Kampirning kichik darchasidan "quchoq sig'mas bir qamg'oq" kelib tushdi. "Qamg'oqdan bir qarichcha yuqoridan quyun naq shiftga tegib, charx urardi. Uning ostki qismida odam bo'lib odamga, it bo'lib itga o'xshamagan allaqanday jonivorlar muallaq holatda bir-birlarini ezg'ilab yanchib yotishardi. Bu maxluqlar quyun yer sahnidan supurilib kelgan suprindilar, burdi-balolar orasidan bitday bijg'ib chiqishar, bir-birlarini chavaqlashar, o'zlarining uyat ishlariga shu qadar mashg'ul edilarki, aqalli sal boshini ko'tarib atrofi javonibga qarab qo'yishni xayollariga keltirishmasdi" [Бытаев, 12]. Bu parchada tasvirlangan maxluqotlar aslida Berkinboy va uning xotini, Yoshi Uzoq, Baraka obrazlar-

ining ramziy timsollaridir. Ular o'zlari qilgan noma'qulchiliklardan sira uyalishmas va vijdon azobini ham sezishmas, hatto o'ylab ham ko'rishmasdi. Ularning eng katta fojeasi ham aslida mana shunda edi. Ming yillardan beri bir-biri bilan ahil-inoqlikda, mehr-oqibat, diyonat, halollik bilan hayot kechirayotgan qishloq ahliga asar qahramonlari-kampirar va Elmurod ta'rifi bilan aytganda jin-shayton oralagandi.

Xulosa qilib aytganda, jahon adabiyotida ko'p qo'llaniladigan mifologik uslub, paranormallik Shoyim Bo'tayev qissasida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda qo'llangan eng salbiy xislatlar ya'ni razolat, xiyonat, qabohat go'yoki afsonaviy yovuz kuchlar ya'ni paranormal epizodlar misolida namoyon bo'ladi. Quyun yoki girdob azal-azaldan insonlar tasavvurida jin-ajinalar, iblis-u shaytonlarning, pari, devlarning ishi, yomonlikning timsoli bo'lib kelgan. Bolaligimizdan bizga quyun orasida qolib ketsa, og'iz qiyshayishi, jismga Zarar yetishi haqida ham ko'p bora ta'kidlangan. Folklorshunos olim Mamatqul Jo'rayev "quyun sifatida dohil bo'ladigan yovuz kuchlar bevosita odamlarning o'ziga ham ziyon yetkazishi mumkinligini" [Matëkybova 2011, 33] keltirib o'tadi. Asarda aynan quyun ichidagi holatni ko'rgan Hilol kampirning og'zi qiyshayib qolganligi, kampirar uni o'z holiga keltirish uchun "ko'ch-ko'ch" amalini bajarishgani yuqoridagi fikrlarga misol bo'la oladi. Aslida bu holat Allohning buyurganiga qarshi chiqqan qavmga yuborilgan balo-qazo edi.

Asar so'nggida kutilmagan voqealar ro'y beradi. Go'yoki, Berkinboy va uning xotini, Yoshi Uzoq, Baraka umuman bu qishloqda bo'lmagan, yashamagan, uylari ham xarabazor holatda tasvirlanadi. Qishloq ahli doktor va militsiya hodimlariga ular shu yerda yashaganligini isbotlashga urinishadi, ammo bu ro'yo edi. Doktor va militsiya hodimlari qishloqni jin chalibdi degan xulosaga borishadi, aslida bor haqiqat mana shunda edi.

Adabiyotlar

- Жўракулов, У. 2015. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Бутаев, Ш. Шамол ўйини (Қисса ва ҳикоялар). – Тошкент: «Ёзувчи» нашриёти.
- Матëкубова, Т. 2011. Поэтик идрок ва маҳорат. –Тошкент: Fan va texnologiya.
- Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ. Тафсири Ҳилол. 6-жуз.
- Ziyayeva, Y. 2023. Mustaqillik davri o'zbek romanlarida "oshiq-ma'shuqa raqib" obrazlarining poetik takomili. Filologiya fanlari bo'yicha

- falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
- Холдаров, Д. 2017. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул қиссалари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. – Тошкент.
- Нуруллаева, С. 2022. Замонавий ўзбек шеърларида мифологик образлар стилизацияси ва метафоризацияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд.

Description of paranormal episodes in modern short stories

Sanobar Saydazimova¹

Abstract

This article talks about the concept of paranormal episodes and its religious and life foundations, it is an important component of paranormal episodic-poetic thinking and its synthesis with artistic creativity. The article analyzes modern short stories as an object. In the example of Shoyim Botayev's short story "Wind Game".

Key words: *paranormal episode, abnormality, trinity, whip, snake, fire water, demons, snake-girl, demon.*

Referances

- Zhurakulov, U. 2015. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Zhanr. Khronotop – Toshkent: Ğafur Ğulom nomidagi nashriyot-matbaa izhodiy uyi.
- Butaev, SH. Shamol ўyini (Qissa va hikoyalar). – Toshkent: «Yozuvchi» nashriyoti».
- Matyokubova, T. 2011. Poetik idrok va maʼxorat. – Toshkent: Fan va texnologiya.
- Sheykh Mukhammad Yusuf Mukhammad Sodiq. Tafsiri Hilol. 6-zhuz.
- Ziyaeva, Yu. 2023. Mustakillik davri uzbek romanlarida «oshik-mashuka rakib» obrazlaring poetik takomili. Filologiya fanlari boyicha falsafa doktora (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Tashkent.
- Kholdarov, D. 2017. Hozirgi ўzбек qissalarida badiiy uslub muammo-

¹ Sanobar S. Saydazimova – Basic doctoral student of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

E-mail: saidazimovdilshod2001@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-7013-3186

For citation: Saydazimov, S.S. 2023. "Description of the paranormal episode in modern short stories". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 72-78.

si (Shoyim Būtaev va Nazar Eshonkul qissalari misolida). Filologiya fanlari būyicha falsafa doktori dissertatsiya (Phd) avtoreferati. – Toshkent.

Nurullaeva, S. 2022. Zamonaviy ũzbek she'ratida mifolog, obraz stilizatsiya va metaforizatsiya. Filologiya fanlari būyicha falsafa doktori dissertatsiya (PhD) avtoreferati. Samarkand.

Rus adabiyotshunosligida sentimentalizm

Munira Niyazova¹

Abstrakt

Maqolada sentimentalizm oqimining yuzaga kelish omillari, jahon va o'zbek adabiyotidagi o'rni haqida atroflicha o'rganilgan. Sentimentalizm axloqni insonning hissiy tabiatiga, uning yaxshi va yomonni tan olish (his qilish) tug'ma qobiliyatiga asoslanishi, axloqiy sentimentalizm deb ataladigan yangi axloq tamoyillarini keltirib chiqarishi yoritib berilgan. Shuningdek, Yevropa va rus adabiyotshunosligida sentimental adabiyot muammolari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *sentimentalizm, his tuyg'u, maktub, sayohatnoma, marsiya, qasida, idilliya, masal, she'riyat, irratsional nazariyalar, ruhiyat.*

Kirish

Sentimentalizmning paydo bo'lishi adabiy-tarixiy jihatidan klassitsizmdan keyingi bosqichni tashkil etadi. Bir tomondan voqelikni hissiy idroklash va badiiy talqinlashga bo'lgan ehtiyoj, ikkinchi tomondan klassitsizmning qat'iylashtirilgan qoliplaridan ozod bo'lish ehtiyoji sentimentalizm adabiy oqimini maydonga keltirdi. Zotan, adabiyot o'zining erksevarlik tabiatiga ko'ra, uzoq vaqt qoliplar iskanjasida yashay olmas edi. Bu fikrni sentimental adabiyotning aksar vakillari dastlab klassitsizm yo'nalishida ijod qilganlari, keyinchalik bu metoddan voz kechib sentimentalizمنى tanlaganlari xususidagi dalillar ham to'la isbotlaydi [Jo'raqulov, Hamrayev 2021, 138].

Sentimentalizm yo'nalishidagi asarlarda his tuyg'uning ustuvor qo'yilishi insonning nafaqat o'z olami, balki tabiatga bo'lgan munosabatini ham o'zgartirdi. Sentimentalizmda tabiat inson kechinmalariga hamohang tarzda, uning ichki dunyosini chuqurroq ochishga yordam beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ldi. L. Sternning tugallanmagan "Sentimental sayohat" (1768) asaridan ta'sirlangan D.Yum insonning o'z-o'ziga qaytishi, o'z-o'zini anglashi to'g'risida irratsional nazariyalar yaratdi.

¹ Niyazova Munira Jumanazarovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-pochta: munira.niyazova.81@inbox.ru

ORCID: 0000-0003-3459-7768

Iqtibos uchun: Niyazova, M.J. 2023. "Rus adabiyotshunosligida sentimentalizm". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 79-84.

Sentimentalizmning J.J.Russo (Fransiya), I.V.Gyote (Germaniya), F.M.Dostoyevskiy (Rossiya) kabi mashhur namoyandalari sentimental adabiyot imkoniyatlarini namoyish etarlik darajadagi buyuk asarlar yozdilar [Jo'raqulov, Hamrayev 2021, 140].

Rossiyada Sentimentalizm 18-asrning 90-yillarida N.M. Karamzin ijodida o'z aksini topdi. Uning "Bechora Liza" (1792), "Yuliya" kabi asarlarida oddiy kishilarga, dehqonlarga xayrixohlik tuyg'ulari ifodalanadi. Bu asarlar rus adabiyotiga psixologik badiiy tahlilni olib kirdi. "Bechora Liza" hikoyasi muallifi Nikolay Karamzin sinflar o'rtasidagi ziddiyatda ijtimoiy omilni emas, balki axloqiy omilni ilgari surdi. Inqilobiy adabiyotda bu tendensiya krepostnoylikni bekor qilishni yoqlab chiqdi. Sentimentalizm adabiyotda insonning ichki dunyosiga murojaat qilib, muhim o'rin tutgan, shu jihatdan psixologik, konfessional nasrning xabarchisi bo'lgan. Sentimentalchilar adabiyotda maktub, sayohatnoma, marsiya, qasida, idilliya, masal singari janrlarni taraqqiy ettirdilar. Sentimentalizm o'zining eng yuksak namunalari hayotga isyonkorona, tanqidiy munosabatda bo'lishni o'rgatdi, insonning ichki olamini, kechinmalari va hissiyotlarini e'zozlashni targ'ib qildi.

O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda 20-asr boshlarida jadidchilikning shakllanishi, rus va Yevropa adabiyotidan tarjimalarning ko'payishi, tatar, ozarbayjon, turk adabiyotlari ta'sirida yangi ma'rifatchilik g'oyalarining o'sishi natijasida Behbudiyning "Padarkush", Hamzaning "Yangi saodat", "Zaharli hayot"; Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", "Jinlar bazmi" asarlarida, Fitrat va Cho'lponning ayrim dramatik va lirik asarlarida sentimental kayfiyatlarga moyillik, kuchli hissiyotlarga berilish, hissiy-ma'rifiy tanqid nishonalari va mayllari yaqqol ko'zga tashlandi. Bu mayllar 20- yillarning o'rtalariga qadar davom etdi, lekin sentimentalizm o'zbek adabiyotida mustaqil oqim tusiga kirmadi. Sentimentalizm vakillari (A.S.Gretri, K.F.Bax, K.F.D.Shubart) musiqaga — inson tuyg'ularini bevosita aks ettirib, tinglovchilarga kuchli ta'sir eta oladigan san'at turi sifatida alohida o'rin ajratgan. Sentimentalizmda musiqiy janrlar va obrazlar majmuasi kengaydi. Hajviy operaga dramatizm unsurlari kirib keldi (N.Pichchinni, P. Monsini, A. Gretri operalari), yangi — melodrama janri qaror topdi, cholg'u jo'rovozigida ijro etiladigan yakkaxon qo'shig'i (Berlin maktabi vakillari, rus kompozitorlar ijodida) rivojlandi. Shuningdek, S. Mangeym maktabi ijodkorlari, qisman I. Gaydn, V.AMotsart, keyinchalik F. Shubert, P. Chaykovskiy va boshqa kompozitorlar asarlarida o'z ifodasini topgan.

N.M.Karamzinning "Bechora Liza" (1792) qissasidan bosh-

langan sentimentalizm oqimi real hayotdan birqadar yiroq bo'lishiga qaramasdan, inson ruhiyatiga xos nozik kechinmalarni ifoda etishi, orzu-umidlar olamini aks ettirishi jihatidan qator milliy adabiyotlarda ham shu yo'nalishdagi sahna va nasriy asarlar yuzaga kelishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. Garchi bu paydo bo'lishi jihatidan G'arbiy Yevropa va rus madaniyatiga xos adabiy oqim bo'lsa-da, kitobxon idroki va ruhiyatiga ta'sir etishi jihatidan dunyo kitobxonlari diqqatini jalb eta oldi.

Zotan, sentimentalizm inson mavjudligini aql emas, balki alohida odamning ozod va erkin, tabiiy ichki olami, his-tuyg'ulari ifodasi yetakchiligi asosida izohlashga intildi. Insonga hamdardlik, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni sezgirlik bilan ilg'ash, oddiy odam boy ma'naviy olamini aks ettirish kabi belgi-sifatlar bilan klassitsizmdan farqlandi.

Jahon adabiyoti tarixida muhim o'ringa ega bo'lgan ulug' nemis shoiri Iogann Volfgang Gyote umri so'ngida bitgan "Yosh Verterning iztiroblari" nomli sevgi iztiroblari haqida xazin ohanglarda hikoya qiluvchi roman-maktub pokiza qalbning yaralanishi va bevaqt xazon bo'lishidan so'zlaydi. Yuraklarni titratguvchi, larzaga solguvchi bu sevgi haqidagi xazin qo'shiq kabidir. Shuning uchun ham bu asar Gyotening shoh asarlaridan biriga aylangan. Yosh ko'ngillar zavq-shavqi, iztirobi, qaynoq muhabbati esa hanuz ko'ngillarni rom etib keladi. O'zbek nasrida ham shu tipdagi O'Umarbekovning "Sevgim-sevgilim", A.Yo'ldoshning "Sunbulaning ilk shanbasi" singari asarlar mavjudki, ularni o'zaro qiyoslash qiyosiy adabiyotshunoslikka muayyan yangi qarashlarni olib kirish imkonini beradi. A.Yo'ldoshning "Sumbulaning ilk shanbasi" asarida afsus-nadomat, ilinj va umid, g'am va shodlik yonma-yon; unda ichki bir tavba-tazaru', ochilmay so'ngan g'unchalar ifori, orzulari kunpaya-kun bo'lgan yigitning dardi-alami, sir-asrori bor. Zotan, bu keyingi omil-yigit va qiz orasidagi kechmish bir oz pardalanishi ham o'quvchini fikrlashga undaydi. O'Umarbekovning "Sevgim-sevgilim" qissasidagi dardi-dunyosi iztiroblarga to'la qalb sohibidir. Qissa shubhasiz, muhabbat majorasi, oshiq qalbidagi ismsiz to'g'yonlar bilan aloqadorligi bois hayajonli epizodlarga boy. Ushbu adiblar o'z tasvir uslubiga, betakror tiliga, o'zlari olib kirgan yangi qahramonlari va obrazlariga, o'zlarining poetik olamiga ega ekani bilan kitobxonlar e'tiborini tortib kelmoqda.

V.Gyote ijodi ko'plab xorijiy mamlakatlarda o'rganilgan. Nemis yozuvchisi V.Gyote va o'zbek adiblarining asarlarida sentimental nasr poetikasini o'rganish, umuman, ularning tipologik xu-

susiyatlari, xususan nemis yozuvchisi V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” va o‘zbek yozuvchilari O.Umarbekov “Sevgim-sevgilim”, A.Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” asarlari bilan qiyoslab o‘rganishga bag‘ishlangan alohida tadqiqot mamlakatimizda olib borilmagan.

Nemis yozuvchisi I.V.Gyote ijodi ko‘plab xorijiy mamlakatlarda o‘rganilgan. O‘zbekistonda ham keng doiralarda tahlil qilingan. Biroq mamlakatimizda nemis yozuvchisi I.V.Gyote va o‘zbek adiblari asarlarida sentimental nasr poetikasi o‘rganilmagan.

18-asrning boshlarida G‘arbiy Yevropada paydo bo‘lgan sentimentalizm jahon adabiyoti va san’atida klassitsizmdan keyin anchagina tarqalgan adabiy yo‘nalish bo‘lib, ijtimoiy muammo ko‘tarish, aql bilan ish ko‘rishdan ko‘ra ruh va kechinma: qadriyatlarni ulug‘lash, sevgi, muhabbat, do‘stlik, mehr-shavqat tasvirlariga e‘tibor qaratishi, kitobxon hissiy idrokiga ta‘sir etib, muayyan his-tuyg‘u-hamdardlik (empatiya) uyg‘otishga intilishi, adabiy qahramonlarni oddiy odamlardan tanlashi, xo‘rlanganlarga tasalli berishi, ezgulikka chorlashi singari belgi-sifatlari bilan xarakterlanadi. Bu yo‘nalishga xos adabiy-estetik tamoyillar 18-asrning oxirlarida Rossiyaga ham kirib keldi va 19-asrda Muravyov, Dmitriyev, Karamzin, Jukovskiy, Radishchev ijodlaridayetakchi mavqe egalladi. Jumladan, dvoryancha qadriyatlarni yoqlagan Karamzin “Bechora Liza” qissasida krepostnoylikni bekor qilishni targ‘ib qilishdan ko‘ra, oliyanoblik haqida so‘zlashni ma‘qul ko‘rdi. Ya‘ni u inson omilini birinchi planga olib chiqqachgina o‘z diqqatini sinfiy tafovut va ziddiyatlarga qaratdi. Shunda ham, mavjud ijtimoiy tartiblarga nisbatan norozilik bildirishga shoshilmadi.

Inqilobiy kayfiyatdagi adiblar esa, krepostnoylikni yo‘q qilish tarafdori sifatida maydonga chiqib, insonning erkin hayoti va baxtli turmushini kuylashni maqsad qilishdi.

Oddiy odamlarning badiiy tasvir obyektiga aylanishi, davr adabiy tilini soddalashtirdi, jonli xalq tiliga yovuqlashtirdi. Rus sentimentalizmi Rossiya madaniy-tarixiy muhitiga xos ijtimoiy turmushga nisbatan konservativ qarash hukmronligi, ma‘rifatga, xususan ta‘lim-tarbiyaga moyillik ustuvorligi kabi xususiyatlari bilan Ovrupodagi o‘z analogidan sezilarli tarzda farqlanadi.

Mutaxassislar Rus sentimentalizmi rivojini quyidagi to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rganishni ma‘qul ko‘rishadi:

Ilk bosqich: 1760-1765-yillar. Rus sentementalizmi asoschisi Xeraskov boshchiligidagi “Foydali o‘yin-kulgu” («Полезное увеселение») va “Bo‘sh soatlar” («Свободный часы») jurnallari

atrofiga yig'ilgan ijodkorlar tabiat tasviri va inson ruhining ta'sirlanishini ijtimoiy qadriyatlar mezoni qilib olishdi.

Ikkinchi bosqich: 1776-yildan boshlanadi. Bu davrda Muravyov barakali ijod qildi. U ham inson qalbi va uning his-tuyg'ular olami poetik tasvirlariga ulkan e'tibor qaratdi. Bu davrda Nikolayevning o'zboshimcha yer egalari va krepostnoylik huquqidan mahrum bo'lgan qatlamning hayot tarzi o'rtasidagi keskin tafovut, ya'ni sinfiy ziddiyatlar keskinligi ifodalangan «Розанаи любим» komik operasi yuzaga keldi. Unda oddiy dehqonlar ma'naviy dunyosi naqadar boy ekaniga urg'u berildi.

Uchinchi bosqich: 18-asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda Karamzinning shoh asarlari yuzaga keldi, sentimentalizmni targ'ib qiluvchi matbuot nashrlari paydo bo'ldi.

To'rtinchi bosqich: Rus sentimentalizmining inqiroz bosqichi bo'lib, 19-asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqichda u o'z ijtimoiy-adabiy va estetik mavqeyini yo'qotib, romantizmga yo'l ochib berdi.

Yuqoridagi ko'pgina adiblarining asarlariga asoslanib, qo'yidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Bunga ko'ra, sentimentalizm ruhidagi asarlarda inson his tuyg'ulari har tomonlama badiiy tadqiq qilinishi, psixologik taxlilga keng o'rin berilshi, ayniqsa, his tuyg'ularning tabiiyligi ulug'lanadi. Sentimentalizm yo'nalishidagi asarlarda his-tuyg'uning ustuvor qo'yilishi insonning, nafaqat o'z olami, balki tabiatga bo'lgan munosabatini ham o'zgartiradi.

Adabiyotlar

- Jo'raqulov, U., Hamrayev, K. 2021. Qiyosiy adabiyotshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent.
- Gyote, I.V. 2018. "Yosh Verterning iztiroblari". Tarjimon: Yanglish Egamova – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Karim, B. 2018. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent.
- Yo'ldosh, A. 2020. Sunbulaning ilk shanbasi. Eng sara muhabbat qissalari. – Toshkent.
- Umarbekov, O'. 2020. Sevgim-sevgilim. Eng sara muhabbat qissalari. – Toshkent Yangi asr avlodi.

Sentimentalism in Russian literary studies

Munira Niyazova¹

Abstract

The article discusses the role of sentimentalism in world and Uzbek literature, the emergence of new moral principles called sentimentalism based on the emotional nature of man, his innate ability to recognize (feel) good and evil, the problems of sentimental literature in European and Russian literature.

Keywords: *sentimentalism, emotion, letter, travelogue, march, poem, idyll, parable, poetry, irrational theories, psyche.*

Referances

- Zhuraqulov, U., Hamraev, K. 2021. Qiyosiy adabiyotshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent.
- Gyote, I.V. 2018. "Yosh Verterning iztiroblari". Tarjimon: Yanglish Egamova – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Karim, B. 2018. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent.
- Yo'ldosh, A. 2020. Sunbulaning ilk shanbasi. Eng sara muhabbat qissalari. – Toshkent.
- Umarbekov, O'. 2020. Sevgim-sevgilim. Eng sara muhabbat qissalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi.

¹ *Munira Dj. Niyazova* – Basic doctoral student of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: munira.niyazova.81@inbox.ru

ORCID ID: 0000-0003-3459-7768

For citation: Niyazova, M. 2023. "Sentimentalism in Russian literary studies". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 79-84.

Tarixiy shaxs va tarix haqiqati ifodasida an'anaviy motivlar talqini

Nigora Samandarova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek adibi Erkin Samandarning "Quyun izlari yoxud Ogahiy" tarixiy romanida tarixiy shaxs qismati va tarix haqiqati ifodasida safar va yo'l motivlari poetik talqini jahon adabiyotining Fransua Rable, Daniel Defo, Jonatan Svift, Aleksandr Radishchev kabi vakillarining romanlari bilan qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: *tarixiy roman, tarixiy va badiiy haqiqat, mavzu, g'oya, an'ana, o'ziga xoslik, xarakter, kompozitsion yaxlitlik, xronotop, poetik mahorat.*

Kirish

Erkin Samandar (1935) ning "Quyun izlari yoxud Ogahiy" tarixiy romani (11) nisbatan kam tahlil va tadqiq etilgan. Bizningcha, asarni genetik asoslari, xarakterlar talqinida an'ana va o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi, mavzu va g'oyasi, obrazlar olami, kompozitsion yaxlitligi, ijodkor poetik mahorati singari turli rakurslarda o'rganish mumkin.

Romanda chor Rossiyasi bosqinining kelib chiqish sabablari, Turkiston, Xorazm va Buxoro hukmdorlari-yu, ziyolilarining ikki xil tipi hayoti, aqidalari, surati-yu siyrati, qismati qalamga olingan:

a) jaholatga qarshi ma'rifatni qurol qilgan toj-u taxt sohibi Muhammad Rahimxon II (Feruz), nozikta'b shoir, qat'iyatli amirzoda Abdumalik to'ra, Muhammadrizo Ogahiy;

b) Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni, Turkiston general-gubernatori general-adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman, amir Muzaffar, Shomurod inoq, Malangxon.

Roman markazida Muhammadrizo Ogahiy obrazi turadi. Muallif tarixiy shaxslar hayotining o'tkir dramatizmga boy davrlarini qalamga olib, obrazlarni chegara vaziyat – ekstremal holatlarda

¹ Samandarova Nigora Erkinovna – Mustaqil tadqiqotchi. Al Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti.

E-pochta: s.nigora@bk.ru

ORCID ID: 0009-0000-8844-8405

Iqtibos uchun: Samandarova, N.E. 2023. "Tarixiy shaxs va tarix haqiqati ifodasida an'anaviy motivlar talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 85-95.

ochish tajribasiga sodiq qoldi. Yaxlit ijodida amal qilib keluvchi bu prinsip asosida ulug' ma'rifatparvar shoir, tarjimon, muarrix va davlat arbobi Ogahiy (1809-1874) hayotini yaxlit holda emas, balki umrining so'nggi kunlarini bayon qildi.

Asosiy qism

"Quyun izlari yoxud Ogahiy" tarixiy romani arxitektonik jihatdan muqaddima, ikkita katta qism, ular tarkibida keluvchi o'n ikkita bob va So'ng (ya'ni xotima) dan tarkib topgan. Asar 1873-yilning ko'klamiga xos noxush voqealar bilan boshlanib, 1874-yilning qahraton qishi tasviri bilan tugaydi. Romandagi bahor va qish tasvirlari bahoriy gullari so'ldirilgan, navosoz bulbullari o'ldirilgan qadrdon yurtning achchiq qismati va inson umri fasllarini ham tamsil qilib keladi.

Tarixiy roman bosh qahramoni – Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tabiatning chang-to'zonli, tahlikali kunlari o'tishini kutmay, Xiva – Qal'ajiq – Toshsoqa safarini ixtiyor etadi. Bizningcha, "quyun" masalasi roman sarlavhasiga olib chiqilgani, bosh qahramon taqdiri va asarda ko'tarilgan muammolar shu hodisaga to'g'ridan to'g'ri yoxud ramziy ishoraviy yo'sinda bog'langani uchun u haqida qadimgi ajdodlarimizning inonch-e'tiqodlari, badiiy-estetik tasavvurlari, jahon xalqlari qarashlarini qisqacha kuzatish lozim bo'ladi.

Folklorshunos va etnograf olimlar ta'kidlashicha, jahonning ko'plab xalqlari, xususan Markaziy Osiyo va Sibirda yashovchi turkiy xalqlar, Qozon tatarlari, tojiklar, arablar, Qadimgi Rus va Dog'istonda umrguzaronlik qiluvchi ko'plab xalq va elatlar orasida quyun (*chang-to'zonli kuchli shamol o'ramasi*) ajina yoki jinlar ishi, – degan inonch-e'tiqodlar mavjud (4/ 73). Bunday talqinlar odamlarga ziyon-zahmat yetkazuvchi yovuz kuchlar hamda ularning manzil-makoni haqidagi islomgacha bo'lgan davrdagi mifologik tasavvurlarga borib taqaladi. Xayoliy va magik tasavvurlar bilan bog'liq yuqoridagi kabi demonologik obrazlar o'zbek adabiyoti namunalarida asosan, eng qadimgi inonchlarning xalq onggi, ijodkor estetik tafakkuridagi qoldiq (rudiment) lari, shuningdek, turkiy xalqlar adabiyoti hamda arab mifologiyasining ta'siri sifatida namoyon bo'ladi (1. 110).

Ilohiy kitoblarga ko'ra: jin o'zining mohiyatini anglamagan, Robbisini tanimagan, kibrga berilgan beitoat maxluq – insonning dushmani. Jin Shaytonning zurriyodi bo'lib, Alloh uni O'ziga ibodat – qulchilik qilishi uchun olovdan yaratgan. Demak, ilohiy kitoblarda jin afsona emas, balki real mavjudot (yaratiq) deb qaraladi (13).

Bizning zamonamizda ham okkultizm – astrologiya, jin,

vampir va jodugarlarlik unsurlari bilan bog'liq mavzular folklor, fantastika, mifologiya doirasida qolib ketmadi. Ular industriya sababli zamonaviy jahon adabiyoti, kino san'ati va videoo'yinlarida muayyan qatlamni tashkil etmoqda.

Umuman, tabiiy hodisa bo'lgan quyun (*girdob*) ichida yovuz kuchlar bor ekanligiga ishonch va bu ofatni tezroq bartaraf qilishga intilish xalq ongi va inonchlarida hanuz yashab kelmoqda. Folklorshunos olim, professor Mamatqul Jo'rayev ta'kidlashicha: *"Qachonlardir turli xil magik amallarni o'z ichiga olgan maxsus quyun to'xtatish marosimi ham mavjud bo'lgan. Bunday marosimlarda ishtirok etgan ajdodlarimiz tabiat hodisalarining afsonaviy homiylari yoki "egallari"ga murojaat qilishib, quyunni to'xtatishni so'raganlar"* (4. 76).

Xullas, "Quyun izlari yoxud Ogahiy" romani bosh qahramoni Ogahiy tahlikali kunlarda olis safarga chiqadi. Ma'lumki, jahon adabiyotining talaygina qissa va romanlarida borki, ularda ham bosh qahramonning sayohatlari aks etgan. Shunday ekan, tahlilga tortilayotgan romanning mazmun-mohiyati haqidagi fikr-mulohazalarimiz to'liq, asosli, tasavvurlarimiz ko'lamli bo'lishi uchun bu tipdagi asarlar haqida to'xtalish, ularni qiyosiy-tipologik tahlilga tortish ehtiyoji mavjudligi oydinlashadi. Shu ma'noda, biz ulardan eng xarakterlilarini ko'rib chiqamiz:

Masalan, Jahonga mashhur fransuz adibi Fransua Rable (1494-1553) o'zining besh qismdan iborat «Gargantuya va Pantagryuel» (10) romanida o'rta asrning an'anaviy hayot tarziga bo'lgan munosabatini ifodaladi. Dunyoviy adabiyot va san'at, ilmfan tarafdori bo'lgan adib xalqning ongini uyg'otish estetik niyatidan kelib chiqib, bid'atdan iborat bo'lgan turli cheklovlarni rad etdi. Ularni yorib o'tishga chorladi. Binobarin, ushbu romandagi Gargantuya, Pantagryuel kabi devqomat odamlar va haqiqat izlovchi Panurg kabi mubolag'ali (bo'rttirma) obrazlarda XV-XVI asr Fransiyasining ilg'or gumanistik ideallari aks etdi.

Yozuvchi bu personajlarni tasvirlashda xalq og'zaki ijodiga xos ruhga tayandi. Ma'lumki, romanning badiiy voqeligi xayoliy mamlakatda kechadi. Personajlar o'ta mubolag'ali, voqealar nainki hazil, balki mazax va istehzo bilan tasvirlandi. Gargantuya qiyofasi Uyg'onish davrining ramzi darajasiga ko'tarildi. Chunki Fransua Rable o'sha davr odamlaridagi moddiy istaklarga ruju qo'yish istagi bilan zinhor kelisha olmadi. Adib taraqqiyotga intilish haqidagi umumiy fikrda hamjihat millatni shakllantirishni orzuladi. Hukmdor tabaqada ustuvor bo'lgan takabburlik mamlakat fuqarolarining

tinch va farovon turmush kechirishi haqida o'ylash, ularning muammolarini hal qilishga to'sqinlik qiladi, deb hisobladi. Shuning uchun ham xalq va millat taqdiri uchun kurash masalasini roman markaziga olib chiqdi.

Adib qalamining tig'i nimalarga qaratilgan edi? -degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Bizningcha, Fransua Rable satirasi:

Birinchidan, o'z da'volariga mos bo'lolmagan katolik cherkovi va monastirning real hayotdan ajralib qolgan ta'lim-tarbiyasi;

Ikkinchidan, taqvodorlik niqobi ostida kuzatiluvchi turfa buzuvchiliklar, shuningdek, nodon va ishyoqmas ruhoniylarga qaratildi.

Afsuski, F.Rable masxara qilgan, parodiyaviy munosabatda bo'lgan ayrim masalalar adib Allohning qudrat-hikmati haqidagi ilohiy xushxabar va mo'jizalarga nainki ishonmasligi, balki ularni bema'nilik deb bilishini ham ko'rsatadi. Masalan:

Yozuvchi roman personajlaridan biri – Epistemonning tirilishi bilan bog'liq epizod orqali Iso Masihning o'likni tiriltira olish qudratini parodiya qiladi. Xurtali haqidagi hikoya asnosida Nuh to'foni qissasini masxaralaydi.

Roman bosh qahramoni Gargantuya onasining chap qulog'i orqali dunyoga keladi va F.Rable bu holni "Xudoning qudrati", -deb baholaydi. Chunki ilohiy xushxabar va mo'jizalarga ham, Allohning qudrat-hikmatiga ham ishonmaydi. Shuning uchun "Gargantuya va Pantagryuel" romani o'z davridayoq Sorbonna ilohiyot fakulteti tomonidan bid'at deb baholangan edi.

Ta'kidlanganiday, F.Rable "eski dunyo"ni hajv va satira yordamida inkor qildi. Ammo u nimalarni ma'qulladi? Bizningcha, ikki "dunyo kurashi" yozuvchining dunyoqarashi – tafakkur va taxayyulida kechgan va estetik idealiga o'sib chiqqan. Adib G'arbiy Yevropa pedagogik nazariyasi va amaliyotida kuzatilgan kamchiliklarni estetik ideali asosida tushundi. Anglamlarini badiiy tasvirlab berdi. Yozuvchi quyidagi "yangi dunyo"ni ma'qulladi:

- o'z haq-huquqlarini himoya qilishga qodir erkin inson g'oyasini;
- shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun barcha sharoit yaratiladigan bid'at va xurofotdan holi jamiyatni.

E'tiborli jihati shunda ediki, "Rablecha qahqaha", "Rable uslubi" (19) kabi mashhur atamalar zahirida insoniyatni turli nizo va janjallar, qirg'in hamda urushlarsiz, tinch-totuv yashashga chaqirish g'oyasi mujassam edi. Umuman, aytganda, adib "Gargantuya va Pantagryuel" romanida O'rta asr sxolastikasi va Uyg'onish davri paradigmlarini qiyoslashga intildi.

Daniel Defo (1660-1731) "Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" (3) (1719) romanida to'rt tomoni bepoyon ummon bo'lgan kimsasiz orolda, tabiat va hayvonot dunyosi bilan yigirma sakkiz yil yakka-yu yolg'iz qolgan kimsaning sarguzashtlarga boy kechmishi, sog'inch-iztiroblari, orzu-xayollari va yashash uchun kurashini aks ettirdi. Yozuvchi noquniniy yo'llar bilan tezroq boyib ketishni havas qilgan inson yo'lini uning qismati mutlaqo boshqa o'zanga burib yuborishini ko'rsatdi. Darhaqiqat, orolda muayyan darajada zohidona kechgan hayot Robinzonning qarashlarini tubdan o'zgartirdi.

Jonatan Svift (1667-1745) ning "Alif Laylo", "Ming bir kecha" kabi mashhur Sharq ertaklarini eslatuvchi "Gulliverning sayohatlari" (9 (1726) asarida ham F.Rable ifoda uslubidagi kabi kinoya va hajv yetakchilik qiladi. Roman qahramoni Gulliver dunyoning turli dengiz va ummonlari osha uzoq sayohatlarga chiqadi. Afsonaviy makonlarda kechuvchi bu g'aroyib sarguzashtlar qiziqarli va zavqli hikoya qilingan. Adib Angliyalik bo'la turib, roman qahramonlaridan biri – ulkanlar qiroli tilidan: *"...tartib-qonunlaringiz ham, urush-qirg'inlardan iborat tarixingiz ham juda axmoqona va adolatsiz, razolatlardan iborat ekan"*- degan o'tkir poetik hukm chiqardi. Jonatan Svift "Gulliverning sayohatlari" romanida quyidagi illatlarni hajv qildi:

- mustamlakachi ingliz lordlari irland xalqini barcha haq-huquqlardan mahrum qilib, xonavayron qilgani;
- irland xalqining qismati Londonda hal etilayotgani;
- Irlandiyaning ilm-ma'rifatli, Vatan va millatga sodiq ziyolilari quvg'in qilingani – inson huquqlari toptalgani;
- Angliya va uning mustamlakasiga aylangan Irlandiyada mansabparastlik, poraxo'rlik, o'g'rilik, bosqinchilik avj olgani.

Anglashiladiki, Jonatan Svift Irlandiya ozodligi uchun kurashgan xalqni qo'llab-quvvatlagan.

Yuqorida kuzatganimizday, jahon romanchiligida muayyan an'analari shakllangan safar motivi (5. 64) Erkin Samandarning "Quyun izlari yoxud Ogahiy" tarixiy romanida ham muhim o'rin tutadi. Bu safarning Fransua Rable, Daniel Defo, Jonatan Svift, Aleksandr Radishchev tasvirlagan safar motividan farqi va ahamiyati shundaki, Ogahiy Sharq mutafakkiri sifatida o'z milliy-mental tafakkuri va taxayyul dunyosiga asoslanib borliqqa, odamlar hayotiga ibrat nazari bilan qaraydi. Aynan shu jihat Xiva – Qal'ajiq – Toshsoqa makonlari bo'ylab kechishi ko'zda tutilgan mazkur safar va unga sarflangan vaqt mavlono Ogahiy hayotining eng muhim pallasi ekanini belgilab

beradi.

Ogahiy o'z umrini sayr-u sayohatga bag'ishlagan, yangi va notanish orollar hamda madaniyatlarni kashf etish, shu asosda esdaliklar-u safarnomalar bitishni ko'zlagan yuqorida tahlilga tortilgan qahramonlardan farq qiladi. Albatta, uning safari ham xavf-xatarlardan holi kechmaydi. Shoir va mutafakkirning yo'li o'z eli, o'z xalqi ichidan, hayoti davomida necha bor o'tgan qadrdon manzillar bo'ylab kechadi.

Ogahiy atrofidagi narsalarni teran mushohada qilish, hissiy idrok etish orqli har bir yaratiqda Allohning yagonaligiga muayyan ishora borligini biladi. Anglaydi va ruhan his qiladi. Shuning uchun ham uchta muhim yaratiqqa ibrat nazari bilan qaraydi:

- Samoviy yaratiqalar (*Quyosh, Oy, yetti qat osmon, Arsh va b.*);
- Zaminij yaratiqalar (*Yer osti va ustidagi barcha narsalar*);
- Inson – olam ul-akbar (*Makrokosm. Ya'ni inson olamning yaratilishi uchun asosgina emas, balki borliqning ko'rki va sharafti – Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda: "barchadin sharif"dir*).

Anglashiladiki, roman qahramoni mavlono Ogahiyning shu uchlik (triada)ga ibrat nazari bilan qarashi, ularni bunyod etgan ulug' zotning hikmat va qudratidan botinij hayrat tuyishi – qalbij ibodatdir. Anglashiladiki, umr shomida safarni ixtiyor etgan Ogahij Qur'oni Karimda keluvchi: *"Osmonlar va Yerning mulku saltanatiga, Alloh yaratgan har (bir) narsa va ajal (muddat)lari yaqinlashib qolganiga (bir) nazar tashlamaydilar mi?!" (13. 3-oyat)* - degan ko'rsatmaga amal qiladi. U har bir narsa, xususan inson umri ham o'lchovli (13. 185-oyat) ekanini yaxshi anglaydi. Shuning uchun ham qalban Allohga tavakkul qilib (o'zini Allohga topshirib), taqdirga ergashib, ya'ni yo'l azoblaridan cho'chimay safarga o'tlanadi. Zotan, uningko'ngli yaxshilarga hamroh bo'lish va yomonlardan chetlanishni tilaydi. Romanda tasvirlanishicha mavlono Ogahij ushbu uch amalni bajarishga o'ta mas'ullik va burchdorlik hissi bilan yondashadi:

- birinchidan, u har bir yangi kun boshlanishida Allohning yagonaligi va boqiyiligiga iymon keltiradi;
- ikkinchidan, inson umri ul Zotning in'omi ekanini yaxshi biladi. Butun borliq va insoniyat jamiyatiga ibrat nazari bilan qaraydi;
- uchinchidan, o'z-o'zini nazorat qiladi. O'tgan umrini sarhisob etib, saxv-xatolari uchun tavba qiladi.

Yuqorida sanalgan amallarning barchasi Ogahij o'z hayotiga

Qur'on axloqini tatbiq etganini ko'rsatadi.

Masalan, Ogahiy ulug' mutafakkir sifatida qattiq shamol va quyun paydo bo'lganida Allohdan najot so'rab iltijo qiladi. Nafl namozini ado etadi. G'aflat musibatlarning eng yomoni va insonni halokatga yetaklovchi illat ekanini yaxshi anglaydi. U o'zini nainki, oilasi va yaqinlari, balki Vatan oldida ham katta burchdor deb biladi. Birinchi navbatda o'sha burchini ado etishga intiladi. Shuning uchun ham, yon-atrofida sodir bo'layotgan katta-yu kichik voqea-hodisalarga daxldorlik hissi bilan qaraydi, zinhor befarq bo'lolmaydi. Dili va tilini g'ayriinsoniy tuyg'ular (*hasad, yolg'on, bo'hton, maqtanish, ikkiyuzlamachilik va b.*) dan tiyadi. Ogahiy hamisha olimlar va solih kishilar majlisida bo'lish, ilm-ma'rifat, yaxshi axloqni o'rganish va o'rgatishni istaydi. Uning ko'nglida ilmiy-ma'rifiy mavzularda mubohasa qilishga kuchli ishtiyoq bor. Qahramonimiz zinhor dunyo moliga xirs qo'ymaydi va hamisha haromdan parhez qiladi.

Anglashiladiki, Erkin Samandar Ogahiy obrazini butun vujudi bilan chin ma'nodagi mo'min inson sifatida tasvirlashga harakat qilgan.

Tanishganimizday, romanda muhim ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar: keksayib qolgan shoirning safarga o'tlanishi (bu jo'n sayohat ilinjidagi safar emas); o'z-o'ziga, atrofga, o'tmish va bugunga ibrat nazari bilan qarashi; o'tgan umrini sarhisob qilishi; o'zining yurt va millat taqdiri haqidagi o'y-kechinmalarini yagona fokusga jamlashga intilishi kabi ko'ngil istaklaridir.

Albatta, romanda safardan tashqari farzandsizlik, muhabbat singari motivlarga ham duch kelamiz. Ammo, barcha tafsilotlarni o'z atrofida birlashtirgani, bosh qahramonning yurt taqdiri, mamlakat birligi erk va ozodlik haqidagi fikr-o'ylariga eshligi bilan alohida ajralib turuvchi safar motivi nisbatan keng va mufassal tahlil qilishni toqozo etadi. Darhaqiqat, romandagi xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g'oyalari bilan bog'liq kurashlar ko'proq safardagi Ogahiy ruhiyati –fikr-o'ylarida kechadi. Demak, inson xatti-harakatlari xarakterlar botiniga ko'chirilgani bilan ham roman o'ziga xoslik kasb etadi.

Erkin Samandar Ogahiy o'z salafлари, piri ustozlari shajarasidan uzib olmaydi. Adib buning uchun yo'l xronotopidan samarali foydalanadi. Bu bejiz bo'lmay yozuvchi tarixiy romanda yo'l xronotopining ifodalanishi, nainki asar kompozitsiyasini belgilash, balki uning axborot maydonini tarixiy, madaniy, falsafiy-estetik, diniy-mifologik va geografik kodlar orqali aniqlashtirish imkonini ham berishini yaxshi biladi.

Xulosa. Darhaqiqat, romanda xronotop Erkin Samandar ijodiy metodi va uslubiy o'ziga xos jihatlarini belgilash, milliy va umumbashariy fikrlash tarzini ochib berishga xizmat qilgan (19). Binobarin, romanni adib badiiy idrok etgan zamon va makonlararo uyg'unlik – muallif “men”i va adabiy-estetik ideali bilan chambarchas bog'liq xronotop negizida o'rganish undagi sinkretik xususiyatlar shuningdek, janr tarixiy-tipologik funksiyasini ham belgilash imkonini beradi. Zotan, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati ham zamonda namoyon bo'ladi. Makon va zamon shakli-mazmuniy kategoriyasi romandagi inson obrazining ma'no-mohiyatini ham belgilab beradi. Masalan, E.Samandar safarga ogtlanayotgan Ogahiyning yo'lini dastavval Pahlavon Mahmud (Puryorvaliy) maqbarasi, so'ngra Muhammad Rahimxon I va o'g'li Olloqulixon xoki poylari yotgan daxmalar bo'ylab olib o'tadi. Ogahiy bu maskanlarda o'tgan ulug'larimiz maqbaralarini ziyorat qilib, haqlariga Qur'on oyatlarini tilovat qiladi. Shu tariqa ko'ngliga Alloh solgan ilohiy mujda tufayli o'z ruhiyatida paydo bo'lgan evrilishlar ulug' mutafakkir bir umr ibratlanib ergashgan ustozlari va yurt qayg'usida yongan shohlarning ruhi oldidagi burchdorlik hissi hamda jafokash xalqi dardiga g'amgusorlik makon vva zamonlar osha uzviy tutashadi.

Ziyoratchilarning yo'llari mashhur mutasavvif shayx Said Alouddinga atab Shayx Said Mir Kulol tomonidan qurilgan, 1825-yilda Olloqulixon buyrug'i bilan ta'mirlangan qadimiy maqbara bo'ylab o'tadi. So'ngra kubraviylik oqimi asoschisi, shoir, olim va shayx Najmiddin Kubro sajdagohi, Sherg'ozixon, Arabmuhammadxon, Olloqulixon madrasalari ziyorat qilinadi. Yozuvchi bu usul orqali imon-e'tiqodli ulug' pirlar elga bosh bo'lgan davrlarni eslaydi. Chor Rossiyasi 1603; 1717; 1840-yillarda Xorazmga qilgan tajovuzlar va erk yo'lida jonini garovga tikib, yog'iy shashtini sindirgan, nusrat ustiga nusrat qozongan hukmdor ajdodlar tadbirkorligi-yu jasoratini muarrix Ogahiy xayolida qayta tiklaydi. E.Samandar: *“... ularni shunchaki eslab bo'lmagay, ular ko'zni, qalbni ogohlikka, mardlikka chorlab, bong urib turgaylar”*(11. 274), deb yozadi.

Darhaqiqat, Ogahiy va unga qo'shilib kitobxon o'y-xayollarida ham ko'zni, qalbni ogohlik va mardlikka chorlovchi ana shu bong aks-sado beradi.

Adabiyotlar

- Анжиганова, Л. 1997. Традиционное мировоззрение хакасов. Опыт реконструкции. – Абакан: Роса.
- Ахметгалеева, Я.С. 1976. Исследование тюркоязычного памятника “Кисекбаш китабы”. – М.: Наука.

- Дефо, Даниел. 2014. Робинзон Крузонинг ҳаёти ва аж Анжиганова
Л Традиционное мировоззрение хакасов. Опыт
реконструкции. – Абакан: Роса, 1997. –128 с
- Ахметгалеева, Я.С. 1976. Исследование тюркоязычного памятника
“Кисекбаш китабы”. – М.: Наука.
- Дефо, Даниел. 2014. Робинзон Крузонинг ҳаёти ва ажойиб
саргузаштлари. – Т.: Янги аср авлоди.
- Жўраев, М., Шомусаров Ш. 2001. Ўзбек мифологияси ва араб
фольклори. – Тошкент, Фан.
- Имомов, К. 1968. Эртақларда синов мотиви // Ўзбек тили ва адабиёти.
– Тошкент, – 5-сон.
- Миндибекова, В.В. 2007. Сюжетно-тематический состав хакасских
мифов // Поэтика жанров фольклора народов Сибири:
Миф. Эпос. Ритуал. – Новосибирск: Новосибирский
национальный исследовательский государственный
университет.
- Раҳмонова, М.Р. 2018. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти:
Филология фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. –
Тошкент, 2018.
- Жўраев, М., Шомусаров, Ш. 2001. Ўзбек мифологияси ва араб
фольклори. – Тошкент, Фан, 2001.
- Имомов, К. Эртақларда синов мотиви // Ўзбек тили ва адабиёти. –
Тошкент, – 5-сон.
- Миндибекова, В. В. 2007. Сюжетно-тематический состав хакасских
мифов // Поэтика жанров фольклора народов Сиби-
ри: Миф. Эпос. Ритуал. – Новосибирск: Новосибирский
национальный исследовательский государственный уни-
верситет.
- Раҳмонова, М.Р. 2018. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти:
Филология фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. –
Тошкент.
- Снесарев, Г.П. 1969. Реликты домусульманских верований и обрядов
у узбеков Хорезма. – М.
- Свифт, Жонатан. 2009. Гулливернинг саёҳатлари / Таржимон Ваҳоб
Рўзиматов; . – Тошкент: “Вектор-Пресс”.
- Рабле, Франсуа. 1970. Гаргантюа ва Пантагрюэль, – Т.
- Самандар, Эркин. 2009. Қўюн излари ёхуд Огаҳий.Тарихий роман. –
Тошкент, Mumtoz so'z.
- Эгамов, Х. Мотив ва сюжет / XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Анто-
логия. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
– Б.359-372
- Қуръони Карим. 1992. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар
муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент.
- Matyokubova, T., & Yakubov, I. 2020. Laboratory works of Gafur Gulam: po-
etic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7.
- Matyokubova, T. 2023. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied
Science, 02 (118).
- Yakubova, S. 2023. The issue of «way» in cholpon's poetry. ISJ Theoretical

& Applied Science. 02 (118).

Yakubov, I. 2023. "Boburnoma" – o'zbek nasrining nodir yodgorligi. "Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, Toshkent.

<http://svr-lit.ru/svr-lit/bahtin-tvorchestvo-rable/rable-v-istorii-smeha.htm>

<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uzoq-juraqulov-mihail-bahtin-kashfiyotlari>

Interpretation of traditional motives in statements of historical personalities and facts

Nigora Samandarova¹

Abstract

In this article the poetic interpretation of the motives of travel and road in the historical novel of the Uzbek writer Erkin Samandar "Kyun Izlari Yahud Ogahii" ("Traces of Kyun or Ogakhiy") is compared with the novels of such representatives of world literature as François Rable, Daniel Defoe, Jonathan Swift, Alexander Radishchev researched in a typological perspective.

Key words: *historical novel, historical and artistic truth, theme, idea, tradition, originality, character, composition integrity, chronotop, poetic mastery.*

Referances

Anzhiganova, L. 1997. Traditsionnoye mirovozzreniye khakasov. Opyt rekonstruktsii. – Abakan: Roza.

Akhmetgaleeva, YA.S. 1976. Issledovaniye tyurkoyazychnogo pamyatnika «Kisekbash kitaby». – M.: Nauka.

Defo, Daniel'. 2014. Robinzon Kruzoning xayoti va azh Anzhiganova L Traditsionnoye mirovozzreniye khakasov. Opyt rekonstruktsii. – Abakan: Rosa, 1997. –128 s.

Akhmetgaleeva, Ya.S. 1976. Issledovaniye tyurkoyazychnogo pamyatnika «Kisekbash kitaby». – M.: Nauka.

Defo, Daniel'. 2014. Kruzoning Robinzona rabotayet v azhoyib sarguzashtlari. – T.: Yangi asr avlodi

¹ Nigora E. Samandarova – Independent researcher. Urganch State University.

E-mail: s.nigora@bk.ru

ORCID ID: 0009-0000-8844-8405

For citation: Samandarova, N.E. 2023. "Interpretation of traditional motives in statements of historical personalities and facts". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 85-95.

- Zhūraev M., Shomusarov SH. 2001. Izbek mifologii v arabskom fol'klоре. – Toshkent, Fan.
- Imomov, K. 1968. Ertaklarda sinov motivi // Ūzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, – 5-son.
- Mindibekova, V.V. 2007. Syuzhetno-tematicheskii sostav khakasskikh mifov // Poetika zhanrov fol'klora narodov Sibiri: Mif. Epos. Ritual. – Novosibirsk: Novosibirskiy natsional'nyy issledovatel'skiy gosudarstvennyy universitet.
- Rahmonova, M.R. 2018. Ūzbek khalk afsonalarining badiyati: Filologiya fanlari doktora (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2018.
- Zhūrayev M., Shomusarov SH. 2001. Izbek mifologii v arabskom fol'klоре. – Toshkent, Fan, 2001.
- Imomov, K. Ertaklarda sinov motivi // Ūzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, – 5-son.
- Mindibekova, V.V. 2007. Syuzhetno-tematicheskii sostav khakasskikh mifov // Poetika zhanrov fol'klora narodov Sibiri: Mif. Epos. Ritual. – Novosibirsk: Novosibirskiy natsional'nyy issledovatel'skiy gosudarstvennyy universitet.
- Raxmonova, M.R. 2018. Ūzbek khalk afsonalarining badiyati: Filologiya fanlari doktora (DSc) diss. avtoref. – Toshkent.
- Snesarev, G.P. 1969. Relikty domusul'manskikh verovaniy i obryadov u uzbekov Khorezma. – M.
- Swift, Dzhonatan. 2009. Gulliverning sayohatlari / Tarkhimon Vaxob Rūzimatov;. – Toshkent: «Vektor-Press».
- Rable, Fransua. 1970. Gargantuya va Pantagryuel', – T.
- Samandar, Erkin. 2009. Kuyun izlari yokhud Ogaxiy. Tarikhiy roman. – Toshkent, Mumtoz so'z.
- Egamov, Kh. Motiv v syuzhete / XX asr ūzbek fol'klorshunosligi. Antologiya. – Toshkent: Uzbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017. – B.359-372
- Qur'oni Karim. 1992. Ūzbekcha izohli tarzhiba. Tarzhiba va izolar muallifi Alouddina Mansur. – Toshkent.

JAHON DRAMATURGIYASI: TARJIMA VA ILMIY TALQIN

Ingliz klassitsizm dramasida intertekstuallikning sharqona motivi

Dilafroz Ochilova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasida allyuziya kabi intertekstual stilistik vosita drama matnida yangi ma’no kasb etuvchi, kitobxon bilan dialogga kirishuvchi matn hosil etishga imkon berganligi hamda dramaga qadimgi Sharq mifologiyasi, diniy manbalar “Qur’oni karim”, “Injil” va Sharqning didaktik asarlaridan olingan sitata, implikatsiya, g’oyalar, fikrlar matn to’qimasiga kiritilganligi bayon etilgan.

Kalit so’z: *drama, allyuziya, intertekstuallik, mimesis, monarxiya, klassitsizm.*

Kirish

VII asrda Yevropada keng tarqalgan klassitsizm adabiyoti yunon va rim adabiyotiga taqlid qilish bilan birga Sharqning ilohiy kitoblari, miflar, adabiy-tarixiy manbalarga xos badiiy komponentlarni sintezlash jarayoni orqali adabiyotning klassik bosqichiga o’tdi. Bularning barchasi klassitsizm yo’nalishining ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-tarixiy, adabiy-estetik hodisa o’laroq, badiiy tafakkurning adabiyotda aks ettirilishida namoyon bo’ldi.

Jon Drayden klassitsizm namunalari obyektini bajaruvchi Sharq va G’arbga xos tarixiy voqea, tuyg’u va xayolotni mujassamlantirib, o’z ijodi mahsulini badiiy tafakkurning arxaik bosqichidagi miflar, ilohiy kitoblar, tarixiy ma’lumotlar bilan hamohang tarzda yaratdi. Sharqning didaktik, ma’rifiy-ma’naviy hamda falsafiy g’oyalari drama matnida yaqqol namoyon etilgan. Draydenning “Avrangzeb” dramasini yaratishda yuksak iste’dodi va badiiy mahoratining kulminatsion darajasi shundaki, Sharq manbalari bilan yunon va rim adabiy manbalarini hamohang holda mahorat bilan foydalanishi, Angliya Tiklanish davrida drama janrini yangicha qolipga solishidir.

¹ Ochilova Dilafroz Baxramovna – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). Qarshi davlat universiti katta o’qituvchisi.

E-pochta: dilafroz.ochilova7478@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-3382-0135

Iqtibos uchun: Ochilova, D.B. “Ingliz klassitsizm dramasida intertekstuallikning sharqona motivi”. *O’zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3); 96-103.

Intertekstuallik konsepsiyasi bo'yicha M.M.Baxtin, Y.Kristeva, I.V.Arnold, Ye.J.Bajenova, L.Gruzberg, o'zbek olimlaridan F.Xajiyeva, A.Xalilova tadqiqot olib borishgan. M.Baxtinning fikricha, har bir matn bir dialog bo'lib, unda matn ichida yana bir matn mavjud [4:428]. 1967-yilda ilk marotaba intertekstuallik tushunchasini ilgari surgan olim Yuliya Kristeva intertekstuallik matn ichida matn bo'lib, turli madaniyatlar va matnlarning bir-biri bilan bog'liqligi deya ta'rif berib o'tgan [4:429].

Lingvistik tahlillar simvolizm, allyuziya, perifraza, sitata va epigrafi kabi til birliklari intertekstuallikning muhim tarkibiy qismi ekanligini belgilab qo'ygan.

Yu.J.Bajenova "intertekstuallik hodisasini tilning turli kommunikativlik qatlamlarida o'rganish matni nafaqat lingvistik tomonidan, balki ijtimoiy, siyosiy, tarixiy va madaniy tomonlarini kengroq anglashga ko'mak beradi. Intertekstuallikda matnning ma'nosini yanada chuqurroq tushunib, matn ichidagi g'oyani boshqa fikrlar bilan bog'lab, yangi ma'noni idrokimizda talqin qilamiz", deya ta'kidlagan [1:108]. L.Gruzberg esa "intertekstuallik badiiy asarning yashirin, eng chuqur semantik qatlamini, g'oyasini o'rganishimizda asosiy strategiyadir", deb ta'riflagan [2:39].

Badiiy matn alohida yagona til vositasi emasligini, u adibning ichki dunyosini, bilim va ko'nikmalarini aks ettiruvchi turli ramziy ma'nolar ham mavjudligini inobatga olsak, simvolizm ham intertekstuallikning bir qismi degan xulosaga kelamiz. Badiiy matnda simvolizm intertekstuallikning asosiy komponenti sifatida qabul qilinib, u ikki xil ma'noni o'z ichiga oladi: denotativ va abstrakt. Bunda simvolizmning matndagi ikkilamchi (ko'chma) ma'no bilan to'g'ridan to'g'ri anglatgan (o'z) ma'nolari o'rtasidagi hamohanglik matn ichidagi boshqa matni ifoda etilishiga sabab bo'ladi [8:26] [10:156].

Intertekstuallik nazariyasining asoschilaridan biri J.Jannet intertekstuallikni quyidagicha tasniflagan:

shaxsan intertekstual – mustaqil tuzilmaga ega bo'lgan, ya'ni "matn ichida matn"ning qo'llanilishi;

paratekstual – o'z ichiga illyustratsiya hamda kirish gaplarni olishi;

metatekstual – matnga (ko'p holda tanqidiy yondashilgan) izoh beruvchi;

arxitekstual – matni asl manbasiga bog'liqlik tomonini izohlovchi. Shaxsan intertekstual turiga allyuziya, remissiya va sitatalar kiradi [5:133] [6:134]. Bu uchala vosita bir-biriga yaqin

bo'lsa-da, ular o'rtasida muayyan farq mavjud.

Allyuziya intertekstuallikning eng murakkab va eng muhim qismi hisoblanadi. L.K.Graudina va Ye.N.Shiryayeva allyuziyani ma'lum bir yaratilgan matnga biror bir pretsedent (avvaldan mavjud) fakt – adabiy yoki tarixiy faktlar bilan bog'lashdan iborat bo'lgan matn yaratish usulidir, deya ta'kidlaydi. Matnda allyuziya vaziyatga, faktga, holatga, ma'lum shaxsga ishora qiladi [10:134]. Shunga ko'ra, allyuziya o'z ichiga olgan ma'lumotiga qarab, **adabiy**, **tarixiy** hamda **aralash** turlarga bo'linadi. **Adabiy allyuziyalar** pretsedent matndan olingan va muallif tomonidan o'zgarish kiritilgan epizodlar, obrazlardir. **Tarixiy allyuziya** – tarixiy shaxslar yoki faktlarni matnga misol qilib qo'llashdir. **Aralash** allyuziyalar ham mavjud bo'lib, matnda muallif tomonidan tarixiy va adabiy allyuziyalarga xos belgilarning qo'llanishi hisoblanadi [2:133].

Xullas, yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirsak, allyuziya stilistik vosita sifatida mashhur adabiy, diniy, tarixiy, mifologik fakt, voqea-hodisa, shaxs va joy nomining boshqa yozma yoki og'zaki nutq jarayonida qo'llanilishidir.

XVII asrga kelib Angliyada klassitsizm tamoyillari qonuniy adabiy metod tusini olib, bunga ijtimoiy, badiiy, psixologik vaziyat yetilgan edi. Sababi tashqi va ichki siyosatda mutlaq monarxiya tamoyillari shakllanib, dramaturgiya mamlakatda adabiy siyosatni boshqaruvchi bir tizimga aylangan edi. Ya'ni, adabiyot va san'at davlatdagi etiket, madaniy yuksak ingliz kishisini zavq ulashib, tarbiya qilishdan iborat edi. Mazkur jarayon vazifasining “namuna-obyekti”ni Sharq falsafasi, tarixiy manbalarning didaktik xususiyatlari hamda antik yunon va rim manbalari bajardi. Yuqorida keltirilgan fikrlar isbotini Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasida qo'llanilgan intertekstuallik allyuziya badiiy vositasi orqali amalga oshirilganini misollar orqali ko'rish mumkin:

Melesinda.

Too truly Tamerlane's successors they;
Each thinks a world too little for his sway.
Could you and I the same pretenses bring,
Mankind should with more ease receive a king.
I would to you the narrow world resign,
And want no empire while Morat was mine [7:57].

Melisinda.

*Haq so'zlagaysiz. Ikkisi ham erur **Temur avlodi**,
Tomirida jo'sh urur qoni, dunyoni zabt etish xayoli.
Odamzod taxtini olmog'i kerak beozor, bekibr.*

Siz va men ikkalamiz, bunda hamfikir.

Bu tor dunyoni berardim sizga, menga kerak emas,

Taxtdan ham kechardim, Murod men bilan bo'lsa bas [9:118].

Yuqorida keltirilgan drama parchasida Amir Temur siymosi tarixiy allyuziyastilistik vositasifatida keltirilgan, birginash unomning qo'llanishi matn ichiga sharqona kollorit, tarixiy voqealar, sharqona obrazlar Yevropa tomoshabini ko'z oldida gavdalanishi tabiiy edi. Sohibqiron beqiyos mashhurlikka ega tarixiy shaxs bo'lgan. Sababi XIV asrda jahonga dovrug'i ketgan bobokalonimiz oddiy askarlikdan buyuk sarkarda darajasiga ko'tarilib, Hindistondan Yevropagacha, Arabistondan Sibirgacha bo'lgan ulkan hududda kuchli davlat qurganidir. Butun jahonga bunyodkorlik, ilm-fan, madaniyat rivojiga alohida e'tibor qaratganligi bilan, olimlar, me'morlar, hunarmandlar, tabiblar, faylasuflar, shoir-u mashshoqlarga g'amxo'rlik qilganligi bilan mashhur bo'lib, Yevropada Uyg'onish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatganligi sir emas. XVIII asr Yevropa tomoshabiniga Amir Temur siymosi Kristofer Marlning "Buyuk Temur" fojiasi, F.Bernyening "Mo'g'ullar saltanatiga sayohat" asarlaridan yaxshi ma'lum bo'lgan, buni bilgan Drayden drama matnida bobokalonimiz nomini bir necha bor tarixiy allyuziya badiiy vositasi sifatida qo'llagan [11:153].

Melesinda (Shoh Jahonning kenja kelini, Murodning rafiqasi) Indamora bilan xonasida suhbatlashganda, tashvish va xavotir bilan Murod ham, Avrangzeb ham — Temurning haqiqiy avlodlari ekani haqida gapiradi: "Too truly Tamerlane's successors they/ Each thinks a world too little for his sway"./Ularning har biri butun dunyoni zabt etishni o'zi uchun kam, deb hisoblaydi" deydi. Kitobi ibtidosida Bernye Buyuk Mo'g'ullar shajarasi haqida xabar berib, ular Temurning to'g'ridan-to'g'ri shajarasi ekanini eslatadi. Drayden dramasi tomoshabinni Marlning "Buyuk Temur" tragediyasini esga olishga majbur qiladi. Biroq dramaning badiiy g'oyasi uchun bu tarixiy fakt birinchi galda shu jihatdan muhimki, hokimiyatga tashnalik, ishqibozlikning chek-u chegarasizligi, buyuk kuch-qudrat sohibi o'z azm-u irodasiga mamlakatlarni bo'ysundirishni bosh maqsad deb bilishi insoniyat uchun tabiiy ofat, deya singdirishga xizmat qilgan. Muallif Amir Temurga hech qanday aniq ma'naviy baho bermagan. Drayden bunda tarixiy allyuziya orqali fuqarolar urushining fojiali saboqlarini nazarda tutgan, bu urushda shuhratparastlik, izzatparastlik kurashi xaos (tartibsiz) va vayronagarchilikka aylanib ketish fikrini ommaga singdirishni maqsad qilgan, shuningdek, Angliya va Hindistondagi zamonaviy tarixiy vaziyatlarning o'xshashligi sababli Drayden hind tarixiy

materiallaridan ingliz siyosiy hayotiga doir dolzarb ishoralar qilish uchun foydalangan.

Drayden dramasining matnida “Buyuk Temur”ga pinhona havolalar, ishoralar ham mavjud, masalan:

Aureng-Zebe.

Those fair ideas to my aid I'll call,
And emulate **my great original** [7:48].

Avrangzeb.

Dono fikringiz bo'lg'ay menga yor,
Buyuk bobolarim ruhi madadkor[9:94].

Otasi Avrangzebga nasihat etganda, qahramon jang maydonida bu maslahatlarga amal qilishi hamda unga bobokolonlari ruhi madadkor bo'lajagini aytadi. Bobokolonlarim – *my great original* misrasida tarixiy allyuziya vazifasida buyuk mo'g'ullar avlodi, temuriylar-u boburiylar nazarda tutilgan. Drama matnida Amir Temur hamda uning avlodlariga Drayden tomonidan ehtirom va iliq munosabat sezilib turadi. Shubhasiz, “*my great original*” misrasi Yevropa tomoshabini tasavvurida qudratli boburiylar sulolasi, Sharq madaniyati, tarixi gavdalanishi tabiiy.

Nourmahal.

Custom our native royalty does awe;
Promiscuous love is nature's general law.
For whosoever the first lovers were.
Brother and sister made the second pair,
And doubled, by their love, their piety [7:125].

Nurmahal.

Bizning saltanat ahli qurqar odatlardan,
Axir tabiatning o'zi boshlagan muhabbatni qondoshlardan.
Ilk muhabbatni ato etgan Odam Ato qovurg'asidan
Keyin juft bo'lib, aka-singillar buni davom etgan.
Bu muhabbatga rioya etib, ular ikrom ko'rsatishgan kattalarga
[9:168].

Dramaning mazkur parchasida adabiiy allyuziya qo'llanilib, “Qobil va Hobil” qissasi ilova etilgan, bu qissa islom dini, xristian va yahudiy dini rivoyatlarida mavjud bo'lib, unga ko'ra, Odam Atoning ikki o'g'li – Qobil va Hobil, Bibliyada Kain va Avel deb tilga olingan. Rivoyatga ko'ra, Odam Ato har farzand ko'rganida, bir o'g'il va bir qiz tug'ilar edi. Ilgari tug'ilgan o'g'il farzandiga undan keyingi tug'ilgan qizni olib berar, shu tarzda insonlar ko'payganligi aytilgan.

Nurmahal o'zining o'gay o'g'li Avrangzebga oshiq bo'ladi, buni eshitgan Avrangzeb dahshatga tushadi. O'zini oqlamoqchi bo'lgan Nurmahal muqaddas kitoblarda bayon etilgan rivoyatga ishora etgan.

Keltirilgan intertekstuallikning komponentini kasb etuvchi allyuziya badiiy tasviriy vositalar G'arb adabiyotida ko'proq qo'llanilsa-da, Sharq adabiyotida ham o'z muqobiliga ega. Bu esa Sharq va G'arb adabiyoti o'rtasida o'zaro uyg'unlik borligining isbotidir.

Zero, jahon adabiyotini o'rganish orqali madaniy bilim ko'lamini kengaytirish, G'arb adabiyoti haqida dunyoqarashni yanada rivojlantirish, qolaversa, badiiy asarda ifodalangan muallifning estetik didini, uslubini, asl g'oyasini tushunish va anglash mumkin.

Xullas, Draydenning "Avrangzeb" tragediyasida intertekstuallikning ifodalanishi orqali yorqin va ishonchli hikoya, sharqiy imperiyaga xos bo'lgan urf-odatlar va axloqiy tutumlarga doir kuzatishlar batafsil tasvirlangan. Bu esa tarixning muayyan konsepsiyasiga asoslangan voqealarning ma'naviy va siyosiy talqinini, bahosini teran ifodalab beradi.

Adabiyotlar

- Баженова, Е.А. 2003. Интертекстуальность // Стилистический энциклопедический словарь русского языка. – Москва: Наука.
- Грузберг, Л. Интертекст. Интернет журнал, Филолог <http://philolog.pspu.ru/module/magazine/do/mpub>
- Еременко, Е.Г. 2012. Интертекстуальность, интертекст и основные интертекстуальные формы в литературе. // Уральский Государственный вестник.
- Кристева, Ю. 2000. Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму / «Прогресс».
- Фатеева, Н.А. 1998. Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи. // Изв. РАН. Сер. лит. и яз.
- Khajieva, F. M. 2020. Theoretical aspects of the language learned (Stylistics). *Бухоро: Дурдона*.
- Drayden, J. 1971. Aureng-Zebe. Act II, 406-407 lines. Ed. by Frederick M. Link, University of Nebraska Press. Lincoln.
- Jumayeva, N. U. Folkner asarlarida simvolizm. // Tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik. O'zbekiston. Til va madaniyat, 2022. Vol 1(3).
- Ochilova, D.B. 2014. Jon Draydenning "Avrangzeb" fojiasi (o'zbek tiliga tarjimasi) (Aureng-Zebe by John Dryden). – Toshkent: "Navro'z" nashriyoti.
- Ochilova, D.B. Allyuziya intertekstuallikning muhim omili sifatida //

QarDU xabarlari. – Qarshi, 2022. – № 5/2(55). – B.154-157. (10.00.00; №33)

Ochilova, D.B. Jon Drydenning “Avrangzeb” tragediyasida qoʻllanilgan stilistik konvergenchialarning asosiy gʻoyasi //Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022. – №4. – B. 401-407. (10.00.00; №26)

Ochilova, D. 2023. Особенности стилистических конвергенций в драме Джона Драйдена «Аврамгзеб» // Scientific Conference on Multidisciplinary studies. –Russia.

The oriental motif of intertextuality in the drama of English classicism

Dilafruz Ochilova¹

Abstract

This article reveals the intertextual stylistic device such as allusion in John Dryden’s drama «Avrangzeb» allows creating a text that acquires a new meaning in the drama text, It enters into a dialogue with the reader. and it is stated that quotations, implications, ideas, thoughts taken from didactic works of the East are included in the text.. Moreover, it illustrates examples that refers to ancient orient mythology, theological sources such as “The Bible” and “The Holy Qur’an”, along with quotations, deductions, ideas, and reflections from Eastern literary wisdom that are all seamlessly woven into the text.

Key words: *drama, allusion, intertextuality, mimesis, monarchy, classicism.*

References

- Bazhenova, Y.A. 2003. Intertekstual’nost’// Stilisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar’ russkogo yazyka. – Moskva: Nauka.
- Gruzberg, L. Intertekst. Internet zhurnal, Filolog <http://philolog.pspu.ru/module/magazine/do/mpub>
- Yeremenko, Y.G. 2012. Intertekstual’nost’, intertekst i osnovnyye intertekstual’nyye formy v literature. //Ural’skiy Gosudarstvennyy vestnik.
- Kristeva, Yu. 2000. Bakhtin, slovo, dialog i roman. Frantsuzskaya semiotika: Ot strukturalizma k poststrukturalizmu / “Progress”.

¹ *Dilafruz B. Ochilova* – Doctor of Philosophy (PhD). Senior lecturer, Karshi state university..

E-mail: dilafruz.ochilova7478@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-3382-0135

For citation: Ochilova, D.B. “The oriental motif of intertextuality in the drama of English classicism”. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 96-103.

- Fateyeva, N.A. 1998. Tipologiya intertekstual'nykh elementov i svyazey v khudozhestvennoy rechi. //Izv. RAN. Ser. lit. i yaz.
- Khajieva, F. M. 2020. Theoretical aspects of the language learned (Stylistics).
- Drayden, J. 1971. Aureng-Zebe. Act II, 406-407 lines. Ed. by Frederick M. Link, University of Nebraska Press. Lincoln.
- Jumayeva, N. U. 2022. Folkner asarlarida simvolizm. //Tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik. O'zbekiston. Til va madaniyat, Vol 1(3).
- Ochilova, D.B. 2014. Jon Draydenning "Avrangzeb" fojiasi (o'zbek tiliga tarjimasi) (Aureng-Zebe by John Dryden).– Toshkent: "Navro'z" nashriyoti.
- Ochilova, 2022. D.B. Allyuziya intertekstuallikning muhim omili sifatida // QarDU xabarlari. – Qarshi. – № 5/2(55). – B.154-157. (10.00.00; №33)
- Ochilova, D.B. Jon Draydenning "Avrangzeb" tragediyasida qo'llanilgan stilistik konvergenchiyalarning asosiy g'oyasi //Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022. – №4. – B. 401-407. (10.00.00; №26)
- Ochilova, D. 2023. Osobennosti stilisticheskikh konvergentsiy v drame Dzhona Draydena «Avrangzeb» // Scientific Conference on Multidisciplinary studies. – Russia.

Interpretation of the character of the madman in Shakespeare's dramaturgy

Nafisa Tursunova¹

Abstract

This article is devoted to the interpretation of the image of a madman in the drama of William Shakespeare. It examines the images of crazy characters in several of the author's plays, including Hamlet and King Lear. The article touches on the historical context, psychological, sociocultural and theatrical aspects of the interpretation of these images, as well as their influence on modern literary criticism.

Keywords: *Shakespeare, image, madman, Hamlet, King Lear, dramaturgy, interpretation, psychology of characters, theatrical aspects.*

Introduction

The character of the madman has been a recurring and compelling figure in Shakespeare's works, captivating audiences and scholars alike. The portrayal of madness in his plays raises questions about the nature of sanity, the human psyche, and the societal attitudes towards mental illness during the Elizabethan era. The madman character is often used as a vehicle for exploring themes of power, identity, and the fragility of the human mind.

Shakespeare's depiction of madness is deeply rooted in the cultural and psychological landscape of his time, as well as in the literary traditions that preceded him. The prevalence of madman in his plays reflects the broader fascination with mental instability and its implications for individual and societal behavior. Furthermore, the performance of these characters on the stage adds another layer of complexity to their interpretation, as actors and directors grapple with how to bring these complex and enigmatic figures to life.

This article seeks to explore the various interpretations of the madman character in Shakespeare's dramaturgy, drawing on historical, psychological, and literary perspectives. By examining the dif-

¹ Nafisa Sh. Tursunova – Teacher at Tashkent International University of Financial Management and Technology (TIFT University).

E-mail: nosha.tursunova1990@mail.ru

ORCID: 0009-0002-5791-3479

For citation: Tursunova, N.Sh. 2023. "Interpretations of the character of the madman in Shakespeare's dramaturgy". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 104-110.

ferent types of madman in his plays, as well as their symbolic and narrative functions, this study aims to shed light on the significance of madness in Shakespeare's work and its enduring impact on our understanding of human nature.

The article will also incorporate theatrical studies, including an examination of how madman are portrayed on stage. This will involve analyzing performances of madman characters in various productions of Shakespeare's plays, as well as interviews with actors and directors about their approach to interpreting these roles.

Overall, the methodology for this article will involve a multi-disciplinary approach, drawing on literary analysis, historical research, and theatrical studies to provide a comprehensive understanding of the character of the madman in Shakespeare's dramaturgy.

The Madman in Shakespeare's Works

The portrayal of the madman character in literature has been a recurring theme throughout history. From Shakespeare's Hamlet to Dostoevsky's The Brothers Karamazov, the madman has been a source of fascination for writers and readers alike [1, 2]. The madman character is often depicted as someone who is mentally unstable, exhibiting erratic behavior and irrational thoughts. This portrayal can serve as a vehicle for exploring complex themes such as the nature of sanity, the fragility of the human mind, and the societal response to mental illness. The madman character can also be used to challenge traditional notions of rationality and to provoke introspection about the human condition.

One of the most famous madman in literature is Shakespeare's Hamlet. His erratic behavior and ambiguous sanity have sparked centuries of debate among scholars and readers. Is he truly mad, or is he feigning madness as part of a larger plan? The ambiguity surrounding Hamlet's mental state adds depth and complexity to his character, making him a compelling figure for literary analysis.

In Dostoevsky's The Brothers Karamazov, the character of Ivan Karamazov struggles with his own inner turmoil, questioning the existence of God and grappling with the moral implications of his beliefs. His descent into madness serves as a reflection of the existential angst that pervades the novel, adding a layer of psychological depth to the narrative.

The madman character is not limited to classic literature; it has also been a recurring motif in contemporary works. In Ken Kesey's One Flew Over the Cuckoo's Nest, the character of Randle

McMurphy challenges the authoritarian rule of Nurse Ratched in a mental institution [3, 4]. His rebellious spirit and unpredictable behavior make him a symbol of resistance against oppressive societal norms.

The significance of the madman character in literature extends beyond its role as a plot device or a source of conflict. It serves as a mirror to society, reflecting the ways in which mental illness is perceived and treated. The portrayal of madness in literature can challenge stigmatizing attitudes towards mental illness and foster empathy for those who struggle with their mental health.

In general, the madman character in literature is a multifaceted and enduring archetype that has been used to explore a wide range of themes and ideas. Its portrayal can serve as a vehicle for introspection, challenging traditional notions of rationality and sanity. By examining the various manifestations of the madman character in literature, we gain insight into the complexities of the human mind and the societal response to mental illness.

Madness is a prevalent theme in Shakespeare's plays, with characters such as Hamlet, King Lear, Ophelia, and Lady Macbeth portraying different types of madness. A close reading of Shakespeare's plays reveals distinct types of madman, each embodying different facets of madness. Hamlet's melancholic madness, King Lear's delusional madness, Ophelia's grief-induced madness, and Lady Macbeth's guilt-induced madness are just a few examples of the diverse types of madness portrayed in Shakespeare's works [5, 6]. Through an analysis of their language, actions, and interactions, we gain insight into the complexities of their mental states and their impact on the plot and other characters.

To understand the societal attitudes towards mental illness during Shakespeare's era, historical research is conducted to examine how madness was perceived and treated in Elizabethan society. By studying historical documents, medical texts, and cultural artifacts from the time period, we gain valuable insight into the cultural context that shaped Shakespeare's portrayal of different types of madman.

An examination of how different types of madman are portrayed on stage provides further understanding of the character archetypes. By analyzing performances of madman characters in various productions of Shakespeare's plays and interviewing actors and directors about their approach to interpreting these roles, we gain insight into the theatrical representation of different types of mad-

ness and their impact on the audience.

Shakespeare's dramaturgy presents a rich tapestry of different types of madman, each offering unique insights into the complexities of the human mind and society's perceptions of mental illness. Through a multi-disciplinary approach that combines literary analysis, historical research, and theatrical studies, we gain a comprehensive understanding of the types of madman in Shakespeare's works and their significance within the larger thematic and narrative elements of the plays. This analysis highlights the diversity and complexity of madness in Shakespeare's dramaturgy, showcasing its enduring relevance in exploring the human condition.

The Madman's Role in the Theatrical Experience

The theatrical experience has long been a source of entertainment and enlightenment for audiences around the world. One of the most intriguing and captivating characters often portrayed in theater is the madman [7, 8]. The madman's role in the theatrical experience is complex and multifaceted, and it offers a unique perspective on the human condition.

The Madman as a Symbol of Mental Illness: In many theatrical productions, the madman serves as a symbol of mental illness. The portrayal of madness on stage allows audiences to witness the struggles and challenges faced by individuals with mental health issues. Through the madman's erratic behavior, disjointed speech, and unpredictable actions, theatergoers gain insight into the inner turmoil and confusion experienced by those grappling with mental illness. By humanizing the madman and depicting their struggles, theater provides a platform for raising awareness and fostering empathy for individuals with mental health challenges.

The Madman as a Critique of Societal Norms: The madman's role in theater also serves as a critique of societal norms and expectations. In many cases, the madman's behavior defies conventional social conventions, challenging the audience to question the boundaries of acceptable behavior. By presenting the madman as an outsider or rebel, theater challenges the audience to reconsider their preconceived notions of normalcy and conformity. Through the madman's unconventional actions and beliefs, theater encourages audiences to reflect on the rigid societal expectations that often stifle individuality and creativity.

The Madman as a Reflection of the Human Psyche: Furthermore, the madman's role in theater offers a compelling exploration of the human psyche. The portrayal of madness on stage delves into

the depths of human consciousness, exposing the raw emotions, fears, and desires that lurk within each individual. By examining the madman's inner turmoil and psychological struggles, theater provides a window into the complexities of the human mind. Through the madman's portrayal, audiences are invited to confront their own inner demons and grapple with the universal themes of identity, sanity, and existential angst.

In general, the madman's role in the theatrical experience is a rich and thought-provoking exploration of mental illness, societal norms, and the human psyche. Through their portrayal on stage, madman challenge audiences to confront their preconceived notions of madness and normalcy, while also providing a platform for empathy and understanding. The madman's presence in theater serves as a powerful reminder of the diversity and complexity of human experience, inviting audiences to engage with profound questions about identity, society, and the nature of reality. As such, the madman's role in theater is an essential component of the theatrical experience, offering a unique lens through which to examine the human condition.

Conclusion

In conclusion, the character of the madman in Shakespeare's dramaturgy is a multifaceted and compelling literary device that offers profound insights into the human condition. Through the portrayal of madman such as King Lear, Ophelia, and Edgar in his plays, Shakespeare delves into the complexities of mental illness, societal critique, and the intricacies of human nature. The madman serves as a symbol of psychological turmoil, a vehicle for challenging societal norms, and a catalyst for plot development, adding depth and complexity to Shakespeare's works.

Furthermore, the portrayal of madman in Shakespeare's plays invites readers to confront their own inner struggles and grapple with universal themes of identity, sanity, and existential angst. By humanizing the madman and depicting their struggles, Shakespeare's dramaturgy provides a platform for raising awareness and fostering empathy for individuals with mental health challenges.

Overall, the character of the madman in Shakespeare's dramaturgy is an essential component of his works, offering a unique lens through which to examine the complexities of the human psyche and societal norms. Through their portrayal in literature, madman challenge readers to reconsider their preconceived notions of madness and normalcy while providing a platform for empathy and understanding. As such, the character of the madman in Shakespeare's

dramaturgy is a rich and thought-provoking exploration of mental illness, societal critique, plot development, and human nature.

References

- Zhürakulov, U. 2015. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Zhanr. Khronotop. –Toshkent: Gafur Gulom nomidagi NMIU.
- Ewald, J. 2017. The Joker: A Character Study of a Modern Madman (Doctoral dissertation).
- Mooney, M.E. 1990. Shakespeare's Dramatic Transactions. Duke University Press.
- Meagher, J.C. 2003. Pursuing Shakespeare's Dramaturgy: Some Contexts, Resources, and Strategies in His Playmaking. Fairleigh Dickinson Univ Press.
- Salkeld, D. 1993. Madness and Drama in the Age of Shakespeare. Manchester University Press.
- Charney, M., & Charney, H. 1977. The Language of Madwomen in Shakespeare and His Fellow Dramatists. Signs: Journal of Women in Culture and Society, 3(2).
- Khan, A. 2023. Shakespeare's Mad Men: A Crisis of Authority. By Richard van Oort.
- Hartwell, J. W. 2004. 'Skill in the construction' dramaturgy, ideology, and interpretation in Shakespeare's late plays (Doctoral dissertation, University of Birmingham).
- Matsumoto, N. 2004. The operatic mad scene: its origins and early development up to C. 1700 (Doctoral dissertation, University of London).

Shekspir dramaturgiyasida telba obrazi talqinlari

Nafisa Tursunova¹

Abstrakt

Ushbu maqola Uilyam Shekspir dramaturgiyasida telba obrazini badiiy talqiniga bag'ishlangan. Maqolada yozuvchining bir qancha dramalari, jumladan, "Gamlet" va "Qirol Lir"dagi telba qahramonlar obrazlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu obrazlar talqinining tarixiy sharoiti, psixologik, ijtimoiy-madaniy jihatlari, zamonaviy adabiy tanqidga ta'siri haqida

¹ Tursunova Nafisa Shuxratovna – Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: nosha.tursunova1990@mail.ru

ORCID: 0009-0002-5791-3479

Iqtibos uchun: Tursunova, N.Sh. 2023. "Shekspir dramaturgiyasida telba obrazi talqinlari". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 104-110.

so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Shekspir, obraz, telba, Gamlet, Qirol Lir, dramaturgiya, talqin, personajlar psixologiyasi, ijtimoiy vaziyat.*

Adabiyotlar

- Жўрақулов, У. 2015. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Ewald, J. 2017. *The Joker: A Character Study of a Modern Madman* (Doctoral dissertation).
- Mooney, M.E. 1990. *Shakespeare's Dramatic Transactions*. Duke University Press.
- Meagher, J.C. 2003. *Pursuing Shakespeare's Dramaturgy: Some Contexts, Resources, and Strategies in His Playmaking*. Fairleigh Dickinson Univ Press.
- Salkeld, D. 1993. *Madness and Drama in the Age of Shakespeare*. Manchester University Press.
- Charney, M., & Charney, H. 1977. The Language of Madwomen in Shakespeare and His Fellow Dramatists. *Signs: Journal of Women in Culture and Society*, 3(2).
- Khan, A. 2023. *Shakespeare's Mad Men: A Crisis of Authority*. By Richard van Oort.
- Hartwell, J. W. 2004. 'Skill in the construction' dramaturgy, ideology, and interpretation in Shakespeare's late plays (Doctoral dissertation, University of Birmingham).
- Matsumoto, N. 2004. *The operatic mad scene: its origins and early development up to C. 1700* (Doctoral dissertation, University of London)

SHARQ VA G'ARB LIRIKASI MUAMMOLARI

**Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va
germenevtik talqin**Sevinchoy Yoqubova¹**Abstrakt**

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligidagi dolzarb masalalardan biri ramzlarning jadid she'riyatida qo'llanilishi, badiiy-estetik vazifalari tahlil etilgan. Unda o'zbek adabiyotida keng qo'llaniladigan ramzlar tadqiq etilib, jadid shoirlari ijodida mazkur ramzlarga yangi ma'no va mazmun yuklatilgani semiotik va germenevtik talqin asosida yoritib berilgan. Muallif avvalo, ramzlarning o'ziga xos jihatlarini muayyan darajada tasniflab o'rganadi. Bu esa jadid she'riyatining dunyoviy va ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglash va tushunishga imkon yaratadi.

Maqolada Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat singari jadid shoirlarining ko'plab she'rlari zohiriy va botiniy qirralari kuzatilib, muayyan umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *She'riyat, ramz, germenevtik talqin, tuyg'u va kechinma, lirik qahramon, badiylik, semiotika, botiniy mazmun.*

Kirish

Semiotika – belgi (ramz, simvol)lar nazariyasi bo'lib, bu atamani fanga amerikalik mantiqchi, faylasuf va tabiatshunos olim Charlz Sanders Pirs (1839-1914) kiritgan edi [Pirs, Ch. S. 2009, 86-87]. Ma'lumki, ramzlarga yashiringan ma'no-mazmun va ishoralarni sharhlashda muayyan germenevtik an'analar shakllangan. Ramz (simvol) – hissiy obrazli timsollar orqali axborot yaratiladi. Har bir avlod o'zicha anglashi va izohlashi mumkin bo'lgan tarzda kelajak nasllarga yetkazib beriladi. Binobarin, bizning avlod ham o'zbek jadid she'riyati ramziy shakllar tizimi, ularning tuzilishi va mohiyati, badiiy-estetik vazifasi haqida mulohaza, muhokama yuritish, sharxlash va anglashga ehtiyoj sezadi.

She'riyatdagi ramz (simvol) – shartlangan belgi, timsol

¹ Yoqubova Sevinchoy Islomjonovna – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: yoqubovasevinchoy30@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-8104-3252

Iqtibos uchun: Yoqubova, S.I. 2023. "Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germenevtik talqin". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 111-123.

bo'lib, ruhiy kechinmani hissiy, obrazli tarzda ifodalaydi. Ramz o'zaro hamfikir va kechinmadosh (*shoir va kitobxon*) qalbi ruhan tutashgan va onglari diydorlashgan nuqtada o'z chiroyini ochadi. So'z bag'rida yashirin ifodalangan ob'ekt o'zining xolis sharxini topsa, konkretlashib, milliy qadriyat darajasiga yuksaladi.

Kuzatishlarimiz natijasida ramzning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish o'rinlidir:

- **falsafiy jihat:** ramz tafakkur mahsuli va tafakkur ramzda aks etadi. "Germenevtik doira" – siklik jarayon, ya'ni bilimning butundan xususiyga va xususiydan butunga tomon harakatlanishi yotadi [Gadamer G.G. 1991, 72].

- **germenevtik jihat:** har qanday ramz ma'lum bir ma'noni ifoda etadi, uni tushuntiradi;

- **gnoseologik jihat:** ramzni ma'lum kishilar (*turli ijtimoiy guruh va qatlamlar, shoiru adiblar*) o'z bilimlari va bilish miqyoslari darajasida yaratishadi va anglab yetishadi;

- **ontologik jihat:** butun borliq ramzlardan tashkil topadi;

- **psixolik jihat:** ramzda doim muayyan ruhiyat va kayfiyat mavjud;

- **sotsiologik jihat:** ramz doim ijtimoiy xarakterga ega;

- **aksiologik jihat:** ramz qadriyat darajasida namoyon bo'ladi.

Anglashiladiki, ramzda ma'no obrazli shaklda ifodalanar ekan, bu obrazli tafakkur, ya'ni olamning ma'juziy shakl, rang va ohanglardagi ifodasi germenevtik tadqiqotni talab etadi. Talqin jarayoni turli rakurslarda kechishi, har bir belgi va ishoradan turfa ma'nolar chiqarish, asl haqiqatni topish imkonini beradi.

Asosiy qism

Jadid shoirlari ijodida yetkchi (dominat) lik qiluvchi realistik metoddagi badiiy dunyo shaxsning insoniyat taqdiri uchun javobgarligi g'oyasini o'z ichiga oladi. Fransuz shoiri Pol Elyuar (1895-1952) aytganiday: *"Realizm insonning o'z "men"ligi ufqidan umumbashariy kengliklarga o'tishida madaniyat muhimligini tasdiqlaydi.* [Pol Elyuar 1971]. Demak, badiiyat dunyosi – reallikka parallel bo'lgan noreal olam, o'ziga xos kosmosdir. Afsuski, sho'ro davri adabiyotida hukm surgan "sotsialistik realizm" metodiga asoslangan asarlardagi badiiy voqelik adabiy-mafkuraviy siyosat va'da qilgan va ma'qullagan mavhum moddiy olam – "yorug' kelajak"ni kuylashdan iborat bo'ldi.

Aytmoqchimizki, biz badiiy asarni barcha hodisalarning o'zaro ob'ektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishlari (determinizm) tamoyiliga tayanib mantiqiylik asosida talqin

etarkanmiz, unda ilgari surilgan fikr-tuyg'uning g'oyaviy yo'nalishini chetlab o'tolmaymiz. Chunki, o'zbek jadid she'riyatida ijtimoiy-siyosiy muhitning shiddati, ilg'or ziyolilarning milliy tuyg'ularga to'yingan ruhiy kechinmalari, kayfiyat-hollari aks etgandir

Avloniyning "Mardikorlar ashuvlasi" [Abdulla Avloniy 2020, 218-221] (1916) asarida o'g'lini front orqasi – mardikorlikka jo'natayotgan, islomiy e'tiqodi mustahkam ota-onaning iztirob-nolalari, umid-iltijolari, farzandning esa ota-onasi va sevimli yori bilan xayrlashuv oldidagi mahzun kayfiyat-hollari, shuningdek olis o'lkalardagi og'ir va mashaqqatli hayoti aks etdi. Ota mardikorlikka ketayotgan o'g'liga qarata:

*G'am yema, o'g'lum, qaro kunlar ketub oq kun chiqar,
Yerga nam, qo'rqunch bulutlar ketub oydin chiqar..
Mehribonlardan ayrilding, bo'lma Hijron ey bolam,
Ham Vatandan ayrilib, sen diyda giryon ey bolam*

[Abdulla Avloniy 2020, 218].

Jismoniy kuchdan qolgan, o'zini ruhan tetik tutishga urinayotgan, sabr-matonatli Ota o'z farzandini qodir Olloh panohiga topshiradi: "*Xudo yoring bo'sun*", "*Ollog'a topshurdum sani*", "*Mavlog'a topshurdum sani*" kabi duo-alqovlar uning komil e'tiqodidan darak beradi. Shuning uchun ham ota: "*qaro kun*"lar ketib, "*oq kun*"lar kelishi va "*qo'rqunch bulut*"lar o'z o'rnini "*oydin tunlar*"ga bo'shatib berishiga qattiq ishonadi.

Abdulla Avloniy oq rang – tinchlik, osoyishtalik, ozodlik, poklik, beg'ubor go'zallik va oddiylilik ramzi ekanini yaxshi biladi. Ota ozod va erkin zamonni orzulagani uchun ham yaqin kelajakda o'z oilasi, xalqi va umuman yurtining hayotida toza sahifalar boshlanishiga komil ishonch hamda umid bilan qaraydi. Zohiran qaralsa, she'rda bir-birining ziddi sifatida kelayotgan ranglar oddiygina timsoldek tuyuladi. Ammo shoir bu ranglar orqali o'zbek xalqi asriy orzulari, g'oyaviy-mafkuraviy intilishlarini ifoda etadi.

Qadimiy tasavvurlarga ko'ra qora rang ko'pincha yorug'likka qarshi ma'noda keladi. Qorong'ulik va tuman jaholatni, shuningdek yovuzlik hamda g'am-anduh ma'nolarini bildiradi. Marhumlar saltanati qora rangda tasavvur qilinadi. Olamda bir-biri bilan zinhor kelishtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar (dualizm) hamisha yonma-yon tarzda mavjud. Ayni masala bundan uch ming yillar oldin yuzaga kelgan "Avesto" adabiy-tarixiy yodgorligidayoq ta'kidlangan edi [Avesto 2001, 384]. Mazkur kitobda olam: *nur – zulmat; hayot – o'lim; tana – jon; yaxshilik – yomonlik; poklik – ifloslik; erkinlik – tobe'lik*

singari hodisalarning azaliy va abadiy kurashi asosiga qurilgan. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ham yuqoridagi kabi ikkilik, ya'ni dualizm masalasiga to'xtalar ekan, unda g'oyalar dunyosi va voqeiy dunyo o'z ifodasini topishiga ahamiyat qaratadi. Aflotunning fikricha dualizm: *xudo* – *iblis* (yaxshilik va yomonlik tamoyili), *xudo* – *dunyo*, *ruh* – *materiya*, *tabiat* – *ruh*, *jon* – *tan*, *obekt* – *sub'ekt*, *bilim* – *e'tiqod*, *u dunyo* – *bu dunyo*, *tabiat olami* – *ilohiy marhamat saltanati* va boshqa falsafiy, diniy, antropologik, etik shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ko'rinadiki, dunyo taraqqiyoti jarayoni bir tomondan yaxshilik, haqiqat, yorug'lik, ikkinchi tomondan, yomonlik, jaholat, qorong'ulik o'rtasida abadiy kurash sifatida tasavvur qilingan. Farangistonlik faylasuf, riyozatchi, tibbiyotshunos olim va uslubiy nazariyotchi Rene Dekart va germaniyalik mutafakkir Immanuil Kant falsafiy qarashlarida ham dunyoning negizida bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki mustaqil narsa – ruh va materiya mavjudligi e'tirof etiladi. Yana bir olmon faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegel esa bu ziddiyatni dialektik sintez asosida bartaraf qilishga urinadi. Agar biz mustaqil O'zbekiston bayrog'idagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi, poklik, beg'uborlik, soflik, ichki go'zallikka intilishning timsoli ekaniga e'tibor bersak yuqorida fikr o'z tasdig'ini topadi.

A.Avloniy *“oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'”* kunlar ekani haqidagi qadimiy qarashlar, e'tiqodiy inonchlarga tayanib, oq va qora ranglarni bir-biriga zidlantirar ekan, qoralik oqlik bilan almashinuvi muqarrar ekaniga umid va ishonch bilan qaraydi. Shuning uchun ham Ota mardikorlikka jo'natilayotgan o'g'liga ruhiy dalda bera oladi.

Ayriliq g'amidan qaddi dol bo'lgan onaizorning esa qismatga ko'nishdan o'zga chorasi yo'q. Ona ayriliq va hijronning miqyosini chuqur his qiladi. U farzand keksa ota-ona boshidagi soyabon ekani bilan bog'liq inonchlaridan kelib chiqib: *“Qilmasun Olloh sani soyangni boshimdin yiroq”* deya nolai fig'on qiladi. O'g'il onasini: *“Makkam,” “Madinam,” “mehrbonim,” “g'amguzorim,” “mushfiqim,” “oromijonim,” “jismimning ruhi,” “hayoti jovidonim,” “sham'i shabonim,” “posbonim,” “sirru nihonim”* kabi minnatdorlik va qarzdorlik hislarini ifodalovchi yupanch so'zlar bilan ardoqlaydi.

Ko'rinadiki, A.Avloniyning *“Mardikor ashuvlasi”* turkumiga kirgan she'rlari o'z xarakteriga ko'ra Muhiddin Ibrohimovning *“Loshmon”* (Namangan, 1916), Hamzaning *“Milliy ashuvlalar uchun milliy she'rlar majmuasi”* *“Safsar gul”*, (Qo'qon 1917), Sirojiddin Maxdum – Sidqiy Xandaqliqiyning savol-javob usulidan foydalanib

bitilgan "Sitamdiyda rabo(t) chilarning kelishi" muxammasi (Toshkent, 1917) asarlariga hamohang edi.

Umuman aytganda, prof. B.Qosimov ta'kidlaganidek: "...ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she'riyatida markaziy o'rin egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavqu shavq bilan kuylaydi. "Maktab", "maorif", "ilm", "fan" kabi tushunchalar shoir she'rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tariladi, "jaholat" va "nodonlik" esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi." [Qosimov B.2020, 53]

Avloniy she'rlari lirik qahramoni dilida mustamlakachilik jafosi – jaholat va xorlik iskanjasida faqir va haqir ahvolga tushib qolgan: "xonumoni xarob", "boyqushlarga hamdam" hamda bu kun jisman tirik, ammo ruhan "jonsiz haykal"ga aylangan noqobil, loqayd farzandlarining qilmishlari – Ona Turkiston so'lg'in ranglari ta'sirida tug'ilgan milliy hasrat nidolari ijtimoiy ohang bilan hamohang tarzda jaranglaydi. Larzaga tushgan lirik qahramon ularni ochunga tiyrak nigoh bilan boqishga chorlaydi. Uyg'onish va taraqqiyotga da'vat etadi:

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son millat, o'son millat!

Topar san birla avloding omon millat, omon millat!

Ta'kidlanganiday, Hamza Hakimzoda Niyoziy qarashlarida Avloniyga yaqinlik kuzatiladi. Masalan, Hamza qalamiga mansub "Yor-yorlarim" xalq qo'shig'i:

Qaro sochim o'sib qoshimg'a tushdi, yor-yorey,

Bu savdolar meni boshimga tushdi, yor-yorey.

ohangida bitilgan. "Sog'inib" she'ri mardikor yigitning yuzboshiga javobi tarzida yozilgan. Bu she'r o'zining musiqiy ohangdorligi, emotsional ta'sirchanligi va "dili qon", "yurak bag'ri ezilgan", "ko'ngli siniq", "rangi somon", "aqlu hushdan begona", "dili g'amli, ko'zi namli" musofir yigitning:

Falak titrar chin oh ursam dodim(g)a...

Ado bo'ldim ellarimni sog'inib [Hamza 1988, 84].

qabilidagi sog'inch va firoq tuyg'ulariga yo'g'rilgan kechinmalarining samimiy ifodasi bilan e'tiborni tortadi. Bu bejiz bo'lmay, XX asrning ilk choragiga kelib: "She'riyatning ifoda vositalari o'zgardi. An'anaviy obrazlarga yangi ma'no yuklandi. Ma'shuqa sifatlari ilm-fan, tamaddun, taraqqiyot, ittifoq, vatan, millatga ko'chirildi. Til soddalashdi. Xalq qo'shiqlari ohanglaridan, hijo va sarbast vaznlaridan foydalana boshladi. So'ngroq 20-yillarda bu

xususiyatlar yangi o'zbek she'riyatining eng muhim xususiyatlarini tashkil etdi." [Qosimov B. 2022, 54]

Hamzaning "Salom ayting" nomli she'rida mashaqqatli mehnat ostida sog'ligidan ayrilgan, o'zi og'ir xasta bo'lsa-da, yiroqdagi yaqinlarini ayab, ertadan umidvorlik bilan ularga duoi salom yo'llayotgan mardikor yigitning tuyg'u-kechinmalari tasvirlanadi:

*Ag'o, sog' borsangiz, avval
Dadamlarga salom ayting.
Yugurib chiqqan ul mushfiq
Onamlarga salom ayting* [Hamza 1988, 90].

Hamza salom yo'llashda lirik qahramon duosi usuli hamda "Sardaftar" musiqasining debochasi bo'lmish "Savti Chorgoh" ohangidan foydalanadi.

*Kelib qolgay, deng, albatta,
Ochilguncha gulu bog'lar.
Alar ko'ngliga ham betob
Debon solmang qora dog'lar.*

O'tinch qilayotgan mardikor yigit nazdida onasining ko'zi hamisha "judolig' dasdidan yoshlig'", aka va opalari "ko'zi qon", millatdoshlari esailsizlik, bid'at va jaholat girdobida. Ayrim mahalliy ma'murlar elni qo'rquv iskanjasida saqlashga ulush qo'shgan. Shu bois millat tiynatidagi qadimiy jasorat so'nib, birdamlik barham topgan. Hamza nazdida millat bunday "rasvo" holdan ilm-ma'rifat va ibratlanish orqaligini xalos bo'lishi mumkin. Shoir o'zining ana shu anglamlarini she'rning leytmotiviga olib chiqadi:

*Esak donish eli, o'lmas
Edik biz buncha rasvolar.
Bu kunlar ibrat o'lsun, ey
Vatan ketuvchi hamrohlar.
Ilm tahsiliga qilsun,
Hama bir dam, davom ayting* [Hamza 1988, 92].

Hamza insoniyat jamiyatini ezgu ishlar va xayrli amallarga yetaklovchi ilohiy yo'l-yo'riqlar, hukm va aqidalar majmui bo'lgan ma'naviy ehtiyoj – dinga alohida e'tibor beradi. Shoir o'z millatdoshlarini jamiyatda ilk kurtaklari namoyon bo'layotgan ateizm – dinga kufr keltirish, uni inkor etish yoki asl mohiyatini xalqdan bekitish harakati qanday kulfatlarga debocha bo'lishidan ogoh etadi. Islomning hukm va ta'qiqlar to'plami bo'lgan shariat hukmlariga amal qilmay, bid'atga berilgan mahalliy hukmdorlar va ularga ergashuvchi

ayrim yurtdoshlarini ogohlikka chorlaydi. Zamonaga hamqadam bo'lishga da'vat etadi. Binobarin, o'lkadagi kundalik hayot tarzining Islom shariatiga muvofiq bo'lishini yoqlaydi:

*Havas bas emdi, tark etsun
Hama to'yu - tomoshoni
Bazm, ayshu tarab, bid'at
Kabi behuda savdoni.
Hama yakdil bo'lub tutsun,
Umuru shar'i mavloni...
Qo'yub ko'p vahshilik, emdi,
Bo'sunlar ilma rom ayting [Hamza 1988, 92].*

Ko'rinadiki, Hamza Hakimzoda Niyoziy millat ongi, tafakkuri, odam va olamga bo'lgan munosabatini yangilash tarafdori bo'lmish ma'rifatparvar ziyolilar va jadidlar safida edi. Uning e'tiqodi adabiy-estetik qarashlari, xususan she'riyatida ham yorqin namoyon bo'ladi:

*Millatim nasli bashardur,
Vatanim kurrai arz.
Ikkisin xizmati farzdur,
Ikkisindan jon qarz [Hamza 1988, 282].*

Odamzotning asli bir, ya'ni ular Odam Ato va Momo Havo farzandlari [Qur'oni Karim 1992, Hujurot surasi, 13-oyat.].

Vatani esa Yer yuzidir. Binobarin, inson farzandi millatlararo do'stlik, birodarlik va muqaddas zaminni yashnatishga mas'uldir. Shubhasiz, bunday fikr-qarashlar shoirning bunyodkorlik va insonparvarlikka asoslangan ma'rifiy konsepsiyasiga asoslanadi. Hamza ichki tiynati va ijtimoiy-tarixiy omillar negizida o'zbek adabiyoti, xususan she'riyatini yangilash harakatining oldingi saflarida turdi. Bizningcha, quyidagi satrlarda shoirning g'oyaviy niyatini anglatib turuvchi yetakchi motiv o'z ifodasini topgan:

*Bu Nihon qon yig'layur millat uchun laylu nahor,
Yoz o'tub, qish keldi holo, bizga bo'lgan yo'q bahor [Hamza 1988, 14].*

Hamzaning bu satrlarini yanada teranroq tushunish uchun yuqori Chin (Xitoy)dan Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan turkiy o'lkalarni kezib chiqqan Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) "Devonu lug'atit turk" [Qoshg'ariy 1960] kitobida keltirgan she'riy misralarda ifodalangan fikr-tuyg'ularga ham e'tibor qaratish lozim.

Islomdan ilgarigi og'zaki she'riyat namunalari bo'lgan "Devonu lug'atit turk"dagi qo'shiqlarning yetakchi motivlaridan biri

Turk xoqonligidagi tushkunlik holati, birlashtiruvchi yagona g'oya yetishmasligi masalasidir. Jumladan, *“yig'i-yo'qlov”* janrida yaratilgan *“Alp Er Tunga”* marsiyasidagi motam ko'z yoshlari turkiy elning nainki o'z sevimli qahramoni, xoqoni va yo'lboshchisidan ayrilgani, balki boy berilgan imkoniyatlar, parchalangan yurt, tushkunlikka yuz tutgan turkiy saltanatdagi ma'naviy yo'lsizlik holatini ifoda etadi.

“Qish va yoz” munozarasida ham turkiy elatlarning fe'l-atvori, yashash va tafakkur tarzi, ona tabiatga bo'lgan munosabati, sevinch va qayg'ulari aks etadi. Ularda ifodasini topgan tuyg'u-kechinmalarni o'qirkanmiz, ko'z oldimizda chorvador turkiy elatlar hayoti, faoliyati, tabiiy muhit yaqqol gavdalanadi. Shuningdek, biz: *“Alin topu yashardi”* (“Tog' boshlari yashardi”); *“Keldi asin asnayu, / Qozqa to'pal usnayu. / Kirdi budun qusnayu, / qara bulut ko'krashur”* (“Keldi shamol huvillab, / Bo'ron bo'lib g'uvillab, / Xalq titrashur uvillab, / Qora bulut guldirar”); *“Ko'zum yashi savruqub quzi aqar, / ilnib ajun emgagin tugal uqar.”* (“Ko'zim yoshi tirqirab quyi oqar, / Anglab dunyo g'amini tugal uqar”) kabi parchalarda *“tog' boshlari yashardi”, “xalq uvillab titradi”, “qora bulut guldiradi”, “ko'z yoshi tirqiradi”* singari majoziy tasvir, tashbeh, istiora, jonlantirishlar qo'llangani guvohi bo'lamiz. Ular nainki tabiatga, balki ijtimoiy voqelikka bo'lgan munosabatni ham ifoda etadi.

Anglashiladiki, Nihon (Hamza) tunu kun qon yig'lashining zamirida qadimiy adabiy an'anada kuzatilgan Vatan va millat dardida chekilgan achchiq iztirob va alamli nolalar turadi. Shoir ona tabiatdagi o'zgarishlar bilan ijtimoiy hayotni qiyoslar ekan, uzoq vaqt sog'intirgan bahorni intiqlik bilan kutadi. Kayfiyat-hollarini yoz, qish, bahor fasllariga xos fazilat va nuqsonlar bilan bog'liq o'zaro zid timsollar orqali badiiy ifodaga ko'chiradi. Bu hol bizga “Devoni lug'otit turk” (M.Qoshg'ariy), “Shohnoma” (Firdavsiy), “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (Beruniy), “Qisasi Rabg'o'ziy” (Rabg'uziy), “Saddi Iskandariy” (Navoiy) kabi asarlardagi yil fasllari, jumladan, Navro'z xususidagi zohiriy va botiniy ma'nolarga boy, bahorga bo'lgan alohida bir mehrga to'la satrlarni eslatadi. Pirovardida, Nihoniy (Hamza) dunyoqarashi naqadar ko'lamli va taxayyul ufqlari qanchalar yuksak ekanidan ogoh etadi. Zotan shoirning uyg'oq va yorug'likka talpinuvchi qalbi tabiatga harqancha hamohang bo'lmasin, zamoniy o'zgarishlar shiddati millatdoshlarini uyg'otmayotgani, muqaddas makonda hamon tutqunlik, zulm va istibdod hukmron ekanidan iztirob chekadi. Binobarin, Hamza milliy jipslik, birdamlik va erk sog'inadi.

Ko'rinadiki, 1900-1917 yillardayoq yangi milliy adabiyotning

ijtimoiy maqomi o'zgardi. Ijod ahlining estetik ideali tobora ijtimoiylasha boshladi. Shu ikkita omil adabiyot va san'atni mafkuraviy tarbiya quroliga aylantirishni taqozo etdi.

Biz yuqorida aksariyat shoirlar yangi shakllar izlab topish va voqelikni estetik baholashga intilgani guvohi bo'ldik. Abdurauf Fitratning "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi") tipidagi asarlarida esa, adabiyot yangi maktablar, tahsil usuli, mulkdorlik ravishi haqidagi bahs va munozara maydoniga aylangan edi [Boltaboev H. 2007, 198]. Fitrat "Mening kecham" she'rida tabiat manzaralari va ijtimoiy jarayonlarni muqoyasa qilarkan, tun zulmatidan keluvchi mungli kayfiyatini ijod sha'mi va ko'ngil nurlari bilan yoritmoqqa mayl bildiradi:

*So'lg'un, qora, turg'un dema. Ko'rdim
mungli kechaning mungli chog'inda,
ko'b mungli uyimning qirog'inda
yolg'uz iki narsa yondosh-da:
biri sham'im, biri...
ko'nglim! [Fitrat 2000, 44].*

Fitrat badiiy izlanishlari an'anaviy she'riy tizimni yangilashga intilgani, olmon romantiklari, fransuz simvolistlari, usmonli turk, tatar va rus she'riyatining erkin she'r vaznlariga xos badiiy ifoda yo'sinlari, xususan ritmik birlik, vazn, qofiya va turoqdan xoli "verlibir", "svobodnyy stix" ("erkin she'r") shaklini ijodiy o'zlashtirgani guvohi bo'lamiz. Mungli oniy kayfiyat uyg'otgan "so'lg'un", "qora", "turg'un" kabi ijtimoiy vaziyat-holatni ifodalovchi ramzlarni sha'mning shu'lasiyu ko'ngilning harorati bilan zidlantiradi. Boshqacha aytganda, shakl unsurlarini badiiy mazmun bilan uyg'unlashtirib, emotsional ta'sirchanlikni oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Ko'rinadiki, jadid shoirlari ijodida millatparvar lirik qahramon siymosini chizishda, erk, ozodlik, hurlik haqidagi qarashlarini ifodalashda, she'riyatning botiniy mazmunini yanada kuchaytirishda ramzlar muhim vosita rolini o'tagan.

Xulosa

O'zbek adabiyoti tarixida jadid she'riyati o'ziga xos o'rin tutib, u nafaqat g'oyaviy yo'nalishi, balki badiiy o'ziga xosligi bilan ham yangi taraqqiyot pog'anasiga ko'tarilgan.

XX asrning boshlarida o'zbek adabiyotida bo'lgani kabi jadid she'riyatining ham shakli va mazmuni, obrazlar olami, ifoda tarzida yangilanishlar yuz bera boshladi. Davr, zamon va ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolar jadid she'riyatidagi turfa xil obrazlar va ramziy

ifodalar vositasida badiiy ifoda etilgan. Bu esa jadid she'riyatining ramziy mohiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Demak, ko'pgina ramzlarning she'riyatdagi ifodalari qadimiy tasavvur, tushuncha va inonchlardan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Bu bevosita rang bilan bog'liq ramzlarga ham aloqadordir.

Bizningcha, dunyo xalqlarining turfa ranglar haqidagi tasavvur, bilim va tushunchalari quyidagi omillar bilan chambarchas bog'lanadi:

- a) mifologik tasavvurlar;
- b) xalqning ijtimoiy-madaniy hayot tarzidan kelib chiquvchi animistik, totemistik, fetishistik, magik inonchlar;
- v) diniy-e'tiqodiy tasavvurlar;
- g) urf-odat va marosimlar;
- d) adabiy-badiiy an'analar.

Umuman, she'riyatda ramzlar orqali lirik qahramon kayfiyat-hollari, o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari poetik ifoda etilib, shoir muayyan manzara yoxud vaziyat-holatga ramziy-majoziy munosabat bildiradi.

Adabiyotlar

- Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. (She'rlar, ibratlar). – Toshkent. "Ma'naviyat" 2020.
- Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – "Sharq", – Toshkent 2001
- Ashirov A. A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. – T, 2007
- Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
- Gadamer G.G. O krule ponimaniya // Aktualnost prekrasnogo. – M.: Iskustvo, 1991.
- Gadamer G.G. Filosofskie osnovaniya XX veka // Aktualnost prekrasnogo. – M.: Iskustvo, 1991.
- Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy. (Tarjimon: Solih Mutalibov) "Devoni lug'atut turk". Tom: 1. "Fan" nashriyoti. – Toshkent, 1960.
- Mironova L.N. svetovedenie. – Minsk, 1984 Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 2. – М., 1982
- Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – B. 223.
- Pirs, Ch. S. Chto takoe znak? // Vestn. Tomskogo gos. un-ta. Ser. Filosofiya. Sotsiologiya. Politologiya. – 2009. – № 3 (7). – S. 88-95 / per. s angl. A.A.Argamakovoy; s predisl. k publ. – S. 86-87
- Pol Elyuar. Stixi Perevod M.N. Vaksmaxera Statya i kommentariy S.I. Velikovskogo Seriya "Literaturnye pamyatniki" – M., Nauka, 1971
- Sidqiy - Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

- Fitrat. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. J.1. – T.: Ma'naviyat, 2000.
- Shleyermaxer F. Akademicheskie rechi 1829 goda. – M.: Nauch. izd., 1987.
- Qosimov B. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022.
- Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: 1992.13-oyat.
- Hamza. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. Ikkinchi tom. – T.: Fan, 1988
- Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020). Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. *Journal of critical reviews*, № 7, pp. 28-37.
- Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // *Theoretical & Applied Science*, 2023. 02 (118), 521-524
- Yakubova S. The issue of «way» in cholpon's poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*. . 2023. 02 (118), 490-492
- Yakubov I. A. Real and artistic truth in the poem "Black sun" / *Aktualnye problem tyurkologii: Rossiya i tyurko-musulmanskiy mir. Kazan*. 2021. pp.211-213.
- Yakubov, I. "Boburnoma" - o'zbek nasrining nodir yodgorligi. "Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, Toshkent, 2023. pp.174-179.
- Yakubov, I. Artistic interpretation of the drama of moral and spiritual problems in the tragedy "Romeo and Juliet". *ISJ Theoretical & Applied Science*. . 2023. 02 (118), 517-520

Symbols in Jadid poetry: semiotic and hermeneutic interpretation

Sevinchoy Yoqubova¹

Abstract

In this article, one of the pressing issues of Uzbek literary criticism is the use of symbols in modern poetry, and also analyzes their artistic and aesthetic functions. It examines symbols widely used in Uzbek literature and, based on semiotic and hermeneutic interpretation, explains the new meaning and meaning of these symbols in the work of modern poets. First of all, the author studies the unique aspects of the symbols, classifying them to a certain level. This makes it possible to better understand the secular and social nature of modern poetry.

¹ *Sevinchoy I. Yoqubova* – basic doctoral student of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: yoqubovasevinchoy30@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-8104-3252

For citation: Yoqubova, S.I. 2023. "Symbols in Jadid poetry: semiotic and hermeneutic interpretation". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 111-123.

The article examines the external and internal aspects of many poems by modern poets, such as Abdullah Avloni, Hamza, Fitrat, and makes certain generalizations.

Key words: *Poetry, symbol, hermeneutic interpretation, feeling and experience, lyrical hero, artistry, semiotics, inner content.*

References

- Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. (She'rlar, ibratlar). – Toshkent. "Ma'naviyat" 2020.
- Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjiması. – "Sharq", – Toshkent 2001
- Ashirov A. A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. – T, 2007
- Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
- Gadamer G.G. O krugе ponimaniya // Aktualnost prekrasnogo. – M.: Iskustvo, 1991.
- Gadamer G.G. Filosofskie osnovaniya XX veka // Aktualnost prekrasnogo. – M.: Iskustvo, 1991.
- Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy. (Tarjimon: Solih Mutalibov) "Devoni lug'atut turk". Tom: 1. "Fan" nashriyoti. – Toshkent, 1960.
- Mironova L.N. svetovedenie. – Minsk, 1984 Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 2. – М., 1982
- Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – T: Fan, 2010. – B. 223.
- Pirs, Ch. S. Chto takoe znak? // Vestn. Tomskogo gos. un-ta. Ser. Filosofiya. Sotsiologiya. Politologiya. – 2009. – № 3 (7). – S. 88-95 / per. s angl. A.A.Argamakovoy; s predisl. k publ. – S. 86-87
- Pol Elyuar. Stixi Perevod M.N. Vaksmaxera Statya i kommentariy S.I. Velikovskogo Seriya "Literaturnye pamyatniki" – M., Nauka, 1971
- Sidqiy - Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
- Fitrat. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. J.1. – T: Ma'naviyat, 2000.
- Shleyermaxer F. Akademicheskie rechi 1829 goda. – M.: Nauch. izd., 1987.
- Qosimov B. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022.
- Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: 1992.13-oyat.
- Hamza. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. Ikkinchi tom. – T: Fan, 1988
- Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020). Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7, pp. 28-37.
- Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
- Yakubova S. The issue of «way» in cholpon's poetry. ISJ Theoretical & Applied Science. 2023. 02 (118), 490-492
- Yakubov I. A. Real and artistic truth in the poem "Black sun" / Aktualnye

problem tyurkologii: Rossiya i tyurko-musulmanskiy mir. Kazan . 2021. pp.211-213.

Yakubov, I. "Boburnoma" - o'zbek nasrining nodir yodgorligi. "Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, Toshkent, 2023. pp.174-179.

Yakubov, I. Artistic interpretation of the drama of moral and spiritual problems in the tragedy "Romeo and Juliet". ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 517-520

Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatida ayol ruhiyatining metaforik talqini

E'zoza Bozorova¹

Abstrakt

Maqolada tropning ko'p qo'llaniluvchi turi istiora xususida so'z yuritilib, tashbeh san'ati va istiora o'rtasidagi umumiy va farqlanuvchi jihatlariga e'tibor qaratilgan. Istioraning turlari haqida ma'lumot berilgan. Bu terminga sinonim bo'lgan metafora atamasidan keng foydalanilgan. O'ziga xos metaforalar yarata olgan shoira Qutlibeka Rahimboyeva she'rlari maqolaning asosi sifatida o'rganilgan. Shoira she'riyatidagi metaforik birikma va bandlar tahlil qilingan. Ruhiyatni tasvirlash va his-tuyg'uni ifodalashda metaforaning ahamiyati to'g'risida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar. *Trop, she'riyat, majoz, istiora, metafora, tashbeh, tashbehi kinoyat, lirik "men", poetik mahorat, estetik ta'sir.*

Kirish

Badiiy adabiyotda, xususan, she'riyatda so'zlar ijodkorning poetik mahorati, o'ziga xosligini ko'rsatish va nutqning ta'sirchanligini oshirish maqsadida asil ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda ham ifodalanadi. O'zbek adabiyotshunosligida bunday so'zlar umumiy ma'noda trop (yunoncha ko'chim) yoki ko'chim deb nomlangan. Adabiyotshunoslar fikricha, poetik ko'chimning eng ko'p qo'llaniluvchi turi istiora – metaforadir [Quronov 2018, 276; Boboyev 2002, 328]. Mohiyatiga ko'ra, bu ikki termin sinonim sifatida qo'llanadi [Quronov 2018, 276]. Atoulloh Husayniy "Badoyi' us-sanoiy" asarida nomi keltirilgan ko'chim turiga quyidagicha ta'rif bergan: "Istiora majozning bir nav'idur va majoz haqiqatning ziddidir. Haqiqat lafzni o'z yasog'i, ya'ni nimani mo'ljallab yasagan bo'lsalar, o'shul ma'noda qo'llamoqtin iborattur. Majoz lafzni o'z yasog'idin o'zga ma'noda yasog'-u lafz-u o'shul ma'no orasidagi biror aloqa-yu munosabatqa asoslanaroq qo'llamoqtin iborattur, o'z yasog'ida tus-hunmakka moni' bo'lguchi jumladoshini keltirmak sharti bila" [Husayniy 1981, 219]. Fitrat ham istiora xususida to'xtalib shunday

¹ Bozorova E'zoza Baxriddin qizi – tayanch doktorant. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ezozacon@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-5283-2458

Iqtibos uchun: Bozorova E.B. 2023. "Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatida ayol ruhiyatining metaforik talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 124-131.

deydi: “Bir soʻzning oʻz maʼnosidan boshqa bir maʼno uchun ishlatilmakidir. Shul shart bilankim, u soʻzning oʻz maʼnosi bilan yangi maʼnosi orasida bir turli oʻxshashlik boʻlsun: Koʻchada juda botur bir yigit bilan gaplashib qaytgʻan kishi *Bukun men bir arslon bilan gaplashib qaytdim*, desa uning bu aytgʻanida istiora bordir. Chunki, arslon soʻzida oʻz maʼnosi emas, orada oʻxshatish borligʻi uchun botur yigit onglashilur” [Fitrat 2006, 52]. Taʼriflardan maʼlumki, “soʻz maʼnosining metafora usulidagi koʻchishida narsa-hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslaniladi” [Quronov 2018, 277]. Shu oʻrinda istiora bilan ikki narsani bir-biriga oʻxshatish natijasida yuzaga chiqadigan tashbeh sanʼatining qanday farqi bor, degan savol tugʻilishi tabiiy. Chindan ham, bu ikki sanʼatning asosiy omili qiyos va oʻxshashlik. Shu sababli qadimdan istiora, yaʼni metaforani “qisqartirilgan tashbeh” yoki tashbehni “yoyiq metafora” deb atash urf boʻlgan. Antik davr yunon faylasufi Arastu ham metafora va tashbehni bir narsa deb izohlagan. “Faqat, uning fikricha, tashbeh kamroq yoqadi, chunki u uzunroq (yaʼni koʻp soʻz bilan ifodalanadi) va “mana bu-oʻsha” deya tasdiqlamaydi. Bundan koʻrinadiki, Arastu metaforaning estetik taʼsir mexanizmiga xos muhim jihatga eʼtiborni qaratadi: ikkita obyekt bir-biriga ochiq oʻxshatilganidan koʻra yashirin oʻxshatishning estetik samarasi kuchliroq deb biladi. Arastu tashbeh bilan metafora funksional jihatdan teng degani bilan bu fikrda qatʼiy emas, shuning uchun ham darhol qiyosda metaforaning ustun jihatlarini sanashga oʻtadi. Sharq mumtoz adabiyotshunosligida ham tashbeh va istiora orasidagi yaqinlikka eʼtibor qaratilgan. Atoulloh Husayniy Arastudan farqli oʻlaroq, istiora va tashbehni bir narsa demaydi. Faqat tashbehning bir turi – tarkibida birgina mushabbihun bih ishtirok etuvchi tashbehi kinoyatni mohiyatan istiora deb biladi” [Karimov 2012, 18]: “Tashbihi kinoyat andin iboratturkim, soʻzlaguchi oʻz koʻnglida bir nimani bir nimaga tashbih qilur va kalomda tashbih odotin keltirmas va mushabbahni mushabbah bih lafzi bila taʼbir etar” [Husayniy 1981, 213]. Demak, yuqoridagi taʼrifga koʻra, tashbehi kinoyatda toʻrt juzvning uchtasi – mushabbah, vajhi shibh, odoti tashbeh, yaʼni oʻxshatilayotgan narsa, oʻxshatilish sababi va oʻxshatish vositasi ishlatilmaydi, oʻxshatilayotgan narsaning maʼnosini mushabbihun bih – oʻxshayotgan narsa ifodalaydi. Bu xususiyatni ochiq istiorada kuzatish mumkin. Istioraning yana bir koʻrinishi belgi-xislatlarni izohlash vositasida yuzaga chiqqanligi bois istioraviy sifatlash deb yuritiladi. Tashbeh sanʼatida ham oʻxshayotgan yoki oʻxshatilayotgan predmet oldidan uning sifatini keltirsa boʻladi. Ammo yopiq istiora bu ikki umumiylikdan farqli oʻlaroq, tash-

behi kinoyatga o'xshamaydi. Fitrat shunday deydi: "Yopiq istiorada o'xshatilg'an o'rnida o'xshag'an qoldiriladir-da, o'xshatilg'anning ba'zi hollari bunga taqiladir" [Fitrat 2006, 53], ya'ni ochiq istiora yoki tashbehi kinoyatda o'xshayotgan narsadan foydalanilsa, yopiq istiorada o'xshatilayotgan narsadan foydalaniladi. Qolaversa, istioraning izofali birikma shaklidagi turi ham mavjud. Fitratning yozishi-cha, uni hosil qilish uchun "... "o'xshag'an" bilan "o'xshatilg'an"ni yondashtirib qo'yamiz. Go'yo o'xshatilg'an qarashliq bir narsa ekan kabi ikisidan bir qarash uyushmasi (izofiy jumla) yasaymiz: inqilob quyoshi, umid yulduzi kabi..." [Fitrat 2006, 53]. Agar istiorani mohiyatan tashbehning bir turi deb qarajak, qaratqich-qaralmish shaklidagi va yopiq istioraga xos xususiyatlar tashbehi kinoyatda ham, tashbehning boshqa turlarida ham uchramaydi. Fikrimizcha, istiora tashbeh tarkibidan ajralib chiqqan ko'chimning alohida turi sifatida baholanishi kerak. Biz ushbu maqolada istioraga m'nodosh metafora terminidan foydalanishni lozim topdik.

Metafora aksariyat hollarda bir so'z doirasida emas, birikma yoki to'liq gap shaklida voqelanadi. Bu esa ijodkor tuyg'ularini yorqin ifodalash, ruhiyatni anglatish va hissiy ta'sirchanlikni oshirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. She'r ahlining "moddiy olam orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashliklar asosidagi" [Quronov 2018, 278] ijod mahsuli o'quvchini beixtiyor hayratlantiradi. Qutlibeka Rahimboyeva ham o'quvchiga ana shunday hayrat, huzur va zavq bera olgan shoiralardan. Uning she'riyati nafis metaforik tabiatga egaligi, original topilmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoiraning "Xayol" she'rida lirik "men" qalbidagi nozik kechinmalar o'zgacha ifodalangan:

*Keling, atirguldand yasab gulqayiq,
Xayol dengizida suza boshlaymiz.
Bir orol topamiz ko'ngilga loyiq,
Ichdagi dardlarni izga tashlaymiz.
Goh "Gulyor", goh "Girya" – qo'shiq qilamiz,
Yaproq lahjasida, qush lahjasida.
Yuraklarni fonus qilib ilamiz,
Yulduz tokchasiga, oy tokchasiga [Qutlibeka 2012, 43].*

She'r ilk misrasidanoq kishiga yoqimli tasavvurni uyg'otadi. Atirgul qayiq yasashga mo'ljallangan yog'och, metall yoki boshqa jismga shunday mahorat bilan o'xshatilganki, natijada gulqayiq tasvirini butun qalbimiz bilan his qilamiz. Xayol dengizi, ko'ngilga loyiq orol, yaproq va qush lahjasidagi qo'shiqlar, yulduz hamda oy tokchasiga ilingan yurak-fonuslar ichkaridagi dardlarni unuttirishi

ayon. Bu metaforalarning har birida ayol va go'zal ishq tushunchalari yonma-yon kelayotganday tuyuladi. Shoiraning boshqa she'rida esa nozik xilqat vakilasining tengsiz sadoqatini kuzatish mumkin:

*Ajal yengsa, ikki yuzi qoradirman,
Yo'qlab-yo'qlab qora toshni yoradirman,
Ko'kka uchsam, yerda qolar deb o'ylama,
Suyagimdan narvon yasab, boradurman.
Kumushlangan sochlaringni silayman men...*

[Qutlibeka 2012, 45]

Suyakdan narvon, atirguldand esa gulqayiq yasash hammaga ham xos emas. Bu kabi topilmalar faqatgina yaratuvchan, ruhiyati baland ijodkorning ko'ngil olamida aks etadi.

Qutlibeka Rahimboyevaning "Siz" deb nomlangan biografik she'ri o'ta samimiy tuyg'ularga yo'g'rilgan. U ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida sarlavhadan so'ng "*Sevgi ila sizga bag'ishladim*" jumlasini keltirilgan:

*Shu dam mendan topdingiz ogoh,
/Men shu damning bo'lay cho'risi/.
Malham berdi og'ritgan Olloh,
Qochdi g'amning yovuz bo'risi.* [Qutlibeka 1997, 14]

Yo'l tekis bo'lmagani singari, inson hayotida ham goh xursandchilik lahzalar, goh "g'amning yovuz bo'risi" "hujum qilgan" paytlar bo'ladi. G'amni qorong'i o'rmon deb tasavvur qilsak, uning zulmatidan lirik subyektning ko'ngli siqilishi tayin. Boz ustiga, yurakning o'rmondagi yirtqich bo'riga yem bo'lish ehtimoli metaforik tasvirning ta'sir kuchini yanada oshirgan. Bunday hujumlarni yengmoq uchun har qanday insonga, ayniqsa, ayol zotiga "bir cho'g'chalik" bo'lsa-da mehr zarur.

Shoira she'riyatida nafislik, poklik, hayrat, zavq, samimiyluk, go'zallikka oshnoluk kabi hislar bilan bir qatorda, odillik, shijoat, qat'iyatni olqishlash va dushmanga nafrat tuyg'ullari aks etgan metaforik she'rlar ham mavjud. Quyidagi "Raddiya" ga e'tibor qaratamiz:

*Tarvaqaylab yotar dilimda
Ular ekan xo'rlik yantog'i.
Tiz cho'ksangiz, yolvorsangiz ham
Bu la'nati yantoq ustida
Ochilmaydi Mehr – qaysar gul
Do'stlashmayman, ovvora bo'lmang* [Qutlibeka 1997, 8]!

Tarvaqaylab yotgan xo'rlik yantog'i – bu o'tkir nigoh va chuqur tafakkur bilan yaratilgan topilma. Sababi shoira dilidagi xo'rlikni yantoqqa emas, boshqa bir o'simlikka o'xshatishi ham mumkin edi. Nega aynan xo'rlik alami yantoqqa ko'chdi? Chunki u qattiq tikanlar-ga ega, cho'llarda o'sadigan ko'p yillik begona o't. Yantoqning ildizi juda kuchli rivojlangan.

Demak, lirik subyektning qalbi avval cho'lga aylantirilgan, un-ing zilol suvi – erki olib qo'yilgan. Tag'in ko'p yillik xo'rlik yantog'i ham ekilgan. Endi u "o'shalar" bilan go'yo hech narsa ro'y bermagan-dek, do'stlashib keta olmaydi. Lirik "men" ning tabiat atalmish chin do'sti bor. Shuning uchun orzu-umidlarini u bilan baham ko'radi:

*O'zgarishga qodir bu so'zni
Ayt, tabiat – eshittir haqni.
Turg'iz, yirtiq sabr ko'ylagin
Yana yamab o'tirgan xalqni* [Qutlibeka 1997, 36]!

Shoira xalqning sabr ko'ylagini yamashi foydasiz ekanligini yaxshi biladi. Sababi, u bir vaqtlar "yamoq bilan ko'nglini butlashga" uringan:

*Ko'nglim hanuz siniq, hanuz bitmadi,
Hasrat, sevinchlarim – mayda, maydadir.
Yamadim, butlashga yamoq yetmadi,
(Ko'nglimday bir ko'ngil yana qaydadir* [Qutlibeka 1997, 23].)

Ko'ngilning sinishi, mayda-mayda bo'lishini an'anaga aylan-gan metafora desa bo'ladi. Ammo yamashga harakat va butlashga yamoqning yetmasligi, nazarimizda, Qutlibeka Rahimboyevaga xos metaforik yondashuv. Shoira yuqoridagi band so'nggida ko'ngli kabi bir ko'ngilni axtarayotganini aytadi va uni topadi ham:

*Yig'layver ko'zingga tutay hovuchim,
Yo'q, yoshing yo'liga yoydim jonimni.
Axir, tilik-tilik mening ham ichim,
Tilik-tilik ko'rib Turkistonimni* [Qutlibeka 2012, 59].

"Halima opamga" deya epigraf qo'yilgan bu she'rda Qut-libekaning ko'ngildoshi u singari vatan baxtini o'ylagan yuksak qalb sohibasi ekanligini anglash mumkin. Shu boisdan lirik "men" dil-doshining ko'z yoshlari to'kiladigan yo'lga jonini yoyib qo'ygan. "Yoy-moq" so'zining "To'shamoq" degan ma'nosi borligini hisobga olsak, banddagi jon gilam yoki to'shashga mo'ljallangan boshqa predmetga o'xshatilgan.

Shoiraning lirik qahramoni ozodlikni shu qadar intiq bo'lib

kutganki, uni hatto o'z jismiga ishonib topshirib qo'ymaydi:

*Hamon oromingning suvrati yostiq,
Tonggi tushlaringdan anqir yog' isi.
Boshing xitob emas, nuqtadir – tasdiq,
So'qmog'ing so'qmoqmas, chiziqning izi.
Senga ishonmayman bu erkni, jism,
Ruhimga va'dalar etma salmoqdor.
Tiriklik qo'linda xizmatkorsan jim,
Sen qattiq qo'rqasan o'lib qolmoqdan [Qutlibeka 2012, 57].*

Oromning suvrati, tushlardan kelayotgan yog' isi – tuyg'ular darajasini mufassal ko'rsatuvchi metaforalar. Chunki ijodkor lirik "men"i hurriyat yo'lidagi mashaqqatlarni qalban his qilgan. Qodiriy va Cho'lponlar boshiga tushgan chirkin adolatsizlardan g'amga botgan. Uzoq kutilgan bunday kunlar har qachon ardoqlanish, qizg'onishga arziydi. Erkni qadrlash, xalq dardi deb yashash, o'zgalar dardini o'zinikidan ustun qo'yish tushunchalari Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatining bosh mohiyatidir. Shoirira bir she'rida yozadi:

*Oyning huqqasidan kumush keltirsam,
Yulduz tokchasidan idish keltirsam,
Nayson bulutidan yog'ish keltirsam,
Darmon bo'larmanmi dardlaringizga [Qutlibeka 2012, 105]?*

Adabiyotshunos N.Jabborovning fikricha, "Oyning huqqasi (qutichasi)", "Yulduz tokchasi" metaforalari, birinchidan, she'rning badiiyatini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchidan, qutichadan kumush, tokchadan idish keltirish birikmalari muallifning ayol zotiga mansub ekanini ko'rsatishi jihatidan ham ahamiyatlidir. Umuman, bu toifaga xos nazokat, ulargagina tegishli nafasat sezilib turishi ayollar she'riyatining fazilati sifatida baholanishi zarur. Mazkur she'rdagi "Darmon bo'larmanmi dardlaringizga" misrasi yurakka yaqin, xalqona ibora ekani bilan fikrning ta'sir kuchini oshirgan" [Jabborov 2015, 25].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatini shoirona nigoh bilan topilgan "mag'zi to'q" metaforalar bezab turadi. Ko'rib o'tganlarimiz ulardan ba'zi namunalar bo'lib, shoiraning har bir she'rida turlicha metaforik birikma yoki baytlarni uchratish mumkin. E'tiborli jihati esa, ijodkor lirik "men"i metaforalar ichida tinmay harakat qiladi. Goh atirguldand qayiq, suyakdan narvon yasaydi, goh singan ko'nglini yamoq bilan butlashga urinadi, goh ko'z yoshning yo'liga jonini to'shaydi. Bu kabi topilmalarda shoiraga xos izlanuvchanlik, yaratuvchanlik, fidoyilik kabi fazilatlaridan tashqari,

ayol xilqati, ayniqsa, umumo'zbek ayolining qalb kechinmalari, ruhiy manzarasi yaqqol aks ettirilgan. Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatida shoironing poetik mahorati tufayli an'anaviy metaforalar ham yangicha ruh kashf eta olgan. Qolaversa, bir predmetning xususiyati boshqa predmetga shu qadar jonli ko'chirilganki, gulqayiqni o'ylaganimizda, guldastaga monand chiroyli manzara, narvonni tasavvur qilganimizda esa suyak rangiga o'xshash yangi yog'och tasviri ko'z oldimizda aniq gavdalanadi. Shoir she'rlaridagi bunday metaforik tabiat hozirgi o'zbek she'riyatining rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- Atoulloh Husayniy. Badoyi'u – s – sanoyi: (Aruz vazni va badiiy vositalar haqida) Fors. A. Rustamov tarj. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 400 b.
- Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. – T.: Ma'naviyat, 2006. – 336 b.
- Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – 480 b.
- Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001. – 560 b.
- Jabborov, N. Zamon. Mezon. She'riyat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 304 b.
- Karimov, B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – 364 b.
- Karimov O.Y. Abdulla Oripov she'riyatida metaforik obrazlar tizimi: Filol. fanlari nomz. disser. – Toshkent, 2012. – 140 b.
- Qutlibeka. Ozodlik: She'rlar. – T.: Yozuvchi, 1997. – 72 b.
- Qutlibeka. Qorako'zlarim: [she'rlar, tarjimalar]. – T.: Adib, 2012. – 168 b.

Metaphorical interpretation of the female psyche in Qutlibeka Rahimboyeva's poetry

*E'zoza Bozorova*¹

Abstract

The article talks about metaphor, a widely used type of trope, and focuses on common and different aspects between the art of allegory and metaphor. Information about the types of metaphors is given. The term

¹ *E'zoza B. Bozorova* – Basic doctoral student. Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: ezozacon@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-5283-2458

For citation: Bozorova, E.B. 2023. "Metaphorical interpretation of the female psyche in Qutlibeka Rahimboyeva's poetry". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (3): 124-131.

metaphor, which is synonymous with this term, is widely used. The poems of the poetess Qutlibeka Rahimboyeva, who was able to create unique metaphors, were studied as the basic of the article. Metaphorical compounds and clauses in the poet's poetry are analyzed. Comments are made on the importance of metaphor in describing the mood and expressing feelings.

Keywords. *Trope, metaphor, poetry, open metaphor, closed metaphor, metaphorical qualification, superlative conjunction, simile, allusive irony, lyrical "Me", poetic skill, aesthetic effect.*

References

- Atoullloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi: (Aruz vazni va badiiy vositalar haqida) Fors. A. Rustamov tarj. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
- Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. – T.: Ma'naviyat, 2006.
- Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
- Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001.
- Jabborov, N. Zamon. Mezon. She'riyat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
- Karimov, B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – 364 b.
- Karimov O.Y. Abdulla Oripov she'riyatida metaforik obrazlar tizimi: Filol. fanlari nomz. disser. – Toshkent, 2012.
- Qutlibeka. Ozodlik: She'rlar. – T.: Yozuvchi, 1997.
- Qutlibeka. Qorako'zlarim: [she'rlar, tarjimalar]. – T.: Adib, 2012.

Analysis of the translation a poem “Sleeping girl” by Mukhammad Yusuf

Shalola Davletova¹

Abstract

In this article, it is written about Uzbek poet Mukhammad Yusuf’s poetry, his unique style in writing poems and the translation and analysis of his poem “The sleeping girl”. Being one of the masterpieces of his poetry, this poem was written in a beautiful style. For this reason it grabs the attention of the readers unintentionally. Not only Uzbek readers but also the readers of the world are now getting mental relaxation by reading this poem. So, there was offered English version. Additionally, there spoken about the dreams and struggles of the sleeping girl in the article in order to make the readers closer to the protagonist of the poem.

Key words: *rhyme, poet, skill, girl, innocent, virgin, victim, fluency, sincerity.*

Introduction

There are not many specialists whose path of life and creativity gives a general idea of an entire field or a large period of the field. Because such people are blessed with an extraordinary grace of fate. This is clearly visible in the works of writers, poets and dramatists.

Although the lifespans of some well-known playwrights, poets and writers were short, many creative works, such as novels, stories, and poems, made in this short period of time, will live for a long time. But there are few among them who not only love poetry, which is the jewel of literature, but also bring this fine art to a high peak. Mukhammad Yusuf’s innate talent is rare.

Poems that inspire a person with enthusiasm and courage and encourage them to achieve great goals are “Familiar poplars” (“Tanish teraklar”), “I have something to say to the nightingale” (“Bulbulga bir gapim bor”), “Plea” (“Iltijo”), “Sleeping girl” (“Uyqudagi qiz”), “Alla” songs by Halima grandmother (“Halima enam allalari”), “Ship of love” (“Ishq kemasi”), “Sweetheart in my heart” (“Ko’nglimda bir

¹ Davletova Shalola Bahodir qizi – Intern teacher at the English faculty N1 Department of Integrated skills N1 Uzbekistan State World Languages University.

E-mail: shaloladavletova96@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-0657-1713

For citation: Davletova, Sh.B. 2023. “Analyse a poem “Sleeping girl” by Mukhammad Yusuf”. *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 132-137.

yor"), written by our favorite writer Mukhammad Yusuf. There is a unique symbolism in his poems such as "There are many unfaithful" ("Bevafo ko'p ekan"), "Pamper deer" ("Erka kiyik"), "Liar sweetheart" ("Yolg'onchi yor"), "I will take you to my sky" ("Osmonimga olib ketaman"), "You are my dear, my motherland" ("Ulug'imsan, vatanim"). In particular, the most noble and high human qualities of the generation to which Mukhammad Yusuf belongs, the songs of youth, the elegant feelings of love, the Uzbek, simple, at the same time noble, virgin and unique feelings and experiences have been vividly expressed. The skillful use of the artistic possibilities of the word, musical fluency, clarity of feelings, sincerity and tenderness, the ability to clearly express the landscapes of the soul are the leading features of Mukhammad Yusuf's poetic style [1].

Let's take a poem "Sleeping girl", written for the memory of Nurkhan, although the bitter trials of life mislead him a little, the poem interprets the image of Nurkhan, who showed what he was capable of overcoming life struggles, refined in marriage tests, disregarded by his intelligence. In the poem, the artistic expression of life reality and human fate, the charm of language and the Supreme movement towards the realization of desires motivate the reader to goodness, new goals, enrich the property of our hearts...

This poem, although the writer created on the basis of the information given in the "Nurkhan", was so skillfully enriched literally that the reader feels as if he had read a charming poem. In the poem, the image of Nurkhan was manifested with all its complexity and brightness. If the poem is a denominator from fiction, it turns into a man without a dress, a tree without leaves, a sky without a moon and a star. Artistry is truthfulness. It is artistic if the writer describes the story, he is portraying, precisely in color, tone and even height. In the poem, the landscape is a flower and a sheen of shadows, that is, the use of words that are opposite in meaning has made extensive use of factors that ensure impressiveness. His verses about a girl who is faithful to the lover, who is on her way to a new life, are clarified in a verse. Mukhammad Yusuf noted the expressive element of his lyrical art through the means of artistic representation [Nusratova 2020]. Additionally, even the first verse of this poem, in which the character of illustration is instilled, has been interpreted as follows:

Qora yerga qo'yib bosh,
Bir qizgina uxlaydi.
Ko'zlarida to'la yosh,
Hur qizgina uxlaydi [Yusuf M 1989, 155].

Although, there is not some meanings of these words in English we translated the poem as:

Putting her head on the black ground,
A girl sleeps.
With eyes full of tears,
Proud girl sleeps.

The above verses are a seemingly easy, tapestry-looking, but in fact, an antique narrative style, that is very complex, is needed to be able to write like this. The text of the poem is reminiscent of the early messed life of a girl. Her tears in her eyes will have a special power of influence. The fact that short verses are provided with inner rhymes divides each of them into two more pieces. The result gives the impression that the reader has a quartet:

Bu dunyoda hech sendek
Qiz yo'q edi tur, singlim,
O'zing orzu qilgandek
To'y qilamiz, yur singlim [Yusuf M 1989, 155].

In English:

In this globe there was not
Any girl as you, up sister
We will have a wedding
As you dreamed, let's go sister.

It is worth commenting on the poetic qualities of these four lines in one notebook. Let's pay attention to the versatility of the character of the figure of love, created in two stanzas. A new poetic form has performed a miracle, giving a new soul to traditional thought, bringing to the surface in reverse practice the same affectation. Proud girl, who became the victim of the oppression imposed by the father, who lacked desire, was able to create a girl's character.

Mukhammad Yusuf was a huge poet who was able to show his personal style. The role of the poet in the development of Uzbek poetry is exceptional. The poet stamped women in his poems as "my sister" in these small samples of the lyrical genre. It is noteworthy that the themes of Mukhammad Yusuf's poems are extremely diverse. Such interpretations as philosophical, socio-political, moral-educational, love, friendship-harmony, love for life, home country, especially devotion to the motherland, predispose the reader to reading with their spiritual features and naturalness. Strictly speaking, it can be said that although the story of Nurhan's life adventures

consists of historical records, the poem "The Sleeping girl" is a kind of appendix in which the poet's collection was published under this name.

In the poems included in this collection, along with the most noble and high human qualities of the generation to which Mukhammad Yusuf belongs, the feelings of youth, the elegant varieties of love, the Uzbek, simple, at the same time Noble, Virgin and unique feeling and experiences have found their bright expression.

In this poem, which is dedicated to Nurkhan's memory, it dominates in influence rather than generality. Because the reader generally takes the sleeping girl herself closer to the heart than the lyrical hero. It is noteworthy that in a particular poem, when viewed superficially, no sign of Nurkhan appears. If we investigate and start researching, we can also address who the poem is called and its proof.

For example, the girl:
Qora yerga qo'yib bosh,
Bir qizgina uxlaydi.
Nurxon otli qalamqosh,
Hur qizgina uxlaydi [Yusuf M 1989, 155].

We struggled while translating the word "qalamqosh" into English as it is a specific vocabulary in Uzbek. It is used while complimenting the beauties' appearances in my culture. We chose "thick eyebrow" instead, although the meaning is not the same.

Putting her head on the black ground,
A girl sleeps.
With thick eyebrow named Nurkhan,
Proud girl sleeps.

Conclusion

At the same time, the poet noted that the main content of poetry was human qualities, the appearance of the lovers, her beauty, endless love for her, the torment of break up, the signs of separation and the joy of the date were finally beautifully and skillfully expressed. In the poem, his depiction of Man and nature in a mood setting alludes to the last stanza, which says that the hero's life will end in tragedy and become "Hur", which means "innocent", "proud", "virgin" in English.

The skillful use of the artistic capabilities of the word, musical fluency, clarity of feelings, sincerity and tenderness, and the ability to accurately and vividly represent the landscapes of the psyche are

the peculiarities of the poetic style of Mukhammad Yusuf. His poetry is in the hearts of people and they are never tired of reading and relaxing from the natural beauty of creativity forever.

Most of the poems belonging to the poet's pen are performed by famous singers. In 1989, for his poetry collection "The sleeping girl", the poet was awarded the prize of the Republican youth organization.

References

- "A collection of poems by Mukhammad Yusuf". www.question-answer.com
E.Rahimov. 2023. "Muhammad Yusuf she'rlarida vatan tasviri", Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(6), June, 230-238B
Yusuf, M. 2005. "Xalq bo'l, elim". "O'zbekiston", Toshkent.
Yusuf, M. 2000. "Ulug'imsan Vatanim". Toshkent.
Yusuf, M. 2014. "Saylanma". Toshkent.
Yusuf, M. 1989. "Uyqudagi qiz" "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti". Toshkent.
Nusratova, Sh.I. 2020. "Muhammad Yusufning "Uyqudagi qiz" she'ri haqida" UZTREND10.06.2020.
tafakkur.net "Muhammad Yusuf hayoti va ijodi".

Muhammad Yusufning "Uyqudagi qiz" she'ri tarjimasini tahlili

Shalola Davletova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodi, uning she'riyatidagi o'ziga xos jihatlar hamda uning "Uyqudagi qiz" she'riining inglizcha talqini hamda tahlili haqida so'z boradi. Muhammad Yusuf she'riyatining gultojlaridan biri bo'lmish ushbu she'r mutlaqo o'zgacha uslubda yozilgan bo'lib, o'quvchining e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi. She'rning jozibasidan nafaqat o'zbek kitobxonlari, balki dunyo kitobxonlari bahramand bo'lmoqdalar va shu o'rinda biz ham o'z inglizcha tarjima variantimizni taklif etilgan. Maqolada shuningdek, uyqudagi qizning armonlari, hayotda chekkan azoblari haqida so'z yuritiladi. Ma-

¹ Davletova Shalola Bahodir qizi – Intern teacher at the English faculty N1 Department of Integrated skills N1 Uzbekistan State World Languages University.
E-mail: shaloladavletova96@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-0657-1713

For citation: Davletova, Sh.B. 2023. "Muhammad Yusufning "Uyqudagi qiz" she'ri tarjimasini tahlili". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 132-137.

qsadimiz kitobxonni lirik qahramonga yanada yaqinlashtirish va uni his ettirishdir.

Kalit soʻzlar: *qofiya, shoir, mahorat, qiz, aybsiz, bokira, qurbon, ravonlik, samimiylik.*

Adabiyotlar

"A collection of poems by Mukhammad Yusuf". www.question-answer.com

E.Rahimov. 2023. "Muhammad Yusuf she'rlarida vatan tasviri", Oriental

Rennaisance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(6), June, 230-238B

Yusuf, M. 2005. "Xalq bo'l, elim". "O'zbekiston", Toshkent.

Yusuf, M. 2000. "Ulug'imsan Vatanim". Toshkent.

Yusuf, M. 2014. "Saylanma". Toshkent.

Yusuf, M. 1989. "Uyqudagi qiz" "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti". Toshkent.

Nusratova, Sh.I. 2020. "Muhammad Yusufning "Uyqudagi qiz" she'ri haqida" UZTREND10.06.2020.

tafakkur.net "Muhammad Yusuf hayoti va ijodi".

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Badiiy tarjimada emotivlik kategoriyasining frazeologik birliklar yordamida namoyon bo'lishi

Ulug'bek Yo'ldoshev¹

Abstrakt

Frazeologik birliklarni tarjima qilish barcha zamonlar tarjimashunosligi uchun dolzarb bo'lgan. Ko'plab taniqli mutaxassislarning fikriga ko'ra, frazeologik birliklar leksik birikmalar bo'lib, ularning ma'nosi butun ifoda bilan belgilanadi. Frazeologik birlikning o'ziga xos xususiyati uning emotsional ekspressivligi va fikr ifodasining ixchamligidir. Ko'pincha, frazeologik birliklar publisistik uslubda qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, frazeologik birliklar juda ko'p hollarda "turg'un iboralar"ga aylanadi. Mazkur maqolada ingliz tilidagi emotivlik kategoriyasining frazeologik birliklarda namoyon bo'lishi va ularni tarjima qilish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *tarjima, frazeologiya, emotivlik, ifodalash, birlik, usul, konnotatsiya, komponent, konnotativ ma'no, muqobil, bo'yoqdorlik.*

Kirish

Matndagi frazeologik birliklarni aniqlash va tarjima jarayonida unga teng keladigan ifodani topish qobiliyati tarjimon uchun eng muhim omildir.

Frazeologik birlikni tarjima qilish uchun tarjimon frazeologik lug'atlardan foydalanishi va shu bilan birga tarjima jarayonida kontekst ham muhim rol o'ynashini yodda tutishi kerak.

Tarjimon frazeologik birliklarni tarjima qilish usullarini aniqlab, butun ifodaning konnotativ va emotsional funksiyalarini ifoda etishi kerak. A.V.Kuninning fikricha, "frazeologik birlik – bu frazeologik sathda aniq bir turg'unlikka va qo'shimcha konnotativ ma'noga ega bo'lgan so'zlar jamlanmasi bo'lib, ularning ma'nolari

¹ Yo'ldoshev Ulug'bek Ravshanbekovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

E-pochta: yoldoshevu@mail.ru

Orcid: 0000-0002-2488-4889

Iqtibos uchun: Yo'ldoshev, U.R. 2023. "Badiiy tarjimada emotivlik kategoriyasining frazeologik birliklar yordamida namoyon bo'lishi". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 138-147.

komponent tahlil asosida yuzaga chiqadi [1,11]. Demak frazeologik birlik kontekstda qo'shimcha konnotativ ma'no hosil qilib, ushbu ma'no ekspressiv, emotiv, pragmatik va boshqalarni o'zida mujassam etishi mumkin.

Ko'plab taniqli tarjimonlar frazeologik birliklarni "tarjimonning soxta do'stlari" deb hisoblashadi. Asliyat matnidagi frazeologik birliklar tarjima matnida to'liq yoki qisman to'g'ri keladi. Ba'zi hollarda ularning tarjima matnida ifodasini bera oladigan ekvivalenti mavjud bo'lmaydi. Frazeologik birliklar ba'zi hollarda "tarjimonning soxta do'stlari" bo'ladi hamda ular ma'lum ma'noga ega va bu ma'no tarjima matnidagi frazeologik birlik ma'nosidan aniq yoki qisman farq qilishi mumkin. V.N.Komissarovning ta'kidicha, "ba'zi frazeologik birliklar "tarjimonning soxta do'stlariga" bo'lib, tahlil qilingan frazeologik birliklar boshqa tilda adekvat ekvivalentni tanlashni qiyinlashtiradigan o'xshash shaklga ega bo'lishi mumkin" [2,96]. Shuning uchun frazeologik birlikni tarjima qilish oson ish emas, chunki bu bir necha omillarga bog'liq: so'zlarning har xil kombinatsiyasi, omonimiya, sinonimiya, frazeologik birliklarning polisemiyasi va soxta o'xshash birliklarning mavjudligi. Bu esa kontekstni hisobga olishni talab qiladi. Bundan tashqari, ko'p sonli frazeologik birliklar odatda o'ziga xos milliy xususiyatga ega bo'lish bilan birga ma'no jihatidan uslubiy-ekspressiv komponentga ham egadirlar. Yuqorida keltirilganlar xususiyatlar frazeologizmning umumiy nazariyasining asosiy tamoyillari bilan tanishish zarurligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Frazeologik birlikning har qanday turi aniq mikrotizim sifatida taqdim etilishi mumkin. Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ikkita o'ziga xos lingvistik prinsiplarni taqqoslash orqali funksional adekvat lisoniy birliklar tanlanadi. Ushbu tamoyillar o'xshashlik va farqlanish belgilarini ochib beradi. Ushbu tizimlarning ayrim qismlari shakli va mazmuni bo'yicha (to'liq yoki qisman) mos kelishi yoki umuman mos kelmasligi mumkin.

Bu borada Aznaurova va boshqa olimlar o'zlarining "Translation theory and practice" asarida ikki til o'rtasida frazeologik birliklarning tarjima jarayonida o'zaro mos kelishining uch ko'rinishini ta'kidlab o'tishgan bo'lib, ular to'liq, qisman hamda moslashuvni mavjud emasligi bilan o'lchanadi. Biz quyida yuqorida takidlab o'tilgan olimlarning frazeologik birliklar tarjimasidagi moslashuv holatini keltirib o'tamiz:

1. To'liq moslashuv. Bu frazeologik birliklarda kamdan-kam

uchraydigan shakl va mazmun jihatidan tasodifiy moslashuv: *To bring oil to fire*–Alangaga yog' quymoq;

2. Qisman moslashuv. Ikki tildagi frazeologik birliklarning qisman muvofiqligi ma'no va uslubiy jihatdan o'xshashlik biroq, leksik, grammatik va leksik-grammatik farqlanish orqali namoyon bo'ladi. Ular ko'chma ma'noda bir-biriga yaqin bo'ladi, ammo leksik tarkibi, morfologik xususiyati va so'zlarning tartibini sintaktik tuzilishi bilan farq qiladi:

a) leksik tarkibi orqali qisman leksik moslashuv: *To get out of bed on the wrong foot*–*Chap yoni bilan turmoq*;

b) grammatik parametrlar orqali qisman moslashuv mavjud bo'lib, ular ma'no jihatidan bir-biriga mos bo'ladi, lekin grammatik strukturasiga ko'ra, o'zaro farq qiladi. Masalan, morfologik joylashuvdagi farqlar: *From head to foot*– *Boshdan-oyog'igacha*, *sintaktik joylashuvdagi farqlar*: *Strike while the iron is hot* – *temirni qizig'ida bos*;

3) Moslashuvni mavjud emasligi. Bir tilda mavjud bo'lgan ayrim frazeologik birliklar boshqa tilda mavjud bo'lmaydi. Bu kabi frazeologik birliklarga muqobili yo'q frazeologizmlar yoki milliy-madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgan frazeologizmlar kiradi. Odatda bu turdagi frazeologik birliklarni tarjima qilishda quyidagi tarjima transformatsiyalari qo'llanadi:

a) so'zma-so'z tarjima. Bu tarjima transformatsiyasi milliy-madaniy konnotativ ma'noga ega bo'lmagan frazeologizmlar uchun qo'llaniladi: *To call things by their true names*– *Har narsani o'z nomi bilan atamoq*;

b) analog tarjima. Bu usul milliy madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgan frazeologizmlar uchun qo'llaniladi: *birdbrain* – *tovuqmiya*;

c) tasviriy tarjima. Bunda frazeologik birliklar so'zlarning erkin birikmasi bilan tarjima qilinadi. Frazeologik birlik ma'lum bir milliy xususiyatga ega bo'ladi va tarjima qilinadigan tilda analogiyaga ega bo'lmaydi: *To cross the floor of the House* – *Bir partiyadan boshqa partiyaga o'tib ketmoq*, *Rome was not built in a day*– *Musulmonchilik asta-sekinlik bilan*.

V.Slepovichning fikriga ko'ra, frazeologik birliklar so'z birikmalari bo'lib, ularning ma'nosi butun ifodaga qarab emas, balki frazeologizmlardagi komponentlar va tarkibiy qismlariga ko'ra belgilanadi. Shartli komponentlar birikuvining bog'liqligiga ko'ra, frazeologik birliklar ko'chma ma'noga ega va oddiy frazeologik birliklarga bo'linadi. Ko'chma ma'noga ega bo'lmagan frazeologik birliklar frazeologik tuzilmalar deb nomlanadi. Ushbu frazeologik birliklarning til tarkibiy qismlari o'zlarining ma'nosini ifoda etadi, aniq so'zlar bilan

birlashadi va tarjimon ularni o'zgartira olmaydi: *to make a decision* – *qaror qabul qilmoq*. V.Slepovich bu turdagi frazeologik birliklarni tarjima qilishning quyidagi usullarini ko'rsatib o'tadi: 1) frazeologik birliklarning tarjimasi boshqa tilda o'sha frazeologizmning tarkibiy tuzilmasi mavjudligi asosida qayta yaratiladi: *“to have a rest”* – *dam olmoq*; 2) ekvivalentlik yordamida: *“to hit the target* – *mo'ljalga urmoq”*.

Frazeologik birliklarning navbatdagi turi ko'chma ma'noga ega frazeologizmlardir. Shu sababli ham majoziy frazeologik birliklar iboralar sifatida tanilgan. Ma'lumki, ibora - bu tilning ifodasidir, uning ma'nosi ularning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi ma'nolarning yig'indisidan iborat emas. *to try to kill two birds with one stone* – *bitta o'q bilan ikki quyonni urmoq*, *my the apple of eye* – *ko'z qorachig'im*.

Emotsional ekspressivlik va qisqa matn bilan ifodalanish frazeologik birliklarning eng o'ziga xos xususiyatidir. Frazeologik birliklar publitsistik uslubida, xususan gazeta sarlavhalari ifodali va ixcham bo'lgani uchun ularning sarlavhalarida ko'proq qo'llaniladi. Odatda, gazeta sarlavhalari o'quvchining e'tiborini tortadi va muallifning maqolada tasvirlangan voqealarga munosabatini aks ettiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, frazeologik birliklar tez-tez klishe'larga aylanib bormoqda. Shu sababli, asl matndagi frazeologik birliklarni aniqlash va tarjima jarayonida mos keladigan ekvivalentni topish qobiliyati tarjimon uchun eng muhim jihatlardir. Biroq, tarjimon frazeologik birliklarni etarli darajada talqin qilishi, tarjima qilish uchun so'z birikmalaridan foydalanishi va tarjima jarayonida kontekstga ham jiddiy e'tibor qaratishi lozim.

Bunga qo'shimcha ravishda taniqli rus tarjimashunosi S.S.Kuzmin tomonidan ishlab chiqilgan frazeologik birliklarni tarjima qilishning ba'zi usullari mavjud:

1) monoekvivalent yordamida tarjima qilish, ya'ni bir tildagi frazeologik birlikning tasviri va ma'nosi boshqa tildagi frazeologik birlikning tasviri va ma'nosiga mos keladigan frazeologik birlik tanlanadi, bu obraz va ma'no rus frazeologik birligining tasviri va ma'nosi bilan mos keladi. Masalan, *to be as cunning as a fox-tulkidek ayyor bo'lmoq*;

1) nisbiy ekvivalenti (“analog”) yordamida tarjima qilish. Olim bu borada quyidagilarni bayon etadi. Ingliz tilidagi frazeologik birlikdagi tasvir rus frazeologik birligi tasvirga to'g'ri kelmaydi, lekin ular orasidagi ifoda va mantiqiy ma'nolar o'zaro mos keladi. Masalan, rus tili “обвести кого-либо вокруг пальца” iborasini ingliz

tiliga tarjima qilish juda qiyin, chunki ingliz tilida bu ifoda uchun quyidagi iboralar mavjud: *"to twist smb around one's (little) finger"*, *"to take smb for a ride"*, *"to pull smb's leg"*. Ushbu iborani tarjima qilish va kerakli analogini tanlash uchun tarjimon manba matnidagi kontekstni tahlil qiladi, chunki bu iboralar ingliz tilidagi ma'nolari bilan farq qiladi;

2) Bir tildagi frazeologik birlikning bir nechta ma'nolari mavjud bo'ladi va tarjimon tarjima tilida shunga mos frazeologik birlikni tanlashi kerak bo'ladi. Shuning uchun tarjimon frazeologik birlik ma'nosini kontekstdan izohlashi va eng yaxshi ekvivalentni tanlashi mumkin. Masalan, rus tilidagi *"метать громы и молнии"* frazeologik birligini *"быть очень сердитым"*, ya'ni *"be beside oneself with rage"*, *"be in a diabolical rage"*, *"to go up into the air"*, *"to fly off the handle"*, *"выкрикивать проклятия и угрозы"* frazeologik birligini *"to jump down smb's throat"*, *"be ranting and raving"*, *"be raging and fuming"* ma'nolari va *"совершать эти действия представляется делом напрасным и неразумным"* frazeologik birligini *"to go off the deep end"* ma'nolari mavjud [1,37].

Agar tarjima jarayonida bir tildagi frazeologik birlik obrazini tarjima tiliga olib o'tish zarur bo'lsa, frazeologik birliklarni metafora yordamida tarjima qilish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *"birdbrain"* frazeologik birligi o'zbek tilidagi *"tovuqmiya"* ifodasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, frazeologik birliklarni tarjima qilish uchun tavsillash tarjimasidan foydalanish mumkin; ammo, frazeologik birlik qo'llanganda, jumlaning ekspressivligi va ijobiy yoki salbiy ma'nosi yo'qolishi mumkin.

Bizga ma'ulmki, badiiy adabiyotda emotivlik kategoriyasini til birliklari, xususan frazeologik birliklar orqali ifodalanishi keng tarqalgan. Bu borada muallif frazeologik birliklarda his-hayajonni aks ettirish orqali badiiy matnni ta'sirchanligini yanada oshirishni maqsad qiladi. Quyida badiiy asarlarda his-hayajonni birliklarda aks etishi va uni tarjimada saqlab qolinish masalalari haqida so'z yuritamiz.

Asliyat matni: *Morrie could barely breathe. He stood next to his father, frozen with fear, hoping the boss wouldn't scream at him, too.*

Tarjima matni: *Morri zo'rg'a nafas olardi. U otasining yonida yuragini hovuchlab turar, xo'jayin unga ham baqirib qolishi mumkinligidan dahshatga tushardi.*

Mazkur matnda *"frozen with fear"* frazeologik birligi qo'llangan bo'lib, ushbu frazeologik birlik orqali haddan tashqari qo'rqmoq,

qo'rquvdan lom-lum deya olmasik, qimirlay olmaslik ma'nolari ifodalangan. Ingliz tilida "frozen with fear" frazeologik birikmasi "to be so afraid, shocked etc that you cannot move", ya'ni qo'rqqanidan, hayratlanganidan qimirlay olmaslik ma'nosini anglatadi. Tarjimon ushbu frazeologik birlikni o'zbek tiliga "yuragini hovuchlab turmoq" tarzida o'giran. Fikrimizcha, bu orqali aslyiat matnida ifodalangan emotivlik to'laliligicha ochib berilmagan. Nazarimizda, ushbu frazeologik birlikni monoekvivalent yordamida tarjima qilish, ya'ni bir tildagi frazeologik birlikning tasviri va ma'nosi boshqa tildagi frazeologik birlikning tasviri va ma'nosiga mos keladigan frazeologik birlikni tanlash usuli yordamida ingliz tiliga tarjima qilganda aslyiat matnidagi emotivlik kategoriyasi tarjima tiliga ham olib o'tilgan bo'lar edi. *Morri zo'rg'a nafas olardi. U otasining yonida qo'rquvdan qotib qolgan edi, xo'jayin unga ham baqirib qolishi mumkinligidan dahshatga tushardi.* Mazkur matnning o'zbek tiliga ushbu varianti orqali emotivlik kategoriyasi aks etgan frazeologik birliklarni tasvir va ma'nosiga mos keladigan ekvivalentlikka erishiladi.

Aslyiat matni: *In our hooded parkas, we roll like logs down the cold, wet snow, thinking the next thing to touch us will be the hard rubber of a car tire. We are elling "AHHHHHH" and we are tingling with fear, turning over and over, the world upside down, right side up, upside down.*

Tarjima matni: *Kapyushonli kurtkamizga o'ralib, sovuq, nam qorda g'o'ladek pastga dumalaymiz; xayolimizda esa qattiq rezina mashina g'ildiraklari ostida qoladigandek his qilamiz o'zimizni. "AAA-AAA" deb baqirib, qo'rquvdan titragancha pastga dumalashda davom etamiz: dunyo chirpirak bo'lib aylanadi – tepaga, pastga, tepaga, pastga.*

Ushbu matnda emotivlik kategoriyasi "tingling with fear" frazeologik birligi orqali ifodalangan. Tarjimon ushbu frazeologik birlikni "qo'rquvdan titragancha" tarzida o'zbek tiliga o'giran. Tarjimon ushbu frazeologik birlikni ekvivalentlik tarjima usulidan foydalangan holda adekvat tarjimaga erishgan. Bu orqali tarjimonning mahorati tarjima matnida o'z aksini topgan. Ingliz tilida "tingle with excitement/fear/anticipation etc", frazeologik birikmasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi "to feel excitement, fear etc very strongly" – "kuchli qo'rquvdan qaltiramoq" ma'nosini anglatadi. Masalan, *I remember walking into the meeting room tingling with fear and energy* – Qo'rquv va asabiylikdan qaltirab uchrashuv xonasi tomon yurib borganimizni eslayman.

Asliyat matni: LIZA [with sudden sincerity] I don't care how you treat me. I don't mind your swearing at me. I don't mind a black eye: I've had one before this. But [standing up and facing him] I won't be passed over.

Tarjima matni: Liza (kutilmaganda samimiy ohangda gapiradi). Menga qanday muomala qilishingiz mutlaqo ahamiyatsiz. Hatto so'kinib gapirsangiz ham qarshi emasman. Lekin... (o'rnidan turib va unga qarab) ustimdan bosib o'tishingizga toqat qilolmayman.

Emotivlik kategoriyasini ifodalaydigan frazeologik birlik qo'llangan matnlardan yana biri bu – “I don't mind a black eye” iborasi bo'lib ushbu frazeologik birlik “kaltaklanmoq, zarba yemoq” ma'nolarini anglatadi. Mazkur parchada emotivlik kategoriyasi ifodalangan gaplar tarjimonning e'tiborsizligi sababli tarjimada tushirib qoldirilgan. Agar tarjimon ushbu frezologik birlik o'zbek tiliga analog tarjima usuli orqali “ko'zimni ko'kartirsang ham” tarzida tarjima qilganda, asliyatdagi his-hayajon tarjima tiliga ham to'liq olib o'tilgan bo'lar edi va matn o'zbek tilida quyidagicha ko'rinishda namoyon bo'lar edi: Liza (kutilmaganda samimiy ohangda). Menga qanday muomala qilishingiz mutlaqo ahamiyatsiz. Hatto meni so'kishingiz, ko'zimni ko'kartirishingiz mumkin. Lekin bir narsaga chiday olmayman. (o'rnidan turib va unga qarab) Ustimdan bosib o'tishingizga toqat qilolmayman. E'tiborli jihati mazkur matnda qo'llangan frazeologik birlikning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyati mavjud. Inglizlarda kaltak yemoq, zarba yemoq natijasida ko'chma ma'noda ko'zni rangini o'zgarishiga nisbatan “black (qopa)” rangi qo'llansa, o'zbeklar bu holat uchun “ko'k” rangni qo'llashadi. Bu xususiyatlar ham emotivlik kategoriyasi ifodalangan frazeologik birliklarni tarjima qilishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlardir.

Asliyat matni: Months would pass without a word from him. Messages on his answering machine would go without reply. I was ripped with guilt for what I felt I should be doing for him and fueled with anger for his denying us the right to do it.

Tarjima matni: Oylar davomida undan birorta ham xabar eshitmasdik. Telefoniga qoldirilgan ovoqli xabarlarimiz javobsiz qolardi. Akalik burchimni bajara olmayotganimdan aybdorlik hissi yuragimni tilka-pora qilar, bizni unga g'amxo'rlik qilish huquqidan mahrum etayotganidan esa g'azabim qaynardi.

Ushbu matnda emotivlik kategoriyasi “to be ripe with” birikmasi orqali ifodalangan bo'lib, uning ma'nosi to'lib toshmoq, qamrab olmoq ma'nolarini anglatadi. Tarjimon ushbu birikmani o'zbek tiliga “yuragi tilka-pora bo'lib ketmoq” tarzida o'zbek tiliga

tarjima qilgan. Fikrimizcha tarjimon ushbu frazeologik birlik qatnashgan gapni Akalik burchimni bajara olmayotganimdan aybdorlik hissi yuragimni tilka-pora qilar tarzida emas, balki Akalik burchimni bajara olmayotganimdan aybdorlik hissi butun vujudimni qamrab olar edi tarzida o'g'riganda emotivlik kategoriyasi yanada yorqinroq ifodalangan bo'lar edi. Chunki yozuvchi bu orqali qahramonning o'zida ayborlik hissini eng yuqori pallasini ifodalashni maqsad qilgan.

Asliyat matni: "Good heaven! What is to become of us? What are we to do? " Would they often exclaim in the bitterness of woe. "How can you be smiling so, birdbrain?"

Tarjima matni: - "Voy xudo, endi nima qilib bo'ladi? Endi nima qilamiz?" –ular har qadamda uf tortishardi. –Lizzi, qanday qilib kulishga qurbing yetayapti, qushmiya?

Mazkur matnda insonni e'tiborsizligi, biror masalaga jiddiy e'tibor qaratmasligi yuzasidan odatda emotivlik kategoriyasini ifodalaydigan "ahmoqlik, yengil qarash, e'tiborsizlik"ni bildiradigan "birdbrain" frazeologik birligi qo'llangan. Tarjimon ushbu frazeologik birlikni o'zbek tiliga "qushmiya" tarzida o'g'irgan. Bu yerda frazeologik birlikning milliy-madaniy xususiyatlari tarjimon e'tiboridan chetda qolib ketgan. Odatda o'zbek tilida bu holat uchun "ahmoqlik, e'tiborsizlik" kategoriyalarini ifodalaydigan "tovuqmiya" birikmasi qo'llanadi. Tarjimon mazkur frazeologik birlikni analog tarjima usulidan foydalanib, "tovuqmiya" tarzida tarjima qilganda tarjima matni yanada tasirliroq bo'lar edi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, frazeologik birliklar madaniyat va muayyan bir millatning milliy mentalitetini aks ettiradi. Shu sababli, frazeologik birliklarni tarjima qilish zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Frazeologik birliklar har qanday til yoki madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, ushbu birliklarni bilish va ularni to'g'ri talqin qilish butun ifoda yoki badiiy asar tarjimasining samarali va muvaffaqiyatli chiqishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar

- Kuzmin, S. S. Idiomatic Translation from Russian into English (Theory and Practice) Moscow: Flinta: Nauka. 2007. pp. 7-291.
- Komissarov, V. N., Koralova, A. L. Practical Manual on the Translation from English into Russian (p. 14). Moscow: Vysshaya shkola. 1999. – 326 p.
- Yo'ldoshev, U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – "Samarqand davlat chet

tillar instituti" nashriyoti, 2022. – 170 bet.

Yo'ldoshev, U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – 126 bet.

<https://www.ldoceanline.com/dictionary/tingle-with-excitement-fear-anticipation>

Representation of the category of emotion expressed in phraseological units in literary translation

Ulugbek Yuldoshev¹

Abstract

Translation of phraseological units has always been actual for translation studies. According to many well-known experts, phraseological units are lexical combinations, the meaning of which is determined by the entire expression. A unique feature of a phraseological unit is its emotional expressiveness and conciseness of thought expression. Often, phraseological units are used in newspaper style. It should be noted that phraseological units in many cases become "fixed phrases". This article talks about the manifestation of the category of emotiveness in the English language in phraseological units and methods of their translation into Uzbek.

Key words: *translation, phraseology, emotiveness, expression, unity, method, connotation, component, connotative meaning, alternative, coloring.*

Adabiyotlar

Kuzmin, S. S. Idiomatic Translation from Russian into English (Theory and Practice) Moscow: Flinta: Nauka. 2007. pp. 7-291.

Komissarov, V. N., Koralova, A. L. Practical Manual on the Translation from English into Russian (p. 14). Moscow: Vysshaya shkola. 1999. – 326 p.

Yo'ldoshev, U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – "Samarqand davlat chet

¹ *Ulug'bek R. Yo'ldoshev* – Doctor of philosophy (PhD), docent. Uzbekistan State World Languages University.

E-mail: yoldoshevu@mail.ru

Orcid: 0000-0002-2488-4889

For citation: Yuldoshev, U.R. 2023. "Representation of the category of emotion expressed in phraseological units in literary translation". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (3): 138-147.

tillar instituti" nashriyoti, 2022. – 170 bet.

Yo'ldoshev, U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – 126 bet.

<https://www.ldoceonline.com/dictionary/tingle-with-excitement-fear-anticipation>

O'zbek mehmondo'stligiga oid so'zlarni badiiy tarjimada qayta yaratish

Muxtasar Abdullayeva¹

Abstrakt

Adabiyot inson haqidagi fandir va shuning uchun ham uning asosiy vazifasi har tomonlama yetuk insonlarni tarbiyalashdan iborat. Umumjahon adabiy jarayonining ajralmas qismi hisoblangan o'zbek adabiyotining vazifasi ham shu. Yosh avlodni tarbiyalash, uni barkamol inson qilib yetishtirish barcha davrlarda va barcha adiblar ijodida mavjud bo'lgan o'lmas mavzulardan biridir. Adabiyotning eng oliy vazifasi ham insonlarda ezgulik va yaxshilik, tinchlik va do'stlik, bag'rikenglik va olijanoblik tuyg'ularini tarbiyalashdan iborat. Mana shu xislatlarning badiiy tarjimada muqobil aks ettirilishi, adekvat qayta yaratilishi ham har tomonlama komil insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *tarjima, mehmondo'stlik, qadriyat, mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat, umuminsoniy qadriyatlar.*

Kirish

O'zbekistonda mehmondo'stlik an'analari chuqur tarixiy ildizlarga ega. Qadim zamonlardan beri bu hududning aholisi o'zlarining mehmondo'stligi bilan mashhur. Hozirgi O'zbekiston hududidan Buyuk Ipak yo'li o'tgan, turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar karvonlari dam olish va savdo qilish uchun bu yerda to'xtab turgan bir paytda bu nihoyatda muhim edi. Mehmondo'stlik an'analarning shakllanishida mintaqaning asosiy dini bo'lgan islom dini ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekistondagi mehmondo'stlik an'analarga zamonaviy tendentsiyalar muqarrar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, turizmning o'sishi bilan ko'plab mehmonxonalar va restoranlar o'z xizmatlarini xalqaro standartlarga moslashtirishga harakat qilmoqdalar, bu esa ba'zida mehmondo'stlikning an'anaviy jihatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Biz yuqoridagi masalalarni o'zbek tilidan vosita til, ya'ni rus tilidan ingliz tiliga qilingan ba'zi o'zbek hikoya va romanlar misolida

¹ Muxtasar Abdullayeva Abdulla qizi – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti.

E-pochta: amukhtasar@mail.ru

ORCID: 0009-0002-2783-7786

Iqtibos uchun: Abdullayeva, M.A. 2023. "O'zbek mehmondo'stligiga oid so'zlarni badiiy tarjimada qayta yaratish". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 148-157.

ko'rib chiqamiz.

Oybek dastlab Navoiy haqida ilmiy maqolalar, keyin "Navoiy" lirik dostonini (1936-1937) va nihoyat 1942-yilda "Navoiy" romanini yozadi.

Ushbu roman buyuk mutafakkir shoir haqida dunyo adabiyotida yaratilgan ilk yirik nasriy asar edi. Bu romanga qadar Oybek Navoiy haqida she'r, doston va bir qator ilmiy maqolalar yaratgan edi. Yirik badiiy asarda daho ijodkorning shaxsiyati, ruhiyat dunyosi, ichki olami, ijod va ijodkorlarga munosabati butun serqirraligi bilan ko'rsatib berildi. Yozuvchi faqat buyuk Alisher Navoiyning ijodi va shaxsiyatinigina emas, balki u yashagan tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda u bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni ham puxta o'rganib chiqqan. Shuning uchun romanda daho ijodkor el-ulus hayotidan uzilmagan holda jamiyatdagi katta-kichik voqealar tasvirida ishonarli va hayotiy aks ettirilgan.

Asarda shoirning o'z qadrini biladigan, ayni vaqtda o'ta kamtar odam ekanligi lavozimdor odam sifatida ilk muhr bosish holati tasvirlangan lavhada yorqin namoyon bo'ladi. Navoiyning cheksiz adolati, el-yurtga g'amxo'rliqi, ulusning hayotini yengillatish, turmushini farovon qilish uchun tinim bilmasligi kabi jihatlar romanda o'ta ta'sirli aks ettirilgan. Oybek romandagi har bir obrazning o'ziga xos jihatini ko'rsatishga erishgan. Shuning uchun ham asardagi deyarli barcha timsollarning nutqi individuallashtirilgan. Unda tasvirlangan ijodkorlar, navkarlar, sarkardalar, saroy amaldorlari, dehqonlar, kosib-u hunarmandlarning har biri o'zigagina xos til bilan ta'riflangani asarning o'qishli bo'lishini ta'minlagan. Romanni o'qish mobaynida o'quvchi ko'z oldida buyuk Navoiy yashagan davrdagi sharoit, odamlar, ularning o'ziga xos turmush tarzi, ruhiy olami, quvonch-u tashvishlari gavdalanadi. Bu hol yozuvchining yuksak tasvir mahoratidan dalolatdir.

Oybekning "Navoiy" romanidagi ba'zi parchalar tarjimasini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi holatni kuzatamiz:

Romanda hikoya qilinishicha, Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning qarshiligiga qaramasdan, uni muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Navoiyning bu mansabni egallashi bilan uni qutlagani uyiga bir qancha odamlar – saroy beklari, amaldorlari, tolibi ilmlar va oddiy odamlar ham kelgan edilar:

"To'rdagi katta oq uyda odam ko'p, xizmatkorlar o'z yumushlarini iftixor bilan bajaradilar. Uy sohibi - shoir o'z odaticha, bir nafas qo'nmaydi" (Oybek, Navoiy, 123).

Ruscha tarjimasi (M.Sal'ye tarjimasi):

“В просторном белом доме собралос много гостей. (Ø) Хозяин дома приветливо встречал входящих” (Айбек. Навои, 99).

Inglizcha tarjimasi (G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi):

*“Many people gathered in the big white house. (Ø) The **host did not sit for a moment** for such was his manner; he courteously welcomed all newcomers”*

(Aybek. Navoi/ Uzbekistan speaks, 41).

Yuqoridagi keltirilgan misolda o‘zbekcha matn bilan ruscha va inglizcha matnlarning bir-biri bilan aynan mos kelmasligini ko‘rishimiz mumkin. **“iftixor bilan bajaradilar”** – ruscha matnda umuman tarjima qilinmagan, buni biz ushbu belgi Ø orqali berdik, inglizcha tarjimasida ham tushirib qoldirilgan. Ruscha va inglizcha tarjimalarda xizmatkorlarning mehmonlarga ko‘rsatayotgan xizmatlari aks etmagan. Asarning ushbu qismidagi uy sohibining mehmonlarga nisbatan e‘tibori yuqori bo‘lganligini aks ettiruvchi ibora **“bir nafas qo‘nmaydi”** rus tiliga tarjima qilingan matnda umuman tushib qolgan, inglizcha tarjimada esa **“host did not sit for a moment”** iborasi bilan berilgan. Bu kabi holat o‘zbek mehmondo‘stligining tarjimada biroz sayoz holatda ifodalanishiga olib kelgan. Xizmatkorlarning esa **uy yumushlarini iftixor bilan bajarayotganlari** ruscha va inglizcha matnlarda umuman tushurib qoldirilgan.

“Once the principle is accepted that sameness cannot exist between two languages, it becomes possible to approach the question of loss and gain in the translation process. It is again an indication of the low status of translation that so much time should have been spent on discussing what is lost in the transfer of a text from Source Language to Target Language whilst ignoring what can also be gained, for the translator can at times enrich or clarify the Source Language text as a direct result of the translation process. Moreover, what is often seen as “lost” from the Source Language context may be replaced in the Target Language context.... [S. Bassnett. Translation Studies, 176]”

Buni quyidagicha tarjima va izohlarimiz bilan beramiz: “Asliyat bilan tarjima qilingan asarlar aynan bir xil bo‘la olmaydi va bu tarjima jarayonida “yo‘qotish va qo‘shish” deb ataladi. Bu tarjima holati pastligidan dalolat beradi, tarjimon ba‘zida tarjimani boyitishi yoki o‘zgartirishi mumkin (Tarjima muallifniki). Yuqoridagi tarjima tahlilimizda “yo‘qotish” orqali boshqa bir “yutuqqa erishish” sodir bo‘lmaganligini ko‘ramiz.

Dasturxondagi noz-ne‘matdan tashqari mezbanning

muomala madaniyati, har bir kelgan mehmonni ochiq yuz bilan kutib olish, uning xohishiga qarab taom hozirlash, ketayotganda quruq qo'l bilan jo'natmaslik va uni shirin so'z bilan kuzatish ham mehmondo'stlikning asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Ushbu asarda keltirilishicha, Navoiy keluvchilarni ochiq yuz bilan kutib olar ekan, dam sekingina oshxonaga kirib, oshpazlar ishini ko'zdan kechirib chiqadi, ba'zi bir narsalarni ularga o'rgatadi, eslatadi. Goh hujralarga bosh suqib, unda tayyorlanayotgan halvo va har nav shirinliklarni surishtirar ekan, ulardan mo'ltroq tayyorlashni ham uqtiradi. Shu holat yuzasidan quyidagi gap tarjimasini tahlilga tortamiz:

"O'z uyida xalq to'plangan vaqtlarda u aksari shunday kuyunchaklik ko'rsatar, qo'ldan kelgancha mehmondo'stlik qilishga, iltifoti, muomalasi bilan har kimning ko'nglini ko'tarishga tirishar edi" (Oybek, Navoiy, 123).

Ruscha tarjimasi (M.Sal'ye tarjimasi):

"Когда в его доме собирается народ, Навои всегда так хлопочет, стараясь как можно лучше принять гостей" (Айбек. Навои, 100).

Inglizcha tarjimasi (G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi):

"Whenever people gathered in his house Navai always took infinite trouble to entertain them" (Aybek. Navoi/ Uzbekistan speaks, 41).

Bu yerda ham tarjimaning to'g'ri va aniq chiqmaganligini, *"qo'ldan kelgancha mehmondo'stlik qilishga", "iltifoti, muomalasi bilan"* degan iborani tarjima qilinmay qolib ketgani, natijada ruscha va inglizcha tarjimalarning sodda bo'lib qolganligining guvohi bo'lamiz. Bu yerda yana ruscha tarjimaga nazar solsak, **хлопочет** so'zida **tashvishlanish** ma'nosi ham bor. Lekin o'zbekcha matnda bunday ma'no umuman sezilmaydi. Aksincha, mehmonlarning ko'nglini olish uchun kuyunchaklik bilan mehmonlarni kutib olishga harakat qiladi. Ruscha matndan foydalangan ingliz tarjimoni ham *infinite trouble* ya'ni cheksiz tashvish bilan ularni qarshilayotganday tuyuladi.

"...tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi bir mushkul muammo.

Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar

emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir." [И.Каримов. Юксак маънавият- енгилмас куч, 8]. Darhaqiqat bunday iboralarni tarjima qilish mushkul ish. Ularning o'zga tildagi ekvivalentlarini topish mutarjimdan katta ma'suliyat talab qiladi.

Keyingi misollarni Rahmat Fayziyning "Yangi yil oqshomida" nomli hikoyasidan keltiramiz.

O'zbeklarda to'y-ma'rakalarga, yig'inlarga quruq qo'l bilan borilmaydi. Ayollar bir tog'ora narsa va ustida bir kiyimlik mato bilan boradilar. Hikoyaning bosh qahramoni bo'lmish Bahri xola bir to'yda bo'lib o'tgan voqeani jiyan Halimaxonga so'zlab berar ekan, shunday deydi:

- *Hamma gap biz xotinlarning eskicha rasmi-rusmimizda. **Oling quda, bering quda** rasmi o'lsin. Mana men ...* (R.Fayziy. Povest' va hikoyalar, 293).

Ruscha tarjimasi (L.Bat' va P.Qodirovlar tarjimasi):

- Да, всему виной наши глупые старые обычаи: **Бери, кума, - верни, кума!** (Р. Файзи. В пустыню пришла весна.234).

Inglizcha tarjimasi (G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi):

*Of course, the whole trouble was caused by our ridiculous old customs: **Take it, old girl – return it, old girl!*** (Rakhmat Fayzi. New Year's Party/Uzbekistan speaks, 133).

Bahri xola Sanobarning tugunini Halimaxon ham uning yaxshi kunida qaytarishini aytar ekan, shunday deydi:

-*Bo'lib bo'пти,-dedi Bahri xola, - **Bor tovog'im, kel tovog'im, kelishingda quruq bo'lsang o'rta yerda sin tovog'im** deganni eshitmaganmisan.* (R.Fayziy. Povest' va hikoyalar, 299).

Ruscha tarjimasi (L.Bat' va P.Qodirovlar tarjimasi):

- *Уж ей попадет! Разве ты не слышал поговорку: **Иди, мой поднос, вернис, мой поднос, а не вернешся, чтоб черт тебя унес!*** (Р. Файзи. В пустыню пришла весна, 327).

Inglizcha tarjimasi (G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi):

*Then she'll be in for it! Don't you know the proverb: **Go my tray, return, my tray, and if you don't return may the devil take you!*** (R. Fayzi. New Year's Party/Uzbekistan speaks, 139).

O'zbeklarda bir odat bor. Mehmonning qilib kelgan tuguniga qarab u ham unikiga borganda o'shanga yarasha tugun qilib bori-shi kerak. Shu o'rinda bu maqol, ya'ni **bor tovog'im, kel tovog'im, kelishingda quruq bo'lsang o'rta yerda sin tovog'im** ishlatiladi.

Bu maqol rus tiliga **иди, мой поднос, вернис, мой поднос, а не вернешся, чтоб черт тебя унес** deb to'g'ri tarjima qilingan. Bu yerda matalning so'zma- so'z tarjimasi nafaqat to'g'ri, balki juda ham yaxshi chiqqan, unga xos ichki ritm, qofiya ham bor. Ruscha matndan foydalangan ingliz mutarjimi ham maqolni **go my tray, return, my tray, and if you don't return may the devil take you** deb to'g'ri tarjima qilgan. Asarning milliyligiga hech qanday zarar yetmagan.

Ruscha "perevod" so'ziga mos keladigan ikkita so'z bor: tarjima va interpretatsiya (talqin). Terminlar o'rtasida farqni ajratadiganlar "tarjima" atamasini yozma matnga va "interpretatsiya" so'zini og'zaki nutqqa bog'laydilar. Shunday bo'lsa-da, atamalar ko'p ma'nolidir, interpretatsiya qilish "matn ma'nosini ko'rsatish yoki muhokama qilish" degan ma'noni anglatishi mumkin – buyuk ingliz tarjimashunos olim P.Nyumark masalan, matnning bir qismi yozuvchining niyati uchun muhim bo'lsa, ammo semantik jihatdan yetarlicha aniqlanmagan bo'lsa, tarjimon izohlashi kerak". *Tarjima qilish* atamasi ko'pincha boshqa tillarda ifodalashning har qanday (yozma va og'zaki) ifodasidir. [P. Newmark. Approaches to Translation, 35]. Buning uchun avvalo mutarjim original matnni o'zi yaxshilab tushunib olgan bo'lmog'i lozim.

Biz tarjima qilish va bayon qilish terminlarini ajrata olishimiz kerak. Tarjima qilganimizda, biz faqatgina manba matnida yetkazilgan narsalarning emas, balki qanday qilib amalga oshirilayotganini ham boshqa tilda ifodalaymiz. Bayon qilishda biz faqatgina manba matnining g'oyalarini yetkazishimiz mumkin. [Z.Proshina Theory of translation, 8]. Lekin har ikkalasida ham kerakli ma'lumotlarni tushurib e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Aks holda, u yoki bu ma'lumot kitobxonga tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin.

Mehmondorchilikka borgan o'zbeklar tugun ustiga albatta qandaydir bir kiyimlik gazmol ham qo'yib boradilar. Mezbon ham tog'orani quruq qaytarmaydi. Gazmolning o'rniga u ham gazmol qo'yadi.

Bahri xola bir yili tog'asinikiga tavan qilib, ustiga bir kiyimlik satinga o'xshash kulrang gazmol qo'yib boradi. U esa unga shunga o'xshash bir kiyimlik gazmol qaytaradi. U bu satinni ko'ylaklikka mo'ljallab, sandig'ining bir chetiga tashlab qo'yadi. Shu-shu uning butkul yodidan ko'tariladi. Oradan to'qqiz yil o'tgach, o'zining uyida ham qandaydir yig'in bo'ladi. Xolasining qizi esa xuddi o'shanday gazmol qilib keladi:

"Menikining o'zginasiya" dedimu, ayirboshlab, uni sandiqqa soldim. (R.Fayziy. Povest' va hikoyalar, 299).

Ruscha tarjimasi (L.Bat' va P.Qodirovlar tarjimasi):

"Точ-в-точ мой" – и спрятала в сундук. (Р. Файзи. В пустыню пришла весна, 328).

Inglizcha tarjimasi (G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi):

"I remember thinking that it was exactly like mine as I put it in the trunk." (R. Fayzi. New Year's Party/Uzbekistan speaks, 140).

O'zbeklar odatiga ko'ra bo'lgan, ya'ni tugun ustida qilib kelingan gazmol o'rniga gazmol qo'yib qaytarish rus tiliga tarjima qilinmagan. Asarning ruscha matnidan foydalangan ingliz mutarjimi ham **"ayirboshlab"** so'zini qoldirib ketgan.

Sanobarning qilib kelgan tuguni haqida gap ketar ekan, Bahri xola shunday deb gapida davom etadi:

- *Xo'sh, gapga kelaylik. Mayli, Sanobar atlas qilib kelibdi. Bunisi ham yomon emas. Endi mana bu **bir dasturxon noni** nimasi edi.* (R. Fayziy. Povest' va hikoyalar, 299).

Ruscha tarjimasi (L.Bat' va P.Qodirovlar tarjimasi):

- *А теперь насчет сегодняшнего... Ну, хорошо, Санобар принесла щелк на плате... Пожалуйста"* Но для чего тащит полный **мешок лепешек**? (Р. Файзи. В пустыню пришла весна, 328).

Inglizcha tarjimasi (G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjimasi):

*And now about today's business, Sanaubar brought a piece of silk for a dress. That's all right but why bring **a sack of cakes**?* (R. Fayzi. New Year's Party/Uzbekistan speaks, 141).

O'zbekcha va ruscha matnni bir-biri bilan qiyoslaymiz. Asliyatda **"bir dasturxon noni"** rus tilida **"мешок лепешек"**, ya'ni **"bir dasturxon noni"** deb emas, balki **"bir qop noni"** deb noto'g'ri tarjima qilingan. Axir o'zbeklar to'y-hashamga, ma'rakalarga, yig'inlarga borganlarida qopda nonni orqalab bormaydilar-ku. Rus tilidan o'g'irgan ingliz mutarjimi ham xuddi shunday xatoga yo'l qo'ygan. Asarning milliyligiga zarar yetgan. Shu yerda bilvosita tarjimaning kamchiliklari aniq bilinadi, ya'ni, o'rtadagi matnning kamchiliklari boshqasiga ham ko'chadi.

Keyingi misollarni taniqli o'zbek yozuvchisi, romannavis Asqad Muxtorning "Opa-singillar" romanidan keltiramiz:

Jo'raxon Onaxonning uyiga borar ekan, u bir hovlidan o'tishi bilan ro'paradagi eshikdan charm portfel ko'targan ozg'ingina bir odam chiqib keldi. U o'zi kelib qo'l bermaganida Jo'raxon uni mutlaqo tanimay o'tib ketar edi. Bu odam Naimiy edi:

-*Ayyomlari muborak! Qadamlariga hasanot, xush kelibdilar, xonim! – dedi u tilla tishlarini yaltiratib, **bir qo'lini ko'ksiga qo'yib***

egilib ko'risharkan. (A.Muxtor. Opa-singillar. 67-68):

Ruscha matn (A.Pantiyelev tarjimasi):

- *Благословенный ден! Добро пожаловат в наши края на добрые дела, ханум! – вкрадчиво проговорил он, сверкая золотыми зубами.* (А. Мухтар. Сестры, 51).

Ingliz tiliga D,Skvirskiy tarjimasi:

*Blessed be this day! I am very happy to see you, khanum!" he said **blandly**, flashing gold teeth.* (Askad Mukhtar. Sisters, 63).

Qadamlariga hasanot xush kelibdilar ma'nosida mehmonni qutlash uchun minnatdorchilikni ifodalovchi, unga iltifot ko'rsatuvchi ibora hisoblanadi. Yana **xush kelibdilar**, o'zbeklarda *xonim* deb bir kishiga nisbatan ham fe'lga ko'plik qo'shimchasi, ya'ni **-lar (kelibdilar)** qo'shimchasini qo'shib muomala qilish ham mehmonga bo'lgan cheksiz hurmat belgisi hisoblanadi.

Bunda Ruscha tarjimadagi **вкрадчиво (sezdirmasdan, tilyog'lamalik (muloyimlik) bilan, tulkilik, silliqqina)** [Ruscha-o'zbekcha lug'at, 124] so'zi Naimiy obrazini o'ta salbiylashtiradi.

Xulosa

Tarjima va madaniyatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tarjima madaniyatsiz rivojlanmaydi. Adabiyot, fan va falsafa tarjimonlarning tushunchalariga ta'sir qiladi. Boshqa tarafdin, madaniyat tarjimasiz rivojlanmagan bo'lardi, chunki tarjimalar xalqlarni boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlari bilan boyitadi. (Proshina Z. Theory of translation, 12). Shuni ta'kidlash joizki, mutarjimlar adekvat tarjimaga erishishlari uchun o'zbek xalqi uchun qadriyat hisoblangan so'z va iboralarning tub mohiyatini anglab, ularning qaysi ma'noda qo'llanganini chuqur tahlil qilgan holda tarjima qilganlarida maqsadga muvofiq bo'lar edi va ular yuqoridagi kamchiliklarga yo'l qo'ymagan bo'lar edilar.

Adabiyotlar

Karimov, I. 2011. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat".

Oybek. 1957. Tanlangan asarlar. Uchinchi tom. Navoiy O'zSSR Davlat Badiiy Adabiyot

Айбек. Навои, 1989. М.: Художественная литература.

Aybek. Navoi/ Uzbekistan speaks, 1958. Short stories. / Foreign Languages Publishing House. Moscow.

Bassnett, Susan. 2002. Translation Studies. Third edition. Routledge Taylor & Francis Group. London and New York.

Fayziy, Rahmat. 1954. Povest va hikoyalar /Yangi yil oqshomida/. T.: Uz-davnashr.

Файзи, Рахмат. 1985. В пустыню пришла весна. Повест и рассказы /

- Под новый год/. М.: Советский писатель,
Fayzi, Rakhmat. 1958. New Year's Party/Uzbekistan speaks. Short stories.
Foreign Languages Publishing House. Moscow
Newmark, P. 1988. Approaches to Translation. – New York a.o.: Prentice
Hall.
Proshina, Z. 2008, Theory of translation (English and Russian) 3d edition,
revised Vladivostok Far Eastern University Press.
Muxtor, Asqad. 1955. Opa-singillar. Roman. UzSSR Dablat nashriyoti. T.
Мухтар, Аскад. 1957. Сестры. Советский писатель. М.
Mukhtar, Askad. 1959. Sisters. M.: Foreign Languages Publishing House.
Ruscha-o'zbekcha lug'at, 1983. Ikki tomli. 1 tom. O'zbek Sovet
Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi. Toshkent.

Recreating words about Uzbek hospitality in literary translation

Mukhtasar Abdullaeva¹

Abstract

Literature is a science of man, and therefore its main task is to educate well-behaved, literate and educated people. This is also the task of Uzbek literature, which is considered an integral part of the global literary process. Educating the young generation, turning it into a perfect personality is one of the immortal themes that exist in all eras and in the works of all writers. The highest task of literature is instill in people feelings of kindness and kindness, peace and friendship, tolerance and nobility. Alternative reflection and adequate recreation of these feelings in literary translation also serves to educate people who are perfect in all respects and aspects.

Key words: *translation, hospitality, value, kindness, affection, compassion, dignity, universal values.*

References

- Karimov, I. 2011. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat".
Oybek. 1957. Tanlangan asarlar. Uchinchi tom. Navoiy O'zSSR Davlat Badiiy Adabiyot
Aybek. Navoi/ Uzbekistan speaks, 1958. Short stories. / Foreign Languages

¹ Mukhtasar A. Abdullaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. National University of Uzbekistan.

E-mail: amukhtasar@mail.ru

ORCID ID: 0009-0002-2783-7786

For citation: Abdullaeva, M.A. 2023. "Recreating words about Uzbek hospitality in literary translation". Uzbekistan: Language and Culture, 3 (3): 148-157.

- Publishing House. Moscow.
- Bassnett, Susan. 2002. Translation Studies. Third edition. Routledge Taylor & Francis Group. London and New York.
- Fayziy, Rahmat. 1954. Povest va hikoyalar /Yangi yil oqshomida/ . T.: Uz-davnashr.
- Fayzi, Rakhmat. 1958. New Year's Party/Uzbekistan speaks. Short stories. Foreign Languages Publishing House. Moscow
- Newmark, P. 1988. Approaches to Translation. – New York a.o.: Prentice Hall.
S) Ikki qatorli xiazmlar.

Murakkab jumalalarda bosh va tobe gap, ba'zan ikkita tobe yoki ikkita yonma-yon kelgan gaplar o'z a'zolarining ketma-ket tuzilishiga nisbatan xiazmatik tartibga solingan bo'ladi.

1. Ikki asosiy yonma-yon joylashgan gap.

Le jour passe, et retombe l'élan (Cl. Roy. La Dérobée. p. 87).

Le jour, le hibou se terre dans l'ombre, mais la nuit sort le renard (Le Monde hebdomadaire. No 1029. p. 87).

2. Ikki to'ldiruvchili ergash gap

Il leur semblait d'abord que *leurs sensations se découplent*, que *s'amplifiaient* à l'infini *leurs facultés* de voir et de sentir... (Perec, Choses, p. 93).

3. Ikki aniqlovchili ergash gap

En face de lui s'est arrêtée une petite fille, cinq ans à peine, *dont les cheveux sont blonds et dont brune est la peau*... (Mandiargues, Marge, p. 125).

4. Bosh ergash gapli ergash gap ikkita ergash gap

a. Vaqtinchalik

La fermeté vient quand vient l'accoutumance (Montherlant, Rose, p. 560). Quand *venait le soir*, quand les réverbères *s'allumaient*, l'angoisse du retour me prenait (Peuchemaurd, Nuit, p. 50).

b. Sabab

je souffre comme eux.... non parce que *nous sommes devenus* sionistes ou israéliens, mais parce que *monte en nous un sentiment irrésistible de solidarité* (Le Monde, N 1018, p. 6).

Yuqoridagi tahlillarimizdan ma'lum bo'ldiki ritorik xiazmlarning variantlarida komponentlarining xiazmatik joylashuvi, aniq grammatik vazifani bajarasdan "xilma xillikka intilish, evfonik(ohangdorlik) yoki ekspressiv uyg'unlikka iintilishni kuzatish mumkin. Ritorik xiazmlar ko'proq fransuzcha misollarda aniqlandi va shu jihatdan xiazmning turlari turli tillarda turlicha qo'llanilishiga amin bo'ldik.

Grammatik xiazm - Ikkita ibora yoki ikkita gapning tarkibiy elementlari aniq grammatik vazifani ifodalash uchun xiazmik tuzilmani tashkil qiladi. Funksional jihatdan parallel bo'lgan ikkita frazemaning komponentlari "ikkita ish-harakatning yoki ikkita holatning muntazam almashinishi" deb atalishi mumkin bo'lgan narsani ifodalash uchun xiazmatik tartibni qabul qiladi, ikkita gapning butun leksemalarining xiazmatik tashkil etilishi esa ekspress

“jarayonning funksional o‘zgarishi” uchun majburiydir. Shuningdek qo‘llanilgan so‘zlar bir xil grammatik xususiyatga ega bo‘lsa (ikkita ot, ikkita sifat, ikkita qo‘shimcha va boshqalar) xiazm grammatik deyiladi. Misol tariqasida, Maksim de la Roshfukoning ushbu jumlasini keltirishimiz mumkin:

Biz ko‘pincha *sevgidan shuhratparastlikka* boramiz, lekin biz kamdan-kam hollarda *shuhratparastlikdan sevgiga* qaytamiz., bu yerda barcha atamalar otlardir.

Rasmiy jihatdan grammatik xiazmlar simmetrik holatda bo‘lgan komponentlarning mutlaq o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi.

Le père Grandet reeardait alternativement *l’acte et sa fille sa fille et l’acte* (Balzac, 111, p. 62).

Kichikning kattasi bo‘lguncha, (to‘ldiruvchi+ega +kesim)

Kattaning kichigi bo‘l. (to‘ldiruvchi+ega +kesim) (*Maqol*) 466-bet

Mehmon mezbonga aziz, (ega+to‘ldiruvchi+ot-kesim)

Mezbon – mehmonga. (ega+to‘ldiruvchi) (*Maqol*) 166-bet

Yuqoridagi misollar tahlilidan kelib chiqib, yana shu jihatga e‘tibor qaratishimiz kerakki, xiazm usulida ko‘pincha ega to‘ldiruvchi bilan aniqlovchi esa kesim vazifasidagi so‘z bilan o‘rin almashadi.

Adj1-Adj2 /Adj2-Adj1

Il dit qu’elles les bestioles lui ressemblent: alternativement *obscures et lumineuses, lumineuses et obscures* (Montherlant, La Reine morte, p. 209).

Yigitga **og‘ir** narsa ham **yengil** tuyular,

Keksaga **yengil** narsa ham **og‘ir** tuyular. (*Maqol*) 465-bet

Ushbu keltirilgan misollarimiz sodda gaplardan tuzilgan qo‘shma gap yoki ergash gapli qo‘shma gaplardan iborat bo‘lib, gapning xiazmatik komponentlari sifatlardan iborat. Fransuzcha misoldagi *obscures* va *lumineuses* sifatlari shuningdek o‘zbek tilidagi **og‘ir** va **yengil** sifatlari ham antonimlardan iborat bo‘lib bir qarashda antitek xiazmga ham misol bo‘ladi.

à va de predloglari bilan kiritilgan ikkita bosh to‘ldiruvchi ham “muntazam almashinish”ni ifodalash uchun xiazmatik tuzilmani qabul qiladi.

la conversation animée et tenue à voix basse, **d’oreille à bouche, de bouche à l’oreille**,... (Balzac, VII, p. 215).

Avec quel bonheur ne fit-elle pas les solennelles présentations *du vicomte au chevalier, du chevalier au viconte*. (Balzac, IV. p. 300).

Ushbu misolimizni faqatgina fransuz tiliga xos desak hech

ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki o'zbek tilida predloglar mavjud emas va ularning vazifasini kelishiklar bajaradi. Shuningdek ular fransuz tilidagi predloglar kabi mustaqil qo'llanilmay otlar va olmoshlar bilan birikib ularning aniqlovchisi bo'lib keladi.

Semantik xiazm – Agar atamalar bir xil semantik maydonga ega bo'lsa, biz semantik xiazm deb ta'rif beramiz. Ya'ni, nafaqat estetik g'amxo'rlik bilan bog'liq bo'lgan va grammatik vazifani bajarmaydigan, balki xoch shaklidagi ikkita sintagma semantik nuanslarni ochib beradi. Semantik xiazm, komponentlarning mutlaq o'xshashlik darajasiga ega bo'lgan simmetrik joylashuvi bilan tavsiflanadi.

Il n'était plus *un jeune homme*, bien qu'il fût encore *un homme jeune*... (Maupassant. Contes 1. p. 1066).

une autre Paule, passionnément préoccupée de sa beauté et passant difficilement du rang *de jeune femme* au rang *de femme jeune*;.. (Sagan, Brahms, p. 11).

Shuning uchun semantik xiazm haqiqiy majoziy farqni ko'rsatib keladi. Ko'rsatishning iloji bo'lmasada, bu yerda qonun qiyamatiga ega bo'lgan qat'iy qoida, ko'rinadiki, bu sifatlarning aksariyati otdan keyin qo'yilganda o'zlarining tegishli ma'nosini saqlab qoladilar va undan oldin kelganlarida hosila yoki ko'chma ma'noni oladilar (Le Bidois, Sintaksis II, pp. 82-83).

Ya'ni, nafaqat estetik g'amxo'rlik bilan bog'liq bo'lgan va grammatik vazifani bajarmaydigan, balki xoch shaklidagi ikkita sintagma semantik nuanslarni ochib beradi. Bunga misol qilib, Gyugoning « *Un roi chantait en bas, en haut mourait un Dieu.* » misrasida joylashuvga asoslangan ikkita atama (yuqorida) ta'kidlangan. "*Dieu*" va "*roi* «, bu ayniqsa yuqori raqamlarga ishora qiladi. Keyinchalik bu yaqinlashuv « *chantait* « va « *mourait* « fe'llari o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan yo'q qilinadi, bu esa ma'lum bir yorilishni keltirib chiqaradi, bu xiazm tomonidan ruxsat etilgan ta'sir. Xiazm ham grammatikdir, chunki « *en haut* «, « *en bas* « bir xil tabiatdagi atamalar, shuningdek, « *roi* « va « *Dieu* »

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joizki xiazm ritorik, grammatik, semantik kabi funksional turlarga bo'linadi. Ritorik xiazmlarning komponentlari simmetrik holatda joylashgan, xiazmning bu o'ziga xos varianti ma'lum aniq vazifalarni ko'rsatadi: grammatik xiazmlarda "jarayonning o'zgarishi yoki teskarisi", semantik xiazmlarda obrazli-real farqlanishni kuzatishimiz mumkin.

Adabiyotlar

- Мирзаев И. 1992. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дис. ...д-ра.филол. наук. –Ташкент.
- Мамазияев, О.Х. *Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф.- Т. 2004.*
- Тафаккур дурдоналари. 111 ватандош алломаларимизнинг Ҳикматли фикрлари (Ҳикматли фикрлар). -Т.: «Янги аср авлоди», 2012.
- Чўлпон. Кеча ва кундуз: Роман/[Тўпловчилар: Н. Каримов Ш. Турдиев; Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи О. Шарафиддинов; Таҳрир ҳайъати: Э. Воҳидов ва бошк.]. - Т.: Адабиёт ва санъат нашр.
- Юсуф, Хос Ҳожиб. 2016. Кутадғу билиг /. (2-нашр) - Тошкент: Akademnashr,
- Юсуф, М. 2017. Сайланма: шеърлар, дostonлар, хотиралар.- Тошкент: «Sharq»,
- Morier H. Dictionnaire de poétique et de rhétorique, 2e édition revue et augmentée. Paris : Presses Universitaires de France.1998: 118.
- Marouzeau. J. Dictionnaire de la terminologie linguistique, 1951.

Formal levels and functional types of chiasmus

Zebiniso Bekmuradova¹

Abstract

This article talks about the phenomenon of chiasmus, which has entered linguistics as a rhetorical figure since antiquity and as a stylistic figure since the 19th century. As an object of special research, the construction of chiasmus is considered as one of the practical rhetorical figures that has not been specifically studied, especially in the section of the Uzbek-French languages. Using the example of the Uzbek and French languages, the stylistic coloring used in artistic speech and the formal levels of chiasmic construction, which performs several tasks and is characteristic of all languages, as well as its functional types are considered. It is also divided into rhetorical, grammatical, and semantic chiasmus based on the analysis of various French and Uzbek examples.

¹ Zebiniso E. Bekmuradova – Basic doctoral student of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: bekmurodovazebo@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0003-4314-1009

For citation: Bekmuradova, Z.E. 2023. "Formal levels and functional types of chiasm". Uzbekistan: language and culture. 3 (3): 193-203.

Key words: *chiasm, chiasmatic construction, rhetorical chiasm, stylistic figure, formal analysis, positional analysis, rhetorical figures*

References

- Mirzaev I. 1992. Problemy lingvopoeticheskoy interpretatsii stikhotvornogo teksta: Autoref. dis. ...d-ra.philol. science - Tashkent.
- Mamaziyaev, O.Kh. Chiasm and gradation in Uzbek poetic speech. Philol. Ph.D.... diss. autoref. - T. 2004.
- Masterpieces of thought. 111 Wise thoughts of our compatriot scholars (Wise thoughts). - T.: "New century generation", 2012.
- Shepherd. Night and Day: Novel/ [Collectors: N. Karimov Sh. Turdiev; Responsible editor and foreword author O. Sharafiddinov; Editorial board: E. Vahidov et al.]. - T.: Literature and art publication.
- Yusuf, Khos Hajib. 2016. Kutadgu bilig /. (2nd edition) - Tashkent: Akadem-nashr,
- Yusuf, M. 2017. Selection: poems, epics, memories. - Tashkent: "Sharq",
- Morier H. Dictionnaire de poétique et de rhétorique, 2e édition revue et augmentée. Paris: Presses Universitaires de France. 1998: 118.
- Marouzeau. J. Dictionnaire de la terminologie linguistique, 1951.

Media discourse as a modern way of interpretation of social texts

Diyora Bobonazarova¹

Abstract

The present article deals with the problem of media discourse in modern society. With the growth of population, the interest towards language and science is getting more and more actual, and the new researches done in this particular sphere will play a great role in forming a proper frame in the field of media discourse.

Key words: *media discourse, media linguistics, context, fragment, mass media, world picture.*

Introduction

XXI century is considered to be the century of new technologies and in this new era every single representative of the society comes across to a huge mass of information. Information in this kind of new society is shared differently, though the most important and the most influential is considered to be mass media. Mass media is a kind of weapon, even stronger and more powerful than any one of us is able to imagine about. Every regular day, we are used to watch TV, listen to the radio or simply, read newspapers, and the information we are receiving and its cognition draws colorful pictures in our minds, eventually, we have a clear vision of the consequences that happen around us. By the time passing, mass media is taking its prior positions in society and becoming more and more influential, what caused a great interest to investigate this particular sphere from linguistic point of view. A great number of linguists have dedicated their researches to this field. Consequently, the results of the researches have caused the term of media discourse to rush into the sphere of linguistics.

Media discourse – is one of the most crucial part of media linguistics, object of which is to investigate the function of language in the sphere of mass communication. The term of media linguistics

¹ *Diyora A. Bobonazarova* – Teacher. Karshi State University,

E-mail: diyora.bobonazarova@mail.ru

ORCID ID: 0009-0003-3087-9351

For citation: Bobonazarova, D.A. "Media discourse as a modern way of interpretation of social texts". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (2): 204-210.

has been implied by T. G. Dobrosklonskaya, where she has signified the term as the specifically new scientific branch.

If we focus on division of the word “media discourse” into two, we may clearly see that subsequently there turns out to be two terms – ‘media’ and ‘discourse’; while ‘media’ is from Latin ‘medium’ – mediator, with a broad meaning including means of communication, ways of sharing information, as well as the creation of the corresponding sphere. [1:15] On the other hand, ‘discourse’ is similarly derived from Latin ‘discursus’ – action, conversation or talk, and is interpreted as speech, speech type, text and text type. Nevertheless, initially, the term ‘discourse’ was used in French as speech or text generally. [1:15]

“Media discourse” – is functionally stipulative type of discourse, which is recognized either as a bunch of speech practice or a product of speech evaluation in sphere of mass media in all means of its richness and complication throughout their correlation”. [1:22] Due to this we may acknowledge media discourse as connected, verbal or non-verbal, oral or written text with pragmatic, socio-cultural, psychological factors, expressed by mass media communication and analyzing this type of discourse, it will be obvious that only the materials from the sphere of informational mass media will be implied.

As it was mentioned above, with the development of mass media and its flourishing, everybody has focused on media discourse, eventually, this sphere has become much observed and controversial. This particular sphere is quite new, reflecting informational field of mass media, enlarging its core, mostly forming influence to various social group of auditory. We may mention about a different type of cognition on media discourse, due to the cognitive functions of an informant, the characteristics of the auditory, which is perceiving this information, as well as the linguistic and extralinguistic strategies of information given in texts. According to these features, we may differentiate such points as:

- discourse of ‘qualified press’;
- discourse of popular press (yellow magazines);
- discourse of specialized press (scientific and scientific-popular magazines).

These presses vary from each other due to cognitive flexibility of informer, as well as the ability of perception by auditory, consequently, by various means of information delivery in core of the text.

Discourse is much more flexible for changes. Due to global tendencies, it is obvious that the language development of publicist

presses and the amount of stylistically colored words used in this sphere takes the great average, while the growth anomaly in texts reach the considerable point as well.

In modern society media discourse shows a considerable change in tactics of its users, which serves as well as the basis of its research due to pragmatic-cognitive aspects. Traditional public dialog that had a previously set norms, initially served as a completely formed monologue. Eventually, it has formed a clearly functioning dialog between two people in media communication.

Consequent changes in social conditions are followed by new psychological structure in speech usage of our contemporary user. More and more words are being used to clarify the initial thoughts of the informer as well as the recipient. The words that had a clear meaning initially are being supplied by the ones that have an opaque visualization, which affects the old norms set initially, and activate the developing mechanisms set in language; active usage of extralinguistic opaque words are being normal in the usage of not only informal, but also in formal press, mass media. Activation of the mechanisms in the usage of free structuring discourse, changing of the syntactic order of the speech, change in the oral intonation causes popularity of informal usage in language. In this specific point, we have to note that the recipient of the modern communication is being not only a particular individuum, but the whole group of people, whose members are having similar socio-cultural characteristics. The model of the world in collective mind owns a regulative character – a group behavior is taking a prior position in setting the norms. “The process of communication in mass media is evaluated due to its historical period and the social condition of population, at the same time it serves to formulate social structures, presenting the system of values in particular social groups, as well as representing the attitude among these groups”. [3:45]

Nowadays every individual in the planet is capable to express their individuality, and due to efforts of Internet, they have an open access to express their thoughts freely, to form a various type of discourse and media discourse (in personal blogs, informative portals, forums, sites, internet socials and social media etc.) Nevertheless, the state of reality may be put under doubt – the objectivity of the information is not always real, while you are not able to have a guarantee whether the received information is trustworthy or only the visual imagination of the informer – apart from formally accredited mass media, in this case it can be supplied as propaganda or scien-

tific mistake.

Due to all the said above, we have to note Teun van. Dijk's regular point of view where he shares with such thoughts on news discourse, signifying that 'discourse is a communicative action between an informer and a recipient in the process of communication in means of particular time, space and in other contexts. This communicative action can be either oral or written, containing verbal and non-verbal composition' [1:52]. In his recent works the author signifies the following type of analysis as discourse analysis for news or the discourse of a special type, taking into consideration the media communication as the cognitive and social aspects of journalistic activity. As for media text, it would be quite constructive to note the conception of T. G. Dobrosklonskaya, who estimates media text to be 'restrictive combination of verbal units and media types' [4:2]. The author of the present concept gives a specific parameters of media text combining both traditional verbal actions and traditional discursive aspects, which are difficult to match for either media text and media discourse: "1. Ways of text developing; 2. Types of forming (oral or written); 3. Ways of producing (oral or written); 4. Channel for sharing (mass media – newspaper, radio, television, Internet); 5. Functional genre of the text (news, comments, advertisements); 6. Thematic dominance or the relation to this or that source of media text". [3:34] It is obviously clear that the parameters of speech production can be considered as a textual, while the means of production due to thematic dominance can be considered as discursive. At the same time, all the above numbered parameters are observed as one unique indivisible media speech that is known under the name of media text, though there are clear observance of patterns of media discourse.

The analysis of media discourse is based on world image or picture of world and the perception of the information i.e., "world image" that we visualize in our mind is based on general social, historical and cultural, psychological knowledges which we obtain through the whole period of our life. These knowledges take name as extralinguistic knowledges.

Now, we would like to draw your attention to the clear example from the authentic media discourse, how it does posses itself and what is the role of the given information in the authentic material: "According to an email sent Monday from UC Berkeley student affairs, all residential hall students must leave their room as little as possible and wear a face covering in all common areas" [9]. Analyzing the giv-

en peace, we may see that the information is based on a specific document, it means that there is a particular letter that serves as a basis for the informant, due to which he makes a statement. 'According to an email sent on Monday...' – this extract of the context is given in past tense, due to which we may suppose that the given information is being announced in the middle of the week, as it says to receive the letter on Monday. Next extract says '...from UC Berkeley student affairs...' – according to the authentic material, we may see the initials for the University of California. In this case, for having a proper perception of the given information, our extralinguistic knowledge – all the knowledge we acquire throughout our life, will be very helpful. Berkeley is a city on the eastern shore of San Francisco (California), and the university mentioned above is in Berkeley and specializes in technical science. Relying to our extralinguistic knowledges, we may say that UC stands for the University of California in Berkeley. The last extract of the context sounds as '... all residential hall students must leave their room as little as possible and wear a face covering in all common areas'. Generally, the perception of the given extract seems to be not so complicated, but if we dig deeper, we may have a question as 'why the students must leave their room as little as possible and why should they have coverings on their faces?' If this information from the newspaper "Daily Californian" will be read by someone after twenty years, this info may cause a deep confusion in his or her perception. In this particular case, again our extralinguistic knowledges will serve a great help. The given extract is warning about the presence of the virus COVID-19, where you are obliged to follow strict rules for avoiding its contagious behavior, consequently, we may have a clear visualization of the information, where the whole world had to follow all the quarantine measures, by keeping social distance or wearing covering masks to avoid contamination. The clear call in message is forcing us to be alarmed and keep all the quarantine measures properly.

One of the most crucial aims of discourse is that it signifies the presence – explaining all the regulation of the informant, the effect to the minds of recipient, measure of the correspondence, foreseeing of all the actions and etc. Media discourse gives a clear explanation on what may happen or on what a recipient may form his or her suppositions. The objective sphere is formed due to the means of expressions. Nowadays the sphere of media discourse is found to be interesting as well as important for a huge number of researchers. 'The crucial part of informational analysis in media takes

place in the conception of mass media discourse, which is taking its highest ranks for the last several years' [3:62]. Making a conclusion, it would be very important to note that this sphere of linguistics is becoming extremely actual and the future results of researches in the sphere will cause a huge interest towards the field of media discourse, which may cause scientific discussions and important conclusions may follow due to this sphere among researches throughout the whole world. It would be very essential for one more time to note that the sphere of media discourse is considered to be one of the modern ways of analysis in linguistics and researches done in this particular sphere may serve extremely influential in broad linguistic sphere! Clearly known fact that the foreign language learners and researches may have appropriate investigations in this sphere and may face some difficulties in interpretation of the gathered information, linguistics methods and analyses given in the article may serve its best for this occasion.

References

- Teun van Dijk: "Discourse, context, cognition" 2006;
- Babayan, V. N. Diskurs kak slozhnyy kommunikativnyy fenomen [Tekst] / V. N. Babayan // Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta. - Kostroma, 2006;
- Dobrosklonskaya, T. G. Massmediynnyy diskurs kak ob"yekt nauchnogo opisaniya. Nauchnyye vedomosti Belgorodskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Gumanitarnyye nauki. – M.: 2014;
- Dobrosklonskaya, T. G. Medialingvistika: sistemnyy podkhod k izucheniyu yazyka SMI [Tekst] / T. G. Dobrosklonskaya. – M.: 2008;
- Duskayeva L. R. Medialingvistika v Rossii: lingvopraksiologicheskaya dominanta // Medialingvistika. 2014. Vyp. 1. URL: <http://medialing.spbu.ru/part10/58.html>;
- Kazak M. YU. Sovremennyye mediateksty: problemy identifikatsii, delimitatsii, tipologii // Medialingvistika. 2014. № 1 (4). URL: <http://medialing.spbu.ru/part10/58.html>;
- Karsavin I. T. Tekst. Diskurs. Kontekst: vvedeniye v sotsial'nyuyu epistemologiyu yazyka. M.: Kanon+, 2008;
- Kozhemyakin Ye. A. Mediadiskurs // Sovremennyy diskurs-analiz. 2010. Vyp. 2, t. 1. URL: http://discourseanalysis.org/ada2_1.pdf;
- "The Daily Californian" 2020, February 20.

Mediadiskurs – interpretatsiyaning yangicha usuli sifatida

Diyora Bobonazarova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatimizda mediadiskursning tutgan roli haqida fikrlar bildirilgan. Jamiyatimizda insonlarning soni o'sishi bilan til va ilmga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, bu sohalar nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va shu soha bo'yicha bajarilayotgan ishlar mediadiskurs sohasida amalga oshirilayotgan ilmlarda as qotadi.

Kalit so'zlar: *media diskurs, media lingvistika, kontekst, fragment, mass media, dunyoviy manzara.*

Adabiyotlar

- Teun van Dijk: "Discourse, context, cognition" 2006;
Бабаян, В. Н. Дискурс как сложный коммуникативный феномен [Текст] / В. Н. Бабаян // Вестник Костромского государственного университета. - Кострома, 2006;
Добросклонская, Т. Г. Массмедийный дискурс как объект научного описания. Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки. – М.: 2014;
Добросклонская, Т. Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ [Текст] / Т. Г. Добросклонская. – М.: 2008;
Дускаева Л. Р. Медиалингвистика в России: лингвопраксиологическая доминанта // Медиалингвистика. 2014. Вып. 1. URL: <http://medialing.spbu.ru/part10/58.html>;
Казак М. Ю. Современные медиатексты: проблемы идентификации, делимитации, типологии // Медиалингвистика. 2014. № 1 (4). URL: <http://medialing.spbu.ru/part10/58.html>;
Карсавин И. Т. Текст. Дискурс. Контекст: введение в социальную эпистемологию языка. М.: Канон+, 2008;
Кожемякин Е. А. Медиадискурс // Современный дискурс-анализ. 2010. Вып. 2, т. 1. URL: http://discourseanalysis.org/ada2_1.pdf;
"The Daily Californian" 2020, February20.

¹ Bobonazarova Diyora Alisherovna – Qarshi davlat universiteti ingliz tili o'qituvchisi.

E-pochta: diyora.bobonazarova@mail.ru

ORCID ID: 0009-0003-3087-9351

Iqtibos uchun: Bobonazarova, D.A. "Mediadiskurs – interpretatsiyaning yangicha usuli sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (2): 204-210.

Muallif mushohadasi terminining mohiyatini aniqlash

Shaxzoda Xamroyeva¹

Abstrakt

Tilshunoslikka antroposentrik yondashuv orqali kognitiv yoʻnalish vujudga keldi. Syujetdan tashqari element hisoblangan muallif oʻy-xayollarini aks ettiradigan muallif mushohasini kognitiv tahlilga tortish maqsadida, ushbu maqolada muallifga ishora qiladigan terminlarning adabiyotshunoslik va tilshunoslikda qoʻllanishi oʻrganib chiqildi. Shuningdek, muallif mushohadasining mohiyati keng koʻlamda ochib berildi.

Kalit soʻzlar: *syujetdan tashqari element, muallif chekinishi, lirik chekinish, muallif mushohadasi, remarka, sharh.*

Kirish

XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida olimlarning diqqat markazida turgan masalalardan biri matn muallifining “shaxsiyat-i”ni tahlil qilish edi [Капайлов 1989, 264]. Badiiy nutq muallifning diskursiv shaxsini belgilab, badiiy makon va zamonning maʼlum chegaralarida muallif olamining subyektiv manzarasini anglashga yordam beradi [Толчеева].

Badiiy asar tuzilishida ishtirok etadigan shunday elementlar borki ular voqealar rivojiga taʼsir koʻrsatmaydi, koʻpincha syujet bilan zaif yoki sof rasmiy aloqaga ega boʻlgani uchun asar kompozitsiyasidagi *syujetdan tashqari elementlar* deb ataladi. Aynan mana shu qism muallifning mulohazalarini ifodalab asar mazmunining yanada chuqur ochib berilishida muhim rol oʻynaydi. Badiiy adabiyotda muallifga ishora qiladigan *muallif remarkasi* va *muallif kommentariyasi*, *muallifning chekinishi* yoxud *muallif ogʻishlari* kabi atamalar qoʻllanilsa, lingvistik nuqtayi nazardan esa *muallif mulohazasi*, *muallif fikrlashi* yoki *muallif mushohadasi* singari iboralar bilan ifodalaniishi mumkin.

Adabiyotlarda shu kabi muallifning lisoniy olami manzarasini ochib beradigan hodisalarga nisbatan ishlatiladigan atamalar xilma-xil boʻlib, ularning adabiyotshunoslik va lingvistikada qoʻlla-

¹ Xamroyeva Shaxzoda Ikromovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: shkhamroeva@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-9109-735X

Iqtibos uchun: Xamroyeva, Sh.I. 2023. “Muallif mushohadasi terminining mohiyatini aniqlash”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 211-218.

nish ko'lamini ham farqlidir. Shu sabab avvalo, adabiyotshunoslikda muallifga ishora qiladigan syujetdan tashqari elementlar va ularning ifodalanishiga nazar solish joizdir. Zero muallif eksplisit tarzda namoyon qiladigan unsurlarni badiiy adabiyotda o'rganmasdan turib, ko'plab lingvistik hodisalarni tushunish va tushuntirish qiyin. Shunday elementlardan biri muallif tomonidan kiritiladigan asar syujeti, voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatmaydigan *muallif remarkasidir*. Remarka dramatik asar kompozitsiyasida uchraydi va asarda voqea kechayotgan joy, vaqt, sahnadagi dastlabki holat kabilar haqida ma'lumotlar bergani sabab muhim g'oyaviy-estetik ahamiyatga ega deyish mumkin. Zero, ular shunchaki sahnalashtiruvchi rejissyor yoki bezakchi rassomga mo'ljallangan yo'riqnoma bo'lib qolmay, balki eng avval o'quvchiga sodir bo'ljak voqea mohiyatiga kirish, ishtirok etuvchilar haqidagi (ijtimoiy maqomi, turmush tarzi, fe'li) ilk tasavvurlarini konkretlashtirishda yordam berishga safarbar etilgandir. Jahon adabiyotshunosligida ushbu tushuncha remarka (ba'zan muallif remarkasi) tarzida qo'llanib, o'zbek adabiyotshunosligida olim D.Quronov tomonidan ***muallif qaydlari*** deb ifodalanadi. Olimning fikriga ko'ra remarka deganda ko'proq personaj nutqi bilan bog'liq bo'lgan va dialoglarda kiritma konstruksiya o'laroq qavs ichida beriluvchi qaydlarni tushunish ham ancha keng ommalashgan bo'lib o'zbek adabiyotshunosligida terminning shu ma'nosi faolroq va shu sabab olim muallif qaydlari istilohini qo'llagan. Negaki, voqeaning kechishi bilan bog'liq bo'ladimi yo personaj nutqi bilanmi, bundan qat'i nazar, gap kuzatuvchi maqomida turgan muallifning qaydlari haqida bormoqdaki, ular funksiyasi jihatidan ham o'xshash - ikkisi ham **mohiyatga yo'naltirishga** xizmat qiladi. Shunga ko'ra, muallif qaydlarining ikkala turini umumlashtirib remarka termini bilan atash asosli bo'lish bilan birga qulay hamdir [Quronov 2018, 214].

Muallif remarkasi va muallif kommentariyasi atamaları tuzilishi jihatidan juda qisqa bo'lib, tushuntirish va aniqlashtirish vazifasini bajarishi bilan muallifning chekinishlaridan farqlanishi kerak. Qolaversa, olimlar ta'kidlaganidek, muallif remarkasi badiiy asarga birovning nutqini kiritish va sharhlashda qo'llaniladi. Badiiy matndagi remarkaning ajralib turadigan xususiyati uning to'liq emasligi, qisqaligi, personajlar nutqiga ma'no qo'shishidir [Kykyeva 2021, 67]. Muallif chekinishlariga kelsak, ular, aksincha, muallifning rivojlangan va to'liq xarakterdagi fikrlarining ifodasidir. Bu borada adabiyotshunos olim D.Quronov o'zining "Adabiyotshunoslik lug'ati" da ushbu hodisaga ***muallif chekinishlari*** yoki ***avtor chekinishlari*** tarzida izoh berib o'tgan. Uning fikriga qaraganda,

muallif chekinishlari epik asarlarning matniiy unsurlaridan biri bo'lib, syujet voqealari bayoni (rivoya)ni to'xtatib, muallifning o'quvchiga bevosita murojaat qilishi yoki falsafiy, publististik, lirik, adabiy-tanqidiy va shu kabi masalalarda mushohadaga berilishidir [Quronov va b. 184]. Shuningdek, bir qator adabiyotshunos olimlar (D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva)ning fikriga ko'ra an'anaviy tarzda qo'llanadigan *lirik chekinish* atamasi mazkur tushunchaning bir qisminigina qamrab oladi. Ya'ni lirik chekinishlar ham mohiyatan muallif chekinishining bir ko'rinishi sifatida qaraladi. Ba'zi adabiyotlarda esa, jumladan, "Adabiy atamalar lug'ati"da muallif chekinishlari va lirik chekinishlar turli hodisalar sifatida qaralib, qo'shimcha mulohaza qilishga undaydi. Shundan kelib chiqqan holda, quyidagi ta'riflar taklif etiladi: muallifning chekinishi - «hikoyaviy asarlarning eng ko'p uchraydigan syujetdan tashqari tarkibiy qismi», *lirik chekinish* - «muallif voqealarni to'g'ridan-to'g'ri syujet asosida taqdim etishdan chetga chiqib, sodir bo'layotgan voqealarga sharh beradigan yoki asarning asosiy yo'nalishi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan mavzular bo'yicha fikr yuritadigan hikoyaning bir qismi» lekin aynan shu o'rinda muallif asar voqealariga nisbatan o'z kechinmalari, mulohazalarini aks ettirgani bois lirik chekinishlarni ham muallif chekinishining bir ko'rinishi degan fikrga qo'shilamiz.

Shunday qilib, asarda lirik qahramon qo'qqisdan yurilayotgan asosiy yo'ldan biroz chetga chiqqanday bo'lib, kutilmagan bir fikr yoki mulohazani aytadi, bayon yo tasvirni kiritadi, ilmiy tilda ifodalaydigan bo'lsak, nimagadir simpatiya yoki antipatiasini bildirib muallif chekinishini hosil qiladi. Asarlarda muallif chekinishlarning katta o'rni borligini ko'plab adabiyotshunos olimlar (M.B.Xrapchenko, Yu.M.Lotman, Yu.N.Tynyakov, T.I.Silman va boshqalar) qayd etib, ularni muallifning o'zini o'zi ifodalashning eng muhim vositasi, lirik ovozi deb hisoblaganlar. Tarixga nazar solsak, syujetdan tashqari unsur hisoblanmish "muallif chekinishi" termining birlamchi kelib chiqishini, ushbu elementning ildizini mumtoz adabiyotdagi "begona bayt" tushunchasida ko'rish mumkin. Adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, g'azalda oxirgi bayt (maqta') dan oldin ba'zan keyin keladigan baytda lirik chekinish qilib, "begona bayt" deb ataladigan qo'shmisra kiritish mumkin. "Begona bayt" ning syujetdan tashqari elementlarga o'xshash sababi shundaki, u g'azalning oldin kelgan baytlaridagi umumiy tasvir yoki bayonga bevosita bog'lanmasligi, nisbatan erkinroq fikr-mulohazani ifodalashi mumkin. Shoir "begona bayt" da ham oldingi baytlar umumiy ma'no-mazmuni imkon bergan darajada, qaysidir ma'noda ulardan kelib chiqib lirik

chekinish qiladi. Bu haqida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov so'zlari bilan aytganda, "bu baytda shoir kimni maqtagisi kelsa, maqtaydi, kimni yomon ko'rsa, undan alamini oladi, g'azal umum yo'nalishiga u qadar bog'lanmaydiganroq gapi bo'lsa ham, shu yerda aytib qoladi". Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda asosan epik asarlarda uchraydigan muallif chekinishining dastlabki ko'rinishi mumtoz lirik adabiyotiga borib taqaladi. Zotan, muallif chekinishlari ham muallifning asardagi hayot, qahramonlar tasviri bilan bog'liq his-tuyg'ulari va fikrlari ifodasidir. U kitobxonni asarga yangicha qarashga, muallifning g'oyaviy niyatiga chuqurroq kirib borishga majbur qiladi. Yozuvchi asarga "bostirib kirib", obrazli tasvir yaxlitligini buzadi, harakat rivojini sekinlashtiradi, shunday bo'lsada chekinish tabiiy ravishda asarga kirib boradi va badiiy obrazlar kabi tuyg'u bilan sug'oriladi.

Ba'zi hollarda muallif chekinishiga kommentariyaning bir turidek qaraladi. Muallif kommentariyasi (sharhi) – muallif va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqotning dastlabki kommunikativ holatini tiklaydigan birlikdir. M.A.Yegorovanning fikriga ko'ra muallif kommentariyasi voqeani aniqlashtirish yoki tushuntirish uchun ishlatiladi [Егорова 1984]. Bu borada M.M.Baxtin muallifning chekinishi – muallif kommentariyasining estetik shaklidir deb ta'kidlagan. Plexanova T.F. [6, b.6,11,14] esa muallifning chekinishlari matn kompozitsiyasining elementi, deb hisoblaydi, ya'ni asarda tasvirlangan manzara va obrazlarga muallifning sharhi deb qaraydi. Muallif matndagi voqealar rivojini to'xtatib, adresat bilan (ba'zan badiiy qahramon bilan) to'g'ridan-to'g'ri suhbatga kirishishi, tasvirlangan voqealarni baholashi, o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda etishi mumkin.

Muallifning chekinishini Novojilov K.R. [5, 66, 68-betlar] **bashorat qilishni buzish** shakllaridan biri deb nomlaydi, chunki ular badiiy qonuniyatlar olamidan real qonuniyatlar olamiga tushishni anglatadi, bu esa asarning an'anaviyligini buzishga olib keladi degan fikrni ilgari surdi.

Shunday qilib, muallif chekinishi faqat matnda uning tarkibiy komponenti sifatida mavjud bo'lib uning mazmuni va lisoniy xususiyatlari hikoyadagi qahramonlarning birortasi bilan bog'liq emas: bu kirish so'z bilan personaj nutqi o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q. Muallif chekinishlari tuzilishi jihatidan har xil bo'lib, asosan badiiy asarlarga xosdir. Badiiy matnning bir qismi sifatida muallif mushohadasini o'rganish o'nlab yillar mobaynida davom etayotganiga va tilshunoslikning ushbu sohasida sezilarli natijalarga erishilganiga qaramay, muallif cheklanishining badiiy butunlik tizimidagi maqomi

masalasi ochiqlicha qolmoqda. Muallif chekinishining xususiyatlarini aniqlash dolzarbligi lingvistik va ilmiy adabiyotlarda ushbu hodisaning noaniq talqinlari bilan belgilanadi.

Ushbu adabiy hodisaga lingvistik jihatdan yondashganda uni o'zbek tilida *muallif mushohadasi*, *muallif mulohazasi* yoxud *muallif fikrlashi* singari iboralar bilan ifodalash mumkin.

Ingliz tadqiqotchisi Galperin muallif meditatsiyasi ("author's mediation") izohini keltirgan. Rus adabiyotlarida ushbu atama *авторские размышления* (muallif mushohadasi), *рассуждение* (muallif mulohazasi) и *отступления* (muallif chekinishi) tarzida namoyon bo'ladi. Ushbu atamalar bir-biriga juda yaqin tursa-da, lingvistik tadqiqotlarda "авторские размышления" ya'ni "muallif mushohadasi" atamasi muallifning fikrlarini ifodalashga qaratilganligi sababli "muallif chekinishi"ga qaraganda adekvat hisoblanadi. Muallif mushohadasi badiiy diskursda eng muhim vazifani bajaradi, ya'ni asarning g'oyaviy-falsafiy mohiyatiga chuqurroq kirib borishga yordam beradi va muallif nuqtai nazarini ifodalaydi [Normurodova, 47].

Tadqiqotlarni tanqidiy o'rganish davomida adabiyot va lingvistikada muallifga ishora qiluvchi atamaslar turli xil ekanligiga guvoh bo'ldik. Va biz badiiy diskurs tavsifidan kelib chiqqan holda "muallif mushohadasi" atamasini o'rinli deb hisoblaymiz. Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek va ingliz tili qiyosida muallif mushohadasi kognitiv jihatdan yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shu sabab ushbu ilmiy ishda ingliz va o'zbek badiiy asarlaridagi muallif mushohadasining lingvo-kognitiv xususiyatlarini yoritib tahlil qilishni maqsad qilingan.

Lug'at yozuvlarida muallif chekinishi "epik yoki liro-epik asardagi muallif nutqi", "muallif nutqining shakli; muallif muallifning so'zi", "asarda tasvirlangan narsalar bilan bog'liq holdagi muallif tomonidan his-tuyg'ular va fikrlarning ifodasi", "muallifning to'g'ridan-to'g'ri syujetli hikoyadan chetlanishidan iborat kompozitsion va stilistik vosita; muallif nutqi, mulohazalari, bayoni". Ensiklopedik lug'atlarda berilgan izohlar, tasvirlar, bizning nazarimizda, badiiy matndagi muallif mushohadasi maqomi haqida to'liq bo'lmagan fikrni beradi, chunki u muallif nutqining shakli, stilistik vositasi sifatida talqin qilinadi, ya'ni uning faqatgina nutqiy-stilistik mohiyatiga urg'u beriladi. Ba'zi tadqiqotchilar, masalan, E.A. Goncharova, mualliflik mushohadasini o'rganayotganda, uning grammatik mohiyatini ta'kidlaydi va mualliflik mushohadasi deaganda "matn kompozitsion tarkibida muallifning o'z fikrlari va his-tuyg'ularining

bevosita ifodasi bo'lgan, u yoki bu tarzda badiiy asarning umumiy g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan qismlarini" tushunadi."

Ensiklopedik adabiyotda yozuvchining mushohadasida muallifning so'zi "voqealarning syujet tasviridan" chalg'iganligi qayd etilgan, bu esa hikoyaning kechikishiga olib keladi, bundan tashqari, muallifning chekinishdan maqsadi – asar voqealarini sharhlash va baholash sifatida ko'rsatiladi.

Grammatik ifoda plani muallif mushohadasini murakkab sintaktik butunlik va paragraf bilan bog'lash va taqqoslash imkonini beradi, buning natijasida muallifning chekinish xususiyatlarini nafaqat nutqning o'ziga xos shakli, balki badiiy matnning **kompozitsion-semantik komponenti** sifatida aniqlash imkonini beradi.

Tilshunoslik va ensiklopedik adabiyotlarda qayd etilgan muallif mushohadasining xususiyatlari MSB (murakkab sintaktik butunlik) va paragraf bilan solishtirganda mualliflik mushohadasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. A.N.Vasilevaning ta'kidlashicha, muallif mushohadasi shakl bo'yicha "bitta ibora yoki butun tarixiy-publististik boblar" bo'lishi mumkin, ya'ni u bir nechta paragraflardan iborat bo'lishi, paragrafga mos kelishi yoki uning bir qismi bo'lishi mumkin.)

Badiiy hikoyada muallif mujassamlanishining lingvistik aspekti ikkita muhim jihatni o'z ichiga oladi: muallif ma'lum bir madaniy va ijtimoiy tip sifatida va muallif shaxs, individual sifatida. Muallif mushohadasi badiiy matnning kompozitsion tarkibiy qismlariga tegishli bo'lib, unda "muallif lisoniy omilining shaxsiy individual momenti ochiladi, matnning, masalan, uning syujet dinamikasi uchun muhim bo'lgan kompozitsion komponentlarida esa, hikoya monologi ko'proq ma'lum bir "madaniy-ijtimoiy" turga tortiladi.")

A.N.Vasilevaning fikricha, muallif mushohadalarida nutqning badiiy tuzilishi ustunlik qiladi, bu ularning ko'tarinkiligi va yozuvchini analitik fikrining o'zining murakkabligi bilan bog'liq bo'lib, bu yerda mujassamlashgan holda berilgan". Stilistik xususiyatlarni tahlil qilish esa muallif mushohadasini matnning mutlaq ekspressivlikka ega bo'lgan kompozitsion komponentlariga bog'lash imkonini beradi.

A.N.Vasiliyeva muallif mushohadasini analitik va emotsional turlarini ajratib ko'rsatadi va ularni quyidagicha tavsiflaydi: "Nutq tuzilishi jihatidan analitik xilma-xillik gazeta-jurnalistik nutqning ekspressiv-publististik uslubiga yaqin. Mantiqiy-kontseptual va emotsional-ekspressiv boshlanishlarning mantiqiy-kontseptualning ustunligi bilan uyg'unlashuvi nutq tarkibida ham o'z aksini topadi. Emotsional xilma-xillik hissiy va ekspressiv funksiyalarni bajaradi-

gan nutq elementlarining o'ziga xosligini ifodalaydi: epitet, metafora, majoziy taqqoslash, parallelizmlar, takrorlar, ritorik savollar, murojaatlar, ritm, hissiy intonatsiya.

E.A.Goncharova muallif mushohadasining ekspressivligi haqida gapirar ekan, ifodaning mantiqiy va emotsional yo'nalishini alohida ta'kidlab, mantiqiy ekspressivlik "tasvirlanayotgan syujet voqeasining mazmun-ratsional tomonini" chuqurlashtirishini va "birinchi navbatda o'quvchi intellektiga" murojaat qilishini, emotsional ekspressivlik esa nutqni faollashtirishga qaratilganligini ta'kidlaydi". Tadqiqotchi muallif mushohadasining yana bir semantik-funksional xususiyatini – "ulardagi bayon monologining dialogik yo'nalishning ma'lum mazmun va tilning siqilishi tufayli kuchayishi uni ifodalash demakdir" deb qayd etadi. Tilshunos ta'kidlashicha, dialogik yo'nalish «badiiy asar muallifi-ijodkori pozitsiyasini ham, o'quvchi pozitsiyasini ham tushuntirishni» o'z ichiga oladi. E.A.Goncharova esa e'tiborni shu narsaga qaratadiki, muallifning individual muallif lahzasining cheklashi va lingvistik jihatdan o'quvchiga nisbatan yo'naltirilganligi adabiy matnning ushbu kompozitsion-semantik birligi "epik hikoyani intimizatsiyalashning stilistik usullari"ga tegishli ekanligini belgilaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchining mushohadasida muallifning so'zi voqealarning syujet tasvirini ma'lum miqdorda to'xtatgani yoki sekinlatadi bu esa hikoyaning kechikishiga olib keladi. Muallifning chekinishdan maqsadi esa asar voqealarini sharhlash va baholash, hamda asarning tub mohiyatini ochib beruvchi falsafiy qarashlarini taqdim etishdir deyish joizdir. Badiiy adabiyotda muallifga ishora qiladigan muallif remarkasi va muallif kommentariyasi, muallifning chekinishi yoxud muallif og'ishlari kabi atamalar qo'llanilsa, lingvistik nuqtayi nazardan esa muallif mulohazasi, muallif fikrlashi yoki muallif mushohadasi singari iboralar bilan ifodalanishi mumkin. Biz terminlar qo'llanishini atroflicha o'rganib chiqib lingvokognitiv tahlil nuqtai nazaridan "muallif mushohadasi" termini eng adekvat degan xulosaga keldik.

Adabiyotlar

- Quronov, D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. ToshDO'TAU. – Toshkent: Akademnashr.
- Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. 2010. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Sharq.
- Егорова, М. 1984. Типология со стилистические функции внутритекстовых авторских комментариев. Текст как объект комплексного анализа в ВУЗЕ.

- Normurodova, N. 2020. "Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе" dissertatsiya.
- Новожилова, К.Р. 1989. Вводные текстовые единства, или авторские отступления, и их функционирование в художественном тексте – Иваново.
- Кукуева, Г.В. 2001. Авторская ремарка как средство выражения авторской стратегии в диалоге с читателем. Текст: структура и функционирования. – Барнаул.

Definition of the essence of the term author observation

Khamroeva Shakhzoda¹

Abstract

A cognitive orientation was created through an anthropocentric approach to linguistics. In this article, the use of terms referring to the author in literary studies and linguistics was studied in order to draw the author's observation, which reflects the author's thoughts, which is considered an element outside the plot, into cognitive analysis. Also, the essence of the author's observation was revealed to a large extent.

Key words: *extra-plot element, author mediation, lyrical retreat, author's observation, remark, comment.*

References

- Quronov, D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. ToshDO'TAU. – Toshkent: Akademnashr.
- Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. 2010. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Sharq.
